

Z.A.TESHABOYEV

O‘QUVCHILARNI KASB- HUNARGA YO‘NALTIRISH



Farg‘ona – 2022

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI

**FARG‘ONA VILOYATI PEDAGOGLARNI YANGI
METODIKALARGA O‘RGATISH MILLIY MARKAZI**



O‘QUVCHILARNI KASB- HUNARGA YO‘NALTIRISH

**Umumiy o‘rta ta’lim maktablari texnologiya fani o‘qituvchilari,
texnologiya fanini o‘qitish huquqini berish bo‘yicha kasbiy qayta
tayyorlash kursi tinglovchilari uchun
o‘quv qo‘llanma**

Farg‘ona – 2022

UO‘K: 373.091.313:331(075.8)

KBK: 74.200.52ya73

T 45

Teshaboyev Z.A. O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish: umumiy o‘rta ta‘lim maktablari texnologiya fani o‘qituvchilari, texnologiya fanini o‘qitish huquqini berish bo‘yicha kasbiy qayta tayyorlash kursi tinglovchilari uchun o‘quv qo‘llanma. – Farg‘ona, “Classic” nashriyoti – 2022.

Mazkur o‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirining 2022-yil 20-apreldagi “Davlat ta‘lim talablarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 121-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan Xalq ta‘limi tizimi rahbar, pedagog va mutaxassis xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta‘limining mazmuni va sifatiga qo‘yiladigan davlat ta‘lim talablari hamda 2022-yil 17-oktabrdagi “Xalq ta‘limi tizimida oliy ma‘lumotli pedagog kadrlarni kasbiy va pedagogik qayta tayyorlash kurslarini takomillashtirish va o‘quv-me‘yoriy hujjatlarni ishlab chiqish samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi 321-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan texnologiya fanini o‘qitish huquqini berish bo‘yicha kasbiy qayta tayyorlash kursining tayanch o‘quv rejasi va namunaviy o‘quv dasturi asosida yaratildi. Unda kasb-hunarga yo‘naltirish asoslari, kasb tanlashga yo‘llashning mazmuni, kasb tanlashga yo‘naltirishning tarkibi, uning tuzilishi, vazifalari va unga bo‘lgan zamonaviy yondashuvlar hamda undan amalda foydalanishga doir tavsiyalar bayon qilingan.

O‘quv qo‘llanmadan umumiy o‘rta ta‘lim maktablari texnologiya fani o‘qituvchilari, texnologiya fanini o‘qitish huquqini berish bo‘yicha qayta tayyorlash kurslari tinglovchilari, shuningdek professional ta‘lim tashkilotlari o‘qituvchilari, oliy ta‘lim muassasalari talabalari, professor-o‘qituvchilar hamda o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘yicha shug‘ullanayotgan tadqiqotchilar foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar:

S.Otajonov – Farg‘ona davlat universiteti “Texnologik ta‘lim” kafedrası mudiri, professor;

D.Mamatov – Farg‘ona viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi “Amaliy fanlar va maktabdan tashqari ta‘lim metodikasi” kafedrası dotsenti.

Muharrir: M.Axmedov – texnika fanlari nomzodi, dotsent.

Mazkur o‘quv qo‘llanma Farg‘ona viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi Ilmiy-metodik kengashining 2022-yil 22-noyabrdagi 9-sonli yig‘ilishi qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN: 978-9943-8948-2-2

© “Classic” nashriyoti - 2022.

MUNDARIJA

Kirish	7
---------------------	----------

I bob. O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish asoslari

1-mavzu. O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish va uning tarixiy taraqqiyoti. Kasblarning paydo bo‘lishi	9
2-mavzu. O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish ishining pedagogik-psixologik asoslari	17
3-mavzu. Kasb xususiyatlari va ularning tavsifnomalarini o‘rganish usullari	21
4-mavzu. O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish nazariyasi va metodikasi. O‘sib kelayotgan yosh avlodni kasbga yo‘naltirishning nazariy shart-sharoitlari	40

II bob. O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish tizimi

5-mavzu. Kasblar psixodagnostikasi jarayonida shaxsning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish	58
6-mavzu. Maktabda o‘quvchilarni kasbiy tarbiyalash yo‘llari	60
7-mavzu. O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishning tarbiyaviy ahamiyati	80
8-mavzu. O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishning maktab tizimi va uning samaralari	87

III bob. O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish jarayoni

9-mavzu. O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarining dastlabki holati. Texnologiya darsi jarayonida o‘quvchilarni kasb tanlashga yo‘naltirish	88
10-mavzu. O‘quvchilarni darslarda va darsdan tashqari vaqtlarda kasb tanlashga yo‘llash ishlarining shakl va metodlari.....	105
11-mavzu. Kasbga doir konsultatsiya ishlarining turlari va mazmuni	115
12-mavzu. O‘quvchilarni kasb tanlashga yo‘llash jarayonida yo‘l qo‘yilgan xatoliklar va ularni bartaraf etish yo‘llari	120

IV bob. Kasblar klassifikatsiyasi va kasbga yo‘naltirish ishlariga qo‘yiladigan talablar

13-mavzu. Mehnatning maqsadiga ko‘ra kasblarning turkumlari	134
14-mavzu. Kasbga yo‘naltirish ishlariga qo‘yiladigan zamonaviy talablar	142
15-mavzu. Kasb tanlashda inson sog‘lig‘ining ahamiyati. Kasbga yaroqlilik. O‘z-o‘zini tarbiyalash va kasb tanlash	150

V bob. Kasb tanlashni rejalashtirish

16-mavzu. Kasbga doir reja tuzish va uni amalga oshirish metodikasi. Kasb tanlashda kasblar bo‘yicha konsultatsiyaning ahamiyati	158
17-mavzu. O‘quvchilarni to‘g‘ri kasb tanlashga yo‘naltirishda kasblar xarakteristikasi – professiogrammaning o‘rni	162
18-mavzu. Maktablarda o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish xonasini tashkil etish va uning kasb tanlash jarayonidagi roli	166
19-mavzu. O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish ishlarini rejalashtirish, amalga oshirish va unga rahbarlik qilish	171
20-mavzu. Akademik litseylar, professional ta’lim tashkilotlari, ularning kasblar bo‘yicha yo‘nalishlari, bir-biridan farqi va o‘xshash tomonlari	188
21-mavzu. Kasb-hunarga tayyorlash jarayonida yoshlar ongiga vatanparvarlik, insoniylik tuyg‘ularini singdirish	203
Glossariy	210
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	220

KIRISH

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimi va ilm-fan sohalarini takomillashtirish, jamiyatimizda o'qituvchi va pedagog xodimlar, ilmiy va ijodkor ziyolilarga bo'lgan hurmat-e'tiborni yanada oshirish, o'quvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish¹ chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni qabul qilindi. Ushbu Farmonga asosan "mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g'oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo'lgan, intellektual va ma'naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo'lishlari uchun ularda zarur ko'nikma va bilimlarni shakllantirish, dunyo miqyosidagi bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta'lim tizimini yo'lga qo'yish, darslik va o'quv qo'llanmalarini zamon talablari asosida takomillashtirish, ularning yangi avlodini yaratish, o'quv dasturlari va standartlarini optimallashtirish"² vazifalari belgilandi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 30-dekabrdagi 792-son qarori bilan tasdiqlangan "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10-11-sinflari o'quvchilarini kasb-hunarga tayyorlashni tashkil etish tartibi to'g'risida"gi nizomga asosan kasb-hunarga tayyorlash jarayonining metodik ta'minotini takomillashtirib borish mamlakatimizda o'quvchilarni kasb-hunarga tayyorlashning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilandi. Mazkur qarorning asosiy maqsadi Xalq ta'limi vazirligi hamda Oliy va o'rta ta'lim vazirligi tizimida IX-XI sinf o'quvchilarini kasb-hunarga o'qitish, ularning qiziqish va qobiliyatlariga ko'ra kelgusida ta'limni oliy ta'lim dargohlarida davom ettirishlari yoki maktabda egallagan kasb-hunarlarini bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanishlari uchun yetarli shart-sharoitlar yaratib berishga qaratilgan.

Ushbu "O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish" nomli o'quv qo'llanma aynan shu vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida yaratilgan. Mazkur o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2022-yil 20-apreldagi "Davlat ta'lim talablarini tasdiqlash to'g'risida"gi 121-son buyrug'i bilan tasdiqlangan Xalq ta'limi tizimi rahbar, pedagog va mutaxassis xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta'limining mazmuni va sifatiga qo'yiladigan davlat ta'lim talablari, 2022-yil 17-oktabrdagi "Xalq ta'limi tizimida oliy ma'lumotli pedagog kadrlarni kasbiy va pedagogik qayta tayyorlash kurslarini takomillashtirish va

¹ PF-6108-son. 06.11.2020. O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. <https://lex.uz/docs/-5085999>.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. – Toshkent, 2020-yil 6-noyabr, PF-6108-son.

o'quv-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish samaradorligini oshirish to'g'risida"gi 321-son buyrug'i bilan tasdiqlangan texnologiya fanini o'qitish huquqini berish bo'yicha kasbiy qayta tayyorlash kursining tayanch o'quv rejasi va namunaviy o'quv dasturi hamda texnologiya fani bo'yicha O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim Milliy o'quv dasturlari asosida tayyorlangan bo'lib, u umumiy o'rta ta'lim maktablarining texnologiya fani o'qituvchilari, kasb-hunarga yo'naltiruvchi mutaxassislari, texnologiya fanini o'qitish huquqini berish bo'yicha qayta tayyorlash kursi tinglovchilari uchun mo'ljallangan. Shuningdek, undan pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlari va oliy ta'lim tashkilotlari professor-o'qituvchilari, oliy ta'lim tashkilotlari texnologik ta'lim yo'nalishi bakalavriat va magistratura bosqichi talabalari, o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borayotgan tadqiqotchilar, qolaversa keng kitobxonlar ommasi ham foydalanishlari mumkin.

Ushbu o'quv qo'llanmada o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish asoslari, o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimi, kasblar klassifikatsiyasi haqida batafsil ma'lumotlar berilgan bo'lib, o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish jarayoni va uni tashkil etish, kasbga yo'naltirish ishlarini amalga oshirish yo'llari, kasb tanlashni rejalashtirish va unga rahbarlik qilish masalalari batafsil yoritilgan.

Uslubiy qo'llanma bilan tanishish orqali o'qituvchi va mutaxassislar ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishning zamonaviy usullari, o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini tashkil etish va kasbga tayyorlash metodikasi, o'quvchilarning qiziqishlar, moyilliklarini o'rganish va tahlil qilish yo'llari hamda ularni amalda qo'llashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar. Mazkur ma'lumotlar o'qituvchi va mutaxassislarga ta'lim jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini to'g'ri rejalashtirish va ularni amalga oshirishda yaqindan yordam beradi hamda bu sohada ular uchun muhim o'quv-uslubiy manba bo'lib xizmat qiladi.

I bob. O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH ASOSLARI

1-mavzu. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish va uning tarixiy taraqqiyoti.

Kasblarning paydo bo'lishi

Inson farzandi voyaga yetgach o'z qiziqish, qobiliyat va imkoniyatlariga qarab biror kasb yoki hunarni tanlaydi. Har bir inson hayotida kasbiy faoliyat muhim ahamiyatga ega. Chunki kasbiy faoliyat uzoq vaqt davomida inson hayotining ajralmas qismiga aylanib qoladi. Psixologik tadqiqotlarning natijalariga ko'ra shaxsning salomatligi hamda o'zini baxtli his etish darajasi uning tanlagan kasbi bilan uzviy bog'liq ekan. Aynan kasb tanlash borasidagi ishlarni tartibga solish, ongli kasb tanlashda kasb-hunarga yo'naltirish faniga, kasbiy tayyorgarlik tizimiga, kasbga yo'naltirishning tarixiy taraqqiyotiga doir bilimlarni bilish talab etiladi. Umuman olganda, kasbga yo'naltirish – bu yoshlarni kasblar olami bilan tanishtirish, bu odamga o'z individual qobiliyatlari va jamiyat unga taqdim etgan imkoniyatlar asosida kasb tanlashda yordam ko'rsatishdir. Kasbiy tayyorgarlik tizimi o'ziga xos taraqqiyot tarixiga ega bo'lib, bevosita quyidagi ishlarni amalga oshirishdan iborat (1-rasm):



1-rasm. Kasbiy tayyorgarlik tizimi

Ayrim kasblarning alohida ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini ajratib ko'rsatish holatlarini uch ming yillik tarixga ega "Avesto"da ham uchratish mumkin. Masalan, dehqonchilik va chorvadorlikning ahamiyatiga bu asarda bir necha bor yuksak baho beriladi: "Don ekkan kishi, taqvodorlik urug'ini ekadi, u Mazdaga ixlosmandlik e'tiqodini olg'a suradi, u imonni oziqlantirib turadi. ... Chorvador yaxshi niyat uchun kurashadi, chorvador bo'lmagan kishi bunday niyatdan yiroqdir". "Avesto"da, hatto, odamga bolalikdan boshlab aynan qanday kasb-hunar o'rgatilishi kerakligi yuzasidan ko'rsatmalar bor: "Bolalar yosh paytidanoq daraxt ko'chati o'tqazish, uy-ro'zg'or qurollari yasash, yerga ishlov berish va chorva bilan shug'ullanishga o'rgatilishi kerak".

Buyuk Sharq mutafakkirlari ilmiy merosida ham shaxsning kasb tanlashi, bunga ta'sir etuvchi omillar, umuman, inson va kasb o'rtasidagi munosabat

masalasiga alohida e'tiborni ko'rish mumkin. Masalan, Ar-Roziy tabiblik kasbini mukammal egallash shartlari haqida mulohaza yuritib, "Nafaqat o'qishgina, balki o'qiganni muhokama eta olish, o'qiganlarini ba'zi hollarda tatbiq qila olish qobiliyatigina tabibni tabib qiladi", - deb ta'kidlaydi. Muayyan kasb sohasi vakillari turli malakaga ega bo'lishi mumkinligiga X asrda yashab ijod etgan buyuk alloma Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzlug' Tarxon Forobiy ham alohida urg'u beradi: "Bir turdagi san'at, hunar sohiblari ham malaka jihatidan farqlanishi mumkin. Masalan, bir hattot, o'z hunarining ko'pgina sirlarini bilishi, keng bilim egasi bo'lishi mumkin. Boshqa biri o'z hunari sirlarini kamroq bilishi mumkin". Shuningdek, Abu Nasr Forobiy kishilarni halol mehnat qilishga va kasb-hunar egallashga chaqiradi. Forobiyning fikricha, inson – "ojiz banda ... hech narsaga qodir bo'lmagan mavjudot emas, balki u eng oliy kamolot bo'lib, aql-idrok ziyosiga ega, o'zi uchun zarur bo'lgan hamma narsani yaratishga qodir borliqdir"¹.

Kasbga yo'naltirish fandagi alohida yo'nalish sifatida taxminan XX asr boshlarida vujudga kelgan. Ayrim mutaxassislar bu hodisani amerikalik psixolog, psixotexnika yo'nalishi asoschisi Gugo Myunsterberg tomonidan o'sha davrda shaxsning kasbiy qobiliyatlarini tekshirish uchun dastlabki psixologik sinov vositalari ishlab chiqilishi bilan tushuntiradilar. Biroq aksariyat manbalarga ko'ra, kasbga yo'naltirish ishining tarixi Frenk Parsons tomonidan Fransiyaning Strasburg shahrida 1903-yilda birinchi kasbga yo'naltirish kabineti va 1908-yilda AQSHning Boston shahrida kasb tanlash byurosi tashkil etilishidan boshlanadi. Ammo shubhasiz, kasbga yo'naltirish ishi insoniyat jamiyatining uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida to'plagan tajribasi natijasidir. Chunki tarixiy ma'lumotlarga asoslanib aytish mumkinki, kasbga yo'naltirish ishlari qadimdan amalga oshirilib kelingan.

Qadimda qo'llanilgan kasbga yaroqlilik darajasini baholash elementlari

t/r	Davlat	Sinovdan o'tuvchilar	Qo'yilgan talablar
1	Vavilon, Mesopotamiya	Mirza	Maydonlarni o'lchash, mulkni bo'lish, musiqa asboblari ijro uslubi va ashula aytishni bilish; gazlamalar, metallar, o'simliklarning turlarini bilish, barcha to'rt arifmetik amallarni bajara olish
2	Qadimiy Misr	Kasbni egallashga da'vogarlar	Suhbatdan o'tish (da'vogar haqida umumiy ma'lumot, uning egallagan

¹M.Xayrullayev. Forobiy. - T., 1999. 85 bet



			bilimlari, qiyofasi hamda muloqotga kirisha olish qobiliyati bo'yicha); Sinovdan o'tkazish (mehnatkashligi, berilayotgan fikrni tinglay olishi, o'zini tuta olish qobiliyatlari bo'yicha).
3	Qadimgi Gretsiya	Talaba	Suhbatdan o'tish (da'vogar haqida umumiy ma'lumot, uning egallagan bilimlari, qiyofasi hamda muloqotga kirisha olish qobiliyati bo'yicha); Sinovdan o'tkazish (mehnatkashligi, berilayotgan fikrni tinglay olishi, o'zini tuta olish qobiliyatlari bo'yicha); intelektual qobiliyatlar; yosh insonlarning o'zini tutishi; o'qituvchilar va ota-onalar tavsiyalari; o'z fikrini erkin ifodalash va suhbatdoshlar bilan bahslashish.
4	Qadimgi Xitoy	Hukumat amaldori	Tantanavorlik ruhi bilan sug'orilgan muhitda davlat imtihonlari (imtihon savollarini ko'pchilik holatlarda imperator o'zi belgilagan, ham o'zi sinovdan o'tkazgan).

Shuningdek, Sparta, Afina va Rimning qadimiy tarixida boshqa misollarni uchratish mumkin. Jumladan, Spartada jangchilarni, Rimda gladiatorlarni tayyorlashning mukammal tizimi yaratilgan va muvaffaqiyatli qollanilgan.

"Odamlar - deb yozgan edi Aflotun – bir-birlariga u darajada o'xshash bo'lib tug'ilmaydilar, ularning tabiati va qobiliyatlari turlicha bo'ladi... Shu sababli barcha vazifalarni amalga oshirishda o'z tabiiy qobiliyatlariga mos ravishdagi yumushlar tanlaganda uni yaxshiroq, tez va ko'proq darajada amalga oshirish mumkin bo'ladi"¹.

Eramizgacha bo'lgan 900 va 600-yillar oralig'ida yozilgan hind vedalarida quyidagi ishlar kasb sifatida sanab o'tilgan (2-rasm):

¹ Проффессиональная ориентация учащихся (А.Д.Сазонов ва.б.).М..1988. стр. 12



2-rasm. Qadimgi Hindiston hayoti va xo'jaligi

Bu ma'lumotlar bugungi kunda kasbiy tashxis qilish yoki kasb tanlash kabi tushunchalarning qadimdan vujudga kelganligini bildiradi.

Yuqorida ta'kidlaganidek, Fransiyaning Strasburg shahrida 1903-yilda birinchi kasbga yo'naltirish kabineti va 1908-yilda AQSHning Boston shahrida yoshlarni kasbga yo'naltirish byurosi o'z ishini boshlagan. Rossiyada esa kasbga yo'naltirish ishlari XX asrning boshlaridan amalga oshirila boshlandi.

Yoshlarni kasbga yo'naltirish tashkilotlarining shakllanishi

t/r	Mamlakat nomi	Shahar	Tashkil topgan yili	Tashkilot nomi
1	Fransiya	Strasburg	1903	Kasbga yo'naltirish kabineti
2	AQSH	Boston	1908	Yoshlarni kasbga yo'naltirish byurosi
3	Rossiya	Leningrad	1927	Kasbiy maslahat byurosi

Shuningdek, XX asr boshlarida Yevropada kasbga yo'naltirish ishlarini muvofiqlashtiruvchi va tartibga soluvchi bir qator hujjatlar nashr etilgan:

t/r	Mamlakat nomi	Chop etilgan yili	Hujjat nomi
1	Angliya	1911	Mehnat birjalari hamda ta'lim tashkilotlarining hamkorlikdagi ishlarini muvofiqlashtiruvchi maxsus axborotnoma
2	Germaniya	1922	Kasbga yo'naltirish va maslahat to'g'risidagi qonun, ushbu tizimni amalga oshirish mezonlarini ifodalovchi Nizom

20-asrda O'zbekiston Rossiya mustamlakasiga aylangach, hunarmandchilik o'zining ilgarigi mavqeini yo'qotgan bo'lishiga qaramay, uning ko'p tarmoqlari saqlanib qoldi, chunki u milliy ehtiyojni qondiradigan tovarlarni, chunonchi, kiyim-kechak, idish-tovoq, turli uy-ro'zg'or buyumlari, mayda mehnat qurollarini yaratib, ularni mahalliy bozorga yetkazib berdi. Hunarmandchilikning yashovchanligini ta'minlashda chet eldan keltirilgan xom ashyo, materiallar, kichik uskunalar muhim rol o'ynadi. Masalan, AQSHdan keltirilgan teri bo'yog'idan foydalanib ko'pchilar amirkon deb nomlangan yupqa charm ishlab chiqara boshladi. Shu munosabat bilan amirkon etik, mahsi va kovushlar paydo bo'ldi. Germaniyadan

“Zinger” firmasining tikuv mashinalari keltirilishi bilan tikuvchilik (chevarlik) keng yoyildi.

So‘nggi yillarda mamlakatda ta‘lim-tarbiya tizimi sifati va samaradorligini oshirish, o‘quvchi va talaba yoshlarda zamonaviy bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, ta‘lim tizimlari hamda ilm-fan sohasi o‘rtasida yaqin hamkorlik va integratsiyani, ta‘limning uzviyligi va uzluksizligini ta‘minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda¹. Jumladan, yangi tahrirdagi "Ta‘lim to‘g‘risida"gi Qonunning qabul qilinishi natijasida o‘quvchi-yoshlarni kasbga yo‘naltirishning, xalq xo‘jaligini yuqori malakali mutaxassis kadrlar bilan ta‘minlashning samarali tizimi yaratilmoqda.

Mamlakatimizda joriy etilgan "Kasbga yo‘naltirish tizimi" doirasida bir qator vazifalar belgilab o‘tilgan:



2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham ta‘lim sohasidagi zamonaviy tendensiyalar va raqamli makonda kasbga yo‘naltirish bo‘yicha yondashuvlarga alohida e‘tibor qaratilgan. Unda har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o‘qish imkoniyatini yaratish, kasbga o‘qitish ko‘lamini yanada oshirish masalalari asosiy maqsad qilib belgilangan. Bu esa raqamli asrning yangi sharoitida yoshlarni muvaffaqiyatli hayotga tayyorlashda kasbga yo‘naltirish tizimining ahamiyatini o‘zida aks ettiradi.

¹ PF-6108-son. 06.11.2020. O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. <https://lex.uz/docs/-5085999>.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar ham yoshlarni kasbga yo'naltirishning ahamiyati nechog'li muhimligini ko'rsatib turibdi.

O'QUV TOPSHIRIQLARI

1-AMALIY TOPSHIRIQ


Kasbga yo'naltirish va uning tarixiy taraqqiyoti, kasblarning paydo bo'lishiga oid blits-so'rov.

Topshiriq (blits-so'rov):

1. Kasbga yo'naltirish –
2. Kasbga tayyorlash tizimi –
3. Kasbiy talim berish –
4. Kasbiy tarbiyalash –
5. Qadimda qo'llanilgan kasbga yaroqlilik darajasini baholash elementlari –
6. Qadimgi kasb turlari –
7. Mamlakatimizda joriy etilgan "Kasbga yo'naltirish tizimi"ning birinchi bosqichi –
8. Mamlakatimizda joriy etilgan "Kasbga yo'naltirish tizimi"ning ikkinchi bosqichi –
9. Mamlakatimizda joriy etilgan "Kasbga yo'naltirish tizimi"ning uchinchi bosqichi –
10. Mamlakatimizda joriy etilgan "Kasbga yo'naltirish tizimi"ning to'rtinchi bosqichi –


2-AMALIY TOPSHIRIQ

Kasbiy faoliyatning inson hayotidagi ahamiyatini asoslab bering:




3-AMALIY TOPSHIRIQ

Kasbiy tayyorgarlik tizimi doirasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni aniqlashtiring.



4-AMALIY TOPSHIRIQ

Kasbga yo'naltirishning tarixiy taraqqiyoti bosqichlarini ishlab chiqing.



5-AMALIY TOPSHIRIQ

Mamlakatimizda joriy etilgan "Kasbga yo'naltirish tizimi" doirasida amalga oshirilishi belgilangan vazifalarni sharhlang.

T/r	Bosqichlar	"Kasbga yo'naltirish tizimi" doirasida amalga oshiriladigan ishlar
1.	7-sinfdan boshlab	
2.	8-sinfda	
3.	9-sinfda	
4.	10-11-sinflarda	

O'z-o'zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar

1. Kasbga yo'naltirishning mohiyati nimada?
2. Kasbiy tayyorgarlik tizimi qanday ishlarni amalga oshirishdan iborat?
3. "Avesto"da qanday kasblarning alohida ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati ajratib ko'rsatilgan?
4. Qadimda talabgorlarning kasbga yaroqlilik darajasini baholashda qanday sinovlar qo'llanilgan?
5. "Bir turdagi san'at, hunar sohiblari ham malaka jihatidan farqlanishi mumkin. Masalan, bir hattot, o'z hunarining ko'pgina sirlarini bilishi, keng bilim egasi bo'lishi mumkin. Boshqa biri o'z hunari sirlarini kamroq bilishi mumkin".bu fikrlar qaysi buyuk allomaga mansub?
 - a) Abu Ali Ibn Sino;
 - b) Ar-Roziy;
 - c) Abu Nasr Forobiy;
 - d) Alisher Navoiy.
6. Birinchi kasbga yo'naltirish kabineti qayerda tashkil etilgan?

- a) AQSHning Boston shahrida;
- b) Fransiyaning Strasburg shahrida;
- c) Rossiyaning Leningrad shahrida;
- d) Angliyaning London shahrida.

7. Birinchi yoshlarni kasbga yo‘naltirish byurosi qayerda tashkil etilgan?

- a) Angliyaning London shahrida;
- b) Fransiyaning Strasburg shahrida;
- c) Rossiyaning Leningrad shahrida;
- d) AQSHning Boston shahrida.

8. Birinchi “Kasbga yo‘naltirish va maslahat to‘g‘risida”gi qonun qaysi davlatda qabul qilingan?

- a) Germaniyada;
- b) Angliyada;
- c) Rossiyada;
- d) AQSHda.

9. Mamlakatimizda joriy etilgan "Kasbga yo‘naltirish tizimi" doirasida o‘quvchilar o‘rtasida interaktiv so‘rovnomalar o‘tkazilib, kasb-hunarga bo‘lgan qiziqishini aniqlash va ularning ma’lumotlar bazasini yaratish, har oyda bir marta “Kasblar olamiga sayohat” mavzusida maxsus kurslar tashkil qilish vazifalari qaysi sinfda amalga oshirilishi belgilab qo‘yilgan?

- a) 10-11-sinflarda;
- b) 9-sinfda;
- c) 8-sinfda;
- d) 7-sinfdan boshlab.

10. Mamlakatimizda joriy etilgan "Kasbga yo‘naltirish tizimi" doirasida o‘quvchilarni o‘qishi davomida qiziqishlari, ota-onasining fikri hamda umumta’lim muassasasi psixologining xulosasiga muvofiq kasb-hunarga tayyorlash markazlarida kasblarga o‘qitish vazifasi qaysi sinfda amalga oshirilishi belgilab qo‘yilgan?

- a) 7-sinfdan boshlab;
- b) 9-sinfda;
- c) 10-11-sinflarda;
- d) 8-sinfda.


2-mavzu. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishining pedagogik-psixologik asoslari

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq, har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalaniish huquqiga egadir. Yosh avlodni hayotga, kundalik faoliyatga tayyorlash g'oyat muhim vazifadir. Shu boisdan o'quvchi-yoshlarning kasb tanlashi va ularni kasb-hunarga yo'naltirish muammolari maktab ishida katta o'rin tutadi.


Xalq ta'limi tizimini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlarda va muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan tashabbuslarda ta'kidlanganidek, mamlakatimizda yaratilgan kasbga yo'naltirish tizimida umumiy o'rta ta'lim maktabiga va o'qituvchiga yetakchi o'rin ajratilmoqda. Bugungi kunda maktab o'qituvchisi, jumladan texnologiya fani o'qituvchisi xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchi kasblariga bo'lgan zamonaviy talablarni hisobga olib, nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni egallashdagina emas, balki kasbni to'g'ri tanlashda ham o'quvchilarga yordam berishi kerak.

Buni texnika vositalarini yangilash sur'atining yanada tezlashtirilishi, buyumlarni standartlash va unifikatsiyalash, radiotexnika, elektronika, aviatsiya, kosmonavtika, avtomatik boshqarish va rostdash tizimlari, hisoblash texnikasi, axborotlar texnologiyasi va b. rivojlanishi bilan izohlash mumkin. Chunki sanoatda avtomatlashtirishning rivojlanishi avtomat liniyalar va avtomat sexlar, avtomat zavodlar yaratishga olib keldi, axborotlar texnologiyalari rivojlandi.

O'quvchi-yoshlarni kasbga yo'naltirish ishi kutilgan natijalarni berishi uchun u uzluksiz jarayon bo'lishi va o'zaro bog'langan bir qancha bosqichlardan iborat bo'lishi lozim:



2016-yilga qadar kasbga yo'naltirish ishlari zamon talablari darajasida tashkil etilmadi. Natijada maktabni tamomlagan ayrim yoshlarning kasb tanlashi tasodifiy bo'lib, o'quvchilarning ko'pchiligi u yoki bu kasbning nimadan iborat ekanligini aniq tasavvur qilolmas edi. Kasb-hunar maktablarining besh mingga yaqin o'quvchilari bilan savol-javob o'tkazilganda ularning kasb tanlash ko'rsatkichlari bo'yicha quyidagilar aniqlandi:



Albatta, bu ma'lumotlar turli davr va mintaqalarda obyektiv holda turlicha bo'lishi mumkin, ammo shu narsa ayonki, o'quvchilarning aksariyat qismi kasblarni atroflicha o'ylab ko'rmay taxminan tanlagandilar. "Siz nima uchun ushbu kasbni tanladingiz?", - degan savolga 35% o'quvchi: "Buni o'ylab ko'rganim yo'q" qabilida javob qaytargan.

Kasbni tushunmay turib, tasodifiy tanlash shunda ko'rinadiki, kasb-hunar maktabida o'qishning dastlabki kunlarida o'quvchi kasbga qandaydir ishtiyoq bilan qaraydi. Keyinchalik bu ishtiyoq asta-sekin so'nib boradi. Kasb-hunar maktablarida dastlabki yil o'qiyotgan o'quvchi-yoshlardan so'ralganda ularning 30% i, ikkinchi yil o'qiyotganlardan so'ralganda esa ularning faqat 20% i tanlagan kasbidan xursand ekanligini bildirgan.

Hozirgi vaqtda yoshlarni kasbga yo'naltirish masalalari bilan davlat, jamoat va yoshlar tashkilotlari, korxona va tashkilotlar shug'ullanmoqda. Biroq bu ishda maktab asosiy vazifani bajarishi va muhim rol o'ynashi kerak.

Hozirgi kunda bozor iqtisodiyotiga va uzluksiz ta'lim tizimiga o'tilishi munosabati bilan maktab o'quvchilarni ongli ravishda kasb tanlashga va muayyan kasbga tayyorlashda yana ham katta rol o'ynaydi. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishi ularning har biriga individual yondashishni talab etadi. Bunda shaxsning temperamenti, irodasi, diqqatliligi, qo'yilgan maqsaddan ko'zlangan natijaga erishishda shaxsiy ijobiy fazilatlarini e'tiborga olish zarur. Shuningdek, kasbga yo'naltirish jarayonida o'quvchining nima uchun shu kasbni tanlaganligi, kasbning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati, o'quvchining qiziqishi va havasi, uning kasb-hunar o'rganishga tayyorligi, oilaviy urf-odatlar va an'analar, ota-onalar, o'qituvchilar, tengdoshlarining maslahatlarini hisobga olish kerak.

O'quvchilarni uzoq vaqt o'rganish natijalaridan kelib chiqib sinf rahbarlari har bir o'quvchiga tavsifnoma tuzadilar. Bunday tavsifnoma kasb tanlash va o'quvchiga u yoki bu kasbni tanlashni tavsiya etish uchun asos bo'ladi. Kasbga layoqatlilikni tanlash maxsus guruh tomonidan amalga oshiriladi. Unga o'qituvchilar, psixologlar, ishlab chiqarish sohasidagi muhandis yoki boshqa mutaxassislar, sotsiologlar, shifokorlar kiradi. Yuqoridagi kasb egalari har bir o'quvchiga kasb haqida ma'lumot berib, uni egallash uchun nimalarga ahamiyat qaratish lozimligi haqida tushunchalar beradilar va buning sababini asoslab beradilar. Quyidagi jadvalda ayrim toifadagi kishilarga qanday kasblarda ishlash qiyinchilik tug'dirishi bo'yicha fikrlar keltirilgan:

T/r	Shaxs xususiyati	Qanday kasblarda ishlash qiyinchilik tug'diradi
1	Xolerik temperamentli bola	Yaxshi andaza yasovchi, usta chilangar bo'la olmaydi, chunki unga mikronning o'ndan bir ulushigacha aniqlikka erisha borib, uzoq vaqt o'lchov asboblari ishlash qiyinlik qiladi
2	Melanxolik temperamentli bola	Tez javob berishni talab qiladigan mashinalarni boshqarishni muvaffaqiyatli egallab ololmaydi
3	Ba'zi rang-tuslarni farq qila olmaydigan (daltonik) bola	Har qanday transport turini boshqarish qiyinchilik tug'diradi, metallurg bo'lib ishlashi mumkin emas
4	Vestibulyar apparati buzilgan o'quvchilar	Uchuvchi, dengizchi, yuqori inshootlar montajchisi bo'la olmaydilar

O'QUV TOPSHIRIQLARI

1-AMALIY TOPSHIRIQ

Kasbga yo'naltirish ishining pedagogik-psixologik asoslariga oid blits-so'rov.


Topshiriq (blits-so'rov):

1. Mehnat qilish, erkin kasb tanlash huquqi –
2. Maktabda kasbga yo'naltirishning birinchi bosqichi –
3. Maktabda kasbga yo'naltirishning ikkinchi bosqichi –
4. Maktabda kasbga yo'naltirishning uchinchi bosqichi –
5. Kasbni tushunmay turib, tasodifiy tanlashning oqibatlari –

6. Kasbga yo‘naltirish masalalari bilan shug‘ullanadigan tashkilotlar –


2-AMALIY TOPSHIRIQ

Maktabda kasbga yo‘naltirish bosqichlari doirasida amalga oshiriladigan vazifalarni aniqlashitiring.



3-AMALIY TOPSHIRIQ

2017-yilgacha va hozirgi davrdagi kasb-hunar ishlarini tashkil etishga yondashuvlarni taqqoslang.



4-AMALIY TOPSHIRIQ

Qanday xarakterdai o'quvchilarga qaysi kasblarni tanlashlarini tavsiya qilgan bo'lar edingiz?

QANDAY

QANDAY

QANDAY

5-AMALIY TOPSHIRIQ

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 30-dekabrdagi 792-son qarorining mazmun-mohiyati bilan tanishib chiqing va o'quvchilarni kasb-hunarga tayyorlashni tashkil etish sxemasini tushuntirib bering.

Bosqichlar	Ijrochilar	Tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich			
2-bosqich			
3-bosqich			
4-bosqich			
5-bosqich			
6-bosqich			
7-bosqich			


O‘z-o‘zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida shaxsning mehnatga oid qanday huquqlari belgilab qo‘yilgan?
2. Maktabda o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish ishi necha bosqichdan iborat va bu bosqichlarda qanday ishlar amalga oshiriladi?
3. Kasbni tushunmay turib, tasodifiy tanlash nimalarga olib keladi?
4. Hozirgi vaqtda yoshlarni kasbga yo‘naltirish masalalarida kim asosiy vazifani bajarishi va muhim rol o‘ynashi kerak?
 - a) davlat;
 - b) jamoat va yoshlar tashkilotlari;
 - c) korxona va tashkilotlar;
 - d) maktab.
5. Qanday o‘quvchilarni uzoq vaqt o‘rganish natijalaridan kelib chiqib kimlar har bir o‘quvchiga tavsifnoma tuzadilar?
 - a) sinf rahbarlari;
 - b) texnologiya fani o‘qituvchilari;
 - c) maktab amaliyotchi psixologlari;
 - d) ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari.
6. Qanday bolalar uchuvchi, dengizchi, yuqori inshootlar montajchisi bo‘la olmaydilar?
 - a) xolerik temperamentli;
 - b) melanxolik temperamentli;
 - c) vestibulyar apparati buzilgan;
 - d) daltonik.
7. Qanday bolalar tez javob berishni talab qiladigan mashinalarni boshqarishni muvaffaqiyatli egallab ololmaydilar?
 - a) xolerik temperamentli;
 - b) melanxolik temperamentli;
 - c) vestibulyar apparati buzilgan;
 - e) daltonik.
8. Qanday bolalar uchun har qanday transport vositalarini boshqarish qiyinchilik tug‘diradi?
 - a) xolerik temperamentli;
 - b) melanxolik temperamentli;
 - c) vestibulyar apparati buzilgan;
 - a) daltonik.

3-mavzu. Kasb xususiyatlari va ularning tavsifnomalarini o‘rganish usullari


Barcha kasblarning o‘ziga xos xususiyatlari bor. Kasb xususiyatlarini va ularning tavsifnomalarini o‘rganish uchun har bir kasb uchun professiogramma tuzish maqsadga muvofiq.

Professiogramma bu – kasbning turli obyektiv xarakteristikalarining tasnifi hisoblanadi.



Kasblar, kasb tanlashga oid qo‘llanma va ishlanmalarni o‘qish ham yoshlarga turli kasblar bilan tanishish imkonini beradi va bu ularning to‘g‘ri kasb tanlashlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun maktab kutubxonasining ana shunday adabiyotlar bilan ta‘minlanishi maqsadga muvofiq.

Shuningdek, o'quvchilarning qobiliyatlarini, kasbga layoqatliligini va mikromuhitni mustaqil baholashning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va tahlil qilish muhimdir. Bu ishlarni samarali tashkil etish uchun quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish tavsiya etiladi:



Bunday qobiliyatlarni, mustaqil berilgan baho darajalarini (birinchi, ikkinchi, uchinchi) hisobga olgan holda mustaqil baholashning quyidagi parametrlari (yetarlicha baholamaslik, ortiqcha baho berish, baholarning mosligi) bo'yicha qarab chiqish kerak.

O'quvchilarning qobiliyatlarini, kasbga layoqatliliklarini aniqlash maqsadida turli xil usullardan foydalangan holda, jumladan reyting va muayyan qoidalarini qo'llagan holda anketalar orqali so'rash hamda o'quvchilar faoliyatida natijalarni o'rganish metodlari orqali tahlil o'tkazish maqsadga muvofiq.

Qobiliyatlarni, keyinchalik esa kasbga layoqatlilikni mustaqil baholashning shakllanish sharoitlarini o'rganish uchun quyidagi uch yo'nalishdagi umumiy o'rta ta'lim maktablarini tanlab olish tavsiya etiladi:


- tabaqalashtirilgan ta'lim va kasbga yo'naltirish ishlari bo'lmagan maktablarni;
- tabaqalashtirilgan ta'lim elementlari va kasbga yo'naltirish ishlari bo'lgan maktablarni;
- maxsus kasbga yo'naltirish tadbirlari bo'lmagan holda aniq fanlar yo'nalishidagi maktablarni.

Birinchi bosqichda o'quvchilar – sinfdagi o'rtoqlarining va o'zlarining qobiliyatlarini; o'qituvchilar – o'quvchilarning qobiliyatini; ota-onalar – o'z farzandlari qobiliyatini “yomon”, “o'rta”, “yaxshi”, “a'lo” mezonlari bo'yicha baholashlari kerak. So'ngra baholarning har birini tegishli ballarga (2, 3, 4, 5) o'girish lozim. O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, hisoblash tizimi olingan natijalarga ta'sir etmaydi. Olingan natijalardan kelib chiqib, o'quvchilarning barcha javoblarini quyidagi guruhlariga ajratish mumkin: o'quvchilarning 1-guruhida ularning o'ziga bergan bahosi tashqaridan berilgan bahodan past (yetarli baho bermaslik); o'quvchilarning 2-guruhida ularning o'ziga bergan bahosi tashqaridan berilgan bahodan yuqori (ortiqcha baho berish); o'quvchilarning 3-guruhida ularning o'ziga bergan bahosi tashqaridan berilgan bahoga mos kelgan (moslik). O'quvchilarning bu guruhlar bo'yicha taqsimlanishi quyidagi jadvalda berilgan:

O'ziga-o'zi baho berish bilan tashqaridan berilgan bahoning nisbati	So'ralgan-lar miqdori	Yetarli baho bermaslik	Ortiqcha baho berish	Bahoning mos kelishi
O'ziga-o'zi bahoberish - o'qituvchilar bahosi	89	8	64,4	27,6
O'ziga-o'zi bahoberish - o'rtoqlarining bahosi	171	31,5	42,1	26,4
O'ziga-o'zi baho berish - ota-onalarning bahosi	81	30,4	30,4	26,6


Jadvaldan ko'rinib turibdiki, o'z qobiliyatlarini ortiqcha baholash ko'pchilik o'quvchilarga (2/3 qismiga yaqini) xosdir. Bunda qobiliyatlarni mustaqil baholash o'qituvchilar tomonidan berilgan bahoga qaraganda o'rtoqlari va ota-onalar bergan bahoga yaqinroq turar ekan. Bu xulosalarni quyidagicha tushuntirish mumkin: o'rtoqlari va ota-onalar tomonidan qobiliyatlarga berilgan baho o'qituvchilarning bergan bahosiga qaraganda mustaqil baholashning shakllanishiga ko'proq ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, o'quvchilarning qobiliyatlarni mustaqil baholashga maktabning yo'nalishi ham sezilarli ta'sir ko'rsatar ekan. Masalan, o'z qobiliyatlarini baholamagan o'quvchilar soni maktablar bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:



Olingan ma'lumotlar tabaqalashtirib o'qitish bilan kasbga yo'naltirish ishlari qo'shib olib borilganda o'quvchilarning o'zini-o'zi bilishi, o'z qobiliyatlarini baholashi faollashganligini ko'rsatdi.

Qobiliyatlarni mustaqil baholash darajasi bilan tashqaridan berilgan baho darajasini aniqlash uchun barcha baholarga ega bo'lgan 39 o'quvchi ajratib olindi. Tashqaridan berilgan barcha baholarning o'rtacha arifmetik miqdori o'rtacha bahoni olishga imkon berdi. Bu esa ma'lum darajada tashqaridan berilgan umumlashirilgan baho bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ahamiyatga qarab quyidagi darajalar aniqlanadi: birinchi (o'ziga-o'zi baho berish va tashqaridan berilgan baho – 4,4 dan 5 ballgacha); ikkinchi (o'ziga-o'zi baho berish va tashqaridan berilgan baho - 4 dan 4,4 ballgacha); uchinchi (o'ziga-o'zi baho berish va tashqaridan berilgan baho - 3,9 ball va undan kam). Buni quyidagi diagrammada ko'rish mumkin:



O'ziga-o'zi baho berish va tashqaridan berilgan bahoga muvofiq o'quvchilarning ajratib ko'rsatilgan darajalar bo'yicha taqsimlanishida, jadvaldan ko'rinishicha, jiddiy farq bor. Olingan ma'lumotlarning tahlili ko'pchilik o'quvchilarda ortiqcha baholashga intilish borligini tasdiqlaydi. Tashqaridan

berilgan o'rtacha baho ko'proq o'qituvchilarning bahosiga yaqin. Tashqaridan berilgan o'rtacha darajali baho bilan o'ziga-o'zi berilgan bahoning haqiqatga qanchalik mos kelishini aniqlash uchun unisini ham, bunisini ham ma'lum bir ko'rsatkich, masalan, biz o'rganayotgan o'quvchilarning oliy ta'lim tashkilotlariga kirishi haqidagi ma'lumotlar (39 o'quvchining barchasida oliy ta'lim tashkilotlarida o'qish istagi bor edi) bilan taqqoslash muhim edi. Taqqoslash natijalari (foiz hisobida) quyidagi jadvalda berilgan:

Darajalar	Birinchi	Ikkinchi	Uchinchi
O'ziga-o'zi baho berish	80	66,6	43,7
Tashqaridan berilgan o'rtacha baho	100	88,8	48,3

Qobiliyatlarga mustaqil baho berish bilan o'zlashtirish nisbatini aniqlash uchun unisi ham, bunisi ham ajratilgan guruhlar (yetarlicha baholamaslik, ortiqcha baho berish, baholarning mos kelishi) va darajalar (birinchi, ikkinchi, uchinchi) bo'yicha taqqoslandi. Hammasi bo'lib 82 o'quvchi tahlil qilindi.

Olingan ma'lumotlarga ko'ra, yaxshi o'zlashtiruvchi o'quvchilar ham, o'rtacha o'zlashtiruvchi o'quvchilar ham o'zlarini barcha darajaga kiritdilar. Bu bilan ular o'z qobiliyatlariga ortiqcha baho berish yuzasidan yuqorida qayd qilingan intilishni tasdiqladilar. Bunda qobiliyatlarga mustaqil baho berish ma'lum darajada o'zlashtirishga bog'liq bo'lmasligi ayon bo'ldi. Lekin qobiliyatlarga mustaqil baho berish bilan o'zlashtirish o'rtasida bog'lanish bor: o'zlashtirish qanchalik yuqori bo'lsa, o'quvchi o'zini shunchalik yaxshi tahlil qiladi, o'z qobiliyatlarini shunchalik to'g'riroq baholaydi. Yuqori o'zlashtirish ko'pincha o'z-o'zini tanqid va o'ziga ishonch bilan mos keladi: o'zlashtirish qanchalik past bo'lsa, o'quvchi o'zini shunchalik yomon tahlil qiladi, o'ziga ortiqcha ishongani holda o'ziga yetarlicha tanqidiy nazar bilan qaramaydi.

O'qituvchilarga kelsak, ular yaxshi o'zlashtiruvchi o'quvchilarning qobiliyatlarini uch darajaning barchasiga kiritadilar, o'rtacha o'zlashtiruvchilarni esa asosan uchinchi darajaga qo'yadilar (96,9%). Bu esa o'qituvchilarning o'quvchilar qobiliyatini asosan ularning o'zlashtirishlariga qarab baholashganini ko'rsatadi.

Ota-onalar uchun boshqacha intilish xosdir. Ular yaxshi o'zlashtiradigan farzandlarning qobiliyatlarini faqat birinchi va ikkinchi darajaga, o'rtacha o'zlashtiruvchi farzandlar qobiliyatini barcha uch darajaga kiritadilar. Lekin ko'pincha ota-onalar o'z farzandlarining qobiliyatini qanday o'zlashtirishidan qat'i

nazar ikkinchi darajaga qo'yadilar. O'quvchilar sinfdagi o'rtoqlarining qobiliyatini baholaganda, qanday o'zlashtirishidan qat'i nazar, ularni barcha uch bosqichga kiritadilar. Bu esa o'quvchilar bahosining mustaqilligidan dalolat beradi. Biroq ular o'z qobiliyatlarini baholashda sinfdagi o'rtoqlarining qobiliyatini baholashga nisbatan o'zlashtirishga kamroq ahamiyat beradilar.

Olingan natijalar bir qator asosli xulosalar chiqarishga imkon beradi. O'z qobiliyatlariga mustaqil baho berish bilan tashqaridan berilgan baho o'zlashtirishga bog'liq bo'lib, uning darajasi turlichadir: qobiliyatlarni o'zi baholaganda u kamroq, o'rtoqlari, o'qituvchilari va ota-onalar baholashganida bir oz ko'proq namoyon bo'ladi. Lekin bu bog'liqlik mustaqil baho berganda va qobiliyatlarini o'rtoqlari baholaganda miqdoriy xususiyatga ega bo'lsa, o'qituvchilar va ota-onalar tomonidan baholanganda u sifat xususiyatini ham kasb etadi. Bu ularning ham, bularning ham o'zlashtirishiga turlicha yondashishda namoyon bo'ladi.

“Qanday fazilatlarga qarab siz kishi qobiliyatlari haqida fikr yuritasiz?”, - degan savolga o'quvchilar, o'qituvchilar, ota-onalar bergan javoblarning tahlili natijasida ajratib olingan qobiliyatlarni baholash mezonlari o'qituvchilarning ko'rsatkichlari eng ko'p, ya'ni ular o'quvchining ko'p jihatlarini hisobga olishdan, bolalarning qobiliyatlari haqida ota-onalarning fikrlari esa ko'pincha ularning madaniy-ma'rifiy saviyasiga bog'liqligidan dalolat beradi. Qobiliyatlarga mustaqil baho berganda o'quvchilar uchun biron-bir fazilatni ajratib ko'rsatish xosdir. Masalan, ularning ba'zilar faqat diqqat va xotirani, boshqalari aql-idrok sifatlarini, fikrlash jarayonlarini ko'rsatadilar. Ba'zi o'quvchilar qobiliyatlar haqida faqat idrok qilish tezligi yoki faoliyat natijalariga qarab fikr yuritadilar. O'quvchilarning ko'pchiligi qiziqishni, biror fan yoki ishga bo'lgan havasni qobiliyat deb tushunadilar. Ko'plar esa qobiliyatlar haqida ishga bo'lgan munosabatda ifodalanuvchi fe'l-atvor xislatlariga qarab fikr yuritadilar.


Qobiliyatlarga mustaqil baho berish tashqaridan berilgan baho mezonlarining yuqorida qarab chiqilgan hollari o'qituvchilarning bahosi eng mosi deb hisoblashga asos bo'la oladi. Ajratib ko'rsatilgan guruhlar va darajalarni o'quvchilarning biror kasbni egallash niyatlari bilan taqqoslash na guruhlar, na darajalar o'quvchilarning bo'lajak kasbni tanlashiga jiddiy ta'sir etmasligini ko'rsatadi: biz sinovga jalb qilgan o'quvchilarning aksariyati oliy ta'lim tashkilotlarida o'qishni davom ettirish istagida edilar. Bunda maktab bitiruvchilarining faqat 39% i bu maqsadlarini o'zlari tanlagan faoliyat sohaslarida ishlash uchun o'zlarida qobiliyat borligi bilan asosladilar, 33% i esa qobiliyatlarni kasbga layoqatliligini mustaqil baholash qatoriga kiritadilar.

Tadqiqot ishlarining ikkinchi bosqichida o'quvchilarga “Faoliyatning qanday sohasiga o'zingizni ko'proq layoqatli deb hisoblaysiz?”, - degan savol berilgan edi. Kasbga layoqatliligini mustaqil baholash quyidagi jihatlar, ya'ni soha, mezon,

moslik bo'yicha qarab chiqildi. Bu bosqichda o'quvchilar oldida murakkab vazifa turar edi: ular shaxsiy qobiliyatlarini kasb talablari bilan taqqoslashi kerak edi.

Olingan javoblar tahlili shuni ko'rsatdiki, 22,8 % o'quvchilar o'zlarining biron-bir faoliyat sohasiga layoqatliligini baholay olmadilar. Bu o'quv faoliyatiga bo'lgan o'z qobiliyatini baholashga qaraganda ikki marta ko'pdir. Zero, o'quvchilarning kasbga layoqatliligini baholashga qaraganda o'quv faoliyati jarayonidagi qobiliyatlarni baholashi osonroq ekan. Kasbga layoqatliligini o'zi baholashga maktabning yo'nalishi ham ta'sir etdi: III yo'nalishdagi maktab o'quvchilarining deyarli yarmida (45,3 % i) muayyan faoliyat sohasiga layoqatliligini o'zi baholash malakasi shakllanmagan, I va II yo'nalishlardagi maktablarda bunday o'quvchilar ancha kam - 13 va 16 %.

Biron-bir faoliyat sohasiga layoqatliligini o'zi baholashni biror kasbni egallash niyatlari bilan taqqoslash ko'rsatkichlari:



Layoqatlilikni baholashning shakllanishi va uning kasbni egallash istaklari bilan mos kelishi uchun qanday sharoitlar eng qulay degan savolga javob berish uchun natijalarni olingan maktablar tipiga tatbiqan qarab chiqamiz.

Kasbga yo'naltirish ishlari olib borilmagan va ta'lim berish tabaqalashtirilmagan III yo'nalishdagi maktabda 18,1 % o'quvchilar maktabni bitirish oldidan o'zlarini qanday faoliyat sohasiga ko'proq layoqatli deb hisoblashi va maktabni bitirgach qanday kasbni egallashi haqidagi savolga javob bera olmadilar. 27,7 % o'quvchilar o'zlarining bo'lajak kasblarini ayta oldilar, lekin qanday faoliyat sohasiga ko'proq layoqatliliklarini bilmadilar. Bu maktab bitiruvchilarining faqat 44 % ida layoqatliligini baholash bilan kasbni egallash niyatlarining mos kelishi kuzatildi.

O'sha bitiruvchi sinflarning bittasi aniq fanlar yo'nalishida bo'lgan va ba'zi bir kasbga yo'naltirish ishlari (o'quvchilar, ota-onalar uchun suhbatlar, ma'ruza, seminar va treninglar, o'quvchilarning turli kasb egalari bilan uchrashuvlari, davra suhbatlari) olib borilgan I yo'nalishdagi maktabda biror kasbni egallash istagi bo'lmagan va layoqatliligini o'zi baholay olmaydigan o'quvchilar yo'q edi. Faqat 13% o'quvchida kasbni egallash niyati layoqatliligini mustaqil baholash bilan mustahkamlanmaydi. 77 % o'quvchilarda esa layoqatliligini o'zi baholash bilan kasbni egallash niyatlarining mos kelishi kuzatiladi.

Aniq fanlar yo'nalishidagi III yo'nalishdagi maktabda esa layoqatliligini o'zi baholay olmaydigan va biror kasbni egallash niyatlari bo'lmagan o'quvchilar yo'q. Fizika va matematikadan yaxshi tayyorgarlik ko'rganlik o'quvchilarning tegishli o'quv yurtiga kirish imkoniyatlarini oshiradi va ular yaxshi bilimlarni yetarli deb hisoblab, o'zlarining biror kasbga layoqatli ekanliklarini o'ylab ham o'tirmaydilar.

O'quvchilar, ularning ota-onalari va o'qituvchilarning kasbiy layoqatliligi haqidagi baholarining o'xshashligini, bizningcha, ularning haqiqatda qanday kasbni egallashi bilan qanchalik mos kelishiga qarab fikr yuritish mumkin. Jumladan, kasbiy layoqatliligiga berilgan baho 43,6 % bitiruvchilarda haqiqatda qanday kasbni egallagani bilan mos keladi. Ota-onalarning o'z farzanlari kasbiy layoqatliligiga bergan bahosi sinalayotgan o'quvchilarning 36% i da aslida qanday kasbni egallagani bilan mos keladi. O'quvchilarning kasbiy layoqatliligiga o'qituvchilar tomonidan berilgan baho so'rab chiqilgan o'quvchilarning 72,7% i haqiqatda qanday kasbni egallagani bilan bir xil bo'ladi. Agar shunday mos kelish ko'rsatkichlari o'xshashlik darajasi deb qabul qilinsa, o'qituvchilar bergan bahoni eng mos (o'xshash) deb tan olish kerak.

Yuqorida fikrlar quyidagi xulosalar chiqarishga imkon beradi:

Ko'pchilik yuqori sinf o'quvchilariga o'z qobiliyatlarini ortiqcha baholash xos. Shu bilan birga o'quvchilarning uchdan ikki qismiga yaqini o'z qobiliyatlarini o'qituvchilar bergan bahoga nisbatan ortiqcha baholaydilar.

Qobiliyatlarni o'zi baholash har doim ham o'qishdagi muvaffaqiyatlarga asoslanmaydi, lekin o'zlashtirish bilan o'zini tahlil qilish, o'z qobiliyatlarini baholash malakasi o'rtasida bog'liqlik bor.

Tabaqalashtirib o'qitish kasbga yo'naltirish ishlari bilan qo'shib olib borilganda biror kasbga layoqatliligini o'zi baholash malakasining shakllanishi uchun eng qulay sharoitlar yaratadi.

Qobiliyatlarni o'zi baholashning yuqorida ajratib ko'rsatilgan guruhlari (yetarli baholamaslik, ortiqcha baholash, baholarning mos kelishi) va ularning darajalari (birinchi, ikkinchi, uchinchi) o'quvchilarning oliy ma'lumot olish bilan bog'langan kasbga oid niyatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi.

O'quvchilarni kasblar bilan tanishtirishning har qanday shakllarida ular haqidagi ma'lumotlarning muayyan tizimini shunday tuzish kerakki, u kasblar tasnifini ishlab chiqishni talab etsin. Mumkin bo'lgan ko'pgina tasniflar orasida mazkur holda psixologik tasnif alohida qiziqish uyg'otadi. Ularning tuzilishini aniqlashga urinish ishlari hali tugallangan emas va keyingi tadqiqotlarni talab etadi.


Kasbga yo'naltirish ishlarining keng avj oldirilishi munosabati bilan vatanimizda va rivojlangan mamlakatlarda kasblarni o'rganish, ularning natijalaridan foydalanish tajribasida mavjud bo'lgan barcha qimmatli narsalarni o'rganish muhim o'rin egallaydi. Bunda shuni unutmazlik lozimki, rivojlangan mamlakatlar psixografik materiallaridan foydalanish ularning ilmiy jihatdan yetarlicha asoslanmaganligi hamda bizdagi va g'arbiy mamlakatlardagi kasbga oid mehnat sohasidagi farqlar sababli ancha cheklangandir. Bunga sozlovchi kasbi misol bo'la oladi. G'arb davlatlarida nashr qilingan ma'lumotnomada sozlovchi kasbining faqat bir turi tavsifi beriladi. Ish jarayonida malakali sozlovchi-ishchi dastgohlarni sozlashning barcha turlarini, hatto eng oddiylarini ham bajaradi. Dastgohlarga esa kam malakali operatorlar xizmat ko'rsatadi. Operatorlar malakasining ortib borishi va ular sozlash ishlarining eng oddiy turlarini bilib olishiga qarab, ular asta sekin malakali sozlovchi bo'lib boradilar. Chunki sozlash ishlarining murakkab turlari (yangi olingan, kapital ta'mirdan chiqqan va boshqa dastgohlarni sozlash) ular zimmasiga tushadi.

Ana shu cheklanishlarga qaramay, masalan, rivojlangan mamlakatlarda kasbga yo'naltirish maqsadlarida yaratilayotgan kasblar haqidagi ma'lumotnoma tarzidagi adabiyotlar tizimi diqqatga sazovordir. Bular yirik nashrlar bo'lib, ham kasb tanlash masalalari bo'yicha konsultatsiya beruvchi kishilar uchun, ham kasb tanlayotganlar uchun zarur bo'lgan yaxshi tizimlashtirilgan qisqa ma'lumotnoma materiallardan iboratdir. Kasblarga bo'lgan talab va kasblar xususiyatining o'zgartirishga bo'lgan talab asosida ma'lumotnomalar qayta ishlanadi va ba'zi materiallar aniqlashtiriladi. Ikki tomli kasblar lug'ati eng to'liq qo'llanma

hisoblanadi. Unda g'arb davlatlarida mavjud bo'lgan taxminan 40000 kasb va ixtisosliklarga oid ma'lumotlar bor. Birinchi tomda ana shu kasblar va ixtisosliklar haqida qisqacha ma'lumotlar beriladi. Ular alfavit tartibida joylashtirilgan va olti raqamli harfli kod bilan ta'minlangan. Ana shu koddan foydalanib, kasblar haqida batafsil ma'lumotlar olish mumkin. Bundan tashqari, 700 dan ortiq g'oyat keng tarqalgan kasblar haqidagi ma'lumotnomalar bor.

Ancha kuchaytirilgan kasbga yo'llash ishlarini olib borish uchun metodik-axborot va ma'lumotnoma adabiyotlarni tuzish muhim vazifalardan biridir.

Xodimlari ana shunday adabiyotlarga alohida ehtiyoj sezadigan tashkilotlar



Mamlakatimizda inson kapitalini to'laqonli rivojlantirish, oliy va professional ta'lim sifatini oshirish, mehnat bozorining rivojlanishi tendensiyalarini inobatga

olgan holda, aholining keng qatlamlarini talab yuqori bo'lgan kasblarga o'qitish hamda malakali kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish uchun shart-sharoitlarni yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 31-dekabrdagi "Malakalarni baholash tizimini tubdan takomillashtirish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4939-son qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga asosan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasiga hisobdor bo'lgan Kasbiy malaka va bilimlarni rivojlantirish bo'yicha kengash hamda hududlardagi mahalliy hokimliklar huzurida Kasbiy malaka va bilimlarni rivojlantirish bo'yicha hududiy kengashlar tashkil etildi.

Ushbu qaror ijrosini ta'minlash maqsadida Xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchilar kasblari klassifikatori takomillashtirildi hamda tegishli vazirlik va tashkilotlar tomonidan tasdiqlandi.

Jumladan, O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligining 2021-yil 6-maydagi 05-1288-son qarori bilan O'zDSt 3513:2021 Xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchilar kasblari klassifikatori (XALIKK-2020) davlat standarti tasdiqlandi va 2022-yil 6-iyundan kuchga kirdi. Unga ko'ra lavozim (kasb)larning MXSK-08 bo'yicha kodlari 4 ta raqamdan iborat bo'ladi. *Masalan: lavozim «Genetik» MXSK-08 bo'yicha «2131» kodiga ega.*

Xizmatchilarning ayrim lavozimlari va ishchilarning kasblari bo'yicha XALIKK-2020 da ko'rsatilmaganlari o'rnatilishi mumkin:

a) hosila lavozimlar va kasblar, shu jumladan ishchilar kasblari bo'yicha:
1) katta; 2) yordamchi; 3) birinchi, ikkinchi yoki uchinchi klassga mansubligi;

b) xizmatchilar lavozimlari bo'yicha: 1) vitse; 2) birinchi o'rinbosar; 3) o'rinbosar; 4) bosh; 5) yetakchi; 6) katta; 7) kichik; 8) smenali; 9) birinchi; 10) ikkinchi; 11) uchinchi; 12) to'rtinchi; 13) rahbar va mutaxassis yordamchisi; 14) katta yordamchi; 15) birinchi yordamchi; 16) ikkinchi yordamchi; 17) smenali yordamchi; 18) guruh; 19) brigada; 20) rayon (tuman); 21) uchastka; konchilik va boshqalar.

Xizmatchilarning ayrim lavozimlari bo'yicha hosila lavozimlar bir lavozim doirasida tashkilot rahbari tomonidan belgilanadi.


O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 20-fevraldagi 131-son buyrug'i bilan tasdiqlangan professional ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklari va kasblari klassifikatorida sinflashning ierarxik usuli va kodlashning ketma-ketlik usuli qo'llanilgan.

Kasb va mutaxassisliklar kodli belgisi yettita raqamli belgidan tashkil topgan X.XX.XX.XX, bu yerda:

birinchi raqam – ta'limning uzluksizligi tizimida (MSKO-2011 asosida) professional ta'lim darajasi;

ikkinchi va uchinchi raqamlar – ta’lim sohasining kodi;
to’rtinchi va beshinchi raqamlar – yo’nalish kodi;
oltinchi va yettinchi raqamlar – kasb va mutaxassislik kodi.


Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi “Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-5113-son qarori bilan O‘zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari tasdiqlandi va O‘zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning asosiy yo’nalishlari belgilab berildi. Ular quyidagilardan iborat:



Hozirgi kunda xilma-xil tadqiqot metodlarini qo‘llash orqali kasblarni ilmiy-psixologik jihatdan o‘rganishga doir jamoa tarzidagi professiografiya ishlarini keng rivojlantirilish talab etiladi. Bu o‘rinda o‘quvchi-yoshlarning kasbga oid muhim xususiyatlarni egallab olish jarayonini va bunda o‘quvchilarda paydo bo‘layotgan xatoliklarni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, velosiped haydashni endi o‘rganayotgan kishiga muvozanatni saqlay olish birmuncha qiyinchilik tug‘diradi: yiqilib tushmaslik uchun u oldingi hosil qilingan ko‘nikmalarni safarbar etadi va u o‘zining tabiiy belgilaridan foydalanadi. Lekin velosipedga nisbatan psixofiziologik moslashish vazifasi hal etilgandan keyin mutlaqo o‘zgacha psixofiziologik mexanizmlardan foydalanishni talab qiluvchi boshqa vazifalar - chidamlilikni, tezlik hissini, yo‘l bo‘ylab harakat qilish vaqtidagi taktik usullarni egallash vazifasi paydo bo‘ladi.

Kishining bilim va tajribasi ortib borishi, ko‘nikma va malakalari rivojlanib borishi natijasida uning ongining o‘sishi, tushunib yetish darajasini oshirish orqali u o‘zining kelajakdagi muvaffaqiyatli faoliyati uchun zarur bo‘ladigan o‘ziga xos

mexanizmlarni egallaydi. Faoliyat tegishli sabablar mavjud bo‘lgandagina vujudga keladi¹:



Bu jarayonda ijtimoiy guruhni tashkil etgan har qanday jamoa muhim rol o‘ynaydi, mehnat topshiriqlari ana shu jamoa bilan birgalikda hal qilinadi.

Ijobiy sabab – faoliyatning vujudga kelishi layoqatlilik shakllanishining zarur shartidir. Shaxs rivojlanishining biologik shart-sharoitlari o‘z-o‘zicha kasb-korlik yo‘nalishidan mahrumdir. Shuni ta’kidlash lozimki, insonning biologik tipi ko‘p asrlardan buyon o‘zgarish holga kelib qolgan. Lekin insoniyat paydo bo‘lgandan beri o‘tgan davrlar mobaynida kasb-kor yo‘nalishlari ijtimoiy hayotning o‘zgarishi va insonning ehtiyojlariga qarab yangilanib bordi. Har qanday kasb-korlik yo‘nalishini jamiyatning o‘zi o‘z ehtiyojlariga qarab yaratadi va tabiiy o‘ziga xos negizlar asosida turli-tuman kasb egalari shakllanadi. Shaxsning kasb-korlik vazifasini har doim ham uning biologik xususiyatlariga qarab belgilab bo‘lmaslik mumkin, ayniqsa hozirgi vaqtda kasblarning ko‘plari doimo fan-texnika taraqqiyoti taqozosi bilan o‘zgarishlar va takomillashtirishlarga duchor bo‘lib turibdi. Demak, hatto oldindan aytib berishga mumkin bo‘lganda ham u yoki bu insonni aslida qanday kasbda sinab ko‘rish lozimligi noaniq bo‘lib qoladi: uni oldindan o‘ylangan kasbgami yoki hali vujudga kelmagan yangi kasbgami tayyorlash kerakligi ma’lum bo‘lmaydi.


Jamiyatimizda unumli mehnatda muvaffaqiyatli ishtirok etish har bir shaxs uchun katta ahamiyatga ega, chunki ijtimoiy salmoq, o‘z-o‘ziga baho berish, o‘z qadr-qimmatini his qilish, kasb-korlik mahorati darajasi bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Shaxsning shakllanishining o‘zi kasb egasining shakllanishi kabi kechadi, u ko‘p hollarda ma’naviy boyish, o‘z-o‘zini qaror toptirish, burch tuyg‘usini yuksak

¹ Muslimov N.A., Sharipov Sh.S., Qo‘ysinov O.A. Mehnat ta’limi o‘qitish metodikasi, kasb tanlashga yo‘llash. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014.

darajada his etish, ijtimoiy e'tirof etish, ma'naviy va moliyyaiy rag'batlantirishlar bilan birga boradi.

Holbuki, sanoatimiz kadrlarni rag'batlantirishdan, ayniqsa o'z vazifalarini muvaffaqiyatli bajaradigan kadrlarni rag'batlantirishdan manfaaddordir. Ishga kelgan yosh kasb egasining butun mehnat faolligi davriga, ya'ni 20-30 yoki 40 yillik muddatga mo'ljallangan tizim nazarda tutilgan bo'lishi kerak. Bu tizimda erishilgan favqulodda yutuqlar uchun mukofotlar ko'zda tutilishi lozim. Lekin ular mumkin bo'lgan barcha rag'batlantirishlardan foydalanib ulgurgan bo'lmasligi kerak. Bu faqat kasb tajribasi va mahorati eng yuksak darajada egallangan, kasbga layoqatlilikning eng yuqori rivojlangan davrida sodir bo'lishi, shuningdek ishlab chiqarish sohasida va jamoat a'zosi sifatida o'z vazifalarini uzoq yillar mobaynida nuqsonsiz ado etgandan keyin yuz berishi mumkin.

Quyidagi toifadagi mutaxassislar ma'naviy-ruhiy va iqtisodiy rag'batlantirish tizimini ishlab chiqishlari lozim, deb hisoblaymiz:



Bunda mazkur kasbdagi ish stajiga muvofiq ravishda mehnat unumdorligi va sifat bo'yicha muayyan marralarga erishish asos qilib olinishi kerak. Natijada bu kasbga kirayotgan shaxs o'zining istiqboli falon yil ishlagandan keyin qanday bo'lishini, qanday ishlab chiqarish natijalarini qo'lga kiritishi mumkinligini yaqqol tasavvur qilsin. Ish stajining ko'payishi va kasb mahoratida yangi pog'onaga ko'tarilishlar bundan keyingi rag'batlantirishlarni ham talab qiladi. Pirovard natijada

xodimning shaxsiy istiqboli alohida hujjatga – xarita yoki shaxsiy istiqbol varaqasiga asoslanishi, u kasb-korlikdagi yutuqlar bilan rag‘batlantirishlarning aloqasini aniq shaklda nazarda tutishi kerak.

Shaxsiy istiqbol g‘oyasini amalga oshirishda ish shunday tashkil etilishi kerakki, ishlab chiqarishda yutuqlarga erishish uchun kurash olib borish faqat xodimning o‘z shaxsiy ishi deb qaralmasligi lozim. Chunonchi, maxsus ta’lim va malaka oshirishning har qanday pog‘onalari zarur ishlab chiqarish darajasiga yaqinlashtirilishini belgilab olish zarur. Lekin hal qiluvchi narsa shaxsiy kuch-g‘ayrat sarflash bo‘lib qolaveradi. Bularsiz mahoratni oshirish rejalari va undan keyin keladigan rag‘batlantirishlar maqsadsiz bir narsa bo‘lib qoladi. Biroq hamma narsa uchun umumiy bo‘lgan kasbiy kamolotga erishish yo‘li yo‘q. Har kim o‘zining shaxsiy tabiiy iqtidori bilan eng ko‘p darajada bog‘langan, egallangan bilim va ko‘nikmalari bilan uyg‘unlashib ketgan yo‘ldan borishi kerak¹.

O‘QUV TOPSHIRIQLARI

1-AMALIY TOPSHIRIQ

Quyidagi tushunchalarni izohlang:

TUSHUNCHALAR	TUSHUNCHALAR MAZMUNI
Professiogramma	
Qobiliyat	
Kasbga layoqatlik	
O‘ziga-o‘zi baho berish	
Tashqaridan berilgan baho	

¹ Организационно-педагогические проблемы повышения профессионального мастерства учителя.
<http://elibrary.ru/tem.asp?id=32530297>


2-AMALIY TOPSHIRIQ

Yoshlarga turli kasblar bilan tanishish uchun kasblar, kasb tanlashga oid qanday adabiyotlarni tavsiya etgan bo'lar edingiz?

Nima uchun?	Nima uchun?	Nima uchun?
Nima uchun?	Nima uchun?	Nima uchun?

3-AMALIY TOPSHIRIQ

Kasb-korlik faoliyatiga undaydigan qanday ijoboy sabalarni bilasiz?



4-AMALIY TOPSHIRIQ

Qobiliyatlarni, keyinchalik esa kasbga layoqatlilikni mustaqil baholashning shakllanish sharoitlarini o'rganish uchun qanday yo'nalishdagi umumiy o'rta ta'lim maktablarini tanlab olish tavsiya etiladi?



5-AMALIY TOPSHIRIQ

Shaxsning kasb-korlik vazifasini har doim ham uning biologik xususiyatlariga qarab belgilab bo'ladimi? Javobingizni asosb bering.



O'z-o'zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar

1. Professiogrammaning mohiyati nimada?
2. Kasb professiogrammasi mazmuni nimalardan iborat?
3. O'quvchilarning qobiliyatlarini, kasbga layoqatliligini va mikromuhitni mustaqil baholashning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va tahlil qilish ishlarini samarali tashkil etish uchun qanday jihatlarga e'tibor qaratish tavsiya etiladi?
4. Qobiliyatlarni, keyinchalik esa kasbga layoqatlilikni mustaqil baholashning shakllanish sharoitlarini o'rganish uchun nechta yo'nalishdagi umumiy o'rta ta'lim maktablarini tanlab olish tavsiya etiladi?
 - a) ikki;
 - b) uch;
 - c) to'rt;
 - d) besh.

5. Qobiliyatlarga mustaqil baho berish tashqaridan berilgan baho mezonlari bo'yicha kimning bahosi eng mosi deb hisoblashga asos bo'la oladi?

- a) ota-onalarning;
- b) o'quvchilarning;
- c) o'qituvchilarning;
- d) sinf rahbarlarining.

6. Ancha kuchaytirilgan kasbga yo'llash ishlarini olib borish uchun qanday adabiyotlarni tuzish muhim vazifalardan biri hisoblanadi?

- a) metodik-axborot va ma'lumotnoma adabiyotlar;
- b) lug'atlar;
- c) ma'lumotnomalar;
- d) klassifikatorlar.

7. Xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchilar kasblari klassifikatori (XALIKK-2020) davlat standarti qaysi hujjatga asosan tasdiqlangan?

- a) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 31-dekabrda PQ-4939-son qarori;
- b) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi PQ-5113-son qarori;
- c) O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 20-fevraldagi 131-son buyrug'i;
- d) O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligining 2021-yil 6-maydagi 05-1288-son qarori.

8. Har qanday kasb-korlik yo'nalishini:

- a) jamiyatning o'zi o'z ehtiyojlariga qarab yaratadi;
- b) insonning o'zi o'z ehtiyojlariga qarab yaratadi;
- c) davlatning o'zi o'z ehtiyojlariga qarab yaratadi;
- d) korxonaning o'zi o'z ehtiyojlariga qarab yaratadi.

4-mavzu. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish nazariyasi va metodikasi. O'sib kelayotgan yosh avlodni kasbga yo'naltirishning nazariy shart-sharoitlari

Har qanday jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta'minlaydigan yosh avlodning sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishi hal qiluvchi o'rin tutadi. Shu sababli mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar ko'lam va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azmu shijoatli, tashabbuskor yoshlar ta'lim va tarbiyasini rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Shu maqsadda o'quvchi-yoshlarni mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan zamonaviy kasb-hunarlariga o'rgatish, ularda tadbirkorlik ko'nikmalari va mehnatsevarlik fazilatlarini shakllantirish hamda tashabbuslarini ro'yobga chiqarishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Shu sababli o'quvchilarga ilm-fan asoslarini chuqur singdirish, ularda yuksak onglilikni tarbiyalash, umuminsoniy axloqiy sifatlarni shakllantirish, yosh avlodni hayotga va mehnatga, ijtimoiy zarur kasblarni ongli ravishda tanlashga tayyorlash ta'lim-tarbiya jarayonining barcha bosqichlarida hozirgi maktabning vazifalari hisoblanadi.

Kasbni to'g'ri tanlash inson hayotidagi muhim qadamlardan biridir, chunki yosh avlodning butun hayoti davomidagi muvaffaqiyati ko'p jihatdan uning kasbni nechog'li to'g'ri tanlashiga bog'liq. Kasbni to'g'ri tanlash obyektiv sabablarga, o'quvchining qiziqishiga, mayliga, qobiliyatiga va imkoniyatlariga mos bo'lishi uchun uning sog'ligini, o'zlashtirishni va hissiyotlarini, albatta, inobatga olish kerak, chunki bular kundalik faoliyatda hammadan ko'ra ko'proq qaror topadi va namoyon bo'ladi.

Sanoat sohalarining tez rivojlanganligi, qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash va elektrlashtirish borasida katta qadamlar qo'yilganligi, ilm-fan, texnikani va madaniyatni yuksaltirish sohasidagi muvaffaqiyatlar bir tomondan, yoshlarning qiziqishlari va qobiliyatlariga muvofiq, ikkinchi tomondan xalq xo'jaligi talab-ehtiyojlariga asosan kasb tanlashlari uchun katta imkoniyatlar yaratdi; maktabda texnologik ta'lim sharoitida kasbga yo'naltirish muammosini ijobiy hal qilish uchun barcha shart-sharoitlar vujudga keltirildi.

Yosh avlodda mehnatga ijodiy munosabatda bo'lishni tarbiyalash muhimdir. Ijodkorlik inson faoliyatiga umuman xos narsadir. Qobiliyat inson faoliyatida rivoj topadi. Jamiyatda inson qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud, chunki bolalar yoshligidanoq mehnatga qiziqadilar: ular o'z o'yinlarida ota-onalariga, atrof-tevarakdagi kishilarga taqlid qiladilar. Faoliyatga ana shunday intilish, kattalarning mehnatiga taqlid qilish bolalarga maktabgacha yoshdayoq hammabop kasb malakalarini singdirish uchun, ularni kasbiy faoliyatga tayyorlash uchun qulay omil bo'lib xizmat qiladi.

Tabiiyki, bularning barchasini tushunarli va obrazli shaklda bolalar ongiga yetkazish, bolalarni o'rab turgan va ularga xizmat qilayotgan barcha narsalar odamlarning mehnati bilan vujudga keltirilgan, qo'llar faqat mehnatdagina "mohir qo'llar"ga aylanadi, mehnatsiz hech narsani o'rganib bo'lmaydi, degan fikrni singdirishga harakat qilish kerak. Bu borada rivojlangan mamlakatlar, jumladan Yaponiya ta'limi tajribalaridan foydalanishni tavsiya etishimiz mumkin.

Iqtisodiy rivojlanish darajasi jihatidan Yaponiya Amerika Qo'shma Shtatlaridan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Jahonning ko'zga ko'ringan psixologlari va iqtisodchilari Yaponiya rivojlanishidagi bu ulkan parvozni mamlakatda ta'lim

tizimlari taraqqiyotiga berilgan yuqori darajadagi e'tibor samarasi, deya qayd etadilar. Bu bejiz emas. Kunchiqar mamlakat sanalgan bu yurtida ta'lim tizimlarining takomillashtirib borilishiga hukumat, xususiy kompaniyalar, jamoat tashkilotlari, ota-onalar qanshalik omilkorlik bilan yondashayotganliklarini hisobga olsak, jahon ilmiy tadqiqotchilarining yuqoridagi xulosalari asosli ekanligining guvohi bo'lamiz.

Yaponiyada oilaviy byudjetning katta qismi bolalarning sara maktablarda puxta bilim olishlarini ta'minlashga, universitetlarga kirib bilim olishlariga sarflanadi. Oilada bola yaxshi bilim olishi ushuncha shart-sharoitlar yaratib beriladi. Imtihon paytlarida esa bolalar uy yumushlaridan ozod etiladilar. Ota-onalar maktab hayotining barcha sohalarida faol ishtirok etadilar, ular o'z farzandlariga barcha sohada o'rnak va namunadirlar. Ular o'z bolalari o'qishiga yordam berish uchun juda ko'p o'qiydilar, maktab o'quv dasturini mukammal o'rganib oladilar.

Bolalar tarbiyasida onalarning roli va mas'uliyati kattadir. Ular o'zlarini farzandlarining oqil, dono, muloyim, odil va mehnatsevar bo'lib o'sishlari ushuncha oila sulolasi va davlat oldida mas'ul deb hisoblaydilar. Yaponiyada oilaviy tarbiya xususida ko'plab metodik qo'llanmalar va tavsiyanomalar nashr etiladi, radio va televidenie orqali ko'plab pedagogik maslahatlar berib boriladi.

Yaponiya ta'limi amaliy bilimlarga tayanadi. Har bir narsa amalga bajarilib, ko'rsatib beriladi va bola ham buni bajarishi lozim bo'ladi. Bu jarayon bog'chadan boshlanadi. Masalan, bolalar oshxonada ovqat tayyorlashni – qozonga tayyor mahsulotlarni qanday ketma-ketlikda solishni o'yinchoqlar yordamida o'rganadi. Do'konda xaridor va sotuvchining muomala madaniyatini va shunga o'xshash vaziyatlarni amalga bajaradi va ko'nikma hosil qiladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar o'yinchoqlarni yoyib, istagancha o'ynashi mumkin. Ammo o'yin yakunida o'zlari yig'ishtirib, tarbiyachilarning rahmatini eshitishni istashar ekan:



Yaponiyada bu holat boshlang'ich maktabda ham davom ettirilib, bunga ot-onalar hech qanday e'tiroz bildirmaydi. Bolani mehnatga o'rgatish yapon xalqining an'anasiga aylanib ulgurgani holda bugun ularning ta'lim jarayoniga ham singib ketgan. Maktablar binosining har bir qavatida rakovinalar bo'lib, maxsus ilgishtirlarga har bir o'quvchining ismi tushirilgan matolar ilib qo'yiladi va darsdan so'ng bolalar ular vositasida sinfxonalarni tozalab ketadilar. Hojatxona va zina, bino tashqarisi farroshlar tomonidan tozalanadi.

Yaponiyalik maktab o'quvchilarining ko'pchiligi maktabdan keyin turli xil mashg'ulotlarga qatnaydi, u yerda ular maktabdagi mashg'ulotlarga qaraganda ko'proq narsani o'rganadi, ba'zilar esa vaqtni uyda yoki boshqa joyda o'tkazadi.

K.D.Davlyatov o'z ilmiy izlanishlarida texnologik ta'lim berish va kasbga yo'naltirishning, yoshlarni ishchi kasblarini to'g'ri tanlashga tayyorlashning siyosiy, madaniy va pedagogik ahamiyatini aniq belgilab bergan. Bunda u kasb tanlashda shaxsning individual xususiyatlarini, tabiiy iste'dodini va uning u yoki bu kasbga qiziqishini hisobga olishni tavsiya etadi.

Hayotning o'zi maktablarda, ishlab chiqarish va o'quv yurtlarida kasbga yo'naltirish ishlarini tashkil etish va o'tkazish zaruriyatini taqozo etmoqda. Bu narsa bozor iqtisodiyotining yangi marralari yil sayin tobora keng avj oldirilayotganligi bilan bog'liqdir. Masalan, birgina Respublikamizning o'zida yaqin kelajakda bir nechta yangi sanoat va qishloq xo'jaligi obyektlari paydo bo'ladi va mavjudlari kengaytiriladi, natijada yangi kasb turlari vujudga keltiriladi. Yangi kasblar va mutaxassisliklar – kompyuterchilar, keng yo'nalishtiruvchi kasblar - menejer, sanoat robotlari nazoratchisi, avtomatik mashinalar va agregatli dastgohlar sozlovchisi, avtosozlovchi, qishloq xo'jaligi mashinalarini ishlatish va ularga texnik xizmat ko'rsatish, zamonaviy sanoat korxonalari kasblari va bir qancha yangi obyektlardagi kasblar ommalashayotgan bo'lib, ular mamlakatimizda xalq xo'jaligi sohalaridagi kerakli kasblar yo'naltirishlarini belgilab bormoqda. Sohalarga kirib kelayotgan yangi kasblarlar soni yil sayin ko'payib bormoqda. O'quvchi tanlagan kasb unda faqat og'zaki tushunchagina bo'lib qolmasligi, balki o'quvchi o'z qobiliyatlarini yangi kasbda sinab ko'rishi, unga ushbu kasb to'g'risidagi tushunchasi qanchalik to'g'ri ekanligini sinab ko'rish imkoniyati yaratib berilishi lozim.

Chunki jamiyatda shaxs har tomonlama kamol topishi lozim, buning uchun maktablarda va o'quv yurtlarida barcha imkoniyatlar mavjud. Bolalar yaxshi aqliy, jismoniy, axloqiy, mehnat, ekologik va estetik tarbiyani va shu bilan birga texnologik ta'limotni ola turib, shu asosda o'zlarini kasbiy faoliyatga tayyorlashlari mumkin. Maktablarda "Kim bo'lsam ekan?" muammosi "Qanday odam bo'lish kerak?" muammosi bilan birlikda hal qilinishi lozim. Maktab o'quvchilarni kasbga yo'naltirishga oid ishlarni ta'lim yo'llari orqali muttasil va izchillik bilan olib borishi kerak.

Kasb tanlashga yo'naltirish texnologik ta'lim jarayonida g'oyat samarali shakl kasb etadi. Bu sohada P.T.Mag'umov, A.Sh.Magdiyev, N.Shodiyevlarning xizmatlari kattadir.


P.T.Mag'umov, A.Sh.Magdiyev, N.Shodiyev o'zlarining adabiyotlarida turmushning ayrim jabhalarini ta'riflab, bunday deb yozgan edi: "Keyingi yillarda 13-14 yoshli o'g'il bolalarim bir to'da frezer dastgohlarini boshqarganlarida men ajablanganim yo'q, bu borada matematika ham, g'oyat o'tkir farosat ham kerak".

Ular o'z tarbiyasidagi bolalarning kasb tanlashini ta'riflab bunday deb yozgan edi: "Shu narsa kishini hayratda qoldiradiki, ular kasb tanlash chog'ida kelgusidagi maoshlari to'g'risida, moddiy manfaatdorlik haqida kam o'ylardilar. Ular turmushimizning g'oyat yuksalib borayotganini zo'r havas bilan kuzatardilar, qayerga kuchlar talab qililayotganini, qayerda odamlar yetishmayotganini, hukumat qayerga da'vat etayotganini tashnalik bilan kuzatardilar".

Shuningdek, P.T.Mag'umov, A.Sh.Magdiyev, N.Shodiyev o'zining kasb tanlashga oid pedagogik asarlarida o'smirning hayot yo'lini tanlashi uchun murabbiy o'qituvchilar va ota-onalarning mas'uliyati to'g'risida fikr yuritadi. Murabbiy bu borada to'g'ri maslahat berish uchun tarbiyalanuvchi kim bo'lishni xohlayotganini va nimaga umid qilayotganini, buning uchun u qanday kuch-g'ayrat sarflayotganini va uning muddaolari qanchalik amalga oshishi mumkinligini bilishi kerak.

Keyingi yillarda mamlakatimiz ta'lim muassasalarida kasbga yo'naltirish ishlarini amalga oshirish sohasida, shuningdek, yoshlarni ishchi kasblariga yo'naltirish yuzasidan maktab, oila va korxonalarning hamkorlikda ish olib borishi borasida katta ijobiy tajribalar to'plandi va bu tajribalar umumlashtirildi.

Maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirish muammosiga oid e'lon qilingan asarlarning tanqidiy tahlili va ilg'or maktablar tajribasini umumlashtirish asosida o'qituvchilarning e'tiborini yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish va ularni kasbga yo'naltirishga doir bir qator muammolarga qaratish lozim. Bu masalalarni kasbga yo'naltirish jihatlari bilan o'zaro bog'liq holda o'quvchi-yoshlarning mustaqil mashg'ulotlarida ko'rib chiqish tavsiya etiladi.



Bu muammolarni hal qilish uchun fan-texnika taraqqiyotining hozirgi talablari asosida maktab yoshlariga ta'lim-tarbiya berish va ularni ishchi kasblarini egallashga yo'naltirish shakl, metod va texnologiyalarini takomillashtirishning yangi yo'llarini qidirishga to'g'ri keladi.

Quyidagi QR kod orqali mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimida kasbga yo'naltirish ishlari tajribasi bilan tanishishingiz mumkin:



O'QUV TOPSHIRIQLARI


1-AMALIY TOPSHIRIQ

O'quvchi-yoshlarni mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan zamonaviy kasb-hunarlarga o'rgatishda maktabning vazifalarini tasvirlab bering.




2-AMALIY TOPSHIRIQ

Kasbni to'g'ri tanlash obyektiv sabablarga, o'quvchining qiziqishiga, mayliga, qobiliyatiga va imkoniyatlariga mos bo'lishi uchun inobatga olish kerak bo'lgan qanday jihatlarni bilasiz?



3-AMALIY TOPSHIRIQ

Yaponiya va mamlakatimiz ta'lim-tarbiya tizimidagi o'xshash va o'ziga xos jihatlarni ko'rsatib bering.




4-AMALIY TOPSHIRIQ

“O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishda ilg‘or tajribalar” mavzusida esse yozing.

5-AMALIY TOPSHIRIQ

O‘sib kelayotgan yosh avlodni kasbga yo‘naltirish ishini samarali tashkil etish uchun qanday shart-sharoitlar yaratilishini istardingiz?



O‘z-o‘zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar

1. Nima uchun kasbni to‘g‘ri tanlash inson hayotidagi muhim qadamlardan biri hisoblanadi?

2. Kasbni to‘g‘ri tanlash obyektiv sabablarga, o‘quvchining qiziqishiga, mayliga, qobiliyatiga va imkoniyatlariga mos bo‘lishi uchun qanday jihatlarni inobatga olish kerak?

3. Yaponiya ta‘lim tizimi yutuqlarining siri nimada? Misollar orqali izohlab bering.

4. Maktabgacha yoshdagi bolalarning muhim faoliyat turi qaysi?

- a) o‘qish;
- b) mehnat;
- c) o‘yin;
- d) o‘qish va mehnat.

5. Maktablarda “Kim bo‘lsam ekan?” muammosi qanday muammo bilan birgalikda hal qilinishi lozim?

- a) kasb tanlash muammosi bilan;
- b) “Qanday odam bo‘lish kerak?” muammosi bilan;
- c) o‘smirning hayot yo‘lini tanlashi muammosi bilan;
- d) maktab o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirish muammosi bilan.

6. Texnologik ta'lim jarayonida kasb tanlashga yo'naltirish masalasini chuqur o'rgangan o'zbek olimlari kimlar?

- a) L.Golish, D.Fayzullayeva;
- b) N.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Sayfurov, A.To'rayev;
- c) O'.Tolipov, M.Usmonboyeva;
- d) P.T.Mag'zumov, A.Sh.Magdiyev, N.Shodiyev.

7. P.T.Mag'zumov, A.Sh.Magdiyev, N.Shodiyev o'zining kasb tanlashga oid pedagogik asarlarida o'smirning hayot yo'lini tanlashi uchun kimlarning mas'uliyati to'g'risida fikr yuritadi?

- a) murabbiy o'qituvchilar va ota-onalar;
- b) sinf rahbarlari;
- c) maktab rahbarlari;
- d) maktab amaliyotchi psixologlari.

8. Nimalar yangi kasb turlarining vujudga keltirilishiga sabab bo'ladi?

- a) yaqin kelajakda bir nechta yangi sanoat va qishloq xo'jaligi obyektlari paydo bo'lishi va mavjudlarining kengaytirilishi;
- b) jamiyat ehtiyojlari;
- c) kasb tanlash muammolari;
- d) inson ehtiyojlari.

II bob. O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH TIZIMI

5-mavzu. Kasblar psixodiagnostikasi jarayonida shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish



Kasb haqida maslahat berish maqsadida maktabda faqat taxminiy psixodiagnostikaning ayrim elementlarigina amalga oshiriladi va bunday holda psixodiagnostika tanlanadigan kasb to'g'risida maslahat berishdan iborat bo'ladi.

Kasb haqida maslahat berish shaxsiy psixologik va shaxsiy xususiyatlar u yoki bu kasbning o'ziga xos xususiyatlariga mos bo'lishini aniqlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Maslahat berishning quyidagi turlari: ma'lumotnoma, diagnostik,

shakllantiruvchi va tibbiy turlari bor. Ma'lumot tarzidagi maslahat chog'ida o'quvchilar ishga joylashish yo'llarini, ishga va o'qishga qabul qilishga nisbatan qo'yiladigan talablarni, turli kasblarni o'zlashtirish imkoniyatlarini, tayyorgarlik muddatlarini, mehnatga haq to'lash tizimini, kasbiy o'sish istiqbollarini bilib oladilar. Diagnostik maslahatlar shaxsni, uning qiziqishlari, mayllari, qobiliyatlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, bunda shaxsning ana shu xususiyatlari uning tanlaydigan kasbiga yoki unga yaqin bo'lgan hunarga mosligini aniqlash ko'zda tutiladi. Shakllantiruvchi maslahatlar asosiy maqsadi maktab o'quvchilarining kasb tanlashiga rahbarlik qilish, tuzatish (to'g'rilash) ni amalga oshirishdan iborat bo'lib, ular uzoq muddatga mo'ljallangan bo'ladi, o'quvchi shaxsida yuz beradigan o'zgarishlarni muntazam ravishda qayd qilishni nazarda tutadi. Tibbiy maslahatlar o'quvchining sog'lig'ini, uning tanlaydigan kasbiga nisbatan psixologik xususiyatlarini aniqlashni maqsad qilib qo'yadi. Bunda, agar zarur bo'lib qolsa, psixofiziologik ma'lumotlarga mos bo'lgan boshqa kasbni yoki faoliyatning tanlab olinadigan sohasiga yaqin bo'lgan kasbni aniqlash maqsad qilib qo'yiladi.

Kasb tanlash, asosan, maktabdan tashqari maxsus laboratoriyalarda va asosan g'oyat qiyin ish sharoitlari bilan bog'liq kasblar bo'yicha amalga oshiriladi. Kasb tanlashdan maqsad odamning mehnatning aniq turiga yaroqli yoki yaroqsiz ekanini aniqlashdan iborat. Bunda bosharti kasbiy faoliyatning ushbu turiga da'voga biron kasbiy muhim xislat yo'qligi aniqlanib qolsa, u vaqtda unga ishga joylashish rad etiladi. Lekin bundan kasb tanlashni shaxsning ijtimoiy erkinligini cheklovchi noinsonparvarlik, deb qaramaslik kerak. Aksincha, chinakam insonparvarlik yigit yoki qizni tartibsiz (stixiyali) kasb tanlashning ko'ngilsiz, ehtimol jiddiy salbiy oqibatlaridan saqlashdan iborat. Kasb tanlashni amalga oshirgan chog'da birmuncha yuksak, kasbiy muhim xislatlar, xususiyatlarning muayyan belgilangan me'yoriy darajasiga va ularni rivojlantirishning qulay istiqbollariga ega bo'lgan da'vogarlarga afzallik beriladi.

Kasb tanlashni kasbiy saralashdan ajrata bilish kerak. Kasb tanlagan chog'da muayyan kasb uchun juda mos va muvofiq bo'lgan shaxslar tanlanadi, ya'ni bunda kasbdan shaxs tomon boriladi, kasbiy saralangan vaqtda esa mazkur shaxs uchun tegishli kasb tanlanadi, ya'ni bunda shaxsdan kasb sari boriladi.

Kasbga moslashish (ko'nikish) kasbga yo'naltirishning yakunlovchi tarkibiy qismidir. Kasbga ko'nikish bolaning ishlab chiqarishga, uni o'rab olgan yangi ijtimoiy muhitga, ish sharoitlariga va konkret mutaxassislik xususiyatlariga moslashuvning faol jarayoni hisoblanadi. Kasbga muvaffaqiyatli ravishda ko'nikish kasbni to'g'ri tanlashning asosiy mezonlaridan biri bo'lib, kasbga yo'naltirish sohasidagi butun ishning samaradorligiga baho berishdan iborat. Kasbga muvaffaqiyatli ravishda ko'nikish konkret kasbiy faoliyatga moyillikni saqlab qolish va yanada rivojlantirish bilan, mehnatning ijtimoiy va shaxsiy sabablari mos

kelishi bilan xarakterlanadi. Bunday moslashish ijtimoiy moslashish bilan birgalikda amalga oshiriladi.

O‘QUV TOPSHIRIQLARI

1-AMALIY TOPSHIRIQ


Kasblar psixodiagnostikasi jarayonida shaxsning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishga oid blits-so‘rov.

Topshiriq (blits-so‘rov):

1. Kasb psixodiagnostikasining asosiy maqsadi –
2. Kasblar psixodiagnostikasi jarayonida o‘rganiladigan shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari –
3. Kasb haqida maslahat berish turlari –
4. Ma’lumot tarzidagi maslahat –
5. Diagnostik maslahat –
6. Shakllantiruvchi maslahat –
7. Tibbiy maslahat –
8. Kasb tanlash –


2-AMALIY TOPSHIRIQ

Kasb haqida maslahat berishning asosiy turlarini sharhlab bering.



3-AMALIY TOPSHIRIQ

Nima uchun kasb tanlashni kasbiy saralashdan ajrata bilish kerak?
Asoslab bering.



4-AMALIY TOPSHIRIQ

Kasbga moslashish qaysi jarayon bilan birgalikda amalga oshiriladi?
Javobingizni asoslang.



O'z-o'zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar

1. Kasblar psixodiagnostikasining asosiy maqsadi nimadan iborat?
2. Kasblar psixodiagnostikasi jarayonida o'rganiladigan shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini sanab bering.
3. Kasb haqida maslahatning mohiyati va maslahat berishning asosiy turlarini izohlab bering.
4. O'quvchilar ishga joylashish yo'llarini, ishga va o'qishga qabul qilishga nisbatan qo'yiladigan talablarni, turli kasblarni o'zlashtirish imkoniyatlarini, tayyorgarlik muddatlarini, mehnatga haq to'lash tizimini, kasbiy o'sish istiqbollarini maslahat berishning qaysi turi orqali bilib oladilar?

- a) ma'lumot tarzidagi maslahat;
- b) diagnostik maslahat;
- c) shakllantiruvchi maslahat;
- d) tibbiy maslahat.

5. Shaxsni, uning qiziqishlari, mayllari, qobiliyatlarini o'rganishga qaratilgan maslahat berish turi qaysi?

- a) ma'lumot tarzidagi maslahat;
- b) diagnostik maslahat;
- c) shakllantiruvchi maslahat;
- d) tibbiy maslahat.

6. Qaysi maslahat berish turining asosiy maqsadi maktab o'quvchilarining kasb tanlashiga rahbarlik qilish, tuzatish (to'g'rilash) ni amalga oshirishdan iborat?

- a) ma'lumot tarzidagi maslahat;
- b) diagnostik maslahat;
- c) shakllantiruvchi maslahat;
- d) tibbiy maslahat.

7. O'quvchining sog'lig'ini, uning tanlaydigan kasbga nisbatan psixologik xususiyatlarini aniqlashni maqsad qilib qo'yadigan maslahat berish turi qaysi?

- a) ma'lumot tarzidagi maslahat;
- b) diagnostik maslahat;
- c) shakllantiruvchi maslahat;
- d) tibbiy maslahat.

8. Kasbga moslashish qaysi jarayon bilan birgalikda amalga oshiriladi?

- a) kasbiy saralash;
- b) ijtimoiy moslashish;
- c) kasb tanlash;
- d) kasb haqida maslahat berish.

6-mavzu. Maktabda o'quvchilarni kasbiy tarbiyalash yo'llari

O'quvchilarni kasbiy tarbiyalash kasbga yo'naltirish maktab tizimining asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. O'quvchilarni kasbiy tarbiyalash deganda o'quvchilarda shaxsning kasb jihatidan muhim xislatlari: insonparvarlik, kasbiy burch va sharafni, mas'uliyatni, kasbiy iftixorni, axloqiylik va shu kabilarni tarbiyalash tushuniladi. Kasbga yo'naltirishning barcha tarkibiy qismlari o'zaro chambarchas bog'langan bo'lib, ularning mavjudligi umuman tizim qonuniyatlari bilan belgilanadi, tizimdan tashqari ular o'z faoliyat yo'nalishini yo'qotib qo'yadi. Kasbga yo'naltirish tuzilmasining o'zi esa boshqa tuzilmalar bilan yuksak darajada hamkorlik qiladi.

Professiografiya – odamlarning kasbiy faoliyatini o‘rganadigan professiologiyaning muhim sohalaridan biridir. Kasblarning yoki mutaxassisliklarning, bular odamga, uning psixofiziologik va jismoniy xislatlariga nisbatan qo‘yayotgan asosiy talablarning tasnifi, shuningdek mazkur kasbiy faoliyat shaxsga muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlik, qoniqish yoki qoniqmaslik keltiruvchi omillar professiologiya vazifalariga kiradi.

Mehnatdan psixologik jihatdan foydalanish va keyinchalik amaliy faoliyatda foydalanish uchun mo‘ljallangan ishning konkret turini kompleks tarzda, muntazam va ko‘p tomonlama tasniflash **psixologik professiogramma** deb ataladi. Professiogrammalar kasb ta‘limi jarayonida o‘quvchilarni turli kasblar bilan tanishtirish uchun qo‘llaniladi.

Endi kasbga yo‘naltirishning umumiy tavsifini ko‘rib chirishdan bulardan har birini alohida-alohida batafsil o‘rganishga o‘tamiz.

Kasbga yo‘naltirish sohasida olib boriladigan butun ishni shartli ravishda quyidagi asosiy bosqichlarga bo‘lish mumkin: kasb ta‘limi (kasb axboroti); kasbiy tarbiya; kasb haqida maslahat berish; kasbga ko‘nikish; kasb tanlash (kasbning yaroqli bo‘lishi).

Shu narsani nazarda tutish kerakki, mazkur ish bosqichlari alohida-alohida ko‘rib chiqilsa ham, lekin haqiqatda kompleks qo‘llaniladi. Masalan, agar o‘quvchi kasb bilan tanishgan vaqtida nimanidir tushunmay qolsa, nimanidir bila olmasa, kasb haqidagi axborot bilan ayni bir vaqtda u yoki bu kasb haqida, uning mazmuni to‘g‘risida maslahat olishi mumkin. Lekin har ikki bosqich o‘quvchi tanlagan mehnat turiga nisbatan dastlabki kasbga qiziqishini hosil qilish uchun xizmat qiladi, ana shu mehnat turi shundan keyingi kasbga yo‘naltirish sohasidagi ish davomida rivojlantirilishi va mustahkamlanishi lozim. Shunday qilib, o‘quvchilarning kundalik faoliyat u yoki bu turini tanlashga bo‘lgan qiziqishi va mayllari xilma-xil bo‘lib, mustahkam qaror topmagan bo‘ladi. O‘quvchilarning kasbga qiziqishlari rivojlanishi va o‘zgarishi dinamikasini kuzatish uchun shundan keyingi har bir sinfda so‘rov varag‘ini batafsil to‘ldirish ma’quldir. U yoki bu o‘quvchining kasbiy niyatlarida o‘zgarishlar ro‘y berganligi aniqlangan taqdirda o‘qituvchi, sinf rahbari ana shu o‘zgarishlarning sabablarini bilib olishi lozim. Ana shunday aniqlashdan keyingina u yoki bu o‘quvchida qiziqish va mayllarni rivojlantirish yuzasidan bundan keyingi ishlarning muvaffaqiyatli o‘tkazilishiga ishonch hosil qilish mumkin. Kasbga bo‘lgan qiziqishning chuqurligi va barqarorligi o‘quvchilarning boshqa qiziqishlari ana shu kasbga bo‘lgan qiziqish bilan qanchalik bog‘liq bo‘lishiga, uni mustahkamlashiga bog‘liq¹. Masalan, o‘quv

¹ Система профессиональных мер как средство повышения осознанности выбора профессионального пути.
<http://elibrary.ru/tem.asp?id=38498275>

kundalik faoliyat va amaliy faoliyat, sinfdan tashqari ish uni mustahkamlashga yordam beradi. Shu boisdan qishloq xo'jaligi asoslari, texnologiya va dizayn, servis xizmatiga oid darslar, texnik ijodkorlik to'garaklari ana shu talablarga eng ko'p darajada mos bo'lib tushadi. Chunonchi, qishloq maktabi o'quvchilarida qishloq xo'jalik mehnati kasbiga qiziqishni shakllantirish uchun texnologik ta'limning maktab yer uchastkasi, yosh gulchilar, yosh ixtirochilar, yosh tabiatshunoslar to'garaklari kabi shakl va metodlardan foydalanish lozim.

Qishloq maktabida o'quvchilarni kasbga tayyorlash natijasida ularda agrotexnik bilim va ko'nikma, kasbiy faoliyat malakalari shakllanadi, bu o'z navbatida ularda qishloq xo'jalik kasblariga bo'lgan qiziqishni rivojlantiradi. Qishloq yoshlarida qishloq xo'jaligida eng ko'p ommalashgan va yoyilgan fermerlik, bog'bonlik kasblariga ayniqsa zo'r qiziqish kuzatilmoqda. Bu yerda fermer, bog'bon mehnati shu jihatdan diqqatga sazovorki, texnikaviy bilim va malaka agrotexnik bilimlar bilan qo'shib ketadi.

O'quv ustaxonalarida o'tkaziladigan texnologiya darslari o'quvchilarni sanoat texnologiyasining har xil turlariga jalb etishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Lekin bu masalada muvaffaqiyatga erishish ko'p jihatdan o'quvchining o'ziga, uning intizomliligi va tirishqoqligiga, ishga jiddiy va puxta o'ylab yondashishiga bog'liq. Metall bilan ishlash dastgohlarida o'quvchilarning qo'l asboblari va mexanizatsiyalashgan asboblari yordami bilan konkret o'quv-ishlab chiqarish ishlarini bajarishlari ularni sanoat ishlab chiqarishida keng ommalashgan kasblar (chilangarlik, tokarlik, frezalovchi, randalovchi kabi kasblar) bilan tanishish imkoniyatini beribgina qolmay, balki ularda mehnatning ana shu turlariga barqaror qiziqishni ham rivojlantiradi. O'qituvchilik kasbiga qiziqishni tarbiyalay turib, o'qituvchi mehnatining mazmunini ochib berishgina emas, balki ana shu mashaqqatli, lekin shu bilan birga olijanob ishdan asta-sekin bahramand qilish ham muhimdir. O'quvchilar qiziqishi barqarorligi darajasini aniqlash uchun ularga qo'lidan keladigan topshiriqlar berish va shunga muvofiq tarzda kasbga yo'naltirish ishini tashkil qilish kerak.

O'QUV TOPSHIRIQLARI

1-AMALIY TOPSHIRIQ

Maktabda o'quvchilarni kasbiy tarbiyalash yo'llariga oid blits-so'rov.

Topshiriq (blits-so'rov):

1. O'quvchilarni kasbiy tarbiyalash –
2. Professiografiya –
3. Psixologik professiogramma –
4. Kasb ta'limi (kasb axboroti) –

5. Kasbiy tarbiya –
6. Kasb haqida maslahat berish –
7. Kasbga ko‘nikish –
8. Kasb tanlash (kasbning yaroqli bo‘lishi) –

2-AMALIY TOPSHIRIQ

Quyidagi fikrni asoslang:

Kasbga yo‘naltirish sohasida olib boriladigan butun ishni shartli ravishda bir necha asosiy bosqichlarga bo‘lish mumkin. Shu narsani nazarda tutish kerakki, mazkur ish bosqichlari alohida-alohida ko‘rib chiqilsa ham, lekin amalda kompleks qo‘llaniladi.

Nima uchun?

3-AMALIY TOPSHIRIQ

Kasbga yo‘naltirish sohasida olib boriladigan ishlarning asosiy bosqichlarini tavsiflang.

1	2	3	4	5

4-AMALIY TOPSHIRIQ

Qishloq maktabi o‘quvchilarida qishloq xo‘jalik mehnati kasbiga qiziqishni shakllantirish uchun foydalaniladigan qanday shakl va metodlarni bilasiz? Izohi bilan yozing.

Qishloq maktabi o'quvchilarida qishloq xo'jalik mehnati kasbiga qiziqishni shakllantirish uchun foydalaniladigan shakl va metodlar

Four overlapping circles in orange, green, teal, and blue. Each circle contains four horizontal lines for writing. At the bottom of each circle is a small box with the text "QANDAY?".

5-AMALIY TOPSHIRIQ

O'quvchilarni sanoat ishlab chiqarishida keng ommalashgan kasblarga qiziqishini tarbiyalash yo'llarini bayon etib bering.

Kasb nomi: _____	• Kasbiy tarbiyalash yo'llari: _____ _____ _____
Kasb nomi: _____	• Kasbiy tarbiyalash yo'llari: _____ _____ _____
Kasb nomi: _____	• Kasbiy tarbiyalash yo'llari: _____ _____ _____

O'z-o'zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar

1. O'quvchilarni kasbiy tarbiyalash deganda nima tushuniladi?
2. Professiografiyaning mohiyati nimada?
3. Kasbga yo'naltirish sohasida olib boriladigan butun ishni shartli ravishda qanday asosiy bosqichlarga bo'lish mumkin?
4. Professiogrammalar nima uchun qo'llaniladi?
 - a) o'quvchi tanlagan mehnat turiga nisbatan dastlabki kasbga qiziqishini hosil qilish;
 - b) kasb ta'limi jarayonida o'quvchilarni turli kasblar bilan tanishtirish;
 - c) o'quvchilarning kasbga qiziqishlari rivojlanishi va o'zgarishi dinamikasini kuzatish;
 - d) o'quvchilarda qiziqish va mayllarni rivojlantirish.

5. Kasbga yo'naltirishning qaysi bosqichlari o'quvchi tanlagan mehnat turiga nisbatan dastlabki kasbga qiziqishini hosil qilish uchun xizmat qiladi?

- a) kasb ta'limi (kasb axboroti), kasb haqida maslahat berish;
- b) kasb ta'limi (kasb axboroti); kasbiy tarbiya;
- c) kasbiy tarbiya; kasb haqida maslahat berish;
- d) kasbga ko'nikish; kasb tanlash (kasbning yaroqli bo'lishi).

6. O'quvchilarning kasbga qiziqishlari rivojlanishi va o'zgarishi dinamikasini kuzatish uchun nima qilish kerak?

- a) o'quvchilarda qiziqish va mayllarni rivojlantirish;
- b) o'quvchilarni sanoat texnologiyasining har xil turlariga jalb etish;
- c) har bir sinfdan so'rov varag'ini batafsil to'ldirish;
- d) kasblar bilan tanishish imkoniyatini berish.

7. O'quvchilarni sanoat texnologiyasining har xil turlariga jalb etishda nima hal qiluvchi rol o'ynaydi?

- a) ishlab chiqarish korxonasida o'tkaziladigan texnologiya darslari;
- b) sinfdan tashqari ishlar;
- c) o'quvchilarning kasbga qiziqishlari rivojlanishi va o'zgarishi dinamikasini kuzatish;
- d) o'quv ustaxonalarida o'tkaziladigan texnologiya darslari.

8. O'quvchilar qiziqishi barqarorligi darajasini aniqlash uchun nima qilish kerak?

- a) kasblar bilan tanishish imkoniyatini berish;
- b) texnologik ta'limning turli shakl va metodlaridan foydalanish;
- c) o'qituvchi mehnatining mazmunini ochib berish;
- d) ularga qo'lidan keladigan topshiriqlar berish va shunga muvofiq tarzda kasbga yo'naltirish ishini tashkil qilish.

7-mavzu. O'quvchilarni kasbga yo'naltirishning tarbiyaviy ahamiyati

O'n besh, o'n olti yoshli o'smir hisoblangan to'qqizinchi sinf o'quvchisi o'z mayllarini va mehnatga bo'lgan qiziqishlarini ozmi-ko'pmi aniq belgilab olishi lozim.

Maktab yosh avlodga barvaqt kasb-hunar o'rganish prinsipini rad etib, o'quvchilarning shaxsiy iste'dod nishonalari va qiziqishlarini har tomonlama rivojlantirishga intiladi, maktab o'quvchilarda jamiyatga naf keltiradigan faoliyatga qiziqishni, kasb tanlashga tayyorlash uchun negiz bo'lib xizmat qiladigan qiziqishni tarbiyalaydi. Bu esa mehnat tarbiyasining eng muhim vazifalaridan biridir.

Maktab o'quvchilarga fan asoslaridan mustahkam bilim berishi bilan birga ularda dunyoqarashni, ish-harakat va xulq-atvorda umuminsoniy yo'nalishlarni shakllantirishi, ijodkorlik tarbiyalashi, yangiliklar yaratishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishi lozim¹.

Darhaqiqat, maktab o'smirlarning shaxsiy qiziqishlari, iste'dod kurtaklari va qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan xilma-xil ishlarni tashkil qilib, bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishga ko'maklashadi, sevimli ishni aniqlab olishga yordam beradi. Xo'sh, maktab o'quvchilarining kasb-korlik masalasini muvaffaqiyatli hal qilish uchun barcha zarur ma'lumotlar bera oladimi, har bir o'quvchida kasb tanlash muammosiga puxta o'ylab munosabatda bo'lish his-tuyg'usini tarbiyalay oladimi, shu muammoni hal qilishning to'g'ri yo'llarini ko'rsatib bera biladimi?

Afsuski, hozirgi vaqtda ko'pgina maktablar ana shu vazifani to'liq hal qila olmayapdi. Hozirgi davr faqat to'qqizinchi sinflarning o'quvchilarigina emas, balki undan yuqori X-XI sinf yoki akademik litseylar o'quvchilari ham, professional ta'lim tashkilotlari o'quvchilari ham kasb tanlash masalasiga ko'pincha chuqur o'ylab, jiddiy munosabatda bo'lishni talab qilyapdi. Ko'pgina ta'lim muassasalarida "Men kim bo'lmoqchiman?" mavzusida o'tkaziladigan so'rovnomalar va ommaviy axborot vositalarida iste'dod mavzusida davom etayotgan munozaralar ana shundan dalolat bermoqda.

O'quvchilar tomonidan berilgan javoblar va fikr-mulohazalarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ularning kelgusida egallashi mumkin bo'lgan kasblari sinfdan-sinfga o'tishlari bilan o'zgarib turadi.

Ko'pincha ayrim o'quvchilar o'zining fiziologik, psixologik yoki aqliy imkoniyatlariga batamom mos bo'lmagan kasb to'g'risida orzu qiladilar. Ba'zan shunday ham bo'ladiki (bunday hollar kam emas), maktab o'quvchisi kelgusida kim bo'lishini umuman bilmaydi, buni oldindan o'ylab ham ko'rmaydi.

Biroq o'smirlarning "Men kim bo'lishni xohlayman?" degan savolga bergan javoblari qanchalik xilma-xil bo'lmasin, boshqa bir narsa orzu qilinayotgan kasblar to'g'risida ularning g'oyat noaniq tasavvurlari va kelgusidagi hayotga tayyorgarlik ko'rishga munosabati, o'z burchlari haqida muayyan tasavvurga ega emasliklari fikr yuritishga majbur etmoqda.

Ko'pgina o'quvchilar o'z esselarida bo'lg'usi kasbga tayyorgarlik ko'rish borasida hozircha hech bir ish qilmayotganliklarini oshkora yozmoqdalar. Ularning ba'zilar u yoki bu kasbga tayyorgarlik ko'rish uchun umuman nima qilish kerakligini aytib o'tishga urinadilar-u, lekin o'zlari nima qilayotganliklari haqida lom-mim demaydilar.

¹ Организационно-педагогические проблемы повышения профессионального мастерства учителя.
<http://elibrary.ru/tem.asp?id=32530297>

Odatda javoblar quyidagichadir: “Shifokorning irodasi kuchli bo‘lishi, qo‘llari yumshoq va muloyim bo‘lishi lozim, men esa shifokor bo‘lish uchun ko‘p narsani bilishim va qila olishim kerak” yoki “O‘qituvchi, shifokor yoki muhandis bo‘lish uchun yaxshi o‘qish, odobli, halol, intizomli bo‘lish kerak, biz hammamiz bunga erishishimiz zarur”.

Bundan ham umumiy tarzda javoblar bor. Bu javoblarda shunday deyilgan: “U yoki bu kasbni egallash uchun uzoq vaqt davomida astoydil ishlash kerak” yoki: “Buning uchun esa ko‘p narsani bilish lozim, demak yaxshi o‘qish zarur”. Ammo shunday o‘quvchilar ham borki, ular u yoki bu kasb to‘g‘risida orzu qilibgina qolmay, balki bu haqda ko‘p narsalarni bilishga ham intiladilar, shu kasbga oid kitoblarni o‘qiydilar. Biroq ularning ayrimlari zarur adabiyotni ko‘pincha tanlab olishni bilmaydilar, tasodifiy kitoblarni o‘qiydilar, ularni o‘qigan chog‘larida nimaga e‘tibor berish kerakligini bilmaydilar. Chunonchi, ularning ba‘zilari esselarida ko‘p kitob o‘qiyotganliklarini umumiy tarzda bayon qiladilar, boshqalari esa barcha fanlarga oid yoki muayyan fan bo‘yicha, masalan, fizika, kimyoga doir adabiyot o‘qiyotganliklarini aytadilar. Birmuncha aniq javoblar ham bor: “Salomatlik to‘g‘risidagi jurnalni o‘qidim”, “Opamning XI sinf uchun mo‘ljallangan astronomiyaga oid darsligini o‘qiyman, ko‘p narsalarii tushunmayapman, gazetalarda bosilayotgan raketa, yo‘ldosh haqidagi xabarlarini o‘qiyman” (astronom yoki fazogir bo‘lishni orzu qiladi), “Bolalar haqidagi va bolalar uchun mo‘ljallangan kitoblarni o‘qiyman” (o‘qituvchi bo‘lmoqchi), “Adabiyotga oid kitoblarni o‘qiyman”, “Dvigatellar to‘g‘risidagi adabiyotni o‘qiyman” va hokazo. Shuning uchun ham maktabda:

- VIII-IX va X-XI sinflarning o‘quvchilarida kasb tanlash masalasiga jiddiy va mas’uliyatli munosabatda bo‘lishni tarkib toptirish;

- ularning qiziqishlari va qobiliyatlarini, psixologik va fiziologik xususiyatlarini hamda imkoniyatlarini o‘rganish, har bir o‘quvchi kelajakda o‘z hayotini baxshida etishni istaydigan faoliyat sohasini belgilab olishida unga yordamlashish;

- V-IX va X-XI sinflarning o‘quvchilari ana shu sinflarda 5 yoki 7 yil mobaynida ta’lim olgan chog‘laridaularni xalq xo‘jaligimizning asosiy kasblari bilan asta-sekin tanishtirish, ularda asosiy kasblarning sohibi bo‘lgan odamlar faoliyatining xususiyatlari to‘g‘risida to‘g‘ri tasavvurlarni shakllantirish, hozirgi vaqtda davlat, viloyat, tuman, shahar, qishloq, mahalla g‘oyat muhtoj bo‘lgan ommaviy kasblarga katta qiziqish uyg‘otish lozim.

Buning uchun har bir o‘quvchini qiziqtiradigan kasb bilan chuqur tanishtirish, tanlab olinadigan mehnat sohasida muvaffaqiyatli ishlashi uchun zarur bo‘lgan malaka va xislatlarni hosil qilish, shu kasbga barqaror qiziqishni, tanlanganfaoliyatga o‘xshash bo‘lgan ishda o‘z imkoniyatlarini maktabdayoq tekshirib ko‘rish istagini tarbiyalash yuzasidan puxta ishlashni tashkil qilish zarur.

Korxonalar, firmalar, kompaniyalar, klasterlar, fermer xo‘jaliklari va boshqa tashkilotlarning mustaqil iqtisodiy munosabatlarga o‘tishi va ularda mulkchilikning muayyan turi tashkil qilinishi hamda ishning boshqa shakllari joriy etilishi tufayli kasbga yo‘naltirish muammolariga munosabatlarni o‘zgartirish to‘g‘risidagi masala ham ko‘ndalang bo‘lib qolyapti. Shunga muvofiq tarzda kasbga yo‘naltirish vazifasi, V-IX va X-XI sinflarda o‘quvchilarni kasb tanlashga tayyorlash ishi ham boshqacha tashkil etilishi lozim. Bunda barcha o‘quvchilar kasblar bilan keng va puxta tanishtirilishi, qobiliyatlari va jismoniy imkoniyatlariga muvofiq ularning muayyan faoliyat turiga bo‘lgan barqaror qiziqishlarini aniqlash, kasbga oid guruh tarzida va yakka tartibda maslahatlar o‘tkazish, IX sinf bitiruvchilariga kasb-hunar maktablarida qaysi kasb bo‘yicha o‘qishni yoki X-XI sinflarda yoki akademik litseylarda o‘qishlarini tanlashida, XI sinf bitiruvchilariga kollejlarda, texnikumlarda qaysi kasb bo‘yicha o‘qishni yoki oliy o‘quv yurtlarida o‘qishlarini tanlashida ko‘maklashish lozim.

Yangi ijtimoiy-iqtisodiy tafakkur hukm surayotgan hozirgi sharoitda kasbga yo‘naltirishda tarbiyaviy yondashuvning asosiy xususiyatini va bu sohada olib borilayotgan ishni umuman shaxsni shakllantirish ishining bir qismi, deb hisoblash kerak. Darhaqiqat, kasb tanlash real voqelikdan ajralgan tasodifiy faoliyat emas. Yigit va qizning qanday qarorga kelishi va ular bu qarorni qanday qabul qilishi ko‘pgina omillarga: jamiyatning kadrlarga bo‘lgan talab-ehtiyojlari muhimligiga, mazkur joyda ish kuchiga bo‘lgan talablarga va ish sharoitlariga, xalq xo‘jaligi uchun mutaxassislar tayyorlaydigan ta‘lim tashkilotlarining mavjudligiga va ularda tanlovlarning kattaligiga bog‘liq. Kasb tanlash oilaviy ahvol, yashash joyi, kasblarning bir xilda ommabop bo‘lmashligi va shu kabilar bilan ham bog‘liqdir. Bunda o‘quvchilar muloqotda bo‘layotgan kishilarning ta‘siri ham katta ahamiyatga egadir. O‘smirlarning hayot yo‘lini belgilab berishda ota-onalarining roli naqadar katta. Ko‘pincha o‘quvchilar u yoki bu ishga do‘stlari, o‘rtoqlari, qo‘ni-qo‘shnilari, qarindosh-urug‘lari, tanish-bilishlarining maslahati bilan kiradilar. Bu borada maktabning ta‘siri ham kam emas. Bu sohada ijtimoiy axborot vositalari: vaqtli matbuot, radio, televidenie, internet, adabiyot katta rol o‘ynaydi.

Tabiiyki, atrofdagi kishilar va muhitning ta‘siri kasb tanlashni shakllantiradi. Bunda shaxs ularni turlicha qabul qilishi va baholashi mumkinligini ham hisobga olish zarur. Masalan, o‘quvchilar o‘zlari uchun eng yaqin kishilar bo‘lmish ota-onalarining istagi bilan hisoblashmasdan kasb tanlashlari ham mumkin. Atrofdagi kishilarning fikriga qaramasdan kasb tanlash hollari mavjud. Bunga sabab shuki, kasb tanlash muhit ta‘siriga passiv javob sifatida emas, balki ongli harakat sifatida ro‘y beradi. Bunda tashqi ta‘sirlar qayta ishlanadi va idrok qilinadi. Kasb tanlashda onglilik darajasi odam kasbni qanday tanlashiga, u jamiyat talablarini, shaxsiy xususiyatlar va qiziqishlarni qanchalik hisobga olishiga bog‘liq bo‘ladi. Binobarin,

kasbni ongli ravishda tanlash shaxsning muayyan “yetukligi”ni, xususan ma’lum umumiy ma’lumot darajasiga ega bo’lishni, mehnatga tayyorgarlik, ishlashga shaylik, kasb tanlashga qiziqish, mayllar, ijtimoiy jihatdan qimmatli bo’lgan sabablar o’z qobiliyatlariga o’zi to’g’ri baho berish va shu kabilarning mavjudligini ko’zda tutadi.


Shaxsning xulq-atvori uchun asos bo’ladigan uning fazilat va xususiyatlari birdan namoyon bo’lmaydi va o’zidan-o’zi vujudga kelmaydi. Odatda, bu fazilat va xususiyatlar shaxsning uzoq vaqt davomidagi kamoloti mahsuli, ta’lim va tarbiya sharoitida shaxs faoliyatining natijasidir. Kasb tanlash bundan mustasno emas. Chunki shaxsning shakllanish natijalari uning kasb tanlashga qanday yondashishiga ta’sir o’tkazadi. Binobarin, kasbga yo’naltirishni o’quvchilarga ta’lim-tarbiya berishdan iborat umumiy ishdan tashqari ko’rib chiqish yaramaydi. Kasbga yo’naltirish maxsus vazifaga qaratilgan bo’lsa ham unga ayrim “tadbirlar” deb qarash mumkin emas. Kasb tanlashga tayyorgarlik masalasini o’quvchilarga ta’lim-tarbiya berish sifatida qarash kerak. Shu nuqtai nazardan, masalan, kasbga yo’naltirishni yoshlarning faqat kasbiy qobiliyatlarini aniqlashga va qobiliyatlari bo’yicha kasb tanlashda ularga yordam berishga qaratilgan faoliyat, deb hisoblash noto’g’ri bo’ladi. Kasb tanlashda qobiliyatlarning muhim rol o’ynashini hech kim inkor qila olmaydi. Bunda shaxsning boshqa jihatlarini ham nazarda tutish lozim.

Kasbga yo’naltirish muammosini shaxsning faqat qiziqishlarini yoki tipologik xususiyatlarini hisobga olib hal etish yo’lidagi urinishlarni ham noto’g’ri urinishlar, deb hisoblash kerak. Masalan, qiziqishlar shaxsning maqsadini ifodalasa ham, lekin uning kasbiy jihatdan muhim xususiyatlari va xislatlarini to’liq aks ettirmaydi. Bundan tashqari qiziqishlar tez-tez o’zgarib turadi va hamma vaqt ham yetarli darajada asoslangan bo’lmaydi. Shu narsani ham yoddan chiqarmaslik kerakki, yoshlarning kasbiy qiziqishlari jamiyatning talab-ehtiyojlariga mos bo’lib tushmasligi mumkin.

Yuqorida aytilganlarning barchasini kasbga yo’naltirish ishida odamning shaxsiy xususiyatlarini o’rganishning rolini kamsitishdir, deb talqin qilish yaramaydi. Aksincha, odamning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olmay turib, shaxsning sobitqadam shakllanishiga erishib bo’lmaydi. O’quvchilarning shaxs xususiyatlari, qobiliyatlari, qiziqishlari, xarakterini, jismoniy kamolotini bilish o’quvchilarni faoliyatning qaysi bir turiga tayyorlash maqsadga muvofiq ekanini belgilash uchun zarur.


Shunday qilib, maktabdagi butun ta’lim-tarbiya tizimi o’quvchilarning ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlanishini ta’minlaydi. O’quvchilarni kasb tanlashga tayyorlash texnologik ta’lim jarayonida, shuningdek sinfdan va maktabdan tashqari ish jarayonlarida olib boriladi.

Kasbga yo’naltirish ishining mazmuni quyidagilarni o’z ichiga oladi:



Maktab o'quvchilarni kasbga yo'naltirish jarayonida ularda kasbga bo'lgan qiziqishlar va ideallarning axloqiy negizlarini, kasb tanlashning ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan sabab-oqibatlarini shakllantiradi.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishi maktabda faoliyat ko'rsatayotgan barcha pedagoglarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli bu ish ta'lim-tarbiya jarayonining ajralmas bir qismi bo'lib qolishi lozim. Shu bilan birga bu ishni samarali olib borish uchun maktabning imkoniyatlari doirasidan kelib chiqadigan maxsus ish shakllarini ham joriy etish zarur:



Shuning uchun ham maktab o'quvchilari bilan kasbga yo'naltirish ishini o'tkazishga korxona va tashkilotlarni, jamoatchilikni, ommaviy axborot vositalarini jalb qilish, kasbga oid maxsus maslahat punktlarini tuzish kerak bo'ladi, bunday punktlarda o'quvchilar va ularning ota-onalari kasb tanlash uchun kerakli bo'lgan

ma'lumotlarni olishlari mumkin. Bularning barchasini kasbga yo'naltirish xizmati deb atash mumkin. Bunday xizmatning vazifasi o'quvchilarni aniq kasbga yo'naltirish masalasini to'g'ri hal qilishda maktabga yordam berishdan iboratdir.

Kasbga yo'naltirish ishiga tarbiyaviy yondashuv g'oyasi yangi g'oya emas, albatta. Bu borada vujudga kelgan nazariya va amaliyot ikki yo'nalish bo'yicha: bir tomondan, kasbiy qobiliyatlarni tashxislash yo'nalishi, ikkinchi tomondan, qobiliyatlarni rivojlantirish, kasbga bo'lgan qiziqishni tarbiyalash yo'nalishi bo'yicha rivojlanmoqda. Chunonchi, diagnostik yo'nalish odamning qobiliyatlari tug'ma va uning tabiiy asosini na ta'lim berib, na tarbiyalab, na faoliyat jarayonida o'zgartirib bo'ladi, degan fikrga asoslanadi. Shu boisdan odamning kelajakdagi kasbi oldindan belgilab qo'yilgan, uni imkoni boricha barvaqt payqash kerak. Shu munosabat bilan shaxsning kasbga yaroqliligini aniqlash va xodimlarni o'tkazilgan tekshirish natijalariga qarab ish o'rinlariga joylashtirish kasbga yo'naltirishning asosiy vazifasidir. Bu natijalar inson uchun ma'lumot darajasini va ixtisosini ham oldindan belgilab berishi lozim.

Tug'ma qobiliyatlari to'g'risidagi ta'limot tarafdorlari shaxsni o'rganish metodi sifatida testlarni tilga oladilar va ularni birinchi o'ringa qo'yadilar.

Ma'lumki, nazariy konsepsiya tadqiqot metodikasinigina emas, balki ish tajribasi (amaliyot)ni, shuningdek talay darajada uning tashkil etilishini oldindan belgilab beradi. Ana shu yo'nalish tadqiqotchilari kasb uchun odamlarni tanlash kasbga yo'naltirishda ishning asosiy shaklidir, deb hisoblaydilar. Bunda kasb uchun odamlarni tanlash ishga joylashtirish uchun nomzodlarni «elakdan o'tkazish» sifatida tushuniladi: qobiliyatlarning ishlab chiqilgan normalariga mos bo'lgan odamlar qabul qilinadi, zarur ko'rsatkichlarga mos kelmagan kishilar esa ishga olinmaydi.

Qobiliyatlar – shaxs boshlang'ich tabiiy belgilari va uning faoliyati natijalarining “qorishmasi”dir; “faoliyat natijalari” qo'shilish materiali” sifatida qobiliyat qatoriga kiradi (S.L.Rubinshteyn); binobarin, kasbga yaroqlilik ham muayyan darajada faoliyat natijasidir.

Inson qobiliyatlarining rivojlanishi va mehnatning kasblar bo'yicha taqsimlanishi turli manbalarga ega bo'lgan va turli qonuniyatlarga bo'ysungan jarayonlardir: tabiiy iste'dod nishonalarida ham, oilada tarbiyani umuman rivojlantirish, maktabda ta'lim berish sharoitlarida ham kelgusidagi kasb-korlik talablari asosida qobiliyatlarni shakllantirishni tabaqalashtiruvchi muhim omillar yo'q.

Kasbga ishlab chiqarish va ijtimoiy munosabatlarning tarkib topgan doimiy tizimi sifatida qaralmasligi kerak, u texnikaning rivojlanishiga, texnologiyaning takomillashib borishiga va shu kabilarga qarab o'zgaradigan tarixiy taraqqiyotning umumlashgan natijasidir; nisbatan qisqa vaqt ichida hozirgi zamon kasblarining

qiyofasi jiddiy o'zgaradi, ayni mahalda inson qobiliyatlarida biron-bir keskin o'zgarishlar ro'y bermaydi.

Kasbga yaroqlilikka shaxs psixofizik xususiyatlarining kasb-korlik faoliyati talablariga mosligi sifatida qarab bo'lmaydi; inson mehnatda o'zining ijtimoiy maqsadlari, qiziqishlari, xarakter xususiyatlari va shu kabilarning butun xilma-xilligi bilan shaxs sifatida namoyon bo'ladi.

O'QUV TOPSHIRIQLARI

1-AMALIY TOPSHIRIQ

Quyidagi fikrni asoslovchi sabablarni bayon qiling:




2-AMALIY TOPSHIRIQ

“Men kim bo'lmoqchiman?” mavzusida o'tkaziladigan so'rovnoma namunasini tayyorlang.

A large rectangular box with a light gray background and a green border. It contains ten horizontal lines for writing, intended for the student to create a questionnaire sample based on the topic "Who do I want to be?".

3-AMALIY TOPSHIRIQ

Yoshlarning kasb tanlashda biror qarorga kelishi va ular bu qarorni qanday qabul qilishi qaysi omillarga bog‘liq? Javobingizni quyidagi grafik organayzer orqali ifodalang:




4-AMALIY TOPSHIRIQ

O‘smirlarning hayot yo‘lini tanlashda ota-onalarining, o‘rtoqlarining va ijtimoiy axborot vositalarining roli qanday?

Ota-onaning roli	O‘rtoqlarining roli	Ijtimoiy axborot vositalarining roli
<div></div>	<div></div>	<div></div>
<div></div>	<div></div>	<div></div>
<div></div>	<div></div>	<div></div>
<div></div>	<div></div>	<div></div>
<div></div>	<div></div>	<div></div>
<div></div>	<div></div>	<div></div>
<div></div>	<div></div>	<div></div>
<div></div>	<div></div>	<div></div>

5-AMALIY TOPSHIRIQ

O'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishini samarali olib borish uchun maktabning imkoniyatlari doirasidan kelib chiqadigan qanday maxsus ish shakllarini joriy etish zarur, deb hisoblaysiz?



O'z-o'zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar

1. Maktab o'quvchilarning kasb-korlik masalasini muvaffaqiyatli hal qilish uchun barcha zarur ma'lumotlar bera oladimi, har bir o'quvchida kasb tanlash muammosiga puxta o'ylab munosabatda bo'lish his-tuyg'usini tarbiyalay oladimi, shu muammoni hal qilishning to'g'ri yo'llarini ko'rsatib bera biladimi? Javobingizni asoslab bering.

2. Hozirgi kunda nima uchun kasbga yo'naltirish muammolariga munosabatlarni o'zgartirish to'g'risidagi masala dolzarb bo'lib qolyapti?

3. Yigit va qizning kasb tanlashda qanday qarorga kelishi va ular bu qarorni qanday qabul qilishi qaysi omillarga bog'liq?

4. Maktab o'quvchilarni kasbga yo'naltirish jarayonida nimalarni shakllantiradi?

- a) o'quvchi tanlagan mehnat turiga nisbatan dastlabki kasbga qiziqishini;
- b) o'quvchilarda kasbga bo'lgan qiziqishlar va ideallarning axloqiy negizlarini, kasb tanlashning ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan sabab-oqibatlarini;
- c) o'quvchilarning ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlanishini;
- d) o'quvchilarda qiziqish va mayllarni rivojlantirishni.

5. Kasbga yo'naltirish ishiga tarbiyaviy yondashuv borasida vujudga kelgan nazariya va amaliyot nechta yo'nalish bo'yicha rivojlanmoqda?

- a) beshta;
- b) to'rtta;
- c) uchta;
- d) ikkita.

6. Tug'ma qobiliyatlar to'g'risidagi ta'limot tarafdorlari shaxsni o'rganish metodi sifatida nimani birinchi o'ringa qo'yadilar?

- a) testlarni;
- b) ekskursiyalarni;

- c) tajribalarni;
- d) kuzatishni.

7. Qobiliyatlar – shaxs boshlang‘ich tabiiy belgilari va uning faoliyati natijalarining “qorishmasi”dir; “faoliyat natijalari” qo‘shilish materiali” sifatida qobiliyat qatoriga kiradi. Ushbu ta’rif kim tomonidan berilgan?

- a) P.T.Mag‘zumov;
- b) A.Sh.Magdiyev;
- c) S.L.Rubinshteyn;
- d) N.Shodiyev.

8. Inson nimada o‘zining ijtimoiy maqsadlari, qiziqishlari, xarakter xususiyatlari va shu kabilarning butun xilma-xilligi bilan shaxs sifatida namoyon bo‘ladi?

- a) kasb tanlashda;
- b) mehnatda;
- c) o‘qishda;
- d) o‘yin faoliyatida.

8-mavzu. O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishning maktab tizimi va uning samaralari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev o‘zining “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” nomli asarida ta’kidlaganidek: “Maktab – faqatgina ta’lim beradigan maskan emas, barchamiz uchun yuksak ma’naviyat beshigiga, farzandlarimizni bolalikdan boshlab kasbga o‘rgatuvchi dargohga aylanishi zarur”.

Zero kasb tanlash har bir inson hayotidagi muhim jarayon bo‘lib, unga faqat tirikchilik manbai, moddiy ta’minot sifatida emas, balki hayotning mazmuni, insonning ma’naviy qiyofasi aks etadigan jarayon, aniqroq aytganda, inson umrining asosiy qismini qamrab oladigan jabha sifatida qarash kerak. Bu jarayonda yoshlar o‘zini qamrab olgan olam, o‘zi tushunib yetgan dunyo bo‘yicha xulosa qiladi.

Chunki bolalik davrida kasb tanlash nihoyatda tez o‘zgaruvchan jarayon hisoblanadi. Buning asosiy sabablaridan biri bolaning kasblar haqidagi tushunchalarining yetarli emasligi, imkoniyatlarning chegaralanganligidadir. Ya’ni bolaga asosan ota-ona, oilasi, eshitgan yoki o‘qigan manbalari kasblar haqida ma’lumot beruvchilar hisoblanadi.

Kasbga yo‘naltirish bu – yoshlarga shaxsiy xususiyatlarni hisobga olgan holda kasb tanlashda yordam berishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimidir.

O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishning maktab tizimi kasbga yo‘naltirish ishini amalga oshirishning umumiy tizimida dastlabki bosqich hisoblanadi:



Kasb egallashgacha bo'lgan tayyorgarlik davri maktab yoshlarini moddiy ishlab chiqarish sohasida kasbga tayyorlashning umumiy qismi bo'lib qoladi. Puxta tayyorgarlikni olgan inson ishlab chiqarish kasbini tez egallaydi.

Texnologiya fani o'qituvchisining ishida psixologik diagnostikaga katta o'rin ajratiladi. Texnologiya fani o'qituvchisi ishida quyidagi yo'nalishlarni ko'rsatib o'tish mumkin:


Texnologiya fani o'qituvchisi ishi yo'nalishlari				
O'quvchilarni kasb ta'limi, mehnat va kasb faoliyati sohalari, xalq xo'jaligining ayrim tarmoqlari, kasblar va mutaxassisliklar bilan tanishtirish	Psixologik-pedagogik maslahat - kasb turlari to'g'risida, o'quvchi xislatlari, bilimlari va mayllariga eng muvofiq bo'lgan kasblar va mutaxassisliklar haqida o'quvchiga gapirib berish	O'quvchilarda u yoki bu kasbga nisbatan barqaror qiziqishlarni shakllantiruvchi mehnat va kasb tarbiyasini amalga oshirish	Kasbiy faoliyatning turli sohalarida kuchlarni amaliy jihatdan sinab ko'rish uchun shart-sharoitlar yaratuvchi amaliy kasbiy ko'nikishni amalga oshirish	Kasbga yo'naltirish maqsadida o'quvchining shaxsini o'rganish, mehnatga bo'lgan qiziqishlarni va kasbga qiziqishlarni shakllantirish

Texnologiya darslarida kasbga yo'naltirish ishini olib borishda hamda o'quvchilarni kundalik faoliyatga tayyorlashda texnologiya fanining boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasini ham inobatga olish lozim. Boshqacha aytganda texnologiya fani o'qituvchisi maktabda "manometr" vazifasini bajarishi kerak. Masalan, "Duradgorlik va yog'ochsozlik buyumlari, konstruksiyalari va ularni tayyorlash" mavzusi yuzasidan eshik yoki rom yasashni o'rgatish bo'yicha olib boriladigan mashg'ulotni ko'rib chiqaylik. Bunda o'qituvchi dastlab eshik yoki rom yasash uchun ishlatiladigan qurilish materiallari (xomashyo), ularning turlari, eshik yoki romlarning yaratilish va yasash tarixi, ularning qayerlarda ishlatilishi haqida ma'lumot beradi. Buning uchun o'qituvchi va o'quvchidan fizika, kimyo va biologiya fanlariga oid bilimlardan xabardorlik talab etiladi. Shundan so'ng buyum (eshik yoki rom)ning texnologik xaritasini tuzib olish kerakligi, keyin uning


chizmasi chizib olinishi lozimligi tushuntiriladi. Bunda o'qituvchi va o'quvchiga matematika va chizmachilik fanlariga oid bilimlar asqotadi. So'ngra texnologik xarita va chizma asosida buyumni yasash uchun kerak bo'ladigan o'lchash, rejalash va ish qurollari, moslama va jihozlar tayyorlanadi. Bu jarayonda fizika, kimyo, tarix, tilshunoslik va boshqa fanlarga oid bilimlarga ega bo'lish maqsadga muvofiq.

Shuning uchun ham maktabda kasbga yo'naltirish ishini tashkil etishda texnologiya o'qituvchisining faoliyatini sinf rahbarlari va boshqa fan o'qituvchilari ishi bilan muvofiqlashtirib olib borish g'oyat muhimdir.


Ta'lim-tarbiya jarayonida kasbga yo'naltirish vazifalariga muvofiq maktab fan o'qituvchilari uchun quyidagi ish bosqichlarini sanab o'tish mumkin:



Shu sababli ham har bir fan o'qituvchisi kasbga yo'naltiruvchi materiallarni tanlash metodikasini egallab olishlari maqsadga muvofiq. Bu vazifani quyidagi sxema asosida bajarish mumkin:



O'qituvchi o'quvchilarni kasbga yo'naltirish sohasidagi quyidagi asosiy ishlarni dars jarayonida olib boradi:



Dars jarayonida kasbga yo'naltirishning muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'qituvchining kasbga yo'naltiruvchi materialni dasturiy materiallar bilan bog'lay olishiga, o'quvchilarda ta'limning zamonaviy metodlaridan foydalanib, hozirgi ishchining mehnatiga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishni shakllanira bilishiga bog'liq. Kasbga yo'naltiruvchi materialni tanlashda ta'lim mazmunidan kelib chiqadigan quyidagi prinsiplarga:

- kasbga yo'naltirish mazmunining ijtimoiy va ilmiy-texnika taraqqiyoti darajasiga mosligi prinsipiga;

- kasbga yo'naltirish ishi mazmunining shakllari va metodlari mosligi prinsipiga amal qilish lozim.

Maktabda kasbga yo'naltirish ishini amalga oshirish uchun kerak bo'lgan professiografik materiallarni tanlashning asosiy mezonlari ana shu prinsiplardan kelib chiqadi. Bu asosiy mezonlar quyidagilardan iborat:

Mezonning kompleksligi	Yuksak ilmiy-amaliy ahamiyatlilik mezon	Hammaboplik mezon	Oqilonalik mezon	Uzviy o'zaro bog'liqlik mezon
<ul style="list-style-type: none"> • Mezonning mohiyati shundan iboratki, o'quvchilarni kasbga yo'naltirish mazmunida ijtimoiy va ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlari, shuningdek faoliyatning har xil turlari uchun sharoitlar yaratish hamda politexnik bilimlarni va umummehnat malakalarini shakllantirish, shaxsni har tomonlama tarbiyalash, shaxsning kasbiy iste'dodlari, qobiliyatlari va qiziqishlarini aniqlash va rivojlantirish aks etadi. 	<ul style="list-style-type: none"> • Mezonga asoslanib, kasbga yo'naltirish materiallari mazmuniga fan va amaliyotning barcha e'tirof etgan yutuqlarini, obyektiv fanlararo aloqaga va amaliy qo'llanishga ega bo'lgan politexnik yo'nalishdagi texnikaviy ma'lumotlarni kiritish lozim. 	<ul style="list-style-type: none"> • Mazkur mezonga asosan o'quvchilarni kasbga yo'naltirish mazmuni ularning yosh xususiyatlariga muvofiq, hammabop bo'lishi kerak. 	<ul style="list-style-type: none"> • Mezonning mohiyati shuki, kasbga yo'naltiruvchi materiallarning hajmi o'quvchilarga juda ko'p, ortiqcha ish topshirmay, shu materiallarni o'rganish uchun ajratilgan vaqt mirdoriga mos bo'lishi lozim. 	<ul style="list-style-type: none"> • Mezonning mohiyati shundan iboratki, professiografik materiallar tabiiy ravishda dars va tarbiyaviy tadbirlar mazmuniga kiritilishi, bular zo'r-lab qabul qildirilmasligi va lo'nda bo'lishi kerak.

Bugungi ijtimoiy hayotimizda bola kasb tanlashiga quyidagi tashqi omillar ta'sir etadi:

- ota-onalarning xohish-istagi, orzu-havasi;
- oilaning moddiy imkoniyati;
- tashqi muhitning ta'siri;
- ish topishdagi muammolar va sharoitlarning mavjudligi.

Shuningdek, yoshlarni kasb tanlashini o'z ixtiyoriga tashlab qo'yish ham doimo yaxshi natija bermaydi. Ota-ona va ustozlar bolalardagi iqtidorni tez ilg'ashadi. Bunda boladagi kasb tanlashga bo'lgan yakuniy xulosa uning qiziqishiga, iqtidoriga va bilim salohiyatiga mos kelsa, bunday holatlarda bolalar fikrini va xulosasini olqishlash va qo'llab-quvvatlash lozim.

Maktablarda samarali amalga oshirilgan o'quvchilarni kasbga yo'naltirish jarayoni ham bolalarga kasblar haqida, ularning mohiyati, ish jarayoni va natijalari haqida yetarli ma'lumotlar beradi. Shuning uchun bu jarayonni samarali yo'lga qo'yish o'quvchining kelajakda o'z kasbining mohir ustasi, haqiqiy mutaxassisi bo'lib yetishishiga turtki bo'ladi, deb hisoblaymiz.

Umumta'lim maktablarida kasbga yo'naltirish masalasida texnologiya fani o'qituvchisining roli muhim hisoblanadi. Masalan texnologiya fani o'qituvchisi dars mavzusining nazariy qismini o'quvchilarga tushuntirib bo'lgach, o'quvchilarni

o'quv ustaxonasida olingan nazariy bilimlarini mustahkamlash jarayoniga jalb qilib boradi. Buning natijasida o'quvchi o'quv ustaxonada ma'lum kasbga oid dastlabki ko'nikmalarni egallay boshlaydi. Ma'lum vaqt o'tgach o'quvchi o'zining egallagan ko'nikmalarini kichik ishlab chiqarish firmasida shogird sifatida davom ettirib, o'zining mehnat ko'nikmalarini mustahkamlab boradi. Mustaqil hayotga qadam qo'yganida o'rgangan kasbi bo'yicha ishlab chiqarish korxonasiga ishchi sifatida ishga kirib, o'z kasbi bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirib boradi. O'z kasbini yaxshi bilganligi uning korxonadagi mansabini ham oshirib boradi. Ma'lum vaqtdan keyin ishlab chiqaruvchi korxonada brigadir, yirik ishlab chiqarishda tashkilotchi yoki yirik maslahatchi, mutaxassis darjasiga yetib boradi. O'z ishining ustasi bo'lganligi sababli ishlab chiqarish korxonasida rahbar, keyinchalik esa shu korxonaning mulkdori yoki investori darajasiga ham yetishi mumkin.

Buning uchun esa maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirish jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchilarning kasblar haqidagi bilimlarini yangilab borish, chuqurlashtirish va ularning ma'lum kasbga bo'lgan qiziqishlarini oshira borib, motivatsiya berib borish lozim bo'ladi.

Odatda texnologiya fani o'qituvchilari aslida ta'lim muassasalarida mehnat jamoasini ham, o'quvchilar jamoasini ham oldidagi eng e'tiborli shaxs sifatida gavdalanishi kerak, chunki texnologiya fani o'qituvchisining serqirra kasb egasi bo'lishi barcha fanlardan tegishli bilim va ko'nikmalarga ega ekanligi har qanday o'quvchining ham diqqatini tortishi shubhasiz. Masalan, texnologiya o'qituvchisi maktabda texnologiya darsining nazariy qismida tayyorlanishi kerak bo'lgan buyum haqida tushuncha berar ekan dastlab bu buyumning inson hayotidagi ahamiyati qayerda qachon ishlashi, hayotiy zarurati haqida, tayyorlanadigan buyumning shakli va hajmini tushuntirayotganda geometrik bilimlarga, o'lchov birliklarini olayotganda matematik bilimlarga, texnologik xaritasini chizayotganda tasviriy san'at va chimachilik sohasidagi, buyum yasash uchun tanlab olingan materiallarning bikrligini aniqlashda fizikaviy, materiallarning chidamliligini aniqlashda kimyoviy, biologik bilimlarga ega bo'lgan mutaxassis sifatida tushuncha bersa har qanday o'quvchining ustozga nisbatan hurmati ortadi. Bu o'quvchini o'qituvchi shuncha bilimni qayerdan bilishi, qanday o'zlashtirgani haqida fikrlashga undaydi. O'qituvchi aynan shu jarayonni o'quvchilargsha tushuntirayotgan vaqtida fanlararo integratsiyaga alohida urg'u beradi, hatto o'zi ishlayotgan ta'lim muassasasida qaysi fan qanday o'qitilayotgani haqida ham fikrga ega bo'ladi. Chunki aynan o'quvchilar maktabda olgan bilimlarini amalda qo'llash imkoniyatini texnologiya darslarining amaliy mashg'ulotlarida namoyish qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Amaliy mashg'ulotlarni kuzatish davomida o'qituvchi o'quvchilardagi iqtidorni ham sezadi, ularga navbatdagi maslahatlarni berib borish imkoniyatiga ham ega bo'ladi

Texnologiya fani o'qituvchisi o'quvchilarni sinf xonasidan o'quv ustaxonasiga o'tkazar ekan u yerda o'quvchining imkoniyatlarini va qiziqishlarini hisobga olib aynan shu o'quvchini shu yo'nish bo'yicha mavjud bo'lgan kichik biznes obyektlaridan biriga shogird sifatida ishlatish mumkinligini tushuntirib beradi va darsdan bo'sh vaqtlarida o'quvchini sinfdan tashqari to'garaklarga jalb qilib boradi shu jarayonning takrorlanishi natijasida o'qituvchi o'quvchini mustaqil ishlash imkoniyatini ham yaratib beradi. O'quvchi mustaqil ishlash jarayonida mas'uliyatni his qila boshlaydi, o'quvchida ma'lum bir ko'nikma hosil bo'lgandan keyin o'quvchi yoniga o'rtogini ham qo'shgisi keladi, aynan shu jarayonga alohida e'tibor qaratadi, o'quvchi-shogird o'z sheriklarini ham birga olib borganda unga ustoz sen o'rtoqlaringga boshliqsan, ularga sen yordam berasan, deb shu o'quvchi shogirdan lider yaratadi.

Yuqorida keltirgan misoldan ko'rinib turibdiki, maktablarning imkoniyati juda katta, ayniqsa, texnologiya fani o'qituvchisining imkoniyati chegarasiz. O'quvchilarni kasblarga yo'llashda texnologiya fani o'qituvchisi maktab yoki o'quv yurti bilan ishlab chiqarish korxonasi o'rtasida hamkorlikni o'rnatib, kelgusida o'quvchilarni sinfdan tashqari tadbirlar bilan band qilinsa, o'quvchilar tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lgan noxush holatlar bo'lmaydi, o'quvchining ota-onasi uchun ham, maktab uchun ham muammolar kelib chiqmaydi. Aksincha o'quvchini ertaga boradigan joyi aniq bo'ladi, u ish yoki o'qishga ma'lum bir ko'nikma bilan boradi, uning kelgusi faoliyati boshqalarga nisbatan ancha samarali bo'ladi.

*Quyidagi QR kod orqali bob yuzasidan
olgan bilimlaringizni mustahkamlang:*



O'QUV TOPSHIRIQLARI

1-AMALIY TOPSHIRIQ

**O'quvchilarni kasbga yo'naltirishning maktab tizimiga oid blits-so'rov.
Topshiriq (blits-so'rov):**


1. Kasbga yo'naltirish ishi maktab tizimining vazifalari –
2. Kasb egallashgacha bo'lgan tayyorgarlik davri –
3. Texnologiya fani o'qituvchisining kasbga yo'naltirish ishi yo'nalishlari –

4. Ta'lim-tarbiya jarayonida kasbga yo'naltirish vazifalariga muvofiq maktab fan o'qituvchilari uchun ish bosqichlari –

5. Maktabda kasbga yo'naltirish ishini amalga oshirish uchun kerak bo'lgan professiografik materiallarni tanlashning asosiy mezonlari –

2-AMALIY TOPSHIRIQ

Kasb tanlash har bir inson hayotidagi muhim jarayon ekanligini asoslab bering.



3-AMALIY TOPSHIRIQ

Texnologiya darslarida kasbga yo'naltirish ishini olib borishda hamda o'quvchilarni kundalik faoliyatga tayyorlashda texnologiya fanining boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasini misollar orqali yoritib bering.

A large, empty, rounded rectangular box with a decorative top and bottom edge, containing several horizontal lines for writing.

4-AMALIY TOPSHIRIQ

Bugungi ijtimoiy hayotimizda bola kasb tanlashiga qanday tashqi omillar ta'sir etadi?



5-AMALIY TOPSHIRIQ

O'quvchilarni kasblarga yo'llashda vujudga keladigan muammolarni sanab ko'rsating. Ulardan birini hal etish yo'llarini ishlab chiqing.

Mavjud muammolar: _____

Muammo turi	Muammoning kelib chiqish sabablari	Muammoni hal etish yo'llari va sizning harakatlaringiz

O'z-o'zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar

- Kasb tanlash jarayoniga qanday jabha sifatida qarash kerak?
- O'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishi maktab tizimining vazifalariga qanday vazifalar kiradi?
- Texnologiya fani o'qituvchisi ishi yo'nalishlarini ko'rsatib bering.
- Ta'lim-tarbiya jarayonida kasbga yo'naltirish vazifalariga muvofiq maktab fan o'qituvchilari uchun nechta ish bosqichlarini sanab o'tish mumkin?
 - oltita;
 - yettita;
 - sakkizta;
 - to'qqizta.
- O'qituvchi dars jarayonida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish sohasidagi nechta asosiy ishlarni olib boradi?
 - beshta;

- b) to'rtta;
- c) oltita;
- d) yettita.

6. Maktabda kasbga yo'naltirish ishini amalga oshirish uchun kerak bo'lgan professiografik materiallarni tanlashning asosiy mezonlari nechta?

- a) oltita;
- b) yettita;
- c) sakkizta;
- d) beshta.

7. Bugungi ijtimoiy hayotimizda bola kasb tanlashiga qaysi tashqi omillar ta'sir etadi?

- a) ota-onalarning xohish-istagi, orzu-havasi, oilaning moddiy imkoniyati, tashqi muhitning ta'siri, ish topishdagi muammolar va sharoitlarning mavjudligi;
- b) tarbiya, muhit, irsiyat;
- c) ichki va tashqi muhitning ta'siri;
- d) bolaning qiziqishlari.

8. Kimlar bolalardagi iqtidorni tez ilg'ashadi?

- a) texnologiya fani o'qituvchilari;
- b) psixologlar;
- c) sinf rahbarlari;
- d) ota-ona va ustozlar.

III bob. O‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH JARAYONI

9-mavzu. O‘quvchilarni kasb tanlashga yo‘llash ishlarining holati. Texnologiya darsi jarayonida o‘quvchilarni kasb tanlashga yo‘naltirish.

Maktab yoshlarni o‘z qobiliyatlariga yarasha ongli ravishda aniq maqsadga yo‘naltirilgan kasb tanlashga tayyorlashga mas’uldir. Ishchi ixtisosini ongli ravishda tanlash yosh ishchi shaxsining shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Yoshlarning ishchi kasbini tanlashlari, o‘z mahoratlarini takomillashtirib borishlari, kasb-hunar maktablari, kollejlari, texnikumlar, o‘quv markazlari, oliy maktablar, institutlar, universitetlar va akademiyalarda o‘z malakalarini uzluksiz oshirib borishlari, ularning ishlab chiqarish sohasining chinakam, mohir ustalari bo‘lib yetishishlari, ijtimoiy hayotda bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat harakatida faol qatnashishlari allaqachon odat tusiga kirib qoldi. Biroq o‘quvchilarni kasb tanlashga yo‘llash ishi har bir kishining individual sifatлари, qiziqishlari, uning qobiliyat va mayllarini, jamiyat ehtiyojlari, shuningdek, sanoat, qishloq xo‘jaligi, xalq xo‘jaligi barcha sohalarining perspektiv rivojlanishini hisobga olgandagina samarali bo‘lishi mumkin.

Oliy va o‘rta maxsus ma’lumotli kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni qondirish uchun har yili oliy va professional ta’lim tashkilotlari maktab bitiruvchilarining taxminan 1/3 qismini qabul qilish va IX sinf bitiruvchilarining ma’lum bir qismiga kasb-hunar maktablarida kasb-hunar o‘rgatish ishlarini amalga oshirish mamlakatimizda ishlab chiqarish kuchlarining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Shunday qilib, to‘qqizinchi sinf o‘quvchilarining ma’lum bir qismi moddiy ishlab chiqarish doirasida ishlashlari uchun kasb-hunar maktablarida kasb-hunar egallashadi. Bu kasblarni tanlashi uchun umumiy o‘rta ta’lim maktablarining V-IX sinflaridagi kasb-hunarga yo‘naltirish ishlari alohida o‘rin tutadi. Shu boisdan maktabda kasb tanlashga yo‘llash bo‘yicha ishlarni tashkil qilishdan maqsad o‘z qobiliyatini namoyish qilishning yagona yo‘li faqatgina oliy ma’lumotga ega bo‘lish orqali emasligi to‘g‘risidagi fikrlarni ilgari surishdir. O‘quvchilarda jismoniy mehnat kishilariga nisbatan hurmatni boshdan, maktabdagi barcha ta’lim-tarbiya jarayonida tarbiyalab borish kerak. O‘z o‘quvchisi qobiliyatini o‘qituvchidan boshqa hech kim yaxshiroq bilmaydi. O‘qituvchi o‘quvchilardagi ishlab chiqarishga ongli ravishda olib keladigan fazilatlarni rivojlantirishga doir ishlarni juda ehtiyotkorlik bilan olib borishi lozim. Bu o‘z navbatida kasb tanlashga yo‘llash bo‘yicha ishlarning barcha shakl va metodlarining mujassam bo‘lishiga, sinfdagi o‘quv fanlariga oid darslar va darsdan tashqari mashg‘ulotlar, ishlab chiqarish ilg‘orlari bilan uchrashuvlar, “Kasb tanlash to‘g‘risida”gi ma’ruza, suhbat va hokazolarga bog‘liq. Maktab bu ishlarni

amalga oshirishda o'quvchilar ota-onalarining, maktab pedagogik jamoasi, otaliq korxonalarining, davlat va nodavlat jamoatchilik tashkilotlari, shuningdek, kasaba uyushma boshlang'ich tashkilotlarining qo'llab-quvvatlashiga tayanishi lozim.

Bu borada kasb-hunar maktablarini ishlab chiqarish uchun malakali kadrlar tayyorlashning asosiy kanallaridan biri deb hisoblash mumkin. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda 700 dan ortiq professional ta'lim tashkilotlari bo'lib, ulardan 339 tasi kasb-hunar maktablaridir. Bugungi kunda kasb-hunar maktablarida 250 mingga yaqin o'quvchi bilim olmoqda. Shuning uchun ham mamlakatimizda maktablarning to'qqizinchi sinfini tamomlagan o'quvchilarga katta umumta'lim tayyorgarligiga asoslangan xilma-xil ishchi kasbi va ixtisoslarini tanlash va ularni egallashlarida juda keng imkoniyatlar yaratilgan.

Kasb tanlashga yo'llash bo'yicha barcha ishlarni shartli ravishda quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:



Shuni aytib o'tish lozimki, mazkur bosqichlar, garchi alohida-alohida ko'rib o'tilayotgan bo'lsada, amalda ular bir butunlikda, kompleks qo'llaniladi. O'qituvchi bir vaqtning o'zida ularning bir nechtasidan foydalanishi mumkin. Masalan, kasbga oid axborot bilan parallel holda u yoki bu kasb haqida, agar o'quvchi kasb bilan tanishish paytida biror nimaga tushunmay qolgan bo'lsa, konsultatsiya berilishi ham mumkin. Ammo bu har ikkalasi tanlangan mehnat turi bo'yicha kasbga boshlang'ich havasni paydo qilish uchun asos sanalib, kelgusida kasb tanlashga yo'llash ishlari davomida rivojlantirilishi va mustahkamlanishi lozim.

Texnologik ta'lim jarayonida kasb tanlashga yo'llashning mazmuni.

Texnologik ta'lim fanlarini o'qitishda variativ o'quv modullari zamonaviy ishlab chiqarishning quyidagi yo'nalishlari bo'yicha amalga oshiriladi:

injenerlik-texnologik;

agrotexnologik;

servis-texnologik (xizmat ko'rsatish sohasi);

robototexnika, zamonaviy energetika, transport tizimlari va texnika.

```
graph LR; A[Iqtisodiyot sohasidagi globallashuv] --> B[Ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar transformatsiyasi]; B --> C[Kadrlar tayyorlashda sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash]; C --> D[Texnologik ta'lim maqomi va nufuzini oshirish]; D --> E[O'quvchi-yoshlar o'rtasida ijodkorlik muhitini shakllantirish]; E --> F[Iqtidorli o'quvchi-yoshlarni aniqlash]; F --> G[Tuman, viloyat, respublika miqyosida intellektual yetuk o'quvchi-yoshlar seleksiyasini tashkil etish tizimini shakllantirish];
```

Iqtisodiyot sohasidagi globallashuv

Ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar transformatsiyasi

Kadrlar tayyorlashda sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash

Texnologik ta'lim maqomi va nufuzini oshirish

O'quvchi-yoshlar o'rtasida ijodkorlik muhitini shakllantirish

Iqtidorli o'quvchi-yoshlarni aniqlash

Tuman, viloyat, respublika miqyosida intellektual yetuk o'quvchi-yoshlar seleksiyasini tashkil etish tizimini shakllantirish

O'quvchilarda texnik ijodkorlikni, qobiliyatni, tafakkurni rivojlantirish	Dars jarayonida tabiiy, metall va metallmas materiallarga texnologik ishlov berish usullarini o'rgatish orqali kasb-hunarga yo'naltirishni yanada kuchaytirish	Hunarmandchilik asoslari, ishlab chiqarish, ro'zg'orshunoslik asoslari, elektrotexnika ishlari, elektronika va robototexnika asoslari, ijodiy loyiha tayyorlash texnologiyasi, kasb-hunarga yo'llash bo'yicha o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini hayotda qo'llay olish layoqatini shakllantirish
---	--	---


Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga kasb turlari, zamonaviy kasblar haqida ma'lumot beriladi.

Boshlang'ich sinflarda texnologiya fani quyidagi bo'limlar asosida o'qitiladi:						
Texnologiya va texnologik vositalar	Texnik konstruksiyalash va modellashtirish	Qog'oz va karton bilan ishlash	Tabiiy va turli materiallar bilan ishlash	Robototexnika asoslari	Zamonaviy kasblar	Milliy hunarmandchilik

quyidagilarga alohida e'tibor qaratish lozim deb hisoblaymiz:

- | |
|--|
| kasb turlari, zamonaviy kasblar haqida nazariy ma'lumotlar berish |
| o'quvchilar uchun kasblar xilma-xilligi bankini yaratish |
| o'quvchilarning kasb turlari, zamonaviy kasblar haqidagi bilimlar darajasini sinflar kesimida aniqlash va o'sish dinamikasini kuzatib borish |
| o'quvchilarning birinchi o'yinchoqlari, ularning bola hayotidagi o'rni va ahamiyatini o'rganish |
| boshlang'ich sinflar (I-IV sinflar)da o'qitiladigan fanlar dasturlari va taqvim-mavzu rejaları, dars ishlanmalari mazmuniga kasb tanlash bilan bog'liq mavzularni kiritish |

V-VII sinflarda asosan sohaga oid kasb-hunar turlari haqida ma'lumot beriladi. Bunda o'quvchilar quyidagi sohalarga oid qanday ommaviy ishchi kasblar borligi bilan tanishadilar (bu kasblarning elementlari o'quvchilarning ustaxonadagi faoliyati mazmunini tashkil etishi maqsadga muvofiq):



VI-VII sinflarda kasb to'g'risida ma'lumot berish bilan bir qatorda kasbiy tarbiyalash ishlari ham olib boriladi. Bunga sabab shuki, VII sinfni bitirish arafasida o'quvchilar bo'lg'usi kasb tayyorgarligining yo'nalishini tanlab olishlari zarur. Har bir yo'nalish ko'plab ommaviy ishchi kasblarini o'z ichiga oladi. Shuning uchun ular ustaxonadagi mashg'ulotlarning mazmuni bilan izchil aloqada bo'lgan kasblar bo'lishi (masalan, metallga ishlov berishga, yog'ochga ishlov berishga va polimerga ishlov berish, mexatronika va robototexnikaga oid kasblar) yoki ular bilan hech qanday aloqador bo'lmagan kasblar (chunonchi, suvoqchilik, bo'yoqchilik va shu kabi qurilish kasblari) bo'lishi mumkin.

Kasb tanlashga yo'naltirish ishini amalga oshirishda kasbga tanlashga ta'sir etuvchi omillar (ichki va tashqi omillar), o'quvchilarning qobiliyatlari, qiziqishlari va imkoniyatlari inobatga olinishi juda muhim. Bu ishini olib borishda maktabning real ish sharoitlarini hisobga olish darkor. Mamlakatimiz turli tumanlarining ishlab chiqarish bazasi bir xilda emas. Misol tariqasida Rishton tumanini keltiradigan bo'lsak, o'quvchilarning ko'pchilik qismi kelgusida xalq hunarmandchiligi sohasida ishlashi kerakligini e'tiborga olishga to'g'ri keladi. Chunki tuman iqtisodiyoti mehnat bilan ta'minlash imkoniyatlarini ko'p jihatdan belgilab beradi. Biroq insonning individual xususiyatlari ham, odatda, qator kasb talablariga javob beradi, o'quvchilarning qiziqishlarini esa shakllantirish mumkin. Shunday qilib, kasb tanlashga yo'llash ishini davlatning u yoki bu kasbga bo'lgan ehtiyojlarini hisobga

olgan holda va o'quvchilarning qiziqishlari hamda ishtiyoqlarini e'tiborga olgan holda olib borish mumkin.

Kasb tanlashga yo'llash ishida VIII-IX sinflar alohida o'rinni egallaydi. Bunda bir tomondan kasb tanlashga yo'llash ishi bevosita texnologiya darslarida davom etib, o'quvchilar o'zlari tanlagan kasb tayyorgarligi profili tarkibiga kiruvchi kasblar to'g'risida tasavvurga ega bo'lishadi, ya'ni kasbga intilish go'yo "torayib boradi". Boshqa tomondan esa "Kasb-hunar asoslari" kabi maxsus bo'limni o'rganish jarayonida o'quvchilarni "Professiogramma" va "Kasb tanlash varaqasi"ni to'ldirish ishlari, kasbga doir shaxsiy reja tuzish, kasbiy qiziqish va moyilliklarni aniqlash bo'yicha amaliy mashqlar bajarish, tanlangan kasb-hunarga doir ma'lumotlar to'plash va tahlil qilish, "Men tanlagan kasbni egallashda kelgusidagi rejalarim" (Farovon hayot yo'lida) mavzusida ijodiy ish taqdimoti, "Men tanlagan kasb" ijodiy loyihasini tayyorlash yuzasidan tizimga solingan kasb tanlashga yo'llash ishi boshlanadi.

Shunday qilib, VIII-IX sinflarda ma'lum darajada qarama-qarshi vazifa qo'yiladi. O'quvchi kengaytirilgan texnologik ta'limni o'tib qator o'xshash kasblar elementlarini (masalan, metallga ishlov berish uchun chilangarlik, tokarlik, frezerlik, payvandchilik, tunukasozlik, pichoqchilik, kandakorlik, misgarlik ishi) o'zlashtirib oladi. Buning natijasida u boshlang'ich kasb tayyorgarligini oladi va uni yuqori sinflarda davom ettirishi zarurdek tuyuladi. Ayni paytda o'quvchi oldida kasblar dunyosi birinchi marotaba tizimga solingan holda to'liq ochib beriladi, go'yo ulardan xohlaganini tanlab ol, deyilgandek bo'ladi. Kasb tanlash erkinligi ana shu ko'rinishdagi ziddiyatda namoyon bo'ladi. IX sinfda o'quvchi o'zi avval tanlagan kasbdan aynib, butunlay boshqa kasb yo'nalishini ixtiyor qilib qolishi mumkin.

Demak, o'quvchi faqat IX sinfda yoki XI sinfda biror kasbni tanlash haqida uzil-kesil qarorga kelishi mumkin. Lekin bu bilan kasb tanlashga yo'naltirish ishi tugaydi yoki bo'shashtirib yuboriladi, deyish xato bo'ladi. Aksincha, bu ish endi yanada ta'sirchan bo'lishi lozim, ammo uning maqsadi o'zgaradi, endi birinchi rejani tanlagan kasbga muhabbat uyg'otish egallaydi. Kasb tanlashga yo'llash ishining butun mazmuni, shakllari va metodlari ana shu maqsadga qaratiladi.

Bu borada muhtaram Prezidentimiz tomonidan ilgari surilayotgan tashabbus va g'oyalar mazmun-mohiyatini o'quvchilar ongiga sindirib borish maqsadga muvofiq. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Farg'ona viloyatiga tashrifi davrida ilgari surilgan tashabbus va g'oyalar hamda ularning samarali natijalari haqidagi ma'lumotlardan o'rinli va unumli foydalanish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2018-yil 12-13-iyun kunlari Farg'ona viloyatiga qilgan tashrifi chog'ida Farg'ona davlat universitetida anorchilik bo'yicha ta'lim yo'nalishini tashkil etish yuzasidan taklif bildirgan edi.

Unga ko'ra, 2018/19 o'quv yilidagi qabul ko'rsatkichlariga qo'shimcha ravishda jami 25 nafar talaba Agronomiya yo'nalishida o'qishni boshladi. Shuningdek, Toshkent temir yo'l muhandislari institutida Dronlarni loyihalash va ekspluatatsiya qilish yo'nalishi bo'yicha 25 nafar, Farg'ona davlat universiteti magistratura bosqichida Ixtiologiya va gidrobiologiya yo'nalishida esa 6 nafar shaxs tahsil oldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti S.M.Mirziyoyev aholi hayoti, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi bilan tanishish maqsadida 2020-yil 5-6-iyun kunlari Farg'ona viloyatiga tashrif buyurgan edi. Davlatimiz rahbari dastlab Qo'shtepa tumanidagi "Tursunov Yusufjon yeri" fermer xo'jaligida bo'ldi. Bu yerda 50 gektar g'alla, 30 gektar paxta yetishtiriladi. Prezidentimiz g'alla rivojini ko'zdan kechirib, shu yerda qishloq xo'jaligi sohasi mutasaddilari va qo'shtepalik fermerlar bilan muloqot bo'lib o'tdi.

– Har bir hududning yeri, resurslari, imkoniyatlari o'ziga xos. Bugun Farg'onaga kelishimizdan maqsad – bu imkoniyatlarni to'liq safarbar qilib, odamlarga ish o'rni, daromad manbai uchun sharoit yaratish, har bir tuman bo'yicha aniq reja shakllantirish. Qanday mehnat qilsak, shunday hayot bo'ladi, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Xo'jalik dalasi yonida "Grapes and Gardens Investment" kompaniyasi tomonidan intensiv bog' ham yaratilgan. 100 gektarda o'rik, 52 gektarda gilos ekilgan. Tomchilatib sug'orish, sun'iy soya qilish uskunalari o'rnatilgan.

Ispaniya va Fransiyadan keltirilgan o'rik navining hosildorligi juda yuqori. Bu eksportda muhim omil bo'ladi. Bugungi kunda bog' uchastkalari kooperatsiya asosida tajribali tadbirkorlarga berilmoqda.

Davlatimiz rahbari daraxt qatorlari orasiga sarimsoqqiyoq va dukkakli ekinlar ekish, bunday bog'larni ko'paytirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi. Shu yerda qishloq xo'jaligi va agrosanoat loyihalari taqdimoti o'tkazildi. Xususan, o'rmon xo'jaliklari va "Mehrigiyo" korxonasi hamkorligida dorivor o'simliklar yetishtirish va qayta ishlash, tomorqachilikni rivojlantirish, suvdan oqilona foydalanish, tomchilatib sug'orishni keng joriy etish, yoshlar va xotin-qizlar bandligini ta'minlash kabi loyihalar taqdim etildi.

Bugungi kunda yurtimiz tabiatida uchraydigan shifobahsh o'simliklardan dori-darmon va preparatlar ishlab chiqarish yuzasidan izchil ishlar amalga oshirilmoqda. "Mehrigiyo" korxonasi dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash asosida 130 ga yaqin shifobaxsh choy, sharbat va asalli mahsulotlarni tayyorlaydi:



Mamlakatimizda asosiy daromad manbalaridan bo‘lgan aholi xonadonlaridagi tomorqadan samarali foydalanish bo‘yicha maxsus tizim yaratilgan. Prezidentimiz bu tizim imkoniyatlaridan foydalanilmayotgani, “Tomorqa xizmati” ishi sezilmayotganini keskin tanqid qildi.

Shundan so‘ng Prezidentimiz Toshloq tumanidagi “Uz-Segang” qo‘shma korxonasi ish jarayoni bilan tanishdi.

Farg‘ona viloyatidagi meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan Quvasoy shahri, Oltiariq, Beshariq, Farg‘ona, Quva va Uchko‘prik tumanlarida 20 ta klaster faoliyat yuritmoqda. 2020-2021 - yillar davomida mazkur klasterlar tomonidan umumiy qiymati 253,4 milliard so‘mlik 172 ta loyiha amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

Mamlakatimizda oziq-ovqat ekinlari maydonini kengaytirish, yangi bog‘lar, ayniqsa, intensiv bog‘lar barpo etishga jiddiy e‘tibor qaratilmoqda. Bu bejiz emas. Chunki serquyosh yurtimizda yetishtirilayotgan ekologik toza, sarxil meva-sabzavotlar xorijda ham xaridorgir bo‘lib, yuqori nufuzli brendga – tovar belgisiga aylanmoqda. Bu borada meva-sabzavotchilik klasterlari tashkil qilinib, sohada ko‘p yillik tajribaga ega, mahsulotlarni saqlash va qayta ishlash infratuzilmasi bor tadbirkorlarni bunga jalb qilingani yaxshi samara bermoqda.

Farg‘onada bog‘dorchilik bo‘yicha katta tajriba maktabi bor. Bu yerda yetishtirilayotgan o‘rik, shaftoli, olxo‘ri, nok, gilos, anjir, anor, behi, uzum, pomidor, bodring, piyoz, sarimsoqpiyoz va boshqa ko‘plab meva-sabzavotlar bugun ko‘plab davlatlarga eksport qilinyapti. Joriy yilda meva-sabzavotchilik korxonalari tomonidan 288 ming tonna mahsulot yetishtirilib, 120 ming tonnasini eksportga yo‘naltirish rejalashtirilgan. Buning uchun sig‘imi 330 ming tonnadan ortiq bo‘lgan muzlatkichli omborxonalar, 25 ta logistika markazi, 90 ta qayta ishlovchi korxona faoliyat ko‘rsatmoqda.

Mas‘uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi “Uz-Segang” qo‘shma korxonasi yiliga 16 ming tonna qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va eksport qilish quvvatiga ega. Bu yerda 100 milliard so‘m evaziga zamonaviy logistika markazi tashkil etilgan. Italiya, Turkiya, Janubiy Koreya va Xitoydan ilg‘or texnologiyalar keltirib o‘rnatilgan. Masalan, Italiyaning ICEOL texnologiyasi gilosni rangi va

kattaligi bo'yicha saralab, qadoqlaydi. Sifatsizlarini lazer nuri orqali aniqlab, alohida joylaydi. Janubiy Koreyadan keltirilgan SNP liniyasi anorni xuddi shunday saralaydi. Mevaning ichidagi pishmagan yoki chiriy boshlagan joyni ham aniq ko'rsatadi. Bu xaridorlar ishonchini qozonib, eksportni rivojlantirishda muhim o'rin tutmoqda. Korxona mahsulotlari "Global G.A.P." xalqaro sertifikatiga ega. Joriy yilda Xitoy, Janubiy Koreya, Birlashgan Arab Amirliklari, Polsha, Rossiya, Qozog'iston kabi davlatlarga 20 million dollarlik mahsulotlar eksport qilinadi. Kompaniyada 250 nafar yigit-qiz ish bilan ta'minlangan. Prezidentimiz bu korxonani doimiy xomashyo bilan ta'minlash masalasiga ahamiyat qaratdi. Buning uchun unga hududdagi bog'larni birlashtirish, yangi bog'lar va laboratoriya tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar berdi. Bugun davlatimiz iqtisodiy siyosatining asosiy mohiyati – mahalliyashtirish, raqobat, ish o'rni, daromad. Har bir korxonani tashkil etishga shu nuqtai nazardan yondashilmoqda.

Farg'ona tumanida ishga tushirilgan "Ekokerama" mas'uliyati cheklangan jamiyati ham shunday. Bu yerga tashrif chog'ida Prezident Shavkat Mirziyoyev yurtimiz foydali qazilmalarga boyligi, lekin ular asosida tayyorlanadigan materiallar katta miqdorda chetdan keltirilayotganiga e'tibor qaratdi.

– Shuncha imkoniyat bo'la turib, biz kimni boqyapmiz? Xalqimizni boqsak bo'lmaydimi? – deya haqli savol qo'ydi Prezident. – Mamlakatimizning har bir qarich yeri, har bir boyligi aholi jon boshiga daromadni ko'paytirishga xizmat qilishi kerak.

"Ekokerama" yiliga 500 ming dona 20 turdagi santexnika mahsulotlari ishlab chiqarish quvvatiga ega. Ya'ni, importning aksariyat qismi o'rnini to'ldiradi. Bundan tashqari, mintaqamiz davlatlarida 50 million dollarlik bozor bor. Korxona quvvatini oshirib, mahsulotlarning 60 foizini eksportga yo'naltirish rejalashtirilgan. 100 foiz mahalliy xom ashyodan foydalanilishi hamda energiya tejovchi texnologiyalar qo'llanilishi sababli "Ekokerama" mahsulotlari xorijiy muqobillariga nisbatan arzon bo'ladi:

Korxonaning loyiha qiymati 15 million dollar. Jumladan, 11 million dollar to'g'ridan-to'g'ri investitsiya jalb etilgan. Hozirda 500 kishi ish bilan ta'minlanib, test rejimida dastlabki buyumlar tayyorlangan:



Davlatimiz rahbari bu korxonani klasterga aylantirish, karyerlar ajratib berib, kamida 30 yillik xomashyo zaxirasi bilan ta'minlash zarurligini ta'kidladi. Korxonaga mahsulotlarini sotishda ko'maklashish, xususan, qurilish materiallari bozorlarida do'konlarini tashkil etish, davlat tomonidan qurilayotgan obyektlarda bu santexnika buyumlaridan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar berdi. O'z navbatida, kompaniya rahbariyatiga mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish, boshqa viloyatlarda ham shunday korxonalar ochib, yanada ko'p yoshlarni ish bilan ta'minlash tavsiya qilindi.

Shu yerda Farg'ona viloyatida joriy yilda amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari taqdimoti o'tkazildi. Xususan, yengil sanoatdagi loyihalar samarasida paxta tolasini qayta ishlash hajmi keskin oshadi. Joriy yil yakunida kalava ip qayta ishlash darajasi 56 foizga, kelgusi yili 71 foizga yetadi. Ilgari viloyatda jami 80 million dollarlik paxta tolasi oddiy xomashyo sifatida sotilgan bo'lsa, bu yil qariyb 314 million dollarlik tayyor mahsulot eksport qilinadi. Bu ko'rsatkichni 2021-yilda 540 millionga, kelgusida 1 milliard dollarga yetkazish rejalashtirilgan.

Umuman, viloyatda 2020-yilda 913 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilib, 62 ming 375 ta ish o'rni yaratish ko'zda tutilgan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Marg'ilondagi Hunarmandlar markazini ham borib ko'rdi.

Marg'ilon azaldan hunarmandlar shahri bo'lgan. Yaqinda bu yerda mohir usta Ibrohimjon Sultonov tashabbusi bilan davlat-xususiy sheriklik asosida Hunarmandlar markazi qurilib, foydalanishga topshirildi. 600 nafar usta faoliyat boshlab, 200 dan ortiq turdagi atlas va adras to'qish, gilamchilik, maishiy xizmat, tikuvchilik, hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Ular tomonidan 2 ming nafarga yaqin xotin-qiz, yoshlar ishga jalb etildi.

– Mening eng katta islohotim – har bir oilaning nuri bo'lgan onalarni, xotin-qizlarni rozi qilish. Sizlarning ko'zingizdagi ishonchni, umidni ko'rib baxtiyor insonman. Ayollarni qancha rozi qilsak, Yaratgan bizga kuch-qudrat, yurtimizga tinchlik-osoyishtalik beradi. Butun dunyo pandemiya oqibatida katta qiyinchilikka uchrayapti. Hech kim ishonmagandi, shu sharoitda mana shunday korxonalar ishga

tushira olamiz deb. Bu – Farg‘onadagi o‘zgarishlarning boshlanishi, qaldirg‘ochi. Xudo xohlasa, natijalarimiz bundan ham yuqori bo‘ladi, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Ikki qavatli markazning qo‘yi qavatida atlas, adras, shoyi, baxmal, beqasam matolar to‘qiladi. Birinchi qavatdan tayyor mahsulotlar ko‘rgazmasi, podium, chevarxona o‘rin olgan. Bu yerdagi do‘konda matoga gul chizish, bog‘lash, davra, qad tayyorlash jarayonlari ko‘rgazmali tarzda namoyish etiladi.

Binoning yuqori qavatida gilam sexi joylashgan. Bu yerda barcha mahsulotlar to‘liq qo‘l mehnati yordamida, 100 foiz toza ipakdan to‘qiladi:



Hunarmand Ibrohimjon Sultonovning “Ismoiljon gilamlari” korxonasi mahsulotlari butun dunyoga mashhur. Hunarmandlar markazida ham mahsulotlarning sifati yuqori. Asl ipakka tabiiy bo‘yoqlardan gul chizib, mato to‘qiladi. Shu bois bu mahsulotlarga hozirdan xaridor tayyor. Gilamlar asosan Turkiyaga, atlas, adras matolar AQSH, Italiya, Fransiya, Rossiya, Qozog‘iston, Tojikiston kabi mamlakatlarga eksport qilinadi:



Hozir chevarlarga 3,5 million so‘mgacha maosh beriladi. Markaz 600 ishchiga mo‘ljallangan, xotin-qizlarning qolgani kasanachilik asosida uyda o‘tirib mehnat qiladi.

– O‘tgan yili Qo‘qonda o‘tkazilgan Xalqaro hunarmandchilik festivalida butun dunyodan kelgan hunarmandlar mahsulotlarini ko‘rib katta zavq oldim va kelasi yili o‘zimning alohida hunarmandlik maktabimni ochaman deb niyat qilgandim, – deydi Ibrohimjon Sultonov. – Bu yerda Farg‘onaning qadimiy hunarlari targ‘ib qilinishi barobarida xotin-qizlar bandligi ta‘minlandi. Markazimizda birgina atlasning 160 dan ortiq turi to‘qiladi. Bu orqali qadimiy hunarmandlik an‘analarimizni kelgusi avlodlarga yetkazib, xalqimizning bebaho madaniy merosi sifatida yashashi uchun zamin yaratamiz.

Marg‘ilon – Farg‘ona vodiysining turistik manzillaridan biri. Hunarmandlar markazi ushbu shaharning sayyohlik salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Osori-atiqalar bilan tanishgan sayyohlar bu yerga kelib atlas, adras to‘qish jarayonini bevosita kuzatish imkoniga ega bo‘ladi, ham o‘zi xohlagan mahsulotni xarid qiladi, shu yerdagi chevarxonada o‘z didiga mos libos tiktirib kiyib ketaveradi. Markaz binosida bank shoxobchasi faoliyat ko‘rsatadi, fotogalereya tashkil etilgan.

Markazda haftaning muayyan kunida milliy matolardan tikilgan liboslar ko‘rgazmalari o‘tkaziladi. Bu bilan Marg‘ilon hunarmandlik an‘analarini dunyoga namoyish etish, ham ichki turizmni rivojlantirish ko‘zda tutilgan. Buning uchun xorijdan dizaynerlar jalb etilgan.

Hozir ayni pilla mavsumi. Farg‘ona tumanida 32 mingta mavsumiy ishchi ushbu sohada mehnat qilmoqda. 4 ming 800 ta doimiy ish o‘rni yaratilgan. Tumanda tut ko‘chatlari yetishtirish xo‘jaliklari, pilla qurti urug‘i zavodi, 5 ta pillani qayta ishlash korxonasi, bundan tashqari, mato, tayyor kiyim-kechak tikadigan o‘ndan ortiq korxona bor.

– O‘zbekistonda ipak sanoati korxonalari to‘liq klaster tizimiga o‘tdi. Ya‘ni, ozuqa bazasini tayyorlashdan boshlab pilla boqish, ipakdan mato, tayyor kiyim-kechak va bozorbop gilamlar to‘qish yo‘lga qo‘yildi, – deydi “O‘zbekipaksanoat” uyushmasi raisi Bahrom Sharipov. – Bu yil Farg‘ona viloyatida 1 ming 950 tonna pilla yetishtiriladi va tayyorlangan mahsulotlarning 90 foizi eksport qilinadi. Viloyatda o‘tgan yili 5 million dollarlik mahsulot chet elga sotilgan bo‘lsa, bu yil 8 million dollarga yetkazish rejalashtirilgan. Bu ipak sanoati korxonalarining mamlakatimiz iqtisodiyotidagi o‘rni tobora mustahkamlanib borayotganidan dalolatdir.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 12-13-may kunlari Farg‘ona viloyatiga tashrif buyurgan edi. Tashrif davomida Prezidentimiz Oltiariq tumani chekkasida ming gektar adirlikda tashkil etilgan uzumchilik va bog‘dorchilik plantatsiyasini borib ko‘rgan.



Ilgari bu joy hech narsa ekilmaydigan quruq yer bo‘lgan. Qishloq xo‘jaligini innovatsion rivojlantirish borasidagi ishlar natijasida xalqning rizq-ro‘zi uchun ming gektar yangi manba paydo bo‘lgan. Buning uchun quduqlar va hovuzlar qazilib, tomchilatib sug‘orish yo‘lga qo‘yilgan. Bunda foydalanilgan uskuna va quvurlar ham to‘liq mahalliy mahsulot.

Kelajakda ushbu yer zamonaviy agrosanoat majmui bo‘ladi. Bog‘ va tokzorlar aholiga bo‘lib beriladi. Bu mirishkor bog‘bonlar va dehqonlar uchun katta imkoniyatlar yaratadi.


Xulosa qilib aytganda, texnologik ta‘lim jarayonida kasb tanlashga yo‘llash ishi bir necha bosqichdan o‘tib, bu bosqichlarning har birida o‘z vazifalari hal etiladi. Bu vazifalarni amalga oshirish jarayonida texnologiya o‘qituvchilari kasbga oid diagnostika va konsultatsiya ishlarini puxta tayyorgarlik bilan o‘z vaqtida o‘tkazib borsalar, o‘quvchilarning faolligi ortishiga zamin yaratadi.

Texnologik ta‘lim jarayonida kasb tanlashga yo‘llashning shakllari va metodlari. Texnologik ta‘lim jarayonida o‘quvchilarni quyidagi ishlar bilan bog‘liq bo‘lgan qator ishchi kasblari bilan tanishtirish uchun qulay sharoit yaratiladi:



O'quv ustaxonalarida mashg'ulotlar o'tkazilayotganda u yoki bu mutaxassis nima bilan shug'ullanishi to'g'risida shunchaki tasavvur hosil qilish emas, balki kasbning barcha jihatlarini ochish, ish sharoitlarini ko'rsatib berish muhimdir. Buning uchun o'qituvchi puxta ishlab chiqilgan reja asosida mas'uliyat bilan ishlashi kerak.

O'qituvchilar ish faoliyatida o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llashda quyidagi shakl va metodlardan foydalanishlari tavsiya etiladi:



1. *Darslarda kasb tanlashga yo'llash.* Bunda o'qituvchi o'quvchilarni ular o'quv ustaxonalaridagi mashg'ulotlarda bajaradigan ish bilan bog'liq kasblar bilan tanishtiradi. Masalan, o'quvchilar yog'ochga ishlov berishni o'rganayotganlarida duradgor, yog'ochsoz, fanerlovchi, charxlovchi, yog'och kesuvchi, rom yasovchi, tokar, pardozlovchi, parmalovchi kabi kasblar haqida bilib oladilar. Bundan tashqari o'qituvchi korxonalarda yog'ochga qo'lda ishlov berish bilan bog'liq kasblar o'rnini egallagan dastgohchilar kasblari haqida ham gapirib berishi mumkin.

O'quvchilarga ustaxonalaridagi mashg'ulotlarda metallga ishlov berishni o'rgatishda ular qator slesarlik va dastgohchilar kasblari: tunukachi slesar, asbobsoz slesar, ta'mirchi slesar, asbobsoz slesar, sozlovchi, tokar, parmalovchi kasblari bilan tanishtiriladilar. Shuningdek, ayrim mavzularni o'rganish davomida o'smirlarning

metallga ishlov berish korxonalari ishchi kasblari: tokar, termik ishlov beruvchi, prokatlovchi, po'lat erituvchi, stanokchi, operator va hokazo kasblari to'grisidagi tasavvurlarini kengaytirish mumkin.

Elektromontaj ishlariga bag'ishlangan mashg'ulotlarda o'quvchilar elektrik, elektromontyor, elektroslesar (ta'mirlovchi elektromontyor, elektromontajchi slesar, o'rovchi elektromontyor va hokazo) kasblari bilan tanishadilar.

2. *Ekskursiyalarda kasb tanlashga yo'llash.* Odatda, ekskursiyalarda o'quvchilarni o'quv dasturi doirasidan tashqari materiallar bilan tanishtirishga qulay sharoit yaratiladi. Bu imkoniyatdan o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash uchun foydalanish maqsadga muvofiq. Masalan, o'quvchilar metallga va yog'ochga ishlov beriladigan mexanika sexlariga borishganida uskunalarning ko'p guruh va tiplari bilan tanishadilar. Shuning uchun o'qituvchiga ana shu uskunalarda ishlovchi ishchi kasblari haqida gapirib berish tavsiya etiladi. Agar sex ishchilarining o'zlari o'quvchilarga o'z ishlari, tayyorlaydigan mahsulotlari haqida so'zlab bersalar, o'quvchilar bu kasblar to'g'risida atroflicha tasavvurga ega bo'ladilar.


3. *To'garak mashg'ulotlarida kasb tanlashga yo'llash.* Maktabda to'garak mashg'ulotlari tashkil etish orqali o'quvchilarni turli kasblar bilan tanishtirish uchun keng imkoniyatlar yaratish mumkin. Agar o'qituvchi o'quvchining ishchi kasblardan biriga, masalan, yog'ochga, metallga, profilga ishlov berishga moyilligi borligini sezsa u o'quvchi bilan muntazam ish olib borish orqali uning bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirib borishi, unga yoqadigan kasbga nisbatan qiziqish uyg'otishi zarur. Natijada to'garak mashg'ulotlari o'quvchilarga yuqori sinflarda kasb yo'nalishini to'g'ri tanlashda yaxshi yordam beradi.

4. *Ishlab chiqarish ilg'orlari va maktabni bitirgandan so'ng moddiy ishlab chiqarish sohasida ishlayotganlar bilan uchrashuvlar.* Ko'pincha o'quvchilarda mazkur maktabni bitirgandan keyin ishlab chiqarish ilg'orlari va maktabni bitirgandan so'ng moddiy ishlab chiqarish sohasida ishlayotgan kishilar bilan uchrashuvlar katta taassurot uyg'otadi.

Shuning uchun o'qituvchilar o'quvchilarga o'z kasbi haqida hikoya qilib bera oladigan ishlab chiqarish ilg'orlarini topishda qiyinchilikka duch kelishmaydi. Ishlab chiqarishga oid topshiriqlarni bajarishda fan asoslariga doir bilimlardan foydalanish to'g'risida ishlab chiqarish ilg'orlari bildirgan fikrlar, ayniqsa qimmatlidir. Bu orqali o'quvchilar umumta'lim bilimlariga ega bo'lmasdan hozirgi zamon zamon talabi darajasidagi ilg'or ishchi bo'lib yetishish mumkin emasligini tushunib oladilar.

Ilg'or ishchilar bilan uchrashuvlarni tantanali vaziyatda o'tkazish mumkin. Bunda bolalar mehmonlarga atab sovg'alar tayyorlaydilar, yaxshi o'qiymiz deb majburiyatlar oladilar. Shuning uchun bunday tadbirlar katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

5. *Har xil madaniy-ommaviy tadbirlar o'tkazish.* Maktablarning ilg'or ish tajribalaridan ma'lumki, kasb tanlashga yo'llash ishini samarali tashkil etishga yordam beruvchi quyidagi madaniy-ommaviy tadbirlar o'tkazib boriladi:



Mazkur tadbirlarning barchasini ustaxonalarda amalga oshirish mumkin.

6. *Kasblarni chuqur o'rganish.* O'qituvchi muayyan kasblar to'g'risida kengroq tasavvur uyg'otish uchun barcha o'quvchilar bilan ish olib borishdan tashqari u yoki bu kasb bilan yaxshilab tanishish istagi bo'lgan o'quvchilar bilan yakka tartibda ham jiddiyroq ish olib boradi. O'quvchilar qiziqishlariga qarab guruhlariga, klublarga yoki markazlarga birlashtiriladilar. Bunda ishning turli-tuman tashkiliy shakllaridan foydalanish mumkin. O'quvchilar o'z kuchi bilan muzey yaratadilar, referatlar yozadilar, ekskursiyalar uyushtiradilar. Bularning barchasi o'qituvchiga muayyan kasb insonga qanday talablar qo'yishini kengroq tushuntirib berishga, o'quvchilarning kasb tanlash asoslarini chuqurroq tushunib olishlarida ko'maklashishga imkon beradi. Agar o'qituvchi o'quvchida muayyan kasbga qat'iy qiziqish uyg'ongani va o'quvchining sog'lig'i shu kasb talablariga javob berishini payqasa, u tegishli ish olib borib, o'smirning xohishi ro'yobga chiqishi uchun yordam bera boshlaydi¹.

7. *Fakultativ mashg'ulotlar.* Ayrim maktablarda fakultativ mashg'ulotlarga ajratilgan soatlarning ma'lum qismidan kasb tanlashga yo'llash ishini amalga oshirish uchun foydalaniladi.

¹ Система профессиональных мер как средство повышения осознанности выбора профессионального пути.
<http://elibrary.ru/tem.asp?id=38498275>

O‘QUV TOPSHIRIQLQRI

1-AMALIY TOPSHIRIQ

“O‘quvchilarni kasb tanlashga yo‘llash ishlarining hozirgi kundagi mavjud holati” mavzusida esse yozing.



2-AMALIY TOPSHIRIQ

Kasb tanlashga yo‘llash bo‘yicha bajariladigan ishlarnining barcha bosqichlarini quyidagi sxema asosida yoritib bering:

T/r	Bosqichlar	Amalga oshiriladigan ishlar mazmuni
1.	Kasb ma’lumoti (kasbga oid axborotlar)	
2.	Kasb tarbiyasi	
3.	Kasbga oid konsultatsiya	
4.	Kasb tanlash (kasbga yaroqliligi)	
5.	Kasbiy adaptatsiya	

3-AMALIY TOPSHIRIQ

Maktabda kasb tanlashga yo‘naltirish ishi samaradorligini ta‘minlash uchun nimalarga alohida e‘tibor qaratish kerak, deb hisoblaysiz. Fikringizni asoslang.

	Boshlang‘ich sinflarda	V-VII sinflarda	VIII-IX sinflarda
Fikringizni bayon eting			
Fikringizni bayoniga sabab ko‘rsating			
Ko‘rsatilgan sababni isbotlab misol (dalil) keltiring			
Fikringizni umumlashtiring			


4-AMALIY TOPSHIRIQ

O‘quvchilarni kasb tanlashga yo‘llashda qanday shakl va metodlardan foydalanishni tavsiya etgan bo‘lar edingiz? Ularning mazmunini tushuntirib bering.

Shakl va metodlar	• Shakl va metodlarning mazmuni

5-AMALIY TOPSHIRIQ

O'quvchilarga ustaxonalardagi mashg'ulotlarda metallga ishlov berishni o'rgatishda ularni qanday slesarlik va dastgohchilar kasblari bilan tanishtish mumkin, deb o'ylaysiz?



O'z-o'zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar

1. Maktabda kasb tanlashga yo'llash ishini qanday yagona qoidalar asosida tashkil qilish kerak?
2. Kasb tanlashga yo'llash ishining asosiy shakllarini ko'rsatib bering.
3. Texnologiya va dizayn yo'nalishiga oid mashg'ulotlarda o'quvchilarni kasblar bilan tanishtirish metodikasini aytib bering.
4. Metallga ishlov berish korxonasiga ekskursiyaga borganda kasb tanlashga yo'llashishining metodikasini ishlab chiqing.
5. To'garak mashg'ulotlarida kasb tanlashga yo'llash ishini olib borish rejasini tuzing.
6. Kasb tanlashga yo'llash bo'yicha barcha ishlarni shartli ravishda nechta bosqichga ajratish mumkin?
 - a) oltita;
 - b) yettita;
 - c) to'rtta;
 - d) beshta.
7. Texnologik ta'lim fanlarini o'qitishda variativ o'quv modullari zamonaviy ishlab chiqarishning nechta yo'nalishlari bo'yicha amalga oshiriladi?
 - a) beshta;

- b) to'rtta;
- c) oltita;
- d) yettita.

8. Boshlang'ich sinflarda texnologik ta'lim jarayonida o'quvchilarga qanday ma'lumotlar beriladi?

- a) kasb turlari, zamonaviy kasblar haqida;
- b) sohaga oid kasb-hunar turlari haqida;
- c) o'quvchilar o'zlari tanlagan kasb tayyorgarligi profili tarkibiga kiruvchi kasblar to'g'risida;
- d) kasb tanlashga yo'llash ishining butun mazmuni, shakllari va metodlari haqida.

9. Darslarda kasb tanlashga yo'llashda o'qituvchi qanday ishlarni bajaradi?

- a) o'quvchilarni barcha kasblar bilan tanishtiradi;
- b) o'quvchilarni o'quv dasturi doirasidan tashqari materiallar bilan tanishtiradi;
- c) o'quvchilarni ular o'quv ustaxonalaridagi mashg'ulotlarda bajaradigan ish bilan bog'liq kasblar bilan tanishtiradi;
- d) o'quvchilarga umumta'lim bilimlariga ega bo'lmasdan hozirgi zamon zamon talabi darajasidagi ilg'or ishchi bo'lib yetishish mumkin emasligini tushuntiradi.

10. Kasblarni chuqur o'rganish qanday amalga oshiriladi?

- a) o'qituvchi o'quvchilarni barcha kasblar bilan tanishtiradi;
- b) o'qituvchi o'quvchilarni o'quv dasturi doirasidan tashqari materiallar bilan tanishtiradi;
- c) o'qituvchi o'quvchilarni ular o'quv ustaxonalaridagi mashg'ulotlarda bajaradigan ish bilan bog'liq kasblar bilan tanishtiradi;
- d) o'qituvchi muayyan kasblar to'g'risida kengroq tasavvur uyg'otish uchun barcha o'quvchilar bilan ish olib borishdan tashqari u yoki bu kasb bilan yaxshilab tanishish istagi bo'lgan o'quvchilar bilan yakka tartibda ham jiddiyroq ish olib boradi.

10-mavzu. O'quvchilarni darslarda va darsdan tashqari vaqtlarda kasb tanlashga yo'llash ishlarining shakl va metodlari

Ta'lim jarayonida – darslarda va darsdan tashqari vaqtlarda o'quvchilarni turli xil kasblar bilan tanishtirish bo'yicha muntazam ish olib borish ularni to'g'ri kasb tanlashga yo'llashning muhim sharti hisoblanadi. O'quvchilarni har bir klaster, fermer xo'jaligi, tuman (shahar) dagi ishlab chiqarish korxonalari misolida kasbiy faoliyatning ko'plab turlari bilan tanishtirish imkoni bor, shuning uchun ham har bir

texnologiya fani o'qituvchisi maktabda o'rganiladigan fan doirasidan tashqaridagi, maktab atrofidagi ishlab chiqarish tashkilotlari faoliyati bilan yaxshi tanish bo'lishi kerak.

Shuningdek, o'quvchilarning o'quv ustaxonalaridagi texnikaga oid ishlari ham ularni ishchi kasbi bilan tanishtirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Shunga qaramasdan V-VII sinflardagi texnologik ta'limning mazmuni o'quvchilarda har qanday kasbni egallash uchun bab-baravar foydali bo'lgan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga olib keladi. Bundan tashqari texnologiya o'qituvchisi o'quvchilarni zamonaviy texnikaning elementlari, texnologiyasi bilan tanishtira borib, ularda zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiradi, shuningdek, o'quvchilarda uyushqoqlik, ozodalik, tejamkorlikni tarbiyalab, ularni asta-sekin hayotda o'z yo'lini to'g'ri tanlashga tayyorlaydi.

Maktab ustaxonalari o'z vazifasiga ko'ra o'quvchilar o'quv mehnatining ishlab chiqarish bilan bo'lgan aloqasini amalga oshiradi. O'quvchilar o'quv ustaxonalarida metallarga ishlov berish dastgohida birinchi marta ishlaydilar, bu yerda ular materialga ishlov berish bo'yicha dastlabki ko'nikma va malakalarga ega bo'ladi, natijada ularning texnikaga oid fikrlashlari, ijodiy faolligi va mustaqilligi ortadi, kasb haqidagi bilimlari chuqurlashadi va kengayadi¹.

Texnologiya darslari ham boshqa maktab fanlari qatori o'quvchilarda havas uyg'otishi lozim, ammo uning manbai og'zaki targ'ibot emas, balki o'quvchilar o'z maqsad va mehnat natijalarini ko'ra oladigan ijtimoiy-foydali xarakterdagi buyumlar (maktablar, korxonalar, firmalar, otaliqqa olingan maktabgacha ta'lim tashkilotining buyurtmalari)ni tayyorlashga oid amaliy ishlar bo'lishi kerak².

Shuning uchun ham maktab ustaxonalarida texnologik ta'limning to'g'ri yo'lga qo'yilishi o'quvchilarning kasb tanlashi, ayniqsa ishchi kasbini tanlashida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi³.

Ishchi kasbi bo'yicha kasbga oid axborot ishlarining asosiy yo'nalishi, xarakteri mazmunini belgilash uchun texnologiya o'qituvchisi o'rganilayotgan dastur mavzusini mashinasozlik ishlab chiqarishi bilan, bu korxonada xizmat qiluvchi xodimlarning yetakchi kasblari bilan yaqindan aloqasini o'rnatishi zarur. Shu sababli texnologiya o'qituvchisi o'z tumani (shahri)ning ishlab chiqarish korxonalari hamda bu korxonalarning kasb va ixtisos bo'yicha ishchi kadrlarga bo'lgan ehtiyojini yaxshi o'rganishi kerak.

¹ Muslimov N.A., Sharipov Sh.S., Qo'ysinov O.A. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014.

² Организационно-педагогические проблемы повышения профессионального мастерства учителя.
<http://elibrary.ru/tem.asp?id=32530297>

³ Система профессиональных мер как средство повышения осознанности выбора профессионального пути.
<http://elibrary.ru/tem.asp?id=38498275>


Olingan materiallar asosida o'qituvchi texnologik ta'limning konkret sanoat korxonasi bilan aloqasini aks ettiradigan jadval hamda mazkur korxona katta ehtiyoj sezayotgan yetakchi ishchi kasblari ro'yxatini e'tibor bilan tuzib chiqishi kerak¹.

O'qituvchi texnologiya darsida dasturning u yoki bu mavzusini o'tish jarayonida, xususan, o'quvchilar tomonidan chilangarlikning metallarga belgi qo'yish, to'g'rilash, bukish, qirqish, arralash operatsiyalarini o'zlashtirishlarida ularni ishchi kasbi bilan qanday tanishtirganini misol asosida batafsilroq ko'rib chiqamiz. Texnologiya fani o'qituvchisi bu operatsiyalarning to'g'ri usullarini ko'rsatib berib o'quvchilar e'tiborini bu usullarning qulayligiga, ish unumdorligi va sifatiga qaratishi lozim.

O'qituvchi o'quvchiga bu topshiriqlarning sifatini pasaytirmagan holda belgilangan vaqt davomida bajarishi lozimligini aytadi. O'qituvchi chilangarlik operatsiyalarini bajarish paytida o'quvchilarda kasb usullarini to'g'ri shakllantirishga harakat qilib, ularga agar chilangar-asbobsoz, ta'mirlovchi, temirchi-shtampovkachi bajarishga to'g'ri keladigan ishlar xarakter jihatdan murakkab va mas'uliyatli ekanini tushuntiradi, shuning uchun mehnat usullarini qat'iy to'g'ri bajarish kerakligini aytadi. O'quvchilarni kasblar bilan tanishtirgach, o'qituvchi elektrogazpayvandchi, ayniqsa, chilangar-payvandchi, chilangar-asbobsoz ixtisosiga ega bo'lgan ishchilar korxonada eng malakali kasb egasi hisoblanishini ta'kidlaydi.

O'quvchilarda kasbga qiziqishni tarbiyalash kasbni to'g'ri tanlashni nazarda tutadigan yetakchi motivlardan biri hisoblanadi. Demak, maktabda kasb tanlashga yo'llash ishlarining muhim yo'nalishlaridan biri o'quvchilarda kasbga bo'lgan qiziqishni aniqlash va o'stirish bo'lishi lozim. O'quvchilarning kasbga bo'lgan qiziqishini aniqlash quyidagi didaktik usul va metodlar yordamida amalga oshiriladi:

¹ Muslimov N.A., Sharipov Sh.S., Qo'ysinov O.A. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014.



Olingan ma'lumotlar o'quvchi kasbni (ixtisosni) yoki o'quv yurtini to'g'ri tanlay oldimi, bular uning qiziqishi va qobiliyatiga muvofiq keladimi, nima sababdan mazkur kasbni yoki o'qishni tanladi, ota-onalari va o'qituvchilarining fikri qanday ekanini aniqlash imkonini beradi.

Anketalarni to'ldirishdan oldin o'quvchilarga ular anketadagi savollarga javoblar "o'ylab" topmasliklari, balki o'z qiziqishlari va konkret imkoniyatlaridan kelib chiqishlari lozimligi aytiladi. Haqiqatga muvofiq kelmaydigan javoblar o'qituvchini chalg'itadi va o'quvchilarning kasbga qiziqishlarini shakllantirishga doir masalalarni ancha murakkablashtiradi.

Anketa ma'lumotlarining tahlili asosida fan o'qituvchisi, sinf rahbari har bir o'quvchining kasbga bo'lgan qiziqishi va ularning barqarorlik darajasi, ishonchligini diqqat bilan o'rganadi, ana shu asosda ularni yanada rivojlantirish bo'yicha tashkiliy-metodik tadbirlar belgilaydi, o'quvchida xato yoki noaniq istaklar bo'lgan taqdirda esa tushuntirish ishlari, kasbga oid suhbatlar olib borishi kerak bo'ladi¹. Kasbga bo'lgan havas dinamikasi va rivojini kuzatib borish uchun bunday anketa tarqatish usulini har bir sinfda har yili o'tkazgan ma'qul. U yoki bu o'quvchining kasb tanlashida yuz berayotgan o'zgarishlarni o'qituvchi va sinf rahbari diqqat bilan kuzatishi, o'rganishi, sabablarini aniqlashi kerak.

O'quvchilarning kasbga qiziqish masalasi o'rganilganda yuz berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarning sifat jihatdan farqlanadigan quyidagi darajasini nazarda tutish zarur:

¹ Muslimov N.A., Sharipov Sh.S., Qo'ysinov O.A. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014.

1. Oldingi qiziqish keyingi sinfda mustahkamlanadi va rivojlanadi.

2. Oldingi qiziqishni aniqlash va kasb haqida tasavvur qilish paydo bo'ladi.

3. Dastlabki qiziqish boshqasi bilan o'ylab asoslab tanlangani bilan almashinadi.

4. Mehnatning u yoki bu turiga nisbatan dastlabki paydo bo'lgan qiziqish unchalik o'ylab tanlanmaganligi tufayli so'na boshlaydi, uning o'rniga boshqasi paydo bo'lishi mumkin va, aksincha, kasbga qiziqish butunlay so'nishi ham mumkin.

Bunday hol kichik va o'rta yoshdagi o'quvchilarning hali ongli ravishda o'ziga kasb tanlay bilmasligi kasbga havas asta-sekin rivojlanib borishi bilan izohlanadi, uni mustahkamlash uchun esa kasb tanlashga oid ishlarni tinimsiz amalga oshirish kerak bo'ladi.


Kasbga barqaror va asosli qiziqish o'quvchilarning faoliyat turlari - o'quv, mehnat, sinfdan tashqari ishlar va hokazolar bilan mustahkamlanishi zarur. Ammo qiziqishning chuqur va qat'iyligi, avvalo, uning amaliy faoliyatda yanada mustahkamlanishiga bog'liq. Shuning uchun ham qishloq xo'jaligi, texnikaga oid hamda xizmat ko'rsatish mehnati darslari va texnik ijodkorlik to'garaklari ko'proq bu talablarga javob beradi¹.

Qishloq maktablari o'quvchilarida kasbga qiziqishni shakllantirish uchun texnologik ta'lim berishning maktab yer uchastkasi, yosh bog'bonlar, yosh hunarmandlar, yosh tabiatshunoslar to'garaklari kabi metod va shakllaridan foydalanish mumkin.

O'quv korxonalarida texnologiya darslarining yaxshi yo'lga qo'yilishi o'quvchilarning sanoat sohasining har xil turlarida ishtirok etishlarida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu bilan birga bu masalada erishiladigan muvaffaqiyat ko'pincha o'quvchining o'ziga, uning intizomi, tirishqoqligi, ishga jiddiy munosabatda bo'lishiga bog'liq.

¹ Muslimov N.A., Sharipov Sh.S., Qo'ysinov O.A. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014.

O'quvchilarning metallga ishlov berish dastgohlarida mexanizatsiyalashgan asboblardan va qo'l yordamida konkret o'quv-ishlab chiqarish ishlarini bajarishi ularni sanoat ishlab chiqarishida ko'proq tarqalgan turli xil ixtisoslar: chilangarlik, tokarlik, frezerlik, randalovchi, parmalovchi kabi kasblar bilan tanishtiribgina qolmay, balki ularda kasbning bu turlaridan birini egallashga bo'lgan qiziqishni ham rivojlantiradi.



Klasterlar, fermer xo'jaliklari, sanoat korxonalariga uyushtiriladigan ekskursiyalar

O'quvchilarda kasbga oid qiziqishlarni o'stirishda klasterlar, fermer xo'jaliklari, sanoat korxonalariga uyushtiriladigan ekskursiyalar samarali vosita hisoblanadi. Ekskursiyaga maktab o'qituvchisigina emas, ishlab chiqarishda uchrashish mo'ljallayotgan kasb egalari ham puxta tayyorgarlik ko'rishlari lozim. Ekskursiya boshlanishi oldidan o'quvchilar mazkur korxonaning ichi-tartib qoidalari, ya'ni xavfsizlik texnikasi, uning hududi va sexlarida o'zini tutish qoidalari bilan tanishtirilgan bo'lishlari kerak. Shuningdek, o'qituvchi ularga sexlarning jihozlanishi, xomashyo, texnologik jarayonlar, tayyorlanadigan mahsulot va kasbga oid materiallar yig'ish bo'yicha aniq topshiriqlar berishi darkor. Buning uchun korxona vakili ishlab chiqarish xarakteri, uning mahsuloti, yangi texnologiyaning joriy etilishi va fan yutuqlari, ishlab chiqarish ilg'orlari, ratsionalizatorlar, ixtirochilar to'g'risidagi; o'qish, turmush, ommaviy-madaniy ishlar, korxonaning rivojlanish istiqbollari, jamoaning asosiy vazifalari haqidagi; professional kadrlarga bo'lgan ehtiyoj haqidagi masalalarni yoritib berishi kerak.

O'quvchilar ekskursiyadan olgan taassurotlari va to'plagan materiallarini hisobotlar, esselar, referatlar, stendlar, albomlar tarzida rasmiylashtirishlari lozim. Shunday qilib, korxonaga uyushtirilgan ekskursiyalar o'quvchilarga ularning tanlagan kasbga munosabati hamda unga bo'lgan professional qiziqish darajasini aniqlashda yordam berishi kerak.

To'garak ishlari

Maktabda tashkil qilinadigan fanlar bo'yicha, birinchi navbatda, texnikaga oid to'garaklarning maqsadi – bolalarning sinf mashg'ulotlari jarayonida qondirilmagan talab va ehtiyojlarini (bu talab va ehtiyojlar har bir o'quvchida sof individual holda bo'ladi) qondirishdan iborat.

To'garaklarni erkin tanlash, ularda mashg'ulotdan bo'sh vaqtlarda erkin ishtirok etish, mustahkam bilim va malakalarni ishchan va ijodiy sharoitda, birinchi navbatda, kasbga yo'naltirilgan juda ko'p qimmatli sifatlarini tarkib toptirishni tarbiyalashga yordam beradi.

Maktabda to'garak tashkil qilganda, o'quvchilarni to'garak ishlariga ommaviy jalb etishgagina harakat qilib qolmay, balki, birinchi navbatda, nima uchun o'quvchi ushbu to'garakda shug'ullanishni xohlayotganini, bu to'garak turini tanlaganda xatoga yo'l qo'ygan-qo'ymaganligini ham aniqlash lozim. Shu maqsadda fan o'qituvchisi, sinf rahbari, to'garak rahbarlari o'quv yilining boshlanishida darslarda, tarbiyaviy soatlarda bevosita o'quvchilar bilan suhbat o'tkazishi va maktab radiosi orqali o'z shogirdlariga qanday to'garaklar ishga tushishi, ular ishining mazmuni, nimadan iborat ekanligi, o'quvchilar ularda qanday bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi mumkin, ular uchun qanday amaliy ishlarni bajarishga to'g'ri keladi¹ – ana shular haqida gapirib berishlari lozim.

O'quvchi to'garaklarni to'g'ri va bexato tanlaganini aniqlash uchun to'garaklarga yozilish bo'yicha anketalar o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Bu anketalar o'z ichiga quyidagi ikki savolni olishi zarur:

1. Sizga qanday to'garak yoqadi?
2. Nima uchun siz aynan shu to'garakda shug'ullanishni xohladingiz?

O'quvchilarning bu savollarga bergan javoblari kasbga qiziqishning yo'nalishini ham, to'garak tanlash sabablarini ham aniqlash imkonish beradi. To'garak ayrim o'quvchilarning istaklarini qondira olmaganda to'garak rahbari bu o'quvchiga ishida ham umumiy, ham nazariy, ham amaliy mashg'ulotlari bo'lgan aralash to'garakni tavsiya qilishi lozim.

Har qanday to'garak ishining muvaffaqiyati undagi birinchi mashg'ulotning qanchalik uyushgan va qiziqarli o'tkazilishiga bog'liq. Shuning uchun ham to'garak rahbari to'garak a'zolariga to'garakning maqsad va vazifalarini tushuntirishi, shuningdek, ularga loyihalanadigan va yasalishi kerak bo'lgan mashinalarning harakatdagi modelini ko'rsatishi kerak. Bularning barchasi to'garak a'zolarida mustaqil ijodiy faoliyatga qiziqish, zarur bilim va ko'nikmalar olishga ishtiyoqni o'stiradi. Misol tariqasida to'garak a'zolarining "Radiotexnika, elektronika va

¹ Система профессиональных мер как средство повышения осознанности выбора профессионального пути.
<http://elibrary.ru/tem.asp?id=38498275>

aloqa” to‘garagida to‘garak a‘zolarini kasb bilan tanishtirish taxminiy rejasi hamda ularda kasbga qiziqishni o‘stirish metodlarini ko‘rib chiqish mumkin.

“Radiotexnika, elektronika va aloqa” to‘garagi o‘quv rejasi

T/p	Mashg‘ulot mavzulari	Nazariy soat	Amaliy soat	Jami soat
1	Kirish. Xavfsizlik texnikasi va sanitariya-gigiyena qoidalari	3		3
2	O‘zgaruvchan va o‘zgarmas tok farqlari va ularning o‘lchov asboblari.		12	12
3	O‘zgaruvchan tokni kamaytirish va doimiy tokka aylantirish usullari. Transformator.	3	9	12
4	Diod va uning turlari		6	6
5	Ta‘minot manbaini sxemasi	3	9	12
6	Ta‘minot manbaini yig‘ish ishlari	3	12	15
7	Rezistor bilan tanishuv	3	9	12
8	Rezistorlarning asosiy parametrlari.	3	6	9
9	O‘zgaruvchan rezistorlar	3	6	9
10	Tranzistor bilan tanishuv	3	6	9
Oraliq nazorat ishi			3	3
11	Multivibratorni yig‘ish ishlari	3	12	15
12	Kondensatorlar	3	9	12
13	Kondensatorlarning asosiy parametrlari.	3	12	15
14	O‘zgarmassig‘imli past chastotali kondensatorlar	3	6	9
15	O‘zgaruvchan sig‘imli kondensatorlar		6	6
16	Mobil telefonlarining quvvatlash qurilmalari	3	9	12
17	Mobil telefonlarini ta‘mirlash usullari.	3	9	12
18	Mobil telefonlarning platalarini payvandlash asbob uskunalari va ularni ishlatish.	3	12	15
19	Sensor va boshqa detallarni almashtirish usullari	3	12	15
Yakuniy nazorat ishi			3	3
Jami		51	165	216

Radiotexnika va elektronika fanining rivojlanishi natijasida yangi-yangi fan sohaları vujudga kelmoqda. Radiotexnika va elektronika yutuqlarida bahramand bo‘lmagan birorta soha deyarli yo‘q desa, mubolag‘a bo‘lmaydi. Radiotexnika va elektronikaning rivojlanish natijasida radioaloqa, radioeshittirish, televidenie, radiolokatsiya, radionavigatsiya, radioastronomiya, radioteleboshqarish, elektron hisoblash texnikasi va boshqa muhim sohalar paydo bo‘ldi.

Hozirgi zamon fan va texnikasining taraqqiyotida radiotexnika va elektronikaning roli juda katta, demak, yoshlar bu fan nazariyatlari bilan qurollangan bo‘lishlari kerak. “Radiotexnika, elektronika va aloqa” to‘garagi o‘quvchilarga ilm-

fan sirlaridan hamda bilimlar dunyosining g‘aroyibotlaridan foydalanishga o‘rgatish, o‘quvchilarda ijodiy fikrlash qobiliyatlarini yaratishga yordam berish, o‘zlari mukammal yangi radiotexnika, elektronika va aloqa moslamalarini yarata olish, ularning chizmalarini chizish texnikasi, radioning tuzilishini, ichki detallari hamda uning ishlash prinsipi bilan tanishtirish va yasashdan iborat.

O‘quvchilarni qishloq xo‘jaligiga qiziqishini oshirish, konkret qishloq xo‘jaligi kasbi bilan tanishtirishda “Yosh ekolog va tabiatshunos” to‘garagi katta ahamiyatga ega. “Yosh ekolog va tabiatshunos” to‘garagi, odatda, o‘z ishini dastur asosida tuzadi.

“Yosh ekolog va tabiatshunos” to‘garak o‘quv rejasi

№	Mashg‘ulot mavzulari	Nazariy soat	Amaliy soat	Jami soat
1	Kirish. To‘garakning maqsad va vazifalari.	3		3
2	Ekologiya fanining asosiy bo‘limlari	4	6	10
3	Ekologik omillar va ularning tasnifi	5	10	15
4	Ekologik omillarning tirik organizmlarga ta’siri	4	6	10
5	Suvning kimyoviy va biologik xususiyatlari.	4	6	10
6	Chuchuk suv va uning ifloslanish manbalari.	2	4	6
7	Dengiz va okeanlar ekologik muammosi.	4	6	10
8	Orol bo‘yi hududining ekologik muammolari	3	5	8
9	Havo gigiyenasi, uning ximiyaviy va fizikaviy holati	5	10	15
10	Atmosfera havosini ifloslovchi manbalar.	2	8	10
11	Atmosferani muhofaza qilish.	4	8	12
Oraliq nazorat ishi		3		3
12	Tabiiy hodisalar va iqlim o‘zgarishi	3	5	8
13	Chiqindilar muammosi. Chiqindilarni qayta ishlash va ulardan takroriy foydalanish	3	8	11
14	Qog‘ozlarni qayta ishlash	4	8	12
15	Tabiiy resurslar tasnifi	4	6	10
16	Havoning ifloslanishi. Havo muhitini muhofaza qilish tadbirlari.	4	6	10
17	O‘simlik va hayvonlarning hayoti va ularni muhofaza qilish	4	8	12
18	Hayot, salomatlik va atrof muhit	5	5	10
19	Mevali daraxtlarning kasalliklari va zararkunandalari: ta’rifi va uni boshqarish usullari	4	6	10
20	Biologik ifloslanish	5	5	10
21	Jamiyat va tabiat o‘zaro munosabatlarining evolyutsiyasi	4	6	10
Yakuniy nazorat ishi			3	3
Jami:		83	135	216

Yosh ekolog va tabiatshunoslarning to'garaklarda muntazam ishtirok etishi ularning kasbga qiziqishlarini rivojlantiradi. Qishloq xo'jalik va atrof-muhitni muhofaza qilish ishlariga qiziqishini oshiradi, hayot yo'lini yanada ongliroq tanlashlariga yordam beradi.

Qiziqishiga ko'ra klub va guruhlar

O'quvchilarda kasbga havasni tarkib toptirish va rivojlantirishning yangi, eng samarali yo'llarini izlash, qiziqishiga ko'ra klub va guruhlar deyiladigan yangi shaklning tug'ilishiga olib keldi. Bu guruhlarga a'zo bo'lganlar yig'uvchi-chilangar, chilangar-asbobsoz, shtampovkachi-chilangar, ta'mirchi-chilangar, santexnik-chilangar kabi turdosh ixtisoslar bilan tanishadilar.

Qiziqishiga ko'ra guruhlarini komplektlashni kasbga bo'lgan qiziqishi so'ngan o'quvchilardan tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu guruhlarda asosiy ishlar sinf rahbari zimmasiga yuklatiladi. Bunday guruh rejasini tuzishda ishtirok etish, uning bajarilishini kuzatib borish, kasb haqida konsultatsiya va suhbatlar o'tkazish, ota-onalar va faol o'quvchilar bilan ish olib boorish sinf rahbarining asosiy vazifalari hisoblanadi.

Qiziqishiga ko'ra guruhlarini komplektlashda o'quvchilarning jismoniy kuchi va sog'lig'ini hisobga olish zarur. Guruhlarga bevosita rahbarlik qilish uchun qishloq joylarida klaster, fermer xo'jaligi zootexnigi, elektrik, mexanik, fermer-asalarichi, fermer-o'simlikshunos, agronom va boshqalar, sanoat korxonalarida uchastka ustasi, sex boshlig'i, uchastka brigadiri, bosh mexanik, energetik, texnolog, ishlab chiqarish muhandisi tayinlanadi.

Qiziqishiga ko'ra guruh a'zolari undagi asosiy va aralash kasblar bo'yicha materiallarni, ya'ni nashrlardan qirqib olingan professional mehnat va ishlab chiqarish ilg'orlari haqidagi rasm va fotosuratlarini, ishlab chiqarishning turli masalalari bo'yicha statistik ma'lumotlar, xalq xo'jaligi turli sohalarining taraqqiyotini ko'rsatadigan sxema yoki diagrammalarni hamda mazkur iqtisodiy tumanning ishchi kadrlarga bo'lgan ehtiyoji haqidagi ma'lumotlarni yig'ishlari lozim¹. To'plangan materiallar "Mening sevgan kasbim" deb nomlangan maxsus stendga joylashtiriladi.

Biroq qiziqishiga ko'ra guruhlarining faoliyati materiallar to'plash bilan cheklanib qolmaydi. Guruhlarda e'tibor ko'proq ixtisoslar bo'yicha o'quvchilarning amaliy faoliyatiga, ularning mehnat mazmunini anglashlariga, asosiy mehnat usullarini egallashlariga qaratilmog'i lozim. Qiziqishiga ko'ra guruhlarda ishning bunday tashkil qilinishi uning a'zolari o'rtasida kasbga qiziqishni tarkib toptirishni ta'minlaydi.

¹ Организационно-педагогические проблемы повышения профессионального мастерства учителя.
<http://elibrary.ru/tem.asp?id=32530297>

Qiziqishga ko'ra klublar ishining mazmuni ham qiziqishga ko'ra guruhlar ishining mazmuniga o'xshab ketadi. Biroq klublarda bajariladigan ish hajmi va unga qatnashuvchilar soni guruhlarnikidan ancha ko'proq bo'ladi. Ular orasidagi asosiy farq asosan shundan iboratdir.

Kasbga qiziqishni rivojlantirish shakliga misol tariqasida: "Yosh temiryo'chilar klubi", "Yosh quruvchilar klubi", "Yosh menejerlar klubi" va hokazolarni kiritish mumkin. Qiziqishga ko'ra klublar turli xil maktablardan juda ko'p o'quvchilarni o'ziga qamrab olgan.

Klublarda kasblarni o'rganish va kasbga qiziqish metodlari qiziqishga ko'ra guruhlarniki bilan bir xil bo'ladi. Qiziqishga ko'ra klublarda kasbga oid axborotlar to'plash uchun, ishda tajriba almashish hamda ishchi kasbi daqida bilimlarni tashviqot qilish uchun yaxshi sharoitlar yaratilgan.

Kasblar va kasblarga qiziqish haqida referatlar

O'quvchilar orasida bunday ishlarni amalga oshirishdan maqsad kasb bilan yaqinroq tanishtirish va mehnatning muayyan bir turiga bo'lgan qiziqishni kuchaytirishdan iboratdir.

Texnologiya fani dasturlari maktabda o'quvchilarga qator kasblar hamda metall, yog'och va polimerga ishlov berish, robototexnika, mexatronika, elektronika, hunarmandchilik, mashinasozlik, texnologiya va dizayn, servis xizmati, qishloq xo'jalik asoslari ixtisosliklari bilan tanishish imkonini beradi.

Biroq bu kasblar mazmunini to'la o'rganish uchun bu ma'lumotlar yetarli emas. Shuning uchun ham qandaydir aniq kasbga muayyan darajada havasi bo'lgan o'quvchilarga referat mavzularini taklif etish zarur.

Mexanizatorlik kasbi bo'yicha referatlarning taxminiy rejasi quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Siz mexanizator kasbini qanday tasavvur qilasiz?
2. Bu kasb sizga nima uchun yoqib qoldi?
3. Mustaqillikka erishmasdan avval qishloq xo'jaligi mexanizatsiya bilan qanday ta'minlangan edi va hozir qanday?
4. Fermer xo'jaliklarida qanday qishloq xo'jaligi mashinalaridan foydalaniladi, mamlakatimizda qishloq xo'jalik texnikasi taraqqiyotining istiqbollari qanday?
5. Mexanizator mehnatining mazmuni nimadan iborat? Fermer xo'jaliklarida ular mehnatining ahamiyati qanday?
6. Qayerda va qaysi o'quv yurtlarida bu kasbni egallash mumkin? O'qish sharoitlari va kelgusidagi istiqbollari.
7. Kelajakda sizning rejalaringsiz qanday?

Mazkur kasbga doir referat uchun materiallar tayyorlash va yig'ish, uni turli

qishloq xo‘jalik mashinalarida ishlab turib parallel holda o‘rganish o‘quvchilarga bu kasbni yaxshi bilishnigina emas, balki unga bo‘lgan barqaror qiziqishni tarkib toptirish imkonini ham beradi.

O‘QUV TOPSHIRIQLARI

1-AMALIY TOPSHIRIQ

Quyidagi jadvaldagi topshiriqlarni bajaring:

TEST...	MUAMMOLI TOPSHIRIQ
O‘quvchilarning kasbga bo‘lgan qiziqishini aniqlashda qo‘llaniladigan usulni aniqlang. A. Klub va guruhlar. B. Qiziqish xaritasini to‘ldirish. C. Korxonalarga uyushtiriladigan ekskursiyalar. D. Kasblar haqida referatlar.	O‘quvchilarda kasbga oid qiziqishlarni o‘stirishda ekskursiyalarning o‘rnini qanday baholaysiz...
SIMPTOM	AMALIY KO‘NIKMA
Kasbni to‘g‘ri tanlashni nazarda tutadigan yetakchi motivlardan biri – bu ...	O‘quvchilarning kasbga bo‘lgan qiziqishini aniqlash qanday didaktik usul va metodlar yordamida amalga oshiriladi? 1. 4. 2. 5. 3. 6. Bitta usuldan foydalanish yo‘lini yoritib bering.

2-AMALIY TOPSHIRIQ

Quyidagi jadval namunasi asosida “Aviamodel” to‘garagi o‘quv rejasini tuzing:

№	Mashg'ulot mavzulari	Nazariy soat	Amaliy soat	Jami soat

3-AMALIY TOPSHIRIQ


Hunarmandchilik kasbi bo'yicha referatlarning taxminiy rejasini tuzing.

Reja:

1. _____
2. _____
3. _____
4. _____

4-AMALIY TOPSHIRIQ

Darsadan tashqari vaqtlarda kasbga yo'llash ishlarining shakl va metodlarini tavsiflang.



O‘z-o‘zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar

1. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarni to‘g‘ri kasb tanlashga yo‘llashning muhim sharti nima?
2. Maktab ustaxonalarining asosiy vazifalarini aytib bering.
3. Ishchi kasbi bo‘yicha kasbga oid axborot ishlarining asosiy yo‘nalishi, xarakteri mazmunini belgilash uchun texnologiya o‘qituvchisi qanday ishlarni amalga oshirishi lozim?
4. Kasbni to‘g‘ri tanlashni nazarda tutadigan yetakchi motivlardan biri qaysi?
 - a) o‘quvchilarda kasbga qiziqishni tarbiyalash;
 - b) ma’ruzalar, amaly mashg‘ulotlar;
 - c) davra suhbatlari, uchrashuvlar;
 - d) ekskursiyalar, to‘garak mashg‘ulotlari.
5. O‘quvchilarning kasbga bo‘lgan qiziqishini aniqlash necha xil didaktik usul va metodlar yordamida amalga oshiriladi?
 - a) besh xil;
 - b) to‘rt xil;
 - c) olti xil;
 - d) yetti xil.
6. O‘quvchilarning kasbga qiziqish masalasi o‘rganilganda yuz berishi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlarning sifat jihatdan farqlanadigan nechta darajasini nazarda tutish zarur?
 - a) uchta;
 - b) to‘rtta;
 - c) oltita;
 - d) beshta.
7. Qishloq maktablari o‘quvchilarida kasbga qiziqishni shakllantirish uchun texnologik ta’lim berishning qanday metod va shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiq?
 - a) ekskursiyalar, fakultativ mashg‘ulotlar;
 - b) davra suhbatlari, uchrashuvlar;
 - c) maktab yer uchastkasi, yosh bog‘bonlar, yosh hunarmandlar, yosh tabiatshunoslar to‘garaklari;
 - d) ma’ruzalar, amaly mashg‘ulotlar.
8. Darsdan tashqari vaqtlarda kasb tanlashga yo‘llash ishlarining necha xil shakl va metodlaridan foydalaniladi?
 - a) besh xil;
 - b) to‘rt xil;
 - c) olti xil;
 - d) yetti xil.

9. O'quvchilarda kasbga oid qiziqishlarni o'stirishda eng samarali vosita nima?

- a) to'garak ishlari;
- b) korxonalarga uyushtiriladigan ekskursiyalar;
- c) qiziqishiga ko'ra klub va guruhlar;
- d) kasblar va kasbga qiziqish haqida referatlar.


10. Maktabda tashkil qilinadigan fanlar bo'yicha to'garaklarning maqsadi nimadan iborat?

- a) o'quvchilarga ularning tanlagan kasbga munosabati hamda unga bo'lgan professional qiziqish darajasini aniqlashda yordam berish;
- b) o'quvchilarda kasbga havasni tarkib toptirish va rivojlantirishning yangi, eng samarali yo'llarini izlash;
- c) o'quvchilarni kasb bilan yaqinroq tanishtirish va ularda mehnatning muayyan bir turiga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish
- d) o'quvchilarning sinf mashg'ulotlari jarayonida qondirilmagan talab va ehtiyojlarini qondirish.


11-mavzu. Kasbga doir konsultatsiya ishlarining turlari va mazmuni

Kasbga doir konsultatsiyalar tashkil qilishda xatosiz kasb tanlashda yoshlarga yordam berish, yosh inson qobiliyatining yanada to'laroq rivojlanishi uchun sharoitlar yaratish asosiy vazifa qilib qo'yiladi. Kasbga doir konsultatsiya maktabni bitiruvchi sinflar bilan o'tkazilgan bir martalik suhbat xarakterini olib qolmay, balki shartli bosqichlarga bo'lingan holda ta'limning barcha davrlari mobaynida o'tkazib turilishi kerak.

Kasbga doir konsultatsiya ishlarini uch bosqichda amalga oshirish tavsiya etiladi:



Kasbga oid konsultatsiyalar quyidagi asosiy shakllari bilan farq qiladi:



Tashkiliy-ma'lumotnoma konsultatsiyasi

Kasbga oid konsultatsiyaning bu turi hamisha ishlatiladigan axborot-ma'lumotnoma materiallari tizimi yetarli darajada bo'lganda yaxshi natija berishi mumkin. Mehnat resurslaridan foydalanish bo'yicha bo'lim va kasbiy ta'limni

rivojlantirish va muvofiqlashtirish boshqarmalarida jamlanadigan ishchi kadrlarga bo'lgan ehtiyoj haqidagi, kasb-hunar maktablariga, kollejlarga, texnikumlarga qabul qilish va hokazolar haqidagi ma'lumotlar axborot-ma'lumotnoma materiallari o'rnida foydalanilishi mumkin. Akademik litseylar, professional va oliy ta'lim tashkilotlari haqidagi ma'lumotlar tegishli ma'lumotnomalarda to'plangan bo'ladi. Bu ma'lumotnomalar har yili qayta nashr etiladi.

Kasbga doir konsultatsiyalar o'tkazishda zarur ma'lumotlarni saqlash, qidirish va ulardan foydalanish uchun maxsus tashkil etilgan kartotekalar katta qulayliklar tug'diradi. Foydalanish uchun mukammalrog'i va qulayrog'i cheti tashikli kartochkalar hisoblanadi. Perfoxaritalar odatdagi kartochkaga nisbatan o'z ichiga kasbga oid konsultatsiyalar bo'yicha zarur materiallarni ko'proq oladi.

Kasbga oid konsultatsiyalar uchun ko'proq axborot materiallari hozirgi vaqtda adabiyotlarda jamlangan. Biroq ulardan foydalanishning qiyinligi shundaki, kasbga va kasb tanlashga yo'llashga oid ma'lumotlar turli xil manbalarda mavjud. Shuning uchun kasblar haqida axborot beruvchi konsultantda faqat kasb haqidagi tavsiya adabiyotlarining ro'yxati emas, balki kelajakda kasb tanlash bilan bog'liq bo'lgan ba'zi (masalalarni aniqlashda ehtiyoj sezadigan, o'quvchilar foydalanishi mumkin bo'lgan) adabiyotlarning o'zi ham bo'lishi zarur.

Biroq kasbga doir konsultantning ishi tashkiliy-ma'lumotnoma konsultatsiyalariga katta ahamiyat berish emas, balki o'quvchilar maqsadini mazkur iqtisodiy tumanning kadrlarga bo'lgan ehtiyojiga yaqinlashtirish imkonini beradigan yo'nalishlarini qidirib topish hamdir. Bu ishlar shifokor va psixologlarning konsultatsiyalarini ham mustasno etmaydi.

Tibbiyot konsultatsiyasi

Har bir o'quvchi o'ziga adashmay kasb tanlar ekan, uning mazmunini bilishi va unga qiziqishini anglatishning o'zi yetarli bo'lmaydi. U kasbning insonga qo'yadigan barcha talablariga o'quvchining sog'lig'i javob bera olishini ham bilish zarur.

Ma'lumki, o'quvchilarning tibbiy ko'rikdan o'tib turishi maktab shifokori va maxsus tibbiyot komissiyasiga yuklatilgan. Maktab shifokori o'quvchining o'sish va rivojlanish xususiyatlarini, ular sog'lig'ining ahvolini muntazam kuzatib borishi lozim. Kasb tanlashga doir barcha maslahatlar har bir o'quvchining individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda berilishi lozim, chunki organizmdagi kasalliklar ayrim kasblarni tanlash va egallashga yo'l bermasligi mumkin.

Noqulay sharoitlar ta'siri ostida o'quvchilar organizmida funksional, ba'zan esa patologik buzilishlar nisbatan tez-tez paydo bo'ladi. Maktab yoshidagi bolalarda odatda o'z imkoniyatini ortiqcha baholash hamda atrof-muhitni to'g'ri baholay olmaslik hollari uchraydi. Shu sababdan ko'pgina o'smirlar o'z sog'liqlari tanlanayotgan mehnat turiga mos kelish-kelmasligini hamma vaqt ham hisobga

olavermaydilar, bu masalaga ota-onalar ham doimo to'g'ri munosabatda bo'lavermaydilar, noto'g'ri tanlangan kasb salomatlikni keskin yomonlashishiga olib kelishini kamdan kam o'ylaydilar. Shuning uchun ham kasb tanlaganda shaxsiy mayl va qiziqishdan tashqari organizmning funksional imkoniyati, xususan, sog'liqning ahvoli, jismoniy rivojlanganlik, asab tizimi va yurak-qon tomir xususiyatlari, kuch va qobiliyati, eshitish, ko'rish va boshqa xususiyatlardan kelib chiqish lozim bo'ladi.

Kishi fiziologik ma'lumotlarining kasb talablariga mos kelmasligi bir xil sharoitda bir bolaning ishni yaxshi uddalashiga, ikkinchi bolaning ishni uddalay olmasligiga olib keladi.

Demak, kasbga yaroqlilikni tibbiyot tomonidan hisobga olish kasal o'quvchilargagina emas, balki sog'lom o'quvchilarga ham zarur.

O'quvchilarning kasb tanlashida ularning jismoniy rivojlanishini, organizmidagi fiziologik o'zgarish xususiyatlarini, o'smirning sog'lig'ini inobatga olgan holda to'g'ri yo'l tutish, to'g'ri rivojlanish hamda mehnat qobiliyatini yo'qotishni ilgariroq oldini olishga shart-sharoitlar yaratadi. Bundan tashqari organizmning kompensatorlik imkoniyatlarini rivojlantirish uchun moslashish jarayonlarini faollashtirish usullaridan biri sanaladi. Shuning uchun salomatligida u yoki bu darajada kasalliklar mavjud bo'lgan o'smirlarda kasbni to'g'ri tanlash va ishga joylashish ko'pchilik hollarda ularning sog'ayib ketishiga ham sabab bo'lishi mumkin.

Psixologik-pedagogik konsultatsiya

Psixologik-pedagogik konsultatsiya o'quvchilarga o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholash, faoliyatning individual uslubini hosil qilish imkonini beradi, shaxsiy qiziqish va qobiliyatlarini xalq xo'jaligining malakali kadrlarga bo'lgan real ehtiyojlari bilan moslashtirish uchun yaxshi sharoitni ta'minlaydi. Biroq kasbga doir konsultatsiyaning bu turi bo'yicha bir qator nazariy va metodik masalalarning yetarli ishlab chiqilmagani va tayyorgarligi bo'lgan mutaxassislarning kamligi muayyan darajada qiyinchiliklar tug'diradi. Mavjud qiyinchiliklarga qaramay, hozirgi paytda psixologik-pedagogik konsultatsiya masalalari bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Eng ko'p tarqalgan metodlardan biri suhbat metodidir. Bu metodning maqsadi o'quvchi konkret shaxsining mayli va kasbga doir qiziqishlarini aniqlashdan, zarur hollarda esa kasbga doir qiziqishlarni jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlariga muvofiq ravishda tuzatishdan iboratdir. Psixologik konsultatsiyalar tizimida suhbatlar aniqlangan qiziqishni rag'batlantirish va rivojlantirishga, yoki aksincha, xato, keraksizlarini to'xtatish hamda muayyan mayl va kasbga doir qiziqishni boshqa yo'nalishga solib yuborishga qaratilgan bo'ladi. Bunda psixologik didaktikaning tushuntirish, ishontirish, rag'batlantirish, koyish kabi usullaridan foydalanish zarur.

O'quvchi bilan konsultant o'rtasida muvaffaqiyatli psixologik aloqa o'rnatish uning mahorat bilan o'tkazilishiga bog'liq, optimal psixologik sharoitlar yaratish esa konsultant bilan o'quvchi muammosining boshlang'ich bosqichida tez-tez uchrab turadigan tanglik to'sig'ini bartaraf etishga yordam beradi. Ammo kasbga doir konsultatsiya suhbatining xarakteri, konsultatsiya o'tkazilayotgan davrga qarab, har xil: bu dastlabki davri – kirish va diagnostika, keyingi davri – aniqlovchi va axborot xarakterida bo'lishi mumkin. Masalan, aniqlash suhbatining maqsadi o'quvchining kasb tanlashining haqiqiy sababi, uning to'g'ri tanlashiga bo'lgan ishonch darajasini aniqlash va oshirishdan iborat.

Aniqlovchi suhbatdan oldin o'quvchilar tekshiruvdan o'tadilar. Tekshiruv anketa savollariga javob olish, qiziqish xaritalarini to'ldirtirish, ota-onalar, fan o'qituvchilarining o'quvchilarga bergan xarakteristikasi yordamida amalga oshiriladi. Bu jarayonda o'quvchiga quyidagilarni tushuntirish va singdirish lozim, deb hisoblaymiz (chunki kasbga doir konsultantning mazkur o'quvchi bilan bundan keyingi olib boriladigan ishlarining muvaffaqiyati shunga bog'liq):

- o'quvchi shunday kasb tanlasinki, kelajakda u bundan afsuslanmasin;
- kasb tanlash ota-onaning xohishi yoki buyrug'iga asosan amalga oshirilmasin;
- bolaning tanlagan kasbi kelgusida uning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal qilishga xizmat qilsin, uning ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga zamin yaratsin;
- bolaning tanlagan kasbi unda dunyoni qanchalik bilishini his qilishni, uning uchun farovon hayotni ta'minlasin;
- o'quvchi orzu-havas va imkoniyatlarini farqlay olsin hamda shundan kelib chiqqan holda kasb tanlasin.

Yuqoridagi kabi fikrlarni ota-onalar ongiga ham singdirib borish maqsadga muvofiq.

O'QUV TOPSHIRIQLARI

1-AMALIY TOPSHIRIQ

Kasbga doir konsultatsiya ishlarining turlari va mazmuniga oid blits-so'rov.

Topshiriq (blits-so'rov):

1. Kasbga doir konsultatsiya –
2. Kasbga doir konsultatsiyalarning asosiy vazifasi –
3. Kasbga oid konsultatsiyalarning asosiy shakllari –
4. Tashkiliy-ma'lumotnoma konsultatsiyasi –
5. Psixologik-pedagogik konsultatsiya –
6. Tibbiyot konsultatsiyasi –

2-AMALIY TOPSHIRIQ

Kasbga doir konsultatsiya ishlarini necha bosqichda amalga oshirishni tavsiya etgan bo‘lar edingiz? Har bir bosqichga sharh bering.

Birinchi bosqich	Ikkinchi bosqich	Uchinchi bosqich

3-AMALIY TOPSHIRIQ

Kasbga oid konsultatsiyaning qaysi shakli eng samarali shakl hisoblanadi? Xulosangizni ushbu jadval orqali ifodalang:

Tashkiliy-ma'lumotnoma konsultatsiyasi		Psixologik-pedagogik konsultatsiya		Tibbiyot konsultatsiyasi	
Afzalliklari	Kamchiliklari	Afzalliklari	Kamchiliklari	Afzalliklari	Kamchiliklari
Xulosa:					

4-AMALIY TOPSHIRIQ

Salomatligida u yoki bu darajada kasalliklar mavjud bo‘lgan o‘smirlarda kasbni to‘g‘ri tanlash va ishga joylashish ko‘pchilik hollarda ularning sog‘ayib ketishiga ham sabab bo‘lishi mumkinligini isbotlang.

Salomatligida u yoki bu darajada kasalliklar mavjud bo'lgan o'smirlarda kasbni to'g'ri tanlash va ishga joylashish ko'pchilik hollarda ularning sog'ayib ketishiga ham sabab bo'lishi mumkin

**Q
A
N
D
A
Y
?**

5-AMALIY TOPSHIRIQ

Aniqllovchi suhbatdan oldin o'quvchilarni tekshiruvdan o'tkazish jarayonida o'quvchiga nimalarni tushuntirish va singdirish lozim, deb hisoblaymiz? Nima uchun?

Quyidagilarni tushuntirish va singdirish lozim



Nima uchun?

O‘z-o‘zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar

1. Kasbga doir konsultatsiyalarning asosiy vazifasi nima?
2. Kasbga doir konsultatsiya ishlarini qanday bosqichlarda amalga oshirish tavsiya etiladi? Javobingizni izohlang.
3. Kasbga oid konsultatsiyalarning asosiy shakllarini sanab ko‘rsating va ular haqida gapirib bering.
4. Tashkiliy-ma’lumotnoma konsultatsiyasi qachon yaxshi natija berishi mumkin?
 - a) o‘quvchining o‘shish va rivojlanish xususiyatlarini, ular sog‘lig‘ining ahvolini muntazam kuzatib borishda;
 - b) kasbga doir qiziqishlarni jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlariga muvofiq ravishda tuzatishda;
 - c) hamisha ishlatiladigan axborot-ma’lumotnoma materiallari tizimi yetarli darajada bo‘lganda;
 - d) anketa savollariga javob olish, qiziqish xaritalarini to‘ldirtirishda.
5. Aniqlash suhbatining maqsadi nimadan iborat?
 - a) o‘quvchining kasb tanlashining haqiqiy sababi, uning to‘g‘ri tanlashiga bo‘lgan ishonch darajasini aniqlash va oshirish;
 - b) o‘quvchilarga o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholash, faoliyatning individual uslubini hosil qilish imkonini berish;
 - c) o‘quvchining o‘shish va rivojlanish xususiyatlarini, ular sog‘lig‘ining ahvolini muntazam kuzatib borish;
 - d) o‘quvchilar maqsadini iqtisodiy tumanning kadrlarga bo‘lgan ehtiyojiga yaqinlashtirish imkonini berish.
6. Nima uchun kasb tanlashga doir barcha maslahatlar har bir o‘quvchining individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda berilishi lozim?
 - a) chunki kasbga va kasb tanlashga yo‘llashga oid ma’lumotlar turli xil manbalarda mavjud;
 - b) chunki hozirgi vaqtda ko‘proq axborot materiallari adabiyotlarda jamlangan;
 - c) chunki kasb tanlash ota-onaning xohishi yoki buyrug‘iga asosan amalga oshiriladi;
 - d) chunki organizmdagi kasalliklar ayrim kasblarni tanlash va egallashga yo‘l bermasligi mumkin.
7. Psixologik-pedagogik konsultatsiya shaklida eng keng tarqalgan metod – bu:
 - a) taqqoslash;
 - b) suhbat;
 - c) kuzatuv;

d) tushuntirish.

8. Psixologik-pedagogik konsultatsiya nima beradi?

a) o'quvchining kasb tanlashining haqiqiy sababi, uning to'g'ri tanlashiga bo'lgan ishonch darajasini aniqlash va oshirish imkonini beradi;

b) o'quvchilar maqsadini iqtisodiy tumanning kadrlarga bo'lgan ehtiyojiga yaqinlashtirish imkonini beradi;

c) o'quvchining o'sish va rivojlanish xususiyatlarini, ular sog'lig'ining ahvolini muntazam kuzatib borish imkonini beradi;


d) o'quvchilarga o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholash, faoliyatning individual uslubini hosil qilish imkonini beradi.

12-mavzu. O'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash jarayonida yo'l qo'yiladigan xatoliklar va ularni bartaraf etish yo'llari

Sir emaski, har qanday sohada kasbiy faoliyatning dastlabki bosqichlaridan muvaffaqiyatli o'tgan insonlar mehnatda yuksak natijalarga erishadilar. Masalan, kimki dastlab ishchi, brigadir bo'lib ishlagan bo'lsa, keyinchalik u yaxshi muhandis bo'lib yetishishi mumkin; kimki o'z vaqtida tirishqoq bo'lgan bo'lsa va ishining barcha nozik jihatlarini puxta o'zlashtirib olsa, o'sha kishi yaxshi rahbar bo'lib yetishishi mumkin.

Masalan, Asakadagi "UzDaewooAuto" (hozirgi "UzAuto Motors") ishlab chiqarish birlashmasi jamoasi o'rtasida shu birlashma Bosh direktori lavozimida ishlagan, shuningdek "O'zAvtoSanoat" kompaniyasi raisi bo'lgan A.Parpiyev alohida hurmatga sazovor bo'lgan kishilardan biri hisiblanadi. U o'zining mehnat sohasidagi mustaqil faoliyatini mana shu birlashmada slesarga shogirdlikdan boshlagan edi. Bunday misollarni yana ko'plab keltirish mumkin. Shuning uchun ham har bir shaxs kelgusida o'z ishining haqiqiy ustasi bo'lib yetishish uchun o'z kundalik faoliyatini nimadan boshlash to'g'risida jiddiy o'ylab ko'rishi kerak.

Tajribalar ko'rsatmoqdaki, o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash jarayonida quyidagi xatoliklarga yo'l qo'yilishi mumkin:




O'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash jarayonida yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatoliklarni quyidagi yo'llar orqali bartaraf etish tavsiya etiladi:

Yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatoliklar	Xatoliklarni bartaraf etish yo'llari
Kasblar nufuzli va nufuzsiz bo'ladi degan xato tushuncha	Shunday kishilar borki, ular bir qator kasblar xususida noto'g'ri tasavvurga ega. Ular kasbning ba'zi bir muhim turlarini hurmatga sazovor bo'lmagan, nufuzsiz kasb hisoblashadi. Bu soxta, asossiz fikrdir. Bizning davlatimizda har qanday kasb muhim va hurmatga sazovor ekanligini bolalar ongiga singdirish lozim.
"Sheriklardan orqada qolmaslik uchun" kasb tanlash	To'qqizinchi (o'n birinchi) sinfni bitirgan bolalarning ko'pchilik qismi o'rtoqlik yoki do'stlik prinsipi bo'yicha kasb tanlaydilar, faqat birga bo'lishni maqsad qilib o'qishga, ishga kiradilar. Xo'sh, buning yaxshi yoki yomon tomonlari nimada ko'rinadi? Agar do'stlarning qiziqishlari, mayllari, qobiliyatlari bir xil kasb sohasidagi faoliyatga mos kelib qolgan hollarda bu yaxshi, albatta. Lekin ularning birortasi "sheriklari shu kasbni tanlagani uchun" bunday qilgan bo'lsa, u holda yomon. Bunday hollarda odatda odam afsuslanib qoladi va oradan uzoq vaqt o'tgach, ba'zan esa mashaqqatli sarsongarchilikdan keyin dastlabki tanlagan kasbini o'zgartirishga majbur bo'ladi. Albatta, biror joyda o'rtog'ing bilan yonma-yon ishlashga nima yetsin. Lekin har bir kishi o'z mehnat yo'lini tanlar ekan, eng avvalo, shu kasb men ishlab keta oladigan sohamikan, bu ishini eplay olarmikanman, men shu kasbga mos kelarmikanman, shu sohada ishlasam qanday natijalarni qo'lga kiritarkinman? degan savollar to'g'risida o'ylab ko'rishi kerak.
Biror kasb egasi bo'lgan insonga qaratilgan munosabatni kasbning o'ziga ko'chirish	Ko'pincha shaxsan bir insonga izzat-hurmatda bo'lish yoshlarda shu insonning kasbini egallash xohishini paydo qiladi. Xo'sh, bunday qilish to'g'rimi? Har doim ham bunday qilish o'zini oqlayvermaydi. Masalan, sizga o'rtog'ingizning amakisi juda yoqadi. U aqlli, zukko, quvnoq va epcil. Uning kasbi geolog va siz ham har bir ishda unga o'xshashga harakat qilasiz va o'zingiz ham geolog bo'lmoqchisiz. Ehtimol, bunday qilish, ya'ni geolog bo'lish yomon emasdir. Biroq bir insonga taqlid qilib, o'shanga o'xshagan odam bo'lish orzusini kasb tanlash uchun yetarli darajadagi asos deb hisoblamaslik kerak. Bu yerda eng avvalo geolog kasbining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish lozim. Bu ancha qiyin ishdir. Geolog uzoq vaqt zo'r mashaqqat chekib qidiruv, kuzatish ishlarini olib boradi, o'z uyidan olisda bo'lgan joylarda oylab qolib ketib ishlashga, hatto ba'zan nihoyatda og'ir iqlim sharoitlarida ishlashga, nihoyatda nozik o'lchash, hisoblash ishlari bilan shug'ullanishga, bitta qidiruv ishini har xil joylarda takrorlashga to'g'ri keladi. Xuddi mana shu ish sharoitini inobatga olish, kasb tanlayotganda eng avvalo u yoki bu kasb vakiliga bo'lgan shaxsiy hurmat-ehtiromgagina asoslanmasdan, eng avvalo, o'sha kasbning yuqorida aytilgan o'ziga xos xususiyatlariga asoslanish kerak.

Ko'pgina o'quvchilar kasblar bilan tanishishda shu kasblar haqidagi adabiyotlarni o'qish bilan cheklanadilar, mazkur faoliyatga bo'lgan o'z qobiliyatlari va qiziqishlarining barqarorligini tekshirib ko'rish uchun maktabda shunga o'xshash narsalar bilan shug'ullanishga urinib ko'rmaydilar, u yoki bu kasb uchun zarur bo'lgan o'z qobiliyatlarini qanday qilib rivojlantirish va boshqarish kerakligini bir yoqlama, sodda tasavvur qiladilar.

Biroq shunday o'quvchilar ham borki, ular bo'lajak kasb to'g'risida ko'proq narsalarni bilishga harakat qilib qolmay, balki unga amaliy tayyorgarlik ko'rishga ham urinadilar. Bunday o'quvchilar turli to'garaklarda, xilma-xil ijtimoiy foydali ishlarda qatnashadilar.



1. *O'quvchilar u yoki bu kasbdagi odamga munosabatni kasbning o'ziga bo'lgan munosabat bilan bir xil deb qaraydilar.* Muayyan odam, uning yuksak ma'naviy xislatlari, aql-farosati, dadil ishlari o'quvchiga ma'qul bo'ladi. Bunday qoyil qolish beixtiyor sevimli qahramon shug'ullanayotgan ishga ham o'tadi. Binobarin, o'smir unga taqlid qilish yo'lidagi muddaosida qandaydir axloqiy xislatlardagina unga o'xshash bo'lishni emas, balki o'zini ham ana shu kasbga bag'ishlashni istaydi. Bunda o'quvchi o'sha ma'naviy fazilatlar boshqa ishda ham namoyon bo'lishi mumkinligi haqida o'ziga ko'pincha hisob bermaydi.

Badiiy adabiyotlardagi, kinofilmlar, spektakllardagi qahramonlar ko'pincha ana shunday munosabatni tug'diradi, tanish-bilishlardan, qo'ni-qo'shni, qarindosh-urug'lardan birontasi, chunonchi o'qituvchilar taqlid qilish uchun ko'pincha namuna bo'lib xizmat qiladilar.

Taqlid qilish uchun o'qituvchi namuna bo'lgan chog'da o'quvchi unga bo'lgan yaqinligi, mehribonligini u o'qiyotgan fanga ham tatbiq etadi. Shunday ham

bo'ladiki, masalan, o'quvchida tabiiy fanlarga bo'lgan qiziqish, havas aniq-ravshan ko'rinib turadi, lekin unga adabiyot o'qituvchisi yoqqanligi uchun u o'zining butun fikri-zikrini adabiyot bilan bog'laydi.

2. *O'quv fanini kasb bilan bir xil deb tushunish.* O'smir maktabdagi fanlarni o'zlashtirishdagi muvaffaqiyatlariga asoslanib, ko'pincha bo'lgusi kasbini belgilaydi. O'quvchiga adabiyot yoqib qolgan bo'lsa, bu u adabiyotni amaliy jihatdan qo'llanish bilan bog'liq bo'lgan kasblar to'g'risida tasavvurga ega bo'lmasa ham adabiyot mening sevgan fanim, deydi. U kasbni emas, balki bilimning o'zini qiziqtiruvchi sohasinigina tanlaydi, bu sohada nimani istayotganini va nima qilishi mumkinligini mutlaqo tasavvur qilmaydi.

3. *Kasbning tashqi jihati bilangina qiziqish.* O'smirlarni romantika bilan yo'g'rilgan kasblar qiziqtiradi. Ular uchuvchi, geolog, ixtirochi bo'lishni orzu qiladilar. Bu – mutlaqo tabiiy hol, albatta. Lekin o'quvchilar ko'pincha o'zlarini qiziqtirayotgan kasblarning faqat romantik jihatlarinigina ko'rib, shu kasblarga xos bo'lgan qiyinchiliklarni bilmaydilar. Chunonchi, geolog kasbida o'quvchilarni ko'pincha sayohat qilish imkoniyati qiziqtiradi, ammo ular geologning kundalik og'ir ishini: uzoq vaqt davomida mashaqqatli kuzatishini, juda aniq o'lchashlar bilan shug'ullanish zarurligini, turli joylarda o'sha bir xil qidiruv ishini oy sayin takrorlash kerakligini esdan chiqarib qo'yadilar yoki bilmaydilar.

Uchuvchi kasbi esa ko'pincha turli jasoratlar, odatdan tashqari tez parvozlar, qahramonona qutqaruv ekspeditsiyalari, dadil uchishlar va shu kabilar haqidagi tasavvurlar bilan bog'langan. Holbuki, uchuvchilar avvalo va hammadan ko'proq yo'lovchi, yuk va bagaj tashish bilan shug'ullanadilar, uchuvchining faoliyati esa haydovchining ishini eslatadi.

O'quvchilar u yoki bu kasb to'g'risidagi o'z romantik tasavvurlarigagina amal qilib, kasb egallashga o'zlarini chinakam tayyorlamaydilar va maxsus o'quv yurtlarida yoki tajribada kasb qiyinchiliklariga duch kelganlarida ko'pincha hafsalalari pir bo'ladi.

4. *Mehnatning aqliy mazmuni va ba'zi kasblarda, ayniqsa ommaviy kasblarda o'sish imkoniyatlari haqidagi noto'g'ri tasavvurning mavjudligi.* Yoshlarimiz, odatda, yengil yo'llarni qidirmaydilar, balki ma'naviy xislatlarni, qobiliyatlarni, mahoratni rivojlantirish mumkin bo'lgan joylarda ishlashga harakat qiladilar. Bu esa juda soz, albatta. Lekin ayni shu sababdan maktab o'quvchilari jamiyatga zarur bo'lgan kasblar ijodiy, aqliy jihatdan o'sish uchun yetarli darajada imkoniyat bermaydi, deb ana shunday kasblarni ko'pincha e'tiborsiz qoldiradilar. Kiyim tikishda zo'r qobiliyat ko'rsatayotgan qiz qanday bo'lmasin shifokor bo'lishni orzu qilishini, dastgohda yuksak mahorat bilan ishlayotgan yigit tokarlik kasbi haqida eshitishni ham istamayotganligi kabi faktlarni ayni shu narsa bilan izohlash mumkin.

5. *O'z qobiliyatlariga to'g'ri baho bera bilmaslik.* O'quvchi biron ishni ado etish uchun o'zida ko'proq qanday qobiliyat borligini ko'pincha aniqlay olmaydi, maktab esa bu borada unga kam ko'maklashadi. Biroq hamma joyda uning oldida barcha yo'llar ochiq ekanini, hammadan ko'ra ko'proq qiziqarli bo'lgan narsalarni qilish lozimligini unga ta'kidlaydilar. Shu boisdan kasbni umuman u tanlaydi: o'z xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olmay, ko'proq yoki kamroq yoqadimi, baribir ma'lum kasbni tanlab oladi.

Ba'zan shunday ham bo'ladiki, o'smir chizgan surat va rasmlar o'rtamiyona bo'lsa ham u zo'r berib rassom bo'lishga yoki matematikani yaxshi bilmasa ham iqtisodiyot yo'nalishlariga o'qishga kirishga harakat qiladi. Afsuski, bunday hollar kam emas. Ana shunday hollar yoshlar turmushda omadsizlarning, notavon xodimlarning paydo bo'lishiga olib keladi.

6. *O'quvchilarning bu yoki bu kasbga zid bo'lgan o'z jismoniy xususiyatlari va nuqsonlarini nazar-pisand qilmaslik.* Masalan mayda ish (UzDEUAvto, Fayzxolding, Uzavtotexxizmat, aniq asbobsoz ishlab chiqarish korxonasi va shu kabi joylarda) bilan bog'liq kasblar uchun ko'rish organining zaifligi, transportda ishlash uchun to'g'ri kelmaydigan daltonizm xastaligi, o'smir geolog bo'lishni xohlasa ham lekin yuragining zaif bo'lishi, radiolokatsiyada ishlashni tanlagan yoshlarning eshitish borasidagi kamchiligi, dengizda suzish va yerdagi transportning ba'zi turlarini va shu kabilar ana shunday kamchiliklar jumlasidandir. O'smirlar o'zlari tanlagan kasblarga to'g'ri kelmaydigan bu nuqsonlarini bilmasliklari oqibatida mos bo'lmagan kasblar bo'yicha ishga yoki tegishli o'quv yurtlariga o'qishga qabul qilmaganlarida juda ham xafa bo'ladilar, tushkunlikka tushadilar.

7. *O'rtoqlarining ta'siri bilan kasb tanlash.* O'quvchi o'z istaklarini ro'yobga chiqarishni o'ylab ham ko'rmagan bir paytda uning sinfdosh o'rtoqlari kasb tanlash haqida fikr yuritadilar. O'quvchi bunda o'rtoqlaridan ajralib qolishni xohlamaydi, chunki ularning orzulari yorqin, jozibalidir. Shu tariqa o'quvchi "men ular bilan birga bo'laman, chunki menga baribir" deydi. Keyinchalik esa u qiynala boshlaydi, azob chekadi: noto'g'ri kasb tanlaganiga pushaymon bo'ladi, o'zini qiziqitirmagan, o'ziga yoqmagan kasbda ishlayotganidan xafa bo'ladi.

8. *Tasodifiy sabablar ta'siri ostida kasb tanlash.* Ba'zan o'smir mexanika ishlab chiqarish korxonasi xonadonimizga yaqin bo'lgani uchun chilangar bo'lib ishga kirdim, deydi. Ammo o'zi bu kasbni uncha yoqtirmaydi.

Ayrim yoshlar esa pedagogika yo'nalishdagi o'quv muassasasiga kirishga tanlov uncha katta bo'lmaganligi yoki keyinchalik boshqa oliy o'quv yurtlariga o'tkazib ketaman degan fikr bilan shu bilim dargohida o'qishga qaror qildim deyishadi. Biroq ular o'qituvchi bo'lishni xayollariga ham keltirmagan bo'ladilar. Ba'zan yigit yoki qiz laborant bo'lib ishga kirdim, chunki tanishlarim yordam qildi,

deyishadi. Lekin bu ishning o'ziga manzur bo'lish-bo'lmasligini sira ham o'ylashmaydi.

O'smirlarning yetarli darajada tajribaga ega bo'lmaganliklari va katta yoshdagi kishilarning durust, malakali yordam bermaganliklari oqibatida kasb tanlashdagi bunday xatolari oldini qanday qilib olish mumkin? Bunga faqat bir xil javob berish mumkin: bu borada katta yoshdagi kishilar e'tiborni bir maqsadga qaratib, muttasil, malakali yordam berishlari kerak. O'smirlar esa ana shu yordamga tayanib, kelgusidagi hayot yo'li to'g'risidagi masalani mustaqil hal qilishlari lozim.

O'QUV TOPSHIRIQLARI


1-AMALIY TOPSHIRIQ

O'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash jarayonida qanday xatoliklarga yo'l qo'yilishi mumkin? Xatoliklar, ularning kelib chiqish sabablari va ularni bartaraf etish yo'llarini jadvalning tegishli ustunlariga yozib chiqing.

Yo'l qo'yilishi mumkin xatoliklar	Xatoliklarning kelib chiqish sabablari	Xatoliklarni bartaraf etish yo'llari


2-AMALIY TOPSHIRIQ

Maktab o'quvchilarining kasb tanlashdagi xatolarini va ularning kelib chiqish sabablarini baliqchanning yuqori va pastki qismlariga yozib chiqing.




3-AMALIY TOPSHIRIQ

Nima uchun o'quvchilar u yoki bu kasbdagi odamga munosabatni kasbning o'ziga bo'lgan munosabat bilan bir xil deb qaraydilar? Fikringizni asoslang.



4-AMALIY TOPSHIRIQ

O'quvchilarning bu yoki bu kasbga zid bo'lgan jismoniy xususiyatlariga misollar keltiring.



5-AMALIY TOPSHIRIQ

“O‘smirlarning kasb tanlashdagi xatolarining sabab va oqibatlari” mavzusiga oid biror voqeani eslang va shu asosida hikoya yozing.

O‘z-o‘zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar

1. O‘quvchilarni kasb tanlashga yo‘llash jarayonida qanday xatoliklarga yo‘l qo‘yilishi mumkin?
2. O‘quvchilarni kasb tanlashga yo‘llash jarayonida yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan xatoliklarni bartaraf etish yo‘llarini ko‘rsating.
3. Maktab o‘quvchilarining kasb tanlashdagi xatolari haqida gapirib bering.
4. Maktab o‘quvchilarining kasb tanlashdagi xatolari necha xil bo‘ladi?
 - a) olti xil;
 - b) yetti xil;

- c) besh xil;
- d) sakkiz xil.

5. Nima uchun o'quvchilar u yoki bu kasbdagi odamga munosabatni kasbning o'ziga bo'lgan munosabat bilan bir xil deb qaraydilar?

- a) chunki o'smirlarni romantika bilan yo'g'rilgan kasblar qiziqtiradi;
- b) chunki muayyan odam, uning yuksak ma'naviy xislatlari, aql-farosati, dadil ishlari o'quvchiga ma'qul bo'ladi;
- c) chunki yoshlar, odatda, ma'naviy xislatlarni, qobiliyatlarni, mahoratni rivojlantirish mumkin bo'lgan joylarda ishlashga harakat qiladilar;
- d) chunki o'quvchi biron ishni ado etish uchun o'zida ko'proq qanday qobiliyat borligini ko'pincha aniqlay olmaydi.

6. Nima uchun ayrim o'quvchilar kasbning tashqi jihati bilangina qiziqishadi?

- a) chunki yoshlar, odatda, ma'naviy xislatlarni, qobiliyatlarni, mahoratni rivojlantirish mumkin bo'lgan joylarda ishlashga harakat qiladilar;
- b) chunki muayyan odam, uning yuksak ma'naviy xislatlari, aql-farosati, dadil ishlari o'quvchiga ma'qul bo'ladi;
- c) chunki o'smirlarni romantika bilan yo'g'rilgan kasblar qiziqtiradi;
- d) chunki o'quvchi biron ishni ado etish uchun o'zida ko'proq qanday qobiliyat borligini ko'pincha aniqlay olmaydi.

7. Nima uchun ayrim o'quvchilar tasodifiy sabablar ta'siri ostida kasb tanlashadi?

- a) ishlab chiqarish korxonasi uyiga yaqin bo'lgani yoki qaysi yo'nalishda o'quv muassasasiga kirishga tanlov uncha katta bo'lmaganligi uchun;
- b) uni romantika bilan yo'g'rilgan kasblar qiziqtirganligi uchun;
- c) o'rtoqlaridan ajralib qolishni xohlamaganligi uchun;
- d) biron ishni ado etish uchun o'zida ko'proq qanday qobiliyat borligini aniqlay olmaganligi uchun.

8. Nima uchun ayrim o'quvchilar o'rtoqlarining ta'siri bilan kasb tanlashadi?

- a) biron ishni ado etish uchun o'zida ko'proq qanday qobiliyat borligini aniqlay olmaganligi uchun;
- b) uni romantika bilan yo'g'rilgan kasblar qiziqtirganligi uchun;
- c) o'rtoqlaridan ajralib qolishni xohlamaganligi uchun;
- d) ishlab chiqarish korxonasi uyiga yaqin bo'lgani yoki qaysi yo'nalishda o'quv muassasasiga kirishga tanlov uncha katta bo'lmaganligi uchun.

IV bob. KASBLAR KLASSIFIKATSIYASI VA KASBGA YO‘NALTIRISH ISHLARIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

13-mavzu. Mehnatning maqsadiga ko‘ra kasblarning turkumlari

Mehnatning maqsadi inson faoliyati mazmunining muhim tavsifi hisoblanadi. Mehnatning maqsadlari turli xil bo‘lishiga qaramasdan, ularni uchta katta guruhga: bilish, o‘zgartirish, o‘ylab topish guruhlariga ajratish mumkin. Mehnatning maqsadiga qarab kasblarni quyidagi uch turkumga ajratib ko‘rsatish mumkin:



1. Gnostik kasblar (GK). Bu kasblarning nomi lotincha «gnosis» - bilim, bilish degan ma’noni anglatuvchi so‘zdan olingan. Agar inson aqliy mehnat (ya’ni bilib olish, gnostik mehnat) bilan faqat ish stolida, xonada shug‘ullanish mumkin deb o‘ziga odat bo‘lib qolgan tarzda o‘ylaydigan bo‘lsa, u holda bunday fikrdan voz kechishga to‘g‘ri keladi. Bilish, o‘rganish ishi bilan bog‘liq ko‘pgina kasblar bor bo‘lib, ular bilan bevosita moddiy ishlab chiqarish jarayonida shug‘ullanishga to‘g‘ri keladi. Masalan, nazoratchilar, navga ajratuvchilar, pirometrist (yong‘in o‘lchovchi – erigan metallar, gazsimon muhit tuzlari va suyultirilgan gazlarning haroratini optik pirometrlar yordamida aniqlash jarayonini amalga oshiruvchi malakali ishchi)lar ana shunday kasbdagi kishilardir.

Bu turkumdagi kasbga oid mehnatning maqsadi turlicha: mahsulotni navlarga ajratish, oldindan ma’lum bo‘lgan belgilarga qarab tekshirish, baho berishdan iborat bo‘lishi mumkin. Masalan, korxonadagi texnika nazorati bo‘limining nazoratchisi tayyorlangan mahsulotni O‘zDST talablari, mahsulot namunalari bilan solishtirib, taqqoslab tekshiradi. U mahsulotni qanday navga kiritish kerakligi to‘g‘risida mas’uliyatli qaror chiqaradi, sifatsiz mahsulotni aniqlaydi. Nazoratchi o‘z mehnatida xilma-xil o‘lchov asboblardan, instrumentlardan va jihozlardan foydalanadi.

Gnostik kasblarni ilgari qarab chiqilgan beshta tipdagi kasblarning har biri orasida topish mumkin. Mana bunga bir nechta misol: TT-tipidagi kasb - tuxumlarni navlarga ajratuvchi, kimyoviy-biologik tahlil laboranti; TA-tipidagi kasb - radioapparatlar nazoratchisi, vagonlarni qarab yuruvchi; O-tipidagi kasb -

transportdagi baholovchi, sanitariya shifokori; BT-tipidagi kasb - musahhih, baholovchi; BO-tipidagi kasb – teatr artisti, adabiy tanqidchi.

Mazkur turkumdagi kasblar xodim oldiga muayyan talablar qo'yadi. Unda yaqqol namoyon bo'lib turgan bilish faolligi, kuzatuvchanlik, yuksak darajadagi ishchanlik hamda diqqat, xotira va tafakkurning barqaror bo'lishi nihoyatda muhimdir. Mahsulot sifati ustidan o'rnatiladigan nazorat, obyektlarga, shart-sharoitlarga u yoki bu xilda baho berish ko'pincha boshqa kishilarning manfaatlariga ham taalluqli bo'lishi tufayli bu ishda pozitsiyaning qat'iy bo'lishi, xulosalar chiqarishda prinsipiiallik ko'rsatish g'oyat muhim ahamiyatga egadir.


O'zgartiruvchi kasblar (O'K). Mehnat predmetlarini o'zgartirish bilan bog'liq bo'lgan juda ko'p kasblar bor. Odamning o'zgartiruvchi faoliyati faqat buyumlargagina qaratilib qolmay, energiya turlariga, ma'lumotlarga, jarayonlarga, ijtimoiy hayotning tuzilishiga qaratilgan bo'lishi ham mumkin. Masalan, sinf rahbarini olaylik. U o'quvchilarni uyushtirdi va ular ko'chat o'tqazishda faol ishtirok etdilar. Mana shu misolda faqat landshaftning o'zgarganligi to'g'risida gapirish kifoya qilmaydi. Bu yerda eng muhimi bolalarning mehnatga, bir-birlariga bo'lgan munosabatlari o'zgaradi va hokazo. Goho o'zgarish mehnat predmetiga bevosita ta'sir ko'rsatish jarayonida, aytaylik, chilangarning ishida, chizmachil, kartograf yoki toshga o'yib gul soluvchi ustaning ishida sodir bo'lishi mumkin.

O'zgartiruvchi kasblar turkumiga oid misollarni ilgari ko'rib chiqilgan kasblarning besh tipidan istagan bittasida ko'plab topish mumkin. O'zgartiruvchi kasblar xodimdan muayyan fazilatlarga ega bo'lishni talab qiladi. Shunchaki talab qilibgina qolmay, shu bilan birga o'sha fazilatlarni faol ravishda rivojlantiradi ham. Mazkur turkumga oid kasblarning yana bir o'ziga xos xususiyatini ta'kidlab o'tish kerak. Mehnat predmetini amaliy ravishda o'zgartirish xodimdan aqliy faoliyat ko'rsatishni talab qiladi. Mehnatning aqliy (intellektual) tomoni ko'pincha tashqaridan kuzatganda ko'zga ko'rinmaydi. Shuning uchun ham ba'zi bir ishlarining (ularni yuzaki kuzatganda) intellektual yuklamasi yo'qday bo'lib tuyuladi. Kasb tanlayotgan vaqtda va keyinchalik o'sha kasbni puxta egallab olinayotgan vaqtda mehnatning ana shu ko'zga ko'rinmaydigan, yashirin tomonini ko'ra bilishni o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Masalan, shunday bir amaliy vaziyatni ko'zdan kechirib chiqaylik. Tokar kesish asbobini tanlayapti, deylik.

Tashqaridan qaraganda, bu bir daqiqalik ish: bunday qaradi-yu, darhol baholab o'ziga keraklisini tanlab oldi. Xo'sh, aslidachi? Aslini olganda, bu yerda nimalar sodir bo'ldi? U xayolan ko'z oldida turgan barcha kesish asboblarining qirralarini, uchlarini, burchaklarini alohida-alohida tekshirib chiqdi. So'ngra yana xayolan u yoki bu rezets (keskich)ni tanlab o'ziga kerak bo'lgan ma'lum guruhga (masalan, rezba ochadigan yoki qirqadigan yoxud boshqa bir turdagi kesish asboblari guruhiga) kiritadi. Shundan keyin u yana o'z diqqat-e'tiborini

qir qilayotgan predmetga yaqinlashtirilgan muayyan kesish asbobiga (uning joylashtirilishiga, kesiladigan burchaklarga) jalb qiladi, ushbu asbobni xayolan boshqa shunga o'xshagan tipdagi asboblarga guruhiga kiritadi.

Quyida keltirilgan misollarning qaysi birida xodimlarning o'zgartiruvchi faoliyati yorqinroq namoyon bo'lganligini aniqlang.




3. Tadqiqotchilik kasblari (T). Mazkur turkumning nomi izohlashni talab qiladi. Bu nomga qarab, mazkur kasb ilmiy tadqiqotlar yoki qidiruv ishlari bilan (masalan, geologik qidiruv ishlari bilan) bog'liq kasb bo'lsa kerak, deb o'ylamaslik kerak.

Mazkur turkumdagi kasbda qilinadigan mehnatning maqsadi qandaydir bir noma'lum narsani, buning ustiga ko'pincha cheklangan bir vaqt sharoitida qidirishdan, izlashdan iborat bo'ladi. Buni poyabzal sirtini tayyorlaydigan bichiqchi ustaning ishi misolida tasvirlashga harakat qilib ko'raylik. U bir parcha charmni qo'lga olib, uni pressning plitasi ustiga qo'yadi, material ustiga qirg'ish asbobi - rezakni joylashtiradi, udarnik (zarb beruvchi qurilma)ni ish ustiga shunday yaqinlashtiradiki, u shundaygina rezak ustiga kelib qoladi va shundan keyingina dastgohni yurgizadi. Sirtidan qaraganda, hammasi oddiy ishga o'xshab tuyuladi. Lekin har bir charm parchasi o'zining shakli, o'lchovi, yaqqol ko'zga ko'rinib turgan va ko'rinmay turgan sifatlari bo'yicha boshqa hech bir shunday charm parchasiga o'xshamaydigan darajada betakrordir (charmning turli joylari qalinligi bilan bir-biridan farq qiladi, turlicha deformatsiyalanadi, unda yorilgan, kesilgan joylar va boshqa shunga o'xshash nuqsonlar mavjud bo'ladi, materialning turli qismlari poyabzalning muayyan detallarini tayyorlash uchun yaroqli bo'ladi). Charm – qimmatbaho material, shuning uchun undan juda oz darajada chiqindi chiqadigan qilib bichish ayniqsa muhim ahamiyatga egadir. Har bir material parchasi qo'lga olinganida bu haqda uzoq o'ylab o'tirish uchun vaqt yo'q. Shunday bo'lgach, har safar ayni mana shu charm parchasi bichig'ining qanday qilib eng yaxshi variantini

topish mumkin, qanday qilinganda eng tejamli va eng sifatli variant bo‘ladi, degan murakkab vazifa ko‘ndalang bo‘lib turadi.

O‘zgartiruvchi turkumdagi kasblarga razmetkachi – o‘lchov olish, olcham belgilash (kemasozlik sohasida, metallga ishlov berish sanoatida), yakka tartibda kiyim tikish atelyesining bichiqchilik kasbini va boshqa shunga o‘xshash kasblarni kiritish mumkin.

Quyida keltirilgan ikki xil kasb ishchilari mehnatini bir-biriga taqqoslang. Ulardan qaysi biri ko‘proq murakkab amaliy vazifalarni hal etadi?



Yuqorida keltirib o‘tilgan kasblarning uch turkumga bo‘linganligi shartli bo‘linishdir. Shunday kasblar ham borki, ular ikki yoki hatto mana shu uchala turkumdagi kasblarning barchasiga xos bo‘lgan belgilarni turli darajada o‘zida mujassamlashtirgan bo‘ladi. Chunonchi, o‘qituvchilik kasbi o‘zgartiruvchi kasblar sinfiga mansubdir, biroq imtihonlar davriga kelib, o‘qituvchi o‘quvchilarning bilimini tekshirayotgan, baholayotgan vaqtda mehnatning maqsadi ko‘proq gnostik kasblarga xos bo‘lib qoladi. Sozlovchi-chilangar dastlab mexanizmning buzilgan joyini topadi, keyin uni tuzatadi, bunday buzilish boshqa takrorlanmasligi uchun nimalar qilish kerakligi to‘g‘risida o‘ylaydi. Bu yerda mehnat maqsadining har uchala turi bilish, o‘zgartirish va tadqiq etish turlari mavjud. Lekin har qanday kasbda ham mehnatning asosiy maqsadi nimadan iborat ekanligini belgilab olish mumkin va u mana shu maqsadga qarab muayyan bir turkumga kiritiladi.

O'QUV TOPSHIRIQLARI

1-AMALIY TOPSHIRIQ

Mehnatning maqsadiga ko'ra kasblarning turkumlarining raqamlarini mos kataklarga qo'yib chiqing: 1) gnostik kasblar; 2) o'zgartiruvchi kasblar; 3) tadqiqotchilik kasblari.

	Mehnat predmetlarini o'zgartirish bilan bog'liq bo'lgan juda ko'p kasblar	Mazkur turkumdagi kasbda qilinadigan mehnatning maqsadi qandaydir bir noma'lum narsani, buning ustiga ko'pincha cheklangan bir vaqt sharoitida qidirishdan, izlashdan iborat bo'ladi	Bilish, o'rganish ishi bilan bog'liq kasblar bo'lib, ular bilan bevosita moddiy ishlab chiqarish jarayonida shug'ullanishga to'g'ri keladi
Javob:			

2-AMALIY TOPSHIRIQ

Quyida gnostik kasb vakillarining mehnati mazmuniga berilgan uchta izohda: a) klassifikatsiya, b) baho berish, d) tadqiqot maqsadlaridan qaysi biri ustun turganligini aniqlang. Mos kataklarga “+” belgisini qo'ying.

Tovarshunos (tayyor kiyimlar va gazmollar do'konida)	Radiodetallarning elektr parametrlarini o'lchovchi (ishlab chiqarish korxonasida)	Vagonlarni qarab yuruvchi (temir yo'lda)
<ul style="list-style-type: none"> Olingan gazlamalarda uzunasiga bosilgan gulning bir tekis chiqqanligini, ularda ishlab chiqarish nuqsoni yoki dog'lar ehtiyotsizlik bilan ortib-tushirish vaqtida kir-chir bo'lgan-bo'lmaganligini, omborlarda noto'g'ri saqlash, noto'g'ri tashish natijasida hosil bo'lgan dog'larning bor-yo'qligini tekshiradi, tayyor kiyimlarning sifatli tikilishiga e'tiborni qaratadi 	<ul style="list-style-type: none"> O'z ish joyida elektr o'lchov asbobiga (yoki asboblarning kompleksiga), tekshiriladigan va tekshirib bo'lingan (sifatsiz tayyorlangan yoki yaroqli) mahsulotni solish uchun taraga, radiodetallarning parametrlarida yo'l qo'yish mumkin bo'lgan chetga chiqishlar to'g'risida ma'lumot beruvchi, havo muhitidagi haroratga qarab tuzatish kiritish to'g'risida, priborlardagi xatoliklar to'g'risida ma'lumotlar yozilgan jadvalga ega bo'ladi. O'lchovchi kishi detalni qo'lga olib, uni o'lchov asbobining kontaktiga ulaydi, shkalaga qarab, u yoki bu qarorga kelganidan keyin, detalni tegishli idish (tara) ga soladi 	<ul style="list-style-type: none"> Qo'li bilan bukslar (sirpanish podshipnigiga ega bo'lgan qurilma)ni ushlab ko'rish yo'li bilan uning haroratini belgilaydi, bukslarda metall changlarning izi bor-yo'qligini qarab tekshiradi va boshqa shunga o'xshash ishlarni bajaradi, ta'mirlash ishlari o'tkazish zarurligi to'g'risida bir qarorga keladi

Gnostik kasb turi	Klassifikatsiya	Baho berish	Tadqiqot maqsadlari
Tovarshunos (tayyor kiyimlar va gazmollar do'konida)			
Radiodetallarning elektr parametrlarini o'lchovchi (ishlab chiqarish korxonasida)			
Vagonlarni qarab yuruvchi (temir yo'lda)			

O'z-o'zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar

1. Mehnatning maqsadiga qarab kasblar qanday klassifikatsiya qilinadi?
2. Har bir turkumdagi kasb uchun xos bo'lgan mehnatning asosiy maqsadlarini aytib bering.
3. Nima uchun kasblarning turkumlarga bo'linishi shartli bo'linish bo'ladi? O'z javobingizni berishga harakat qiling.
Tayanch korxonadagi kasblardan misollar keltiring. Bu misollarda korxonadagi mehnatning mazmuni murakkab amaliy vazifalarni hal qilish zaruriyatini nazarda tutadigan bo'lsin.
4. Mehnatning maqsadiga qarab kasblarni necha turkumga ajratib ko'rsatish mumkin?
 - a) olti;
 - b) besh;
 - c) to'rtta;
 - d) uch.
5. Qaysi kasblar gnostik kasblar turkumiga kiradi?
 - a) nazoratchilar, navga ajratuvchilar;
 - b) razmetkachi – o'lchov olish, olcham belgilash, yakka tartibda kiyim tikish atelyesining bichiqchilik kasbi;
 - c) o'qituvchilar, tarbiyachilar;
 - d) ko'chma beton qorish mashinasining motoristi, skreper mashinisti.
6. Qaysi kasblar kasblarning ikki yoki uch turkumiga xos bo'lgan belgilarni turli darajada o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi?
 - a) ko'chma beton qorish mashinasining motoristi, skreper mashinisti;
 - b) o'qituvchilar, sozlovchi-chilangarlar;
 - c) poyabzal sirtini tayyorlaydigan bichiqchilar;
 - d) nazoratchilar, navga ajratuvchilar.
7. Quyidagi kasblarning qaysi biri o'zgartiruvchi kasblar turkumiga oid?
 - a) poyabzal sirtini tayyorlaydigan bichiqchilar;

- b) ko'chma beton qorish mashinasining motoristi, skreper mashinisti;
- c) nazoratchilar, navga ajratuvchilar;
- d) o'qituvchilar, tarbiyachilar.

14-mavzu. Kasbga yo'naltirish ishlariga qo'yiladigan zamonaviy talablar

Kasbga yo'naltirish ishiga yoshlarning kasbni erkin va mustaqil tanlashning ilmiy-amaliy tizimi sifatida qarash lozim. Bu ishda har bir insonning individual xususiyatlarini va xalq xo'jaligi manfaatlari nuqtai nazaridan mehnat resurslarini to'laqonli ta'minlash zaruratini hisobga olish kerak. Shu sababli maktabda o'quvchilar kasbga yo'naltirish ishining ilmiy-pedagogik asoslarini ishlab chiqish lozim.

Buning uchun quyidagi kamchiliklar bartaraf etilishi lozim:

- kasb tanlash mezon va me'yorlarining ishlab chiqilmaganligi;
- kasb tanlash xarakteri bo'yicha axborotning talab darajasida emasligi;
- tanlash natijalari bo'yicha tezkor aloqaning o'rnatilmaganligi.

Kasb tanlash uchun o'quvchi o'z imkoniyatlarini baholay olish ko'nikmasiga, ya'ni aqli, qiziqish har xil kasblar bo'yicha bilimi, bu kasblarning imkoniyatlari, kelajagi haqida axborotga ega bo'lishi kerak.

Shaxsda kasb yo'naltirish ishini maxsus ilmiy amaliy faoliyat orqali amalga oshiriladi, o'quvchining inson sifatida shakllanish bosqichlarida shaxs va jamiyat yagona bir tizim sifatida qaraladi, o'tish davrida bozor iqtisodiyoti munosabatlari talablari inobatga olinadi.



Ko'rsatilgan vositalar kasbga yo'naltirish mazmunining asosini tashkil etadi.



Kasb tanlash (yo‘naltirish) bo‘yicha alohida Davlat ta‘lim standarti bo‘lishi va u quyidagilarni o‘z ichiga olishi maqsadga muvofiq:

1. O‘quvchilarni kasb tanlashga yo‘naltirishga tayyorlashning yosh bosqichlari mazmuni:

- a) kichik yoshdagi o‘quvchilar;
- b) o‘rta yoshdagi o‘quvchilar;
- v) katta yoshdagi o‘quvchilar.

2. Yosh bosqichlari bo‘yicha boshlang‘ich (I-IV sinflar), o‘rta yoshdagi (V-VII sinflar), katta yoshdagi (VIII-IX sinflar) o‘quvchilarning kasbiy tayyorgarligini aniqlash mezon, ko‘rsatkich va o‘lchovlari.

3. Maktab o‘quvchilarining kasbga tanlashga yo‘naltirishga tayyorlash bosqichlarini ko‘rsatuvchi tibbiy-fiziologik me‘yorlar.

4. Turli yosh bosqichlaridan o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishga tayyorligini darajasi o‘lchovlari.

O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishning yosh bosqichlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida quyidagi mazmunga ega bo‘ladi: boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kasb turlari, zamonaviy kasblarning turli yo‘nalishlari bilan tanishtirib borish va kasb faoliyatiga qiziqishni shakllantirish.

Bunga erishish uchun quyidagi vazifalarini amalga oshirish zarur:

- o‘z-o‘zini baholay bilish malakalariga o‘rgatish;
- intellektual va hissiy-irodaviy xislatlarini rivojlantirish;
- realistik jihatdan o‘z-o‘zini bahalashni rivojlantirish.

Bu yoshdagi bolalarda prinsipial ahamiyatga ega bo‘lgan, ya‘ni kasbga yo‘naltirishda quyidagi kognitiv yo‘nalish ko‘rsatkichlarini shakllantirish kerak:

- har xil faoliyatda ish joyini tayyorlash qoidalarini bilish (darsga nima kerak, bir martalik topshiriqni, uy vazifasini bajarish uchun);
- mehnat vositalari va predmetlarini ish o‘rnida joylashtirish;

- o'quv yozuv qurollarini qo'llanilishi va ulardan foydalanish qoidalarini;
- ishning borishini argumentlash, asoslash va mehnat operatsiyalarini bajarilish ketma-ketligini tushunish;
- o'z-o'zini tekshirishni, o'z mehnatini va o'rtoqlari mehnatini baholashni bilishi kerak.



Kasbga yo'naltirishning omilkorona - qimmatli yo'nalishi bu yoshdagi o'quvchilarda o'z mehnati natijalaridan estetik jihatdan ruhlanishida namoyon bo'ladi. Mehnatga estetik e'tiborining yo'nalishida motivlar turlicha bo'lishi mumkin. U harakat qilishda, faollikda, o'rtoqlari bilan aloqasida va ishonch bildirganligidan qoniqishida seziladi.

V-VII sinf (o'rta yoshdagi) o'quvchilarini kasbga yo'naltirish mazmuni ulardagi qiziqish, layoqat, shaxs sifatidagi jamiyatda tutgan o'rni to'g'risidagi tushunchalar va kasb tanlash ko'nikmasini shakllantirish zarurati bilan belgilanadi. Bo'lg'usi kasbiy faoliyatlar bu yoshdagi o'quvchilar uchun hayotdagi o'z o'rnini belgilash va tayyorlashda turtki, o'z shakllanish imkoniyatlarini ochishi va kasb tanlashi uchun zarur bo'ladi. Bu yoshdagi o'quvchilarda ijtimoiy-psixologik layoqatlar quyidagilar orqali shakllanishi kerak:

- uning o'zi ulg'ayayotganligida;
- yangi bir pozitsiyada;
- o'ziga e'tiborida;
- atrofga va olamga munosabatida.

V-VII sinf ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning qiziqishlari, izlanishlari, layoqati bo'yicha kasb tanlashga va hayotda o'z o'rnini topishga yo'naltiriladi. Bu ishlar real mehnat bozorini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak.

VIII-IX sinf o'quvchilarida kasbga yo'naltirish ishlari mazmuni shaxsning ma'naviy xislatlari va jamiyat oldidagi burchi, javobgarlik xislatlarini shakllantirish bilan ajralib turadi. Bu esa ulardan mustaqillik, tashabbus bilan chiqish, mustaqil qaror qabul qilish xatti-harakatlari natijasini bilishi va faoliyati nimaga olib kelishini sezishi bilan belgilanadi. Bu bosqichda shaxsning o'ziga bahosi, tanqidiy qarashi,

o'zini-o'zi tahlil qilishi, o'z-o'zini boshqarishi, tarbiyalashi, o'zining qiziqishini atrofdagilarniki bilan qo'shib olib borishi prinsipial muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon kasb tanlash va kasbiy faoliyat tarmoqlarini bilishi natijasidir.

VIII-IX sinf o'quvchilarida oldingi bosqichlarda olgan bilimlari va tajribalari asosida quyidagi yo'nalishlar bo'yicha kasbiy faoliyat amalga oshiriladi:



O'z-o'zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar

1. Maktabda o'quvchilar kasbga yo'naltirish ishining ilmiy-pedagogik asoslarini ishlab chiqish uchun qanday kamchiliklar bartaraf etilishi lozim?
2. Kasb yo'naltirishni shakllantiruvchi vositalarni aytib bering.
3. O'quvchilarning kasb tanlashga tayyorligini ko'rsatuvchi mezonlar haqida gapirib bering.
4. Kasb tanlash uchun o'quvchi qanday axborotga ega bo'lishi kerak?

- a) kasb tanlash mezon va me'yorlari haqida;
- b) o'quvchining inson sifatida shakllanish bosqichlari haqida;
- c) o'z imkoniyatlarini baholay olish ko'nikmasiga, ya'ni aqli, qiziqish har xil kasblar bo'yicha bilimi, bu kasblarning imkoniyatlari, kelajagi haqida;
- d) hayotdagi o'z o'rnini belgilash va tayyorlash yo'llari haqida.

5. O'quvchilarni kasb tanlashga yo'naltirishga tayyorlashning nechta yosh bosqichlari mavjud?

- a) beshta;
- b) to'rtta;
- c) uchta;
- d) ikkita.

6. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasbga yo'naltirish mazmuni nimalardan iborat?

a) o'quvchilarni kasb turlari, zamonaviy kasblarning turli yo'nalishlari bilan tanishtirib borish va kasb faoliyatiga qiziqishni shakllantirish;

b) o'quvchilardagi qiziqish, layoqat, shaxs sifatidagi jamiyatda tutgan o'rnini to'g'risidagi tushunchalar va kasb tanlash ko'nikmasini shakllantirish;

c) shaxsning ma'naviy xislatlari va jamiyat oldidagi burchi, javobgarlik xislatlarini shakllantirish;

d) o'quvchilarni qiziqishlari, izlanishlari, layoqati bo'yicha kasb tanlashga va hayotda o'z o'rnini topishga yo'naltirish.

7. V-VII sinf (o'rta yoshdagi) o'quvchilarini kasbga yo'naltirish mazmuni nimalardan iborat?

a) o'quvchilarni kasb turlari, zamonaviy kasblarning turli yo'nalishlari bilan tanishtirib borish va kasb faoliyatiga qiziqishni shakllantirish;

b) o'quvchilardagi qiziqish, layoqat, shaxs sifatidagi jamiyatda tutgan o'rnini to'g'risidagi tushunchalar va kasb tanlash ko'nikmasini shakllantirish;

c) shaxsning ma'naviy xislatlari va jamiyat oldidagi burchi, javobgarlik xislatlarini shakllantirish;

d) o'quvchilarni qiziqishlari, izlanishlari, layoqati bo'yicha kasb tanlashga va hayotda o'z o'rnini topishga yo'naltirish.

8. VIII-IX sinf o'quvchilarida oldingi bosqichlarda olgan bilimlari va tajribalari asosida nechta yo'nalish bo'yicha kasbiy faoliyat amalga oshiriladi?

- a) oltita;
- b) beshta;
- c) to'rtta;
- d) uchta.

15-mavzu. Kasb tanlashda inson sog‘lig‘ining ahamiyati. Kasbga yaroqlilik.

O‘z-o‘zini tarbiyalash va kasb tanlash

Agar insonning sog‘lig‘i yaxshi bo‘lmasa, u ma‘lum bir kasbda ishlash uchun shifokorlar xulosasi bo‘yicha yaroqli emas, deb xulosa qilingan bo‘lsa bu inson ushbu kasbga yaroqsiz deb hisoblanadi. Buning ma‘nosi shuki, bu odam shu ishni yo umuman bajara olmaydi, yoki bu ish uning sog‘lig‘idagi salbiy o‘zgarishlarni ko‘paytirib, dardini kuchaytiradi.

Insonning sog‘lig‘i ma‘lum bir kasb talablariga muvofiq kelish-kelmasligini aniqlash shifokorning vazifasi hisoblanadi. Shuning uchun ham kishilarga ishga yoki o‘qishga kirishdan oldin tibbiy ko‘rikdan o‘tish tavsiya etiladi. Lekin ayrim kishilar ishga yoki o‘qishga kirib bo‘lganidan keyin tibbiy ko‘rikdan o‘tishadi. Aslida ishga yoki o‘qishga kirayotgan har bir inson tanlagan kasbining organizm uchun noqulay deb hisoblanadigan omillarini bilib olishi kerak.

Ish sharoitlarining odam organizmiga ko‘rsatadigan ta‘siri bo‘yicha kasblarni to‘rt guruhga ajratish mumkin:

Birinchi guruh kasblari	<ul style="list-style-type: none">• Mehnat sharoiti maishiy kasblarga yaqin bo‘lgan kasblar
Ikkinchi guruh kasblari	<ul style="list-style-type: none">• Ishlab chiqarish omilining mo‘‘tadil yoki notekis ta‘sir etishi bilan bog‘liq bo‘lgan kasblar
Uchinchi guruh kasblari	<ul style="list-style-type: none">• Har xil noqulay ishlab chiqarish omillarining yig‘indisi xarakterli bo‘lgan kasblar
To‘rtinchi guruh kasblari	<ul style="list-style-type: none">• Og‘ir va zararli mehnat sharoiti bilan bog‘liq bo‘lgan kasblar

Birinchi guruh kasblariga soat ishlab chiqarish, maishiy xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq kasblarni misol qilib keltirish mumkin. Bu ishchi kasblari orasida eng ko‘p sonli guruhdir.

Ikkinchi guruh kasblari bo‘yicha ishlagan vaqtda organizmga vaqtincha yuqori darajadagi havo harorati, namlik va boshqa shu kabi omillar ta‘sir ko‘rsatadi. Bu inson organizmida tomir urishining tezlashib ketishiga, ter ajralib chiqishining kuchayishiga sabab bo‘ladi. Shu sababli bunday kasblarni yurak-tomir tizimida, nafas organlarida kasalligi bo‘lmagan insonlargagina tavsiya etish mumkin.

Uchinchi guruh kasblariga tikuvchi kasbini misol qilib olish mumkin. Yuragi, o‘pkasi, eshitish organlari, tayanch harakat apparati kasal bo‘lgan (yoki kasallik

alamatlariga moyillik sezilgan), ko'zi ojiz yoki zaif ko'ruvchi odamlar uchun bu kasb to'g'ri kelmaydi.

To'rtinchi guruh kasblari sirasiga elektr payvandchi, po'lat quyuvchi va boshqa shunga yaqin kasblarni kiritish mumkin.

Bizning jamiyatimiz har bir kishining sog'lig'i to'g'risida g'amxo'rlik qiladi va mamlakatimizda kasb kasalliklarining oldini olish bo'yicha tadbirlar tizimi amalga oshiriladi. Xodimlarga ma'lum yengilliklar taqdim etiladigan korxona va tashkilotlar hamda ishchi kasblari va lavozimlarning ro'yxati belgilab qo'yilgan va tegishli tartibda tasdiqlangan. Mazkur ro'yxatga kiritilgan kasbda ishlovchi odamlar tegishli imtiyozlardan foydalanishlari mumkin: ular uchun qisqartirilgan ish kuni belgilangan, qo'shimcha ta'til, parxez taomlar, imtiyozli pensiya bilan ta'minlanish va boshqa shu kabi huquqlar berilgan.

Biror kasbni tanlash vaqtida tibbiyot ko'rsatkichlarining to'g'ri kelmasligi eng avvalo kasallik xususiyatidan kelib chiqib belgilanadi. Tanlangan kasbga kishining sog'lig'i to'g'ri kelish-kelmasligi haqidagi xulosa faqatgina shifokor tomonidan berilishi mumkin. Biroq shuni nazarda tutish kerakki, turli kasalliklarga organizmning qarshilik ko'rsatish imkoniyatlari juda katta bo'lib, odam o'zi sevgan kasbini egallash uchun butun iroda kuchini ishga solib kasallikni yengishi mumkin.

Har bir inson yoshligidan boshlab o'z sog'lig'i to'g'risida o'ylashi, sanitariya-gigiyena sohasidagi bilim va ko'nikmalarni, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish malakalarini egallab olishi, sog'lom turmush tarziga rioya qilib yashashni o'rganishi kerak.


Organizmni chiniqtirish, sport bilan shug'ullanish, mehnat va dam olish, ovqatlanish rejimiga rioya qilish, o'zining bo'sh vaqtini oqilona tashkil etish va boshqa shunga o'xshash tadbirlar jismoniy jihatdan baquvvat va sog'lom bo'lib o'sishning zarur shartlari hisoblanadi. Sog'lom bo'lib o'sishni istagan kishi spirtli ichimliklar ichish, chekish va giyohvandlik qilish kabi zararli odatlardan batamom voz kechishi kerak. Chunki ular organizmga nihoyatda zararli ta'sir ko'rsatadi: sog'liqni ishdan chiqaradi, qiziqish doirasini toraytiradi, aqliy faollikni pasaytiradi va, natijada, insonni tanazzulga olib keladi.

Kasbga yaroqlilik

Kasbga yaroqlilik bu odam bilan uning ishchi kasbi o'rtasidagi o'zaro muvofiqlikdir. Aynan mana shu muvofiqlik bo'lgan taqdirdagina: "odam – kasb" formulasini ro'yobga chiqarish imkoni tug'iladi.

Har qanday kishida uning o'zigagina xos bo'lgan shaxsiy xislatlar hamda xususiyatlar mavjud. Tanlanayotgan kasbning shaxsga nisbatan qo'yadigan talablariga mana shu shaxsiy sifatlar qay darajada mos kelishiga qarab odamning u yoki bu kasbga yaroqliligi to'g'risida bir xulosa chiqarish mumkin.

Odatda kasbga yaroqlilikni to‘rt xil darajaga ajratib, ularni bir-biridan farq qilish mumkin:



1. *Yaroqsizlik (mazkur kasbga yaroqsizlik)*. Kasbga yaroqsizlik vaqtincha bo‘lishi yoki amaliy jihatdan ro‘yobga chiqmaydigan bo‘lishi mumkin. Insonning salomatligi yomon bo‘lganda, u yoki bu sohadagi ishga o‘sha kishining sog‘lig‘i, shifokorlarning nuqtai nazariga qaraganda to‘g‘ri kelmaydi, deb xulosa chiqarilgan hollarda kasbga yaroqsizlik to‘g‘risida gapirish mumkin.

Lekin tanlangan kasbda ishlashga faqat insonning sog‘lig‘igina emas, balki bundan boshqa omillar ham monelik qilishi mumkin. Chunki butun bir guruhni tashkil etuvchi ayrim kasblar odamga nisbatan juda katta talablar qo‘yishi mumkin. Bu kasblarga faqat maxsus qobiliyatga ega bo‘lgan insonlarga muvofiq kelishi mumkin. Agar odamda bunday maxsus qobiliyat bo‘lmasa, uning o‘rnini boshqa narsa bilan to‘ldirib bo‘lmaydi. Bunday vaziyatlarda insondan o‘z kasbiga nisbatan mutlaqo yaroqli bo‘lish talab qilinadi.

Bajaradigan ishlari jarayonida odamlarning sog‘lig‘i va hayoti uchun xavfli bo‘lgan, kutilmagan vaziyatlar sodir bo‘lishi ehtimol tutilgan kasblar (masalan uchuvchi, jarroh va boshqalar) vakillari uchun o‘z kasbiga ana shunday mutlaqo yaroqli bo‘lish sharti qo‘llaniladi. San‘at bilan bog‘liq bo‘lgan kasblar to‘g‘risida ham xuddi shunday fikrlarni bildirish mumkin: masalan, agar kishining tasviriy san‘at sohasida ishlash uchun qobiliyati bo‘lmasa, rassom, arxitektor, haykaltarosh bo‘lib yetishishi qiyin.

2. *Yaroqlilik (u yoki bu kasb yoxud guruhga yaroqlilik)*. Kasbga yaroqlilikning ushbu darajasi shunisi bilan ajralib turadiki, bunda biror sohadagi mehnatga nisbatan monelik qiluvchi omillar bo‘lmaydi, lekin ayni damda odamda mazkur kasbga yaqqol ko‘zga tashlanib turgan mayllar ham bo‘lmaydi. Bu kasbni tanlagan odamlarga “Siz mana shu kasbni tanlashingiz mumkin. Ehtimol, siz shu sohada yaxshi mutaxassis bo‘lib yetisharsiz” - deb tasalli berishadi. Bu jihatdan kasbga yaroqlilik darajasini ham yuqoridagi ta’rifdan bilib olish mumkin.

3. *Mos kelish (u yoki bu faoliyat sohasiga odamning mos kelishi)*. Bunday hollarda odamning ayrim shaxsiy fazilatlarini ko'rsatib o'tish mumkin, Bu fazilatlar muayyan kasb yoki kasblar guruhi talablariga aniq (shubhasiz) mos keladi. Masalan, biror kishida muayyan bir sohada u yoki bu mehnat obyektiga masalan, biologiya, texnika va hokazo obyektlarga nisbatan qiziqish bo'lishi yoxud biror sohada o'zini amaliy ishda sinab ko'rish vaqtida ba'zi bir yutuqlarni qo'lga kiritgan kishilardagi muvofiqlik, o'z kasbiga mos kelish bunga misol bo'la oladi. Kasbga yaroqlilikning bu darajasidagi kishilarga nisbatan quyidagicha murojaat qilish mumkin: "Siz mana shu kasbni tanlasangiz bo'ladi, siz juda yaxshi mutaxassis bo'lib yetishishingiz mumkin".

4. *Havas (mazkur kasbga, faoliyat sohasiga)*. Kasbga yoki faoliyat sohasiga havasi bo'lgan bunday kishilarni ishchi sifatida inson taraqqiyotining ushbu bosqichida kasbga yaroqlilikning oliy darajasi deb hisoblash mumkin. Chunki har bir odam deyarli u bilan bir xil sharoitda ishlayotgan va o'qiyotgan tengdoshlaridan yaqqol ajralib turadi. Kasbga yaroqlilikning bunday darajasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: "Siz faoliyatning shu sohasida, ha, ayni mana shu sohada yaxshi mutaxassis bo'lib yetishasiz".

Kasbga yaroqlilik tug'ma fazilat emas. U kundalik faoliyatda shakllanib boradi. Ish jarayonida faqat professional idrok, xotira va tafakkur rivojlanibgina qolmay, odamda muayyan xulq-atvor tipi ham, uning jamoachilikka xos yo'nalishi ham, talabchanligi ham, burchni anglash hissi ham, shaxsning boshqa shu kabi fazilatlarini ham rivojlanib boradi.

Ayrim kasblarda ularga yaroqlilik masalasida insonga mutlaq talablar qo'yilmaydi; unda yetishmaydigan zarur fazilatlar, xususiyatlar, qobiliyatlar o'rnini boshqalarini rivojlantirish hisobiga qoplash mumkin.

Odamda mavjud bo'lgan barcha fazilatlarini professional jihatdan qimmatli, zararli yoki neytral (xolis) sifatlar deb bir necha turga ajratish mumkin emas. Chunki hatto eng oddiy biror-bir kasb to'g'risida gap ketganda ham professional jihatdan yagona va shubhasiz qimmatli fazilatlar to'g'risida gapirib bo'lmaydi. Misol sifatida dastgohchi to'quvchilar kasbini olsak. Ularning bir xillari tez harakat qilish hisobiga yuksak natijalarga erishadilar, boshqalari esa ehtiyotkorlik, puxta ishlash, ishning ko'zini bilish hisobiga yutuqqa erishadilar, uchinchi bir xillari esa ishni bir maromda, bir xil sur'atda tashkil etish hisobiga muvaffaqiyatga erishadilar. Xodim qanchalik malakali bo'lsa, u o'zining kuchli tomonlaridan shunchalik ko'proq, maksimal darajada foydalanadi hamda o'zining zaif tomonlarini yengib, har xil vositalar bilan ularning o'rnini qoplaydi. Natijada ishda takrorlanmas individual uslub vujudga keladi.

Odamning o'z kasbiga yaroqli ekanini quyidagi asosiy fazilatlariga qarab belgilanadi: fuqarolik fazilatlarini (masalan, diniy e'tiqod, vatanparvarlik,

jamoatchilik, umumfoydasi uchun mehnat qilish ehtiyoji va boshqalar); mehnatsevarlik, mehnatga halol munosabatda bo'lish, mazkur sohadagi faoliyatga nisbatan ijobiy qiziqish va mayllarning mavjudligi, aql-idrokning keng va teranligi, puxtalik, intizomlilik, o'z-o'zini nazorat qilishning rivojlanganligi, tashabbuskorlik, salomatligining yaxshiligi va boshqa shunga o'xshash sifatlar maxsus qobiliyatlar (masalan, pianino va royallarni sozlovchi odamda musiqani tinglay olish qobiliyati yaxshi rivojlangan bo'lishi, pedagog uchun ko'pchilik bilan muloqotga kirishib, tezda til topishib keta olish qobiliyati lozim va h.k.).

Har bir inson o'z kasbiga yaroqlilik uchun zarur bo'ladigan ayrim fazilatlarini o'zi muntazam ravishda shakllantirib borishi mumkin va lozim (e'tiqod, halollik, burch hissi kabi fazilatlar ana shunday muntazam ravishda shakllantirib borishni talab qiladigan fazilatlar hisoblanadi).

Biz hozir "odam – kasb" formulasidagi o'zaro aloqadorlikning bir jihatini qarab chiqdik. Endi inson uchun kasbning o'zi yaroqsiz bo'lib qolishi mumkin bo'lgan holat to'g'risida fikr yuritamiz. Buni quyidagi misol orqali tushuntirish mumkin.

Konstruktorlar qudratli yuk ko'tarish mashinasi yaratdilar, lekin bu mashinani boshqarish juda og'ir ekan, chunki tormozlash, to'xtatish richagini bosish, uni bir joydan ikkinchi joyga surish uchun haddan tashqari katta jismoniy kuch talab qilinardi. Bunday holda kishining, masalan, ayol kishining bu mashinada mashinist bo'lib ishlash kasbiga loyiq emasligi to'g'risida gapirib bo'lmaydi, bunda endi mashinani boshqarish usulini o'zgartirish kerak bo'ladi.

Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosa qilish mumkinki, insonning kasbga yaroqliligi o'zgaruvchan tavsifdir. Chunki kasbga yaroqlilikni shakllantirish faqat odamdagi muayyan fazilatlarini rivojlantirishdan iboratgina bo'lib qolmay, ish sharoitini, ishlab chiqarish vositalarini o'zgartirishni ham taqozo etadi.

O'z-o'zini tarbiyalash va kasb tanlash

Inson o'zining bo'lajak kasbini tanlash haqida o'ylar ekan, o'z qiziqishlari, mayllari, imkoniyatlariga baho bera boshlaydi va u o'z fazilatlarining murakkab olamini tahlil qilishni o'rganadi. Zero har bir odam o'zining bo'lajak mehnat yo'li haqida o'ylayotgan vaqtda bu fazilatlarini e'tiborga olishi kerak.

Inson o'z ustida ishlashni, o'z xarakterini, iroda kuchini shakllantirishni, o'z professional qobiliyatlarini rivojlantirishni xohlasa, hech qachon kech bo'lmaydi, lekin bu ishni yoshlik paytidan boshlagani maqsadga muvofiq.

Atoqli o'zbek shoiri, O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripovni o'z ustida, o'z xarakteri va irodasi ustida zo'r berib ishlashning ajoyib namunasi sifatida misol qilib keltirish mumkin. Shoirning yoshlik yillarida insonini hayratga soladigan darajada aniq bir maqsadni ko'zlab ishlaganligi va nihoyatda zo'r ish qobiliyatiga ega bo'lganligi to'g'risida O'zbekiston Qahramoni E.Vohidov bunday hikoya

qiladi: “U juda yosh paytidan boshlab, hali maktabda o‘qib yurgan yillaridayoq qattiq mehnat qilishga o‘rgangan va umuman har bir kunni o‘zi tuzib chiqqan qat’iy jadval asosida o‘tkazishga o‘rgangan edi. Bu jadvalga o‘qish ham, dars tayyorlash ham, kitoblar mutolaa qilish ham, dam olish ham, sayr qilish ham, turli o‘yinlar bilan mashg‘ul bo‘lish ham kiritilgan edi. U yoki bu mashg‘ulot qancha vaqt, ya’ni soat nechadan nechagacha davom etishi jadvalda aniq ko‘rsatilar edi. Hech qanday kuch yoki sabab uning o‘zi tomonidan belgilab qo‘yilgan ish tartibini o‘zgartirishga majbur qila olmas edi. Faqat yangidan paydo bo‘lgan oqilona ishlargina, uning o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan muhim sharoitlarga mashg‘ulotlarni o‘tkazishdagi belgilangan izchillikni o‘zgartirishi mumkin edi”.

Har bir inson ishdagi birinchi qadamini o‘zida mustahkamlanishi va rivojlantirilishi zarur bo‘lgan fazilatlar ro‘yxatini tuzib chiqishdan boshlashi maqsadga muvofiq. Shuningdek, har bir kishi faqat o‘zigagina xos bo‘lgan ba’zi bir xususiyatlarni yo‘qotishni ham, o‘zgartirishni ham rejalashtirishi, o‘zidagi salbiy xislatlar o‘rniga ijobiy xislatlarini rivojlantirishi, ko‘p mashq qilishi, ishni tashkil etishning yana ham takomillashtirilgan usullaridan, yangicha ish rejalaridan foydalanishi lozim. Demak, inson o‘zini-o‘zi boshqarishni o‘rganib olishi uchun birinchi navdatda o‘zini bilishi kerak. O‘z ehtiyojlari va qobiliyatiga, qiziqishlari va xulq-atvori motivlariga, iztiroblari kechinmalari va fikr-o‘ylariga ongli munosabatda bo‘lishi lozim. Odam o‘zini-o‘zi faqat konkret mehnatdagina bilishi mumkin, ya’ni o‘zi tanlayotgan kasb talablariga o‘zidagi bilim, mahorat va malakalar mos kelish-kelmasligini tekshirib ko‘rishi, o‘zining jismoniy imkoniyatlariga, iroda sifatlariga, jamoa ichida ishlay olish mahoratiga, insonlar bilan muomala qilish madaniyatiga chuqur baho berishi lozim. Bunday o‘z-o‘zini nazorat qilish, tahlil qilish natijalarini shaxsiy kundalik daftarga yozib borish foydalidir, bu har bir odamga o‘ziga obyektiv baho berish hamda o‘z-o‘zini takomillashtirib borish uchun aniq reja tuzib olish imkonini beradi. Masalan, ulug‘ o‘zbek adibi Muhammad Yusuf tutgan kundalikdan olingan quyidagi fikrlarni o‘qib ko‘ring: “Sen har kuni ertalab turib butun kun bo‘yi nima ishlar qilishing kerakligini o‘zing uchun topshiriq tarzida yozib chiq va belgilangan ishlarning hammasini bajar. O‘z so‘zingga amal qil. Basharti, sen biror ishni qilishga kirishgan bo‘lsang, o‘zingdagi butun kuch-quvvat va qobiliyatni mana shu ishni bajarishga qarat”.

Har bir kishining o‘ziga, o‘z qobiliyatlariga, axloqiy sifatlariga, xatti-harakatlariga tanqidiy baho berishi uning imkoniyatlari tanlayotgan kasb talablariga qanchalik mos kelishini taqqoslab ko‘rish imkonini beradi. Shaxs o‘ziga-o‘zi past baho beradigan bo‘lsa, bu unga o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishiga xalaqit beradi, agar odam o‘ziga-o‘zi ortiqcha baho beradigan bo‘lsa, bu salbiy oqibatlariga, jamoa o‘rtasida kelishmovchiliklar kelib chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Har bir inson o'z ustida muvaffaqiyatli ish olib borishi uchun u intizomli bo'lishi, ya'ni u belgilangan odob-axloq qoidalariga va tartiblarga bo'ysunishi, oldindan belgilab qo'yilgan yashash va mehnat qilish tartibi talablariga qat'iy rioya qilishi lozim.

O'z-o'zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar

1. Nima uchun ham kishilarga ishga yoki o'qishga kirishdan oldin tibbiy ko'rikdan o'tish tavsiya etiladi? Fikringizni asoslab bering.

2. Ish sharoitlarining odam organizmiga ko'rsatadigan ta'siri bo'yicha kasblarni qanday guruhlariga ajratish mumkin? Har bir guruhga od kasblardan misol keltiring.

3. Kasbga yaroqlilikning mohiyati nima? Nimaga qarab odamning u yoki bu kasbga yaroqliligi to'g'risida bir xulosa chiqarish mumkin?

4. Qaysi kasblar mehnat sharoiti mashiy kasblarga yaqin bo'lgan kasblarga kiradi?

- a) soat ishlab chiqarish, maishiy xizmat ko'rsatish bilan bog'liq kasblar;
- b) tikuvchi kasbi;
- c) elektr payvandchi, po'lat quyuvchi va boshqa shunga yaqin kasblar;
- d) yurak-tomir tizimida, nafas organlarida kasalligi bo'lmagan insonlar ishlashi mumkin bo'lgan kasblar.

5. Tanlangan kasbga kishining sog'lig'i to'g'ri kelish-kelmasligi haqidagi xulosa kim tomonidan berilishi mumkin?

- a) psixolog;
- b) sinf rahbari;
- c) shifokor;
- d) mahalla.

6. Kasbga yaroqlilikni necha xil darajaga ajratish mumkin?

- a) olti xil;
- b) besh xil;
- c) to'rt xil;
- d) uch xil.

7. Mos kelish (u yoki bu faoliyat sohasiga odamning mos kelishi) deganda nima tushuniladi?

a) biror sohadagi mehnatga nisbatan monelik qiluvchi omillar bo'lmasligi, lekin ayni damda odamda mazkur kasbga yaqqol ko'zga tashlanib turgan mayllar ham bo'lmasligi;

b) odamning ayrim shaxsiy fazilatlarini muayyan kasb yoki kasblar guruhi talablariga aniq (shubhasiz) mos kelishi;

c) insonning salomatligi yomon bo'lganligi, u yoki bu sohadagi ishga o'sha kishining sog'lig'i, shifokorlarning nuqtai nazariga qaraganda to'g'ri kelmasligi;

d) kishining kasbga yoki faoliyat sohasiga havasi borligi.

8. Har bir inson o'z kasbiga yaroqlilik uchun zarur bo'ladigan qanday ayrim fazilatlarni o'zi muntazam ravishda shakllantirib borishi mumkin va lozim?

a) o'z-o'zini nazorat qilishning rivojlanganligi, salomatligining yaxshiligi;

b) musiqani tinglay olish qobiliyati yaxshi rivojlangan bo'lishi;

c) ko'pchilik bilan muloqotga kirishib, tezda til topishib keta olish qobiliyati;

d) e'tiqod, halollik, burch hissi.

V bob. KASB TANLASHNI REJALASHTIRISH

16-mavzu. Kasbga doir reja tuzish va uni amalga oshirish metodikasi.

Kasb tanlashda kasblar bo'yicha konsultatsiyaning ahamiyati

Kasbga doir reja tuzish


Albatta kasbga doir tuziladigan rejaning yagona bir shaklini tavsiya etish qiyin. Uning mazmuni ham, tuzilish yo'li ham insonning salohiyatiga, aql-idrokiga, uning bilim saviyasiga va boshqa ko'p narsalarga bog'liq. Shuning uchun biz mana shu sanab o'tilgan omillarning faqat eng asosiysi ustida rejada, albatta, ko'rsatilishi lozim bo'lgan omillar haqida so'z yuritamiz.

Ko'zda tutilgan asosiy maqsad rejaning asosini tashkil etishi kerak, ya'ni unda nima ish bilan shug'ullanish, kim bo'lib yetishish, jamoat ishiga va mamlakat taraqqiyotiga qanday hissa qo'shish, bu ishda kimlardan o'rnak olish o'z aksini topishi kerak. Shundan keyin mazkur maqsadga erishish uchun har bir kishi o'z imkoniyatlariga: qiziqishlari, mayllari va qobiliyatlariga, sog'lig'iga, irodaviy sifatlariga real baho berishga harakat qilib ko'rish zarur.

Kasbga doir reja tuzish vaqtida maqsadga erishish yo'llari va vositalarini: o'z kuchini qayerda va qanday qilib tekshirib ko'rish mumkinligini, kerakli ma'lumotni qaysi ta'lim dargohlarida olish mumkinligini, kasb mahoratini qanday qilib oshirish mumkinligi va hokazolarni belgilab olish kerak.

Reja tuzayotgan shaxs o'z maqsadingizga yetishish yo'lida uchrashi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar va to'siqlarni ham oldindan ko'ra bilishi kerak. Bu behuda iztirob chekishning va keyinchalik afsuslanmaslikning oldini olish va agarda zarur bo'lib qolsa, tanlangan kasbni boshqasi bilan almashtirish imkonini beradi. Shuning uchun tuzilayotgan rejada bir nechta zaxira variantlarni ham ko'zda tutish maqsadga muvofiqdir.


Kasbga doir rejada quyidagilar o'z ifodasini topishi kerak:



Xulosa qilib aytganda, shaxsiy kasbga doir rejalar yaxshi va har tomonlama puxta o'ylangan holda ishlab chiqilishi kerak, ularni tuzish vaqtida har bir inson mustaqil bo'lishi va mas'uliyatni his etib turishi lozim.

Tuzilgan kasbga doir rejaga vaqt-vaqti bilan murojaat qilib turish kerak. Chunki qiziqishlar chuqurlashib, kasb to'g'risidagi bilimlar ortib, amaliy faoliyat sohasida muayyan tajriba to'planishiga qarab reja ham o'zgarib borishi, u ancha real rejaga aylantirilishi mumkin.

Quyida kasbga doir rejaning fragmenti qanday o'zgarib borishi mumkinligi misol tariqasida keltirilmoqda:



Kasblar bo'yicha konsultatsiya


Har bir shaxs kasbga doir reja tuzish va uni amalga oshirish vaqtida bir qator muammolarga duch kelishi mumkin: kasb tanlash formulasidan konkret kasbning o'ziga qanday o'tish mumkin? Shaxs o'zining o'sha kasbga yaroqli ekanligini qanday qilib bilishi mumkin? O'z-o'zini tarbiyalash rejasi qanday tuziladi? kabi savollar paydo bo'ladi. Bu muammolarning ijobiy hal etilishiga kasblar bo'yicha konsultatsiya yordam beradi.

Kasblar bo'yicha konsultatsiya bu – yoshlarga to'g'ri kasb tanlashda yordam berish maqsadida tashkil etiladigan mutaxassislar (psixologlar, shifokorlar, pedagoglar va boshqalar)ning maslahatlari va tavsiyalaridir. Mamlakatimizda kasblar bo'yicha konsultatsiyalar shaharlarda, tumanlarda va mahallalarda tashkil etilgan kasbga yo'naltirish markazlari, korxonalarda, turli o'quv markazlari va ta'lim tashkilotlaridagi kasblar bo'yicha konsultatsiya punktlari va kasbga yo'naltirish xonalari tomonidan amalga oshiriladi.

Bu konsultatsiya punktlari va kasbga yo'naltirish xonalarida tegishli mutaxassislar tomonidan o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqib

kasb-hunar tanlashda ko‘maklashish, o‘quvchilarning kasbiy moyilligini baholash, kasbiy sinov orqali ularning qiziqishlarini aniqlash va ularni kasbga yo‘naltirish ishlari amalga oshiriladi.

Kasblar bo‘yicha konsultatsiyaning bir necha tipi mavjud bo‘lib, ular o‘zaro bir-biridan farq qiladi (7-rasm).




7-rasm. Kasblar bo‘yicha konsultatsiyaning tiplari.

Ma‘lumot beruvchi kasb konsultatsiyasi tanlangan kasbning mazmuni bilan odamni iloji boricha chuqurroq tanishtirishga qaratilgandir. U kishilarni o‘sha kasb odamning sifatlariga qanday talablar qo‘yishi bilan tanishtiradi, shuningdek, ularga bu kasbni qayerda, qanday o‘rganish yo‘llarini, ishga joylashish imkoniyatlarini tushuntirib beradi. Shu konsultatsiyaning o‘zida siz kasb mahoratini oshirish yo‘llari to‘g‘risida ham ko‘pgina ma‘lumotlarni bilib olishingiz mumkin.

Odatda bunday konsultatsiyani kasbda uzoq vaqtdan beri ishlayotgan tajribali mutaxassislar o‘tkazadilar.

Diagnostik kasb konsultatsiyasi kishini har tomonlama o‘rganish asosida undagi qiziqishlar, mayllar, qobiliyatlar hamda shaxsdagi kasb jihatidan muhim bo‘lgan ayrim sifatlarni aniqlab o‘rganishga qaratilgandir. Bunday konsultatsiyadan maqsad inson faoliyatning qanday sohasida muvaffaqiyatli ishlashi mumkinligini, ya‘ni u qaysi sohada jamiyat uchun maksimal foyda keltirishi mumkinligini hamda o‘z mehnatidan mumkin qadar ko‘proq qoniqish hosil qilishini oldindan belgilab olishdan iborat (8-rasm). Diagnostik kasb konsultatsiyasini psixologlar o‘tkazadilar. Ular shaxsni o‘rganishning anketa to‘ldirish, testlar bilan sinash kabi har xil metodlarini qo‘llaydilar. Biror faoliyat turiga aniq qiziqishi bo‘lmagan o‘smirlar uchun ham mana shunday konsultatsiya zarur. Biroq turli xil anketalardagi savollarga javob berishning o‘zi yetarli va psixolog kompyuter texnikasi yorlamida kim bo‘lishingizni aniq aytib, qo‘lingizga retsept tutqazadi deb o‘ylamaslik kerak. Chunki hatto shaxs xususiyatlarini chuqur va har tomonlama o‘rganib chiqilganidan keyin ham qaysi kasbni tanlash to‘g‘risida bir fikrga kelish qiyin.



8-rasm. Kasb tanlashning muqobil shartlari.

Bu yerda gap faqat bir-biriga yaqin bo'lgan juda ko'p kasblar doirasida borishi mumkin. Inson esa ana shu kasblardan birini o'zi mustaqil ravishda tanlab olishi kerak.

Tibbiyot kasb konsultatsiyasi odamning sog'lig'i u tanlagan kasb talablariga qay darajada mos kelishini aniqlab olishga yordam beradi. Agar inson mo'ljallayotgan kasb qandaydir bir sabab bilan uning sog'lig'iga to'g'ri kelmaydi, deb topilgudek bo'lsa, u holda shifokor unga boshqa bir kasbni, ya'ni uning qiziqish va mayllariga yaqin bo'lgan, sog'lig'iga zarar yetmaydigan kasbni tanlashni tavsiya qiladi. Masalan, aytaylik, u o'z hayotini aviatsiya bilan bog'liq bo'lgan kasbga bag'ishlamoqchi. Lekin bu odamning ko'zi unchalik o'tkir emas. Bunday hollarda konsultant-shifokor: uchuvchilik kasbi unga to'g'ri kelmasligi, lekin u aviataxnik, aviakonstruktor va boshqa shu kabi kasblarni bemalol tanlashi mumkinligini deb maslahat beradi.

Tuzatish kirituvchi kasb konsultatsiyasi odam bir kasbni tanlasa-yu, lekin uning real imkoniyatlari va qobiliyatlariga o'sha kasb mos kelmagan hollarda zarur bo'ladi. Bunday vaziyatda professional rejani qaytadan ko'rib chiqish yoki unga aniqlik kiritish zarur bo'lib qoladi.

Aytaylik, shaxsni o'rganish vaqtida olingan ma'lumotlar asosida konsultant unga boshqa bir kasbni tanlashni tavsiya etadi. Bunda o'sha shaxs u bilan birga yangi kasbga doir reja to'g'risida o'ylab ko'radi. Yuqorida sanab o'tilgan kasblar

bo'yicha konsultatsiyaning tiplari bir-biri bilan o'zaro mustahkam bog'liq. Tibbiyot kasb konsultatsiyasida ma'lumotnoma-axborot berish xarakteridagi va tuzatish kirituvchi xarakterdagi elementlar mavjud bo'lsa, diagnostik kasb konsultatsiyasida tibbiyot kasb konsultatsiyasining elementlari uchraydi va hokazo. Bunda eng muhimi – har qanday kasb konsultatsiyasi insonga o'z individual xususiyatlarini yaxshiroq bilib olishda, o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishish uchun qanday fazilatlarini rivojlantirib va o'rnini to'ldirib borish zarurligini aniqlab olishda yordam beradi.

Agar odam kasblar bo'yicha konsultatsiya olishni istasa, u bunga oldindan tayyorgarlik ko'rib borishi kerak: o'zini qiziqtirgan savollarni o'ylab ko'rishi kerak, kasb tanlash bo'yicha o'qituvchilarining bergan maslahatlariga ham quloq solib mulohaza qilib ko'rishi kerak. Har bir maslahatga diqqat-e'tibor bilan qarash va bundan to'g'ri, puxta xulosalar chiqarib olish zarur.

O'z-o'zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar

1. Kasbga doir reja deganda siz nimani tushunasiz?
2. Kasbga doir rejani tuzish vaqtida qanday talablarga amal qilish zarur?
3. Kasblar bo'yicha konsultatsiyaning vazifalari nimalardan iborat?
4. Kasblar bo'yicha konsultatsiyaning qanday tiplari mavjud?

Siz kasblar bo'yicha konsultant bilan birga muhokama qilmoqchi bo'lgan masalalarni o'zingiz uchun aniqlab chiqishga harakat qiling.

5. Kasblar bo'yicha konsultatsiya qanday muammolarning ijobiy hal etilishiga yordam beradi?

a) kasb tanlash formulasidan konkret kasbning o'ziga qanday o'tish mumkin?;
b) shaxs o'zining o'sha kasbga yaroqli ekanligini qanday qilib bilishi mumkin?;

c) o'z-o'zini tarbiyalash rejasi qanday tuziladi?;
d) har bir shaxs kasbga doir reja tuzish va uni amalga oshirish vaqtida duch kelishi mumkin bo'lgan bir qator muammolar.

6. Kasblar bo'yicha konsultatsiyaning necha xil tipi mavjud?

- a) olti xil;
- b) besh xil;
- c) to'rt xil;
- d) uch xil.

7. Ma'lumot beruvchi kasb konsultatsiyasi nimaga qaratilgan?

a) tanlangan kasbning mazmuni bilan odamni iloji boricha chuqurroq tanishtirish;

b) odamning sog'lig'i u tanlangan kasb talablariga qay darajada mos kelishini aniqlab olish;

c) professional rejani qaytadan ko‘rib chiqish yoki unga aniqlik kiritish;
d) kishini har tomonlama o‘rganish asosida undagi qiziqishlar, mayllar, qobiliyatlar hamda shaxsdagi kasb jihatidan muhim bo‘lgan ayrim sifatlarni aniqlab o‘rganish.

8. Diagnostik kasb konsultatsiyasi nimaga qaratilgan?

a) tanlangan kasbning mazmuni bilan odamni iloji boricha chuqurroq tanishtirish;

b) odamning sog‘lig‘i u tanlangan kasb talablariga qay darajada mos kelishini aniqlab olish;

c) professional rejani qaytadan ko‘rib chiqish yoki unga aniqlik kiritish;

d) kishini har tomonlama o‘rganish asosida undagi qiziqishlar, mayllar, qobiliyatlar hamda shaxsdagi kasb jihatidan muhim bo‘lgan ayrim sifatlarni aniqlab o‘rganish.

9. Tibbiyot kasb konsultatsiyasi nimaga qaratilgan?

a) tanlangan kasbning mazmuni bilan odamni iloji boricha chuqurroq tanishtirish;

b) odamning sog‘lig‘i u tanlangan kasb talablariga qay darajada mos kelishini aniqlab olish;

c) professional rejani qaytadan ko‘rib chiqish yoki unga aniqlik kiritish;

a) kishini har tomonlama o‘rganish asosida undagi qiziqishlar, mayllar, qobiliyatlar hamda shaxsdagi kasb jihatidan muhim bo‘lgan ayrim sifatlarni aniqlab o‘rganish.

10. Tuzatish kirituvchi kasb konsultatsiyasi nimaga qaratilgan?

a) tanlangan kasbning mazmuni bilan odamni iloji boricha chuqurroq tanishtirish;

b) odamning sog‘lig‘i u tanlangan kasb talablariga qay darajada mos kelishini aniqlab olish;


c) professional rejani qaytadan ko‘rib chiqish yoki unga aniqlik kiritish;

e) kishini har tomonlama o‘rganish asosida undagi qiziqishlar, mayllar, qobiliyatlar hamda shaxsdagi kasb jihatidan muhim bo‘lgan ayrim sifatlarni aniqlab o‘rganish.

17-mavzu. O‘quvchilarni to‘g‘ri kasb tanlashga yo‘naltirishda kasblar xarakteristikasi – professiogrammaning o‘rni


To‘g‘ri kasb tanlash kasbning mazmuni, xarakterini iloji boricha ko‘proq bilishni hamda bo‘lajak kasbiy faoliyat jarayonidagi munosabatlar xususida iloji

boricha to'laroq ma'lumotga ega bo'lishni taqozo etadi. Quyidagi tadbirlar kasb to'g'risida tegishli bilimga ega bo'lish uchun asosiy manba sifatida xizmat qiladi:



Kasb to'g'risidagi eng muhim va asosiy manbalardan biri professiogramma hisoblanadi. Professiogramma bu kasbga berilgan xarakteristika bo'lib, o'sha kasb odamning quyidagi shaxsiy fazilatlariga qo'yadigan asosiy talablarni o'z ichiga oladi: aqliy, psixologik, jismoniy va boshqa fazilatlar.

Barcha professiogrammalar taxminan quyidagicha sxema asosida tuziladi:



Har bir o'smir o'z mehnat yo'li qanday boshlanishi to'g'risida o'ylar ekan, o'zi uchun mo'ljallanayotgan kasbning professiogrammasini tuzib chiqishi foydali. Bunday ish insonga o'zining bo'lajak kasbi to'g'risida ko'proq narsalarni bilib olish, o'sha kasbga o'zining kasb jihatidan qay darajada mos kelishini baholash imkonini beradi. Professiogramma tuzish shaxsga o'zida shakllantirishni yoki rivojlantirishni zarur deb hisoblayotgan kasb jihatidan muhim sifatlarni belgilab olishga yordam beradi (ular professional rejaga asos qilib olinishi kerak)¹. Professiogramma tuzish vaqtida "Kasblar olami"ga oid ensiklopediyalardan olingan maqolalardan, turli xil ma'lumotnoma nashrlaridan foydalanish mumkin. Amaliy xarakterdagi ba'zi ma'lumotlarni tayanch korxona mutaxassislari bilan yoki kasb bo'yicha konsultatsiya beruvchi mutaxassis bilan o'tkaziladigan suhbatlardan olish mumkin.

Quyida ikki kasb: "Avtomatik liniyalar va agregat dastgohlari sozlovchisi", "Melioratsiya ishlari mexanizatori" kasblarining professiogrammasi misol tariqasida keltirilgan.

Avtomatik liniyalar va agregat dastgohlari sozlovchisi

Avtomatik liniyalar va agregat dastgohlari sozlovchisi kasbi eng yangi va kelajagi porloq kasblardan hisoblanadi. U sanoatda murakkab avtomat va yarim avtomat uskunalar bilan bir davrda paydo bo'lgan. Shuning uchun ham avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish sharoitida bu kasbning ahamiyati muntazam ravishda ortib bormoqda.

Sozlovchining ishlab chiqarishdagi asosiy vazifasi avtomat liniyalari va dastgohlarni ma'lum bir turdagi mahsulotlarga ishlov berishga tayyorlashdan iborat. Avtomatik liniyalar va agregat dastgohlari sozlovchisi detallarga sinov tariqasida ishlov berish tadbirini amalga oshiradi, asbob-uskunalarining ishini kuzatib boradi. Berilgan parametrlardan qandaydir chekinishni sezganda sozlovchi mashinaning qayeri buzilganligini aniqlaydi hamda o'z bilimi, mahorati va malakalariga, tajribasiga tayangan holda bu kamchiliklarni bartaraf etib mashinani tuzatadi. Shuningdek, u turli xildagi ta'mir ishlarida, uskunalarni sinash tadbirlarida qatnashadi, turli tipdagi dastgohlarni, nazorat avtomatlarni, avtomat liniyalarning transport qurilmalarini sozlab beradi, robotlarni regulirovka qiladi. Shuningdek, avtomat liniyalarini sozlash bilan bog'liq bo'lgan tegishli hisob-kitob ishlarini bajaradi.

Avtomatik liniyalar va agregat dastgohlari sozlovchisi yuksak darajada texnik bilimga va ko'rib eslab qolish xotirasiga ega bo'lishi kerak.

Turli-tuman texnik vazifalarni hal qilish zaruriyati bilan bog'liq bo'lgan ishlarni bajarayotgan sozlovchi uchun mantiqiy jihatdan to'g'ri o'ylash va ijodiy

¹ Muslimov N.A., Sharipov Sh.S., Qo'ysinov O.A. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014.

fikrlash g'oyat muhim ahamiyatga egadir. Uskunalaridagi buzuvchi joylar ko'zga yaqqol ko'rinib turmasligi sababli odatda kuzatuvchanlik va hushyorlik bilan ish yuritadigan sozlovchilar o'z ishida ijobiy natijalarga erishadilar. Shuningdek, og'ir vaziyatlar vujudga kelib qolganda sabr-toqatli bo'lish, puxta ishlash va o'zini yo'qotib qo'ymaslik ham muhimdir¹.

Sozlovchilar mashinasozlik, metallga ishlov berish, oziq-ovqat, to'qimachilik sanoati korxonalarida va boshqa shu kabi korxonalarda ishlaydilar.

Bu kasbni kasb-hunar maktablarida o'rganish mumkin. Bu sohada bilim olishni esa mashinasozlik kasblari bo'yicha universitet va institutlarda davom ettirish mumkin. Mashina va uskunalarni sozlovchi, dastur bilan boshqariluvchi manipulyatorlar va dastgohlar sozlovchisi, texnik-mexanik kasblari turdosh kasblar hisoblanadi.

Melioratsiya ishlari mexanizatori

Melioratsiya ishlari yerlarning holatini tubdan yaxshilashga qaratilgan. Bu tabiiy sharoitlar kompleksini qishloq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan yo'nalishda o'zgartirish, yangi yerlarni qishloq xo'jalik aylanmasiga kiritish, mamlakatning turli tumanlarida qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini rivojlantirish uchun eng qulay imkoniyatlarni vujudga keltirish degan so'zdir. Hozirgi vaqtda deyarli barcha melioratsiya ishlari mexanizatsiyalashtirilgan.

Mexanizator yer kovlash mashinalari tirkalgan traktor agregatlarida, ekskavatorlarda va greyderlarda turli xil tuproq ishlarini bajaradi. Sun'iy sug'oriladigan dalalarda u nasosli, yomg'ir yog'diradigan va boshqa shunga o'xshash gidrotexnika uskunalari bilan ishlaydi. Mashinalarni ishga tayyorlab qo'yish, ularni artib, tozalab turish, ayrim mexanizmlarni tekshirish va sozlab qo'yish kabi ishlar mexanizatorning vazifasi hisoblanadi.

Barcha melioratsiya ishlari tegishli texnologik xaritalar asosida o'tkaziladi. Mexanizatorning vazifasi texnologik xaritani diqqat bilan tez va aniq o'rganib chiqish hamda o'z ishini to'g'ri rejalashtirishdan iborat bo'ladi. U tuproqning tashqi belgilarini va xususiyatlarini bilishi, texnikaning buzilib qolish ehtimoli bo'lgan joylarini aniqlay olishi va ularni dala sharoitida tuzatishni bilishi kerak. Organizmga shovqin, tebranish, chang-to'zon, noqulay ob-havo sharoitlarining ta'siri bilan bog'liq bo'lgan bu ish odamdan o'zining butun iroda kuchini hamda faol aqliy faoliyatini talab qiladi. Ularning uzoq muddatli xizmat safarlariga borish holatlari ham uchrab turadi. Ushbu kasbni tanlagan kishilarning sog'lig'i yaxshi bo'lishi va ular turli qiyinchiliklarga chidamli, bardoshli kishilar bo'lishi kerak. Ularda rang

¹ Muslimov N.A., Sharipov Sh.S., Qo'ysinov O.A. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014.

va yorug'likni sezish, tovushlarni eshitib farqlay olish qobiliyatlari rivojlangan bo'lishi lozim.


Bu kasbni kasb-hunar maktablarida o'rganish, bu sohada ta'lim olishni qishloq xo'jalik institutlarida va boshqa oliy o'quv yurtlarida davom ettirish mumkin.

O'z-o'zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar


1. Professiogramma nima?
2. Unga qanday ma'lumotlar kiradi?
3. Kasb tanlayotganlarga professiogrammalar qanday yordam ko'rsatishi mumkin?
4. O'zingizning bo'lg'usi kasbingiz xarakteristikasini tuzib chiqing.
5. Barcha professiogrammalarni tuzish sxemasi necha qismdan iborat?
 - a) o'n;
 - b) o'n bir;
 - c) o'n ikki;
 - d) o'n uch.
6. Kasb professiogrammasini tuzib chiqish insonga nima beradi?
 - a) turli-tuman texnik vazifalarni hal qilish imkonini beradi;
 - b) o'zining bo'lajak kasbi to'g'risida ko'proq narsalarni bilib olish, o'sha kasbga o'zining kasb jihatidan qay darajada mos kelishini baholash imkonini beradi;
 - c) texnologik xaritani diqqat bilan tez va aniq o'rganib chiqish hamda o'z ishini to'g'ri rejalashtirish imkonini beradi;
 - d) tanlangan kasbning mazmuni bilan iloji boricha chuqurroq tanishish imkonini beradi.
7. Avtomatik liniyalar va agregat dastgohlari sozlovchisi kasbini qayerda o'rganish mumkin?
 - a) umumiy o'rta ta'lim maktablarida;
 - b) akademik litseylarda;
 - c) kasb-hunar maktablarida;
 - d) repetitorlik kurslarida.
8. Melioratsiya ishlari mexanizatori kasbini tanlagan kishilarda qanday qobiliyatlar rivojlangan bo'lishi lozim?
 - a) yuksak darajada texnik bilimga va ko'rib eslab qolish;
 - b) rang va yorug'likni sezish, tovushlarni eshitib farqlay olish;
 - c) mantiqiy jihatdan to'g'ri o'ylash va ijodiy fikrlash;
 - d) kommunikativlik.

18-mavzu. Maktablarda o'quvchilarni kasbga yo'naltirish xonasini tashkil etish va uning kasb tanlash jarayonidagi roli

Maktablarda o'quvchilarni kasbga yo'naltirish xonasini tashkil etishning asosiy maqsadi ularni yoshligidan aniq kasblarga yo'naltirish, hunarlarga mehr uyg'otishdan iborat. Maktab kasbga yo'naltirish xonasi ishini samarali yo'lga qo'yish uchun ular kerakli jihozlar, asbob-uskunalar, moslamalar, qurollar, gazlama va materiallar bilan ta'minlanishi lozim.



Kasbga yo'naltirish xonasi amaliy ishlar uchun quyidagi vazifalarni bajaradi:



Kasbga yo'naltirish xonasi ishining mazmuni:

- o'quvchilar bilan metodik ishlarni olib borish (ilg'or tajriba maktabi, akademik litseylar, professional ta'lim tashkilotlari va b. to'g'risida ma'ruzalar, davra suhbatlari, seminarlar, ilmiy-uslubiy konferensiyalar, pedagogik o'qishlar va h.k.);

- o'quvchilar bilan kasb ta'limi asoslari bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish (fakultativlar, to'garaklar, kasbga yo'naltirish bo'yicha sinf soatlari va h.k.);

- xalq xo'jaligi tarmoqlarining ilg'or namoyondalari, faxriylar va boshqalar bilan davra suhbatlari, uchrashuvlar tashkil etish;

- kasbga yo'naltirish bo'yicha ommaviy tadbirlar uyushtirish;

- o'quvchilar ijodiy faoliyatlari ko'rgazmalarini tashkil etish;


- o'quvchilar bilan yakka tartibda ish olib borish;

- kasb tanlash masalalari yuzasidan ota-onalar yig'ilishlarini o'tkazish va ularga farzandlarining kasb tanlashi bo'yicha maslahatlar berish;

- o'quvchilarni kasbga yo'naltirish bo'yicha pedagoglar jamoasining faoliyatini o'rganish va tahlil qilish;

- viloyat, tuman (shahar) pedagogik-psixologik tashxis faoliyatini tashkil etish so‘‘balari bilan doimiy hamkorlikda faoliyat ko‘rsatish.

Kasbga yo‘naltirish tizimining asosiy komponentlari quyidagilardan iborat:



Kasblar to‘g‘risida axborot berish - o‘quvchilarni turli xil mehnat turlari bilan, kasblar shajarasi, kasblarning o‘ziga xos xususiyatlari, xalq xo‘jaliginig kasblarga bo‘lgan ehtiyojlari bilan tanishtirishdir¹. Mazkur jarayonda o‘quvchi-yoshlar kasblar olamida to‘g‘ri yo‘l topishga xizmat qiluvchi bilimlarni egallaydilar va obyektlarga o‘zlari baho berish asosida qat’iy bir qarorga keladilar. Kasblar haqida tartibsiz ma’lumot bermaslik uchun (dunyoda 40 mindan ortiq kasblar mavjud) o‘quvchilar oladigan bilimlarni ma’lum bir tizimga solish lozim. Buning uchun Y.A.Klimovning mehnat predmeti bo‘yicha kasblar tasnifidan foydalanish maqsadga muvofiq. Kasblar haqida axborot berish o‘quvchilarning yosh, psixologik va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda olib borilishi lozim.


Dastlabki kasbiy ishlarning mazmuni quyidagi komponentlarni o‘rganishni o‘z ichiga oladi:

¹ Система профессиональных мер как средство повышения осознанности выбора профессионального пути.
<http://elibrary.ru/tem.asp?id=38498275>



Izoh: bu komponentlarning ayrimlarining apparaturalari tegishli metodlar yordamida amalga oshirilishini hisobga olib, moddiy texnika bazasi mavjud joylarda ta'lim tashkilotlari kasbga yo'naltirish xonalarida, yetarli bo'lmagan joylarda esa tuman (shahar) pedagogik-psixologik tashxis faoliyatini tashkil etish so'balari bazasida hamkorlikda o'tkaziladi.

Kasbga oid konsultatsiyalarining maqsadi - o'quvchilarga kasb tanlashda yordam berishdan iborat bo'lib, ularning qiziqishlari mayllari, qobiliyatlari va boshqa xususiyatlarini o'rganishga tayanadi va quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:



Bu konsultatsiyalarning har birining mazmuni quyidagicha:

Dastlabki kasbga oid konsultatsiyani sinf rahbari, o'qituvchilar, psixolog-pedagoglar amalga oshiradi. Ular o'quvchilarning kasbga oid dastlabki niyatlari bilan tanishadilar. O'quvchilarning bu niyatlari ularning shaxsiy layoqatlari, qobiliyatlari, sog'liqlariga qay darajada mos kelishini muhokama qiladilar. Muhokama xulosasi yakkama-yakka suhbat paytida o'quvchiga ma'lum qilinadi: niyatning to'g'riligi ma'qullanadi yoki kasblarga oid axborot ma'lumot materiallarini o'rganish maslahat beriladi.

Kasblarga oid axborot-ma'lumot konsultatsiyasi vaqtida dastlabki konsultatsiya natijalariga qarab axborot-ma'lumot berib boriladi (kasblar tasniflagichi, kasblar tasniflari, psixogrammalar, qaysi kasblarga ehtiyoj borligi

to'g'risida axborotlar). O'quvchi ushbu ma'lumotlar asosida o'zini qiziqtirgan, jamiyat uchun kerakli bo'lgan kasbni tanlaydi.

Kasbga oid boshlang'ich shakllantirish - konsultatsiyada o'quvchining bundan oldingi bosqichlarga oid olgan bilimlarini chuqurlashtirish, mehnat va kasb ta'limi jarayonida dastlabki ko'nikma va malakalarni shakllanganlik darajasini aniqlaydi va maslahatlar beradi.

Kasbga oid muvofiqlashtirish konsultatsiyasi - bundan oldingi bosqichlarda o'tkazilgan tadqiqot natijalari va individual psixofiziologik xususiyatlariga qarab o'quvchi tomonidan noto'g'ri tanglangan kasb ta'limi turidan uning shaxsiy ko'rsatkichlari kasbga yaroqliligi, layoqatiga mos kasb ta'limiga muvofiqlashtirish maslahatlarini beradi.

Kasbga oid shakllantirish konsultatsiyasi - shaxsning kasb ta'limi turida olayotgan bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishni davom ettirishni va professional ta'lim yo'nalishini tanlashni va ma'lum bir mutaxassislikni egallashni amalga oshiradi.

Kasbga oid nazorat konsultatsiyasida yuqorida keltirilgan maslahatlar bosqichlari to'g'ri amalga oshirilgan yoki oshirilmaganligi, ko'nikma va malakalar ixtiyoriy majburiy ta'limda (o'rta maxsus yoki professional ta'limda) davom etayotgan – etmayotganligi, ya'ni shu soha bo'yicha ta'lim olinayotganligi nazorat qilinadi. Agar sohasi o'quvchi bo'yicha ixtiyoriy majburiy ta'limda davom etmayotgan bo'lsa, buning sabablari o'rganiladi va kelgusi faoliyatida amalga oshiriladigan ishlar tahlil qilinadi hamda amaliy xulosalar chiqariladi.

Tadqiqotlarda shu narsa aniqlanganki, maktab o'quvchilarining 50 foizi individual kasb maslahatlariga muhtoj. Bularga quyidagilar kiradi:

- u yoki bu sabab mustaqil kasb tanlay olgan o'quvchilar;
- ota-onalari bilan ziddiyat paydo bo'lgan o'quvchilar;
- o'zining tanlagan kasb yo'lining to'g'riligini isbot qilish istagida bo'lgan o'quvchilar.

Shu sababli ham maktab kasbga yo'naltirish xonasining tuman (shahar) pedagogik-psixologik tashxis faoliyatini tashkil etish so'nbasi bilan birgalikda kasbga oid konsultatsiya ishlariga alohida e'tibor bilan yondashishi talab etiladi.


Maktabda kasbga yo'naltirish o'quv-metodik xonasi tashkil etish kasbga yo'naltirish, hunarlarga qiziqtiruush bo'yicha amaliy ishlarning moddiy bazasini yaratish va mustahkamlashdagi dastlabki muhim qadam hisoblanadi.

Jihozlangan xona kasbga yo'naltirish bo'yicha turli xil tadbirlarni tayyorlash va o'tkazish uchun moddiy-texnik, tashkiliy, sanitariya-gigiyena sharoitlarini yaratish va axborotlar bilan ta'minlash vazifasini o'taydi.

Xonaning belgilangan vazifalarini bajarishga mosligini quyidagi belgilarga qarab aniqlanadi:

Xona uchun kamida 50-54 kvadrat metr (6x9) kattalikda) keladigan birinchi qavatdagi sinf xonasini ajratish maqsadga muvofiq. Xona rahbari eng zarur jihozlar ro'yxatini tuzadi, ularni olishning har xil variantlarini ko'rib chiqadi. Jihozlarning bir qismi maktab ustaxonasida, homiy tashkilot yordamida tayyorlanishi mumkin.

Kasbga yo'naltirish xonasini quyidagi jihozlar bilan ta'minlash lozim:



Xona materiallari va hujjatlarini saqlash uchun mebel va moslamalarga shkaflar, stendlar, yashiklar, polkalar va boshqalar kiradi. O'quvchilarning eng yaxshi ishlarini namoyish etadigan moslamalarga vintlar, stendlar va h.k.larni misol keltirish mumkin. Texnika vositalaridan foydalaniladigan moslamalar ekran, derazalarga parda tortish uchun moslamalar, o'rnatiladigan tagliklarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, kasbga yo'naltirish xonasini quyidagi o'quv-ko'rgazmali qurollar bilan jihozlash maqsadga muvofiq:

Tabiiy obyektlar	Hajmli maketlar va modellar	Yassi tasvirlar	Audativ, audiovizual qo'llanmalar	Kasblarga oid resurslar
<ul style="list-style-type: none"> xomayosh va yarim fabrikat namunalari, korxonalar mahsulotlari, ish qurollari, mehnat vositalari va boshqalar 	<ul style="list-style-type: none"> o'quvchilar texnik ijodiyoti namunalari, texnik moslama, qurilishning maketlari va modellari, q/x mahsulotlari nusxalari 	<ul style="list-style-type: none"> portretlar, kartinalar, fotosuratlar, sxemalar, xaritalar, jadvallar, diagrammalar va boshqalar 	<ul style="list-style-type: none"> ovozli yozuvlar, kinofilmlar, videofilmlar, lazerli disklar va h.k. 	<ul style="list-style-type: none"> ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-ommabop, uslubiy, memuar, lug'at adabiyotlar, ma'lumotnomalar, klassifikatorlar, instruktiv materiallar va metodik qo'llanmalar

O'z-o'zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar

1. Maktablarda o'quvchilarni kasbga yo'naltirish xonasini tashkil etishning asosiy maqsadini bayon qilib bering.

2. Kasbga yo'naltirish xonasining vazifalariga nimalar kiradi?

3. Maktab kasbga yo'naltirish xonasi ishini samarali yo'lga qo'yish uchun nimalar bilan ta'minlanishi lozim?

4. Kasbga yo'naltirish xonasi ishining mazmuni bayon qilib bering.

5. Kasbga yo'naltirish tizimi nechta asosiy komponentdan iborat?

- o'nta;
- beshta;
- oltita;
- uchta.

6. Dastlabki kasbiy ishlarning mazmuni nechta komponentlarni o'rganishni o'z ichiga oladi?

- uchta;
- to'rtta;
- oltita;
- beshta.

7. Kasbga oid konsultatsiyalar nechta bosqichda amalga oshiriladi?

- o'nta;
- beshta;
- oltita;
- yettita.

8. Kasbga oid shakllantirish konsultatsiyasida qanday ishlar amalga oshiriladi?

a) o'tkazilgan tadqiqot natijalari va individual psixofiziologik xususiyatlariga qarab o'quvchi tomonidan noto'g'ri tanglangan kasb ta'limi turidan uning shaxsiy ko'rsatkichlari kasbga yaroqliligi, layoqatiga mos kasb ta'limiga muvofiqlashtirish maslahatlarini beradi;

b) shaxsning kasb ta'limi turida olayotgan bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishni davom ettirishni va professional ta'lim yo'nalishini tanlashni va ma'lum bir mutaxassislikni egallashni amalga oshiradi;

c) o'quvchining bundan oldingi bosqichlarga oid olgan bilimlarini chuqurlashtirish, mehnat va kasb ta'limi jarayonida dastlabki ko'nikma va malakalarni shakllanganlik darajasini aniqlaydi va maslahatlar beradi;

d) o'quvchilarning kasbga oid dastlabki niyatlarining to'g'riligi ma'qullanadi yoki kasblarga oid axborot ma'lumot materiallarini o'rganish maslahat beriladi.

19-mavzu. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishlarini rejalashtirish, amalga oshirish va unga rahbarlik qilish

Ta'lim tashkiloti kasbga yo'naltirish xonasiga umumiy rahbarlik ta'lim tashkiloti direktori va uning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari tomonidan amalga oshiriladi. Kasbga yo'naltirish ishlarini rejalashtirish va olib borish uchun ta'lim tashkiloti direktori o'qituvchilar orasidan shu soha bo'yicha malakali mutaxassislardan birini kasbga yo'naltirish o'quv-metodik xonasi mudiri etib tayinlaydi. Xona mudiri muntazam o'z malakalarini oshirib borishi, kasbga yo'naltirish bo'yicha ilg'or tajribalarni doimo o'rganib borishi va tuman (shahar) pedagogik-psixologik tashxis faoliyatini tashkil etish so'rbasi bilan doimiy aloqada bo'lmog'i kerak.

Xona mudiri maktabda o'quv-tarbiya ishlarini tashkil qilish tizimini, O'zbekistonda umumiy o'rta va o'rta maxsus, professional ta'lim asoslarini, mehnat qonunchiligini, texnologik ta'lim va kasbga yo'naltirish bo'yicha nashr etilgan metodik adabiyotlar, normativ hujjatlarni bilishi kerak. Shuningdek,

Xona mudiri faoliyati davomida quyidagi faollarga tayanadi:

- o'qituvchilar;
- sinf rahbarlari;
- o'quvchilar;
- ota-onalar;
- akademik litseylar, professional ta'lim tashkilotlari va boshqa korxonalar xodimlari.

U kasbga yo'naltirish ishini rejalashtiradi, tashkil etadi va bajarilishga javob beradi. U yig'ilishlarni, mehnat faxriylari va boshqalar bilan uchrashuvlarni tashkil qiladi va o'tkazadi. Kasbga yo'naltirish bo'yicha fakultativ mashg'ulotlar o'tkazadi, metodik tavsiyalar ishlab chiqish va uni qo'llashda qatnashadi.

O'quvchilarni kasbga qiziqish, moyilliklarini o'rganish maqsadida vaqti-vaqti bilan anketa-so'rovnoma tarqatadi, uning natijalarini yig'ib tahlil qiladi, xulosalar chiqaradi va tuman (shahar) pedagogik-psixologik tashxis faoliyatini tashkil etish

soʻbasi bilan hamkorlikda taʼlim tashkilotida kelgusida kasbga yoʻnaltirish boʻyicha amalga oshiriladigan ishlar rejasiga kerakli tuzatishlar kiritadi. Oʻquvchilar bilan kasbga yoʻnaltirish axborot-maʼlumot konsultatsiyasini oʻtkazib boradi.

Xona mudirining huquqlari

- taʼlim tashkiloti pedagogik kengashi tarkibiga kiradi;
- maktab rahbariyati va pedagogik kengashga taʼlim tashkilotida kasbga yoʻnaltirish ishini yaxshilash yuzasidan taklif va tavsiyalar kiritadi;
- taʼlim tashkilotida tuman (shahar) pedagogik-psixologik tashxis faoliyatini tashkil etish soʻbasi bilan hamkorlikda kasbga oid shaxsiy maslahatlar oʻtkazishda qatnashadi.

Kasbga yoʻnaltirish oʻquv-metodik xonasining mudirining vazifalari

Taʼlim tashkiloti oʻquvchilari bilan oʻtkaziladigan kasbga yoʻnaltirish ishlari holatni nazorat qilish, ularning sifati va samaradorligini tahlil qilish

Oʻquv-metodik hujjatlar, koʻrsatmali qurollar va texnika vositalarining toʻgʻri saqlanishini taʼminlash

Maktabga kasbga yoʻnaltirish boʻyicha kelib tushayotgan adabiyotlar va boshqa materiallarni hisobga olish

Hisobot hujjatlarini toʻgʻri yuritish

Xona mudiri har yili kasbga yoʻnaltirishga doir ish rejasini tuzib chiqish va uning belgilangan muddatlarda sifatli bajarilishini taʼminlash

Maktabda kasbga yoʻnaltirish sohasidagi barcha ishlarni muvofiqlashtirib borish maqsadida ushbu maktab direktori raisligida kasbga yoʻnaltirish ishlarini muvofiqlashtiruvchi kengash tuziladi.

Kengash tarkibiga maktab direktorining shu sohaga masʼul oʻrinbosari, maktab amaliyotchi psixologi, kasbga yoʻnaltiruvchi oʻquv-metodik xona mudiri, texnologiya fani oʻqituvchilari, bitiruvchi sinflarning sinf rahbarlari, maktab kutubxonachisi, maktab oʻquvchilar tashkilotining vakillari, maktab shifokori yoki hamshirasi, ota-onalar qoʻmitasining aʼzolari, homiy tashkilot vakillari, xalq deputatlari tuman (shahar) kengashi deputati, mahalla yoshlar yetakchisi, hokim yordamchisi, profilaktika noziri kiradi.


Kasbga yoʻnaltirish ishlarini muvofiqlashtiruvchi kengashning yillik ish rejasi maktab pedagogika kengashida koʻrib chiqiladi va tasdiqlanadi.

Kasbga yoʻnaltirish ishlarini muvofiqlashtiruvchi kengashning vazifalari

Kasbga yoʻnaltirish boʻyicha maktab miqyosidagi va sinflar kesimidagi tadbirlarni rejalashtirish va tashkil qilish

Kasbga yoʻnaltirish ishiga oid ilgʻor tajriba maʼlumotlarini aniqlash, oʻrganish, umumlashtirish va ommalashtirish

Kasbga yoʻnaltirish ishlarini muvofiqlashtiruvchi kengash quyidagi tashkilotlar bilan hamkorlikda ish olib boradi:




Kasbga yoʻnaltirish ishlarini rejalashtirishda kengash mahalliy sharoitlarni va maktab ishining oʻziga xos xususiyatlarini hisobga olishi kerak. Kengashning kasbga yoʻnaltirish ish rejasi maktab taʼlim-tarbiya ishi umumiy rejasining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Kasbga yoʻnaltirish ishlarini muvofiqlashtiruvchi kengashning majlislariga tashkilotlar, homiy korxona va tashkilotlar, oliy taʼlim tashkilotlarining vakillari, voyaga yetmaganlar bilan ishlash komissiyasi aʼzolari, mehnat va bandlikka koʻmaklashish markazlarining vakillari taklif qilinadilar.

Oʻquvchilarni kasbga yoʻnaltirish ishini oʻtkazishda birinchi navbatdagi vazifa maktab maʼmuriyati va xodimlarining vazifalari, oʻquvchilarni kasbga yoʻnaltirishga oid nizomlar, tartiblar, yoʻriqnomalar, buyruqlar, qarorlar bilan tanishishdan, oʻquv va ilmiy-metodik adabiyotlarni oʻrganish va oʻz faoliyatida foydalanishdan iborat.

Tajribalar shuni koʻrsatadiki:




O'quvchilarni kasbga yo'llashni rejalashtirishning maqsad va vazifalari. Kasbga yo'llashni rejalashtirishdan maqsad o'quv jarayonini aniq tashkil etishdan iborat bo'lib, u ta'limning tamoyillariga va davlat talablariga to'la-to'kis javob beradigan bo'lishi kerak. Texnologiya fani boshqa umumta'lim fanlaridan farq qilib, ta'limni tashkil etishda o'ziga xos xususiyatga ega. O'quv jarayonini to'g'ri rejalashtirish orqali o'qituvchi va o'quvchilarning o'quv ustaxonalaridagi mashg'ulotlarda texnologik ta'limning vazifalari va maqsadlariga, uning tamoyillariga va o'quvchilar bilan ishlashga qo'yiladigan boshqa talablarga muvofiq barcha ishlarni oldindan ko'ra olish mumkin¹.

O'quv jarayonini oldindan rejalashtirish o'qituvchining mashg'ulotlarga tayyorlanishida asosiy o'rin tutadi. O'qituvchining mashg'ulotlarga tayyorlanishi ikki bosqichni o'z ichiga oladi. Bu jarayon o'quv reja, kasb ta'limiga oid o'quv dasturini o'rganish va taqvim-mavzu reja tuzishdan boshlanadi. Texnologik ta'lim o'qituvchisi bu hujjatlar bilan tanishar ekan, tegishli sinf o'quvchilarida umumiy kasbiy bilimlari va amaliy ko'nikmalarini qaysi kasb turlari bo'yicha va qanday hajmda shakllantirish lozimligi haqida aniq tasavvur hosil qiladi. Buning uchun qanday jihozlar, asbob-uskunalar, moslamalar va ish qurollari kerakligi, o'quvchilar texnologiya fani o'quv dasturi talablarini to'liq bajarish uchun darslarda qanday buyumlarni tayyorlashlari kerakligini va shunga binoan ularni tayyorlash uchun qanday materiallar talab qilinishini bilib oladi².


O'quv jarayonini rejalashtirish orqali o'qituvchi quyidagi asosiy didaktik vazifalarni hal qiladi:

¹ Muslimov N.A., Sharipov Sh.S., Qo'ysinov O.A. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014.

² Muslimov N.A., Sharipov Sh.S., Qo'ysinov O.A. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014.



Kasbga yo'llashni rejalashtirish quyidagi ishlarning amalga oshirilishini ta'minlashi kerak:



Kasb tanlashga yo'llash jarayonini rejalashtiruvchi hujjatlar. Kasb tanlashga yo'llash jarayonini rejalashtirishga oid hujjatlar maktabda ta'lim-tarbiya jarayonining barcha jihatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqiriladi.

O'quv rejasi. Kasb tanlashga yo'llashni tashkil etish ishlari tegishli o'quv reja asosida amalga oshiriladi. **O'quv rejasi** maktabda o'qitiladigan fanlar, ularning bo'lim(bob)lari, o'qitilish tartibi hamda har bir fanning yil davomida o'qitilishi, ularning o'quv yili va haftasida qancha miqdorda o'tilishi kerakligini belgilab beradigan rasmiy pedagogik hujjat hisoblanadi. Mamlakatimizda o'quv rejalari tegishli vazirlik, tashkilot va idoralar tomonidan ishlab chiqiladi hamda tasdiqlanadi. Jumladan, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quv rejasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

O'quv dasturi. **O'quv dasturi** ta'lim tizimidagi har bir o'quv fanining mazmuni va o'tilish tartibini, o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmini belgilab beradigan rasmiy pedagogik hujjat hisoblanadi. O'quv dasturi tegishli vazirliklar qoshidagi ilmiy metodik kengashlar

tomonidan tasdiqlanadi. Har bir o'quv dasturi uqtirish xati, o'quv fani mazmunining qisqa bayoni, o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalari va kompetentligiga qo'yiladigan talablar kabi qismlardan iborat bo'ladi. O'quv fanining maqsad va vazifalarini belgilab berish o'quv dasturining muhim belgisi hisoblanadi. Chunki ayni shu jihat yaratiladigan o'quv darsligi muallifiga muayyan nuqtai nazarni tanlash, o'qituvchiga esa pedagogik mo'ljalni to'g'ri belgilash imkonini beradi.

Har bir fan bo'yicha alohida-alohida o'quv dasturi mavjud bo'lib, texnologik fani o'quv dasturi boshqa fanlarning dasturlaridan farq qiladi. Kasb tanlashga yo'llashni rejalashtirishda texnologiya fani va kasbga yo'llash bo'yicha o'quv dasturi, taqvim-mavzu reja, o'quv ustaxonasida bajariladigan ishlar ro'yxati, texnologiya fani darslarining boshqa fanlar bilan bog'liqlik grafigi va muayyan mavzu bo'yicha darsning batafsil rejasi tuziladi:

Kasb tanlashga yo'llash jarayonini rejalashtiruvchi hujjatlar		
Texnologiya fani o'quv dasturi	O'quv rejasi	Boshqa fanlarning o'quv dasturlari
O'quv ustaxonasida bajariladigan ishlar ro'yxati	Texnologiya fani taqvim-mavzu rejasi	Texnologiya fani darslarining boshqa fanlar bilan bog'liqlik grafigi
Taqvim-mavzu reja		
Metodik adabiyotlar	Dars rejasi	
Darslik	Dars ishlanmasi	Mashg'ulot

Taqvim-mavzu rejani tuzish

Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan o'quv reja va namunaviy o'quv dasturi asosida har bir maktab o'qituvchisi tomonidan taqvim-mavzu reja ishlab chiqiladi. Mazkur taqvim-mavzu reja tegishli fan bo'yicha uslubiy birlashma va maktab pedagogika kengashi muhokamasidan o'tkazilgandan so'ng maktab direktori tomonidan tasdiqlanadi.

Taqvim-mavzu rejaning har bir bo'limi qanday mavzularga ajratilib, ular qanday ketma-ketlikda, necha soatdan va o'quv yilining qaysi qismlarida o'qitilishi belgilab qo'yiladi. Taqvim-mavzu rejada unga kiritilgan mavzularni o'qitishning qaysi shakl va metodlari yordamida o'rgatilishi, har bir mavzu bo'yicha qaysi ishlar bajarilishi, buning uchun qanday asbob-uskunalar, jihoz va moslamalar, xomashyo, texnik-texnologik hujjatlar zarurligi, shuningdek, o'qitishning texnik vositalari, adabiyot va metodik qo'llanmalarning qaysilari zarur bo'lishi oldindan ko'rsatiladi. Taqvim-mavzu reja har bir sinf uchun yarim yillik yoki bir o'quv yiliga mo'ljallab tuziladi.

O'quv ustaxonalarida bajariladigan ishlar ro'yxatini ishlab chiqish



O'quv ustaxonasida bajariladigan ishlar ro'yxati taqvim-mavzu reja bilan bir vaqtda tayyorlanadi. O'quv ustaxonasida bajariladigan ishlar ro'yxati bu ishlar o'quvchilar tomonidan dars davomida bajariladigan bo'lganligi uchun o'quvchilar o'quv yili davomida qancha vaqt amaliy ish bilan shug'ullanishlari lozimligini aniqlashdan boshlanadi. Buning uchun o'qituvchi tomonidan ishlab chiqilgan taqvim-mavzu reja tahlil etilib, quyidagi savollar aniqlik kiritiladi: qaysi mavzularni o'qitishda o'quvchilar amaliy ish bajarmaydilar, masalan, nazariy darslarda, "Batareyalar va ularning turlari. Gidravlik uzatmalar", "Robototexnika va uning inson hayotidagi o'rni", "Sodda elektronika elementlari bilan tanishish" va h.k.

So'ng amaliy mashg'ulot uchun ajratiladigan soatlarning umumiy yig'indisi aniqlanadi. Har bir amaliy mashg'ulotda o'qituvchiga darsning tashkiliy qismi va kirish instruktaji hamda darsni yakunlash uchun har bir darsning $1/4$ qismini sarflash tavsiya etiladi. Yuqoridalardan kelib chiqib o'quvchilarning o'quv yili yoki choragi davomida tegishli bo'lim bo'yicha amaliy ishlarni bajarishlari uchun qancha vaqt sarflanishi aniqlanadi.

Faraz qilaylik, birlashtirilgan sinf bo'yicha "Robototexnika asoslari" bo'limi uchun X soat rejalashtirilgan, shundan Y soati faqat nazariy darslar uchun ajratilgan vaqt bo'lsin. Demak, amaliy mashg'ulotlar uchun $X-Y$ soat vaqt ajratiladi. U holda o'quvchilarning amaliy ishlar bilan band bo'ladigan soat vaqt quyidagicha bo'ladi:

$$(X-Y) * 3/4 \text{ soat} = (X-Y) * 3/4 * 45 \text{ min} \approx 34 * (X-Y) \text{ min}$$

Bundan ko'rinadiki, bu bo'lim bo'yicha rejalashtiriladigan amaliy ishlarni o'quvchilar $(X-Y) * 3/4$ soatda bajara olishlari kerak.

Masalan, 6-sinf uchun "Robototexnika asoslari" bo'limini o'qitish uchun 16 soat ajratilgan. Dasturdagi loyiha ishlarining ro'yxati quyidagicha:

- 1) svetofor yasash;
- 2) aqlli issiqxona yasash.

Dastur asosida darslar bo'yicha tuzilgan taqvim-mavzu rejaga ko'ra 6 soatlik mavzu nazariy dars sifatida o'tiladi va bunda o'quvchilar quyidagi ma'lumotlarni o'rganadilar:

- arduino va uning kelib chiqishi;
- sohaga oid Markaziy Osiyo mutafakkirlarining qarashlari;
- arduino maqsadi va vazifalari;

- arduino turlari, arduino va uning qo'shimcha tarkibiy qismlari;
- operator, solishtirish va o'zlashtirish operatorlari.

“Robototexnika asoslari” bo‘limini o‘qitish uchun ajratilgan 16 soatda o‘quvchilar quyidagi amaliy ishlarni bajarishni o‘rganadilar:

- 1) svetodiodlarni dastur yordamida yoqish va o‘chirish;
- 2) serial funksiyasi bilan tanishish;
- 3) soat yasash;
- 4) harorat va namlikni sezadigan sensor bilan tanishish;
- 5) motorni dastur yordamida boshqarish;
- 6) servomotorni dastur yordamida boshqarish.

Ushbu bo‘limni o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning bevosita amaliy ish bilan shug‘ullanadigan vaqtlari quyidagicha vaqtni oladi:


$X = 16$ soat, $Y = 6$ soat

$(X - Y) * 3/4 = (16 - 6) * 3/4 = 7,5$ soat.

Demak, yuqoridagi amaliy ishlarning barchasini o‘quvchi 7,5 soat ichida bajara olishi kerak.

Shu tartibda har bir bo‘lim uchun o‘quv ustaxonasida bajariladigan ishlar ro‘yxatini ishlab chiqish mumkin.

Fanlarning o‘zaro bog‘liqlik rejasi



Fanlarning o‘zaro bog‘liqlik rejasida maktabda o‘qitiladigan texnologiya fanining fizika, matematika, kimyo, biologiya, chizmachilik va boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi ochib beriladi. O‘quv jarayonida fanlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanishlar katta ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda maktabda o‘qitish o‘quvchilarga mustahkam nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni berishdan tashqari ularning o‘rganilayotgan voqea-hodisalarga chuqur va har tomonlama yondashishni, olgan bilimlaridan ishlab chiqarish va mehnat hodisalarini ilmiy asosda tushuntirib berish, mustaqil ravishda bilimlarga ega bo‘lish uchun foydalana olishlarini ta’minlashi kerak¹.

Texnologiya fani, maktabda o‘qitiladigan fan sifatida, o‘quvchilarning umumta’lim fanlaridan olgan bilimlarini amalda qo‘llashni o‘rganishlari uchun

¹ Организационно-педагогические проблемы повышения профессионального мастерства учителя.
<http://elibrary.ru/tem.asp?id=32530297>

cheksiz imkoniyatlar yaratadi. Ta'limni to'g'ri yo'lga qo'yish orqali o'quvchilarga tabiat qonunlari bilan ularning turmushda namoyon bo'lishi o'rtasidagi obyektiv mavjud bo'lgan bog'lanishlarni ko'ra olishlariga yordam berish kerak. Masalan, texnologiya fani o'qituvchisi maktabda texnologiya darsining nazariy qismida tayyorlanishi kerak bo'lgan buyum haqida tushuncha berar ekan dastlab bu buyumning inson hayotidagi ahamiyati, qayerda va qachon ishlashi, uning hayotiy zarurati haqida ma'lumot berib, tayyorlanadigan buyumning shakli va hajmini tushuntirishda geometrik bilimlar, o'lchov birliklarini olishda matematik bilimlar, texnologik xaritasini chizishda chizmachilik sohasidagi, buyum yasash uchun tanlab olingan materiallarning bikrligini aniqlashda fizik, materiallarning chidamliligini aniqlashda kimyoviy, biologik bilimlarga ega bo'lgan mutaxassis sifatida o'quv materialini o'quvchilarning tegishli fanlardan olgan bilimlari bilan bog'lagan holda kerakli bilimlarni yetkazishga harakat qiladi.

Biroq fanlararo aloqa bir tomonlama jarayon emas. Shuning uchun boshqa umumta'lim fanlaridan dars beruvchi fan o'qituvchilari ham o'quvchilarning texnologiya fani bo'yicha olgan amaliy tajribalaridan o'z fani bo'yicha o'rganilayotgan mavzularni kengroq tushuntirish maqsadida uchun foydalanishlari kerak.

Maktabda fanlarning o'zaro bog'liqlik rejasini ishlab chiqishda umumta'lim fanlaridan texnologiya, fizika, matematika, kimyo, biologiya, geografiya, chizmachilik va boshqa fanlardan dars beradigan o'qituvchilarning ishtirok etishi rejaning puxta tayyorlanishida muhim rol o'ynaydi. Ularning har biri o'z fanining mazmunini sinchiklab tahlil qilish asosida o'quv materialining boshqa fanlar bilan bog'lanishiga oid aniq misollar taklif etadi. Bu takliflar muhokama qilinib, ularga tegishli aniqliklar kiritiladi va fanlarning o'zaro bog'liqlik rejasiga kiritiladi, unda har bir fanga oid u yoki bu mavzuni o'rganish muddatlari ko'rsatiladi.

Fanlarning o'zaro bog'liqlik rejasining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi o'quvchilarning texnologiya fani bo'yicha tayyorgarligining yuqori darajada bo'lishini ta'minlash bilan birga ularning umumiy bilim doirasining kengayishiga zamin yaratadi.

Dars rejasi va uning bayon qilinishi. Dars rejasi o'qituvchi tomonidan namunaviy o'quv dasturi va taqvim-mavzu reja asosida tuziladigan asosiy o'quv-rejalashtirish hujjatlaridan biri hisoblanadi. Unda quyidagilar aks ettiriladi:

- darsning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari;
- o'qitish va tarbiyalash masalalari;
- darsda foydalanidigan jihozlar, shakl, metod va vositalar;
- darsning tarkibi va bosqichlari, har bir bosqichga ajratilgan vaqt;
- o'qituvchi tomonidan izohlanadigan o'quv materialining ketma-ketligi va uning mazmuni;

mustaqil ishlarning xarakteri va mazmuni;
uyga beriladigan topshiriqlar va boshqalar.

Dars rejasi tanlangan shakl va metodlar asosida darsni qanday tashkil etish, uning tuzilishi va mazmuni qanday izchillikda amalga oshirilishini ko'rsatuvchi hujjat hisoblanadi. Dars rejasi o'qituvchi tomonidan har bir dars uchun alohida-alohida ishlab chiqiladi va maktab direktorining o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari tomonidan har bir darsdan oldin tasdiqlanadi. Dars rejasining tuzilishi nazariy dars, amaliy mashg'ulot, aralash va ekskursiya mashg'ulotlari bo'yicha bir-biridan keskin farq qiladi.

Ta'lim-tarbiyaning birlamchi asosi dars hisoblanadi. O'qituvchilarning asosiy vazifasi o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan o'quv dasturi asosida darsni tashkil etish va didaktikaning barcha tamoyillaridan kelib chiqib, bir qator pedagogik usullardan va o'qitishning texnik vositalaridan foydalangan holda tegishli nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

Dars bu, sinfda aniq maqsadlarni ko'zlab, belgilangan vaqt oralig'ida bir xil yoshdagi o'quvchi-yoshlar bilan o'qituvchi rahbarligida olib boriladigan o'quv-tarbiya jarayonining tashkil etilishidir.

Darsning maqsadi, mazmuni, hajmi Davlat ta'lim standartlari (o'quv reja va dasturi hamda darslik) asosida belgilanadi. O'qituvchi uchun dars jarayonida quyidagilarga rioya qilishi shart:



Dars ilmiy, tizimli, tushunarli, o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini e'tiborga olgan holda tashkil etilishi shart.

Pedagogika fani dars oldida quyidagi bir qator didaktik talablarni qo'yadi:

Pedagogika fani dars oldida qo'yiladigan didaktik talablar

- har bir dars aniq maqsadni ko'zlagan holda puxta rejalashtirilishi yoki loyihasi tuzilishi, o'qituvchi darsning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarini belgilab olishi, dars bosqichlarini, ya'ni qanday boshlash, yangi materiallarni qanday o'tish, qanday tamomlash, ko'rgazmali va boshqa didaktik materiallardan qanday foydalanish kabilarni oldindan hal qilib olishi;
- har bir dars g'oyaviy izlanishga ega bo'lishi;
- har bir dars maktabning ijtimoiy muhit imkoniyatini hisobga olgan holda amaliyot bilan bog'lanishi, ko'rgazmali vositalar bilan jihozlanishi;
- har bir dars mavzuga mos usul va uslublardan samarali foydalanilgan holda tashkil etilishi;
- dars uchun ajratilgan vaqt va uning daqiqalaridan tejamkorlik va unumli foydalanish;
- dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'zaro faol munosabatda bo'lishi, o'quvchi passiv tinglovchiga aylanmasligi;
- o'tilayotgan mavzuning mazmuniga bog'liq holda mustaqil O'zbekistonda ro'y berayotgan o'zgarishlardan o'quvchilarni xabardor etish lozim.
- Darsning mazmuni va xarakteriga qarab xalqimizning boy ma'naviy merosidan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Darsning butun sinf bilan va har bir o'quvchi bilan, ularning shaxsiy xususiyatlarini e'tiborga olgan holda olib borilishi yuqori samara beradi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi¹. Dars rejasi va uning bayon qilinishi o'qituvchining darsga tayyorgarligini ko'rsatuvchi hujjat hisoblanadi. Darsning bayoni mavzu ishlanmasida o'z aksini topadi. Mavzu ishlanmasi dars rejasida ko'rsatilgan izchillikda yozilgan bo'lib, unda o'quvchilarga yetkazilishi zarur bo'lgan asosiy tushunchalar, jadval, sxema va chizmalar hamda esda saqlab qolish nisbatan qiyin bo'lgan ma'lumotlar aks ettiriladi². Bunda o'quv dasturida ko'rsatilgan me'yordan chetga chiqib ketmaslik lozim.

Har bir o'qituvchi darsga tayyorlanmasdan turib kirishga vijdoni yo'l qo'ymasligi, tayyorlanmasdan (dars ishlanmasisiz) kirgan darsi yaxshi samara bermasligini tushunishi lozim.

Mavzu ishlanmasining tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- I. Sana, sinf, fan nomi.
- II. Darsning mavzusi.
- III. Darsning maqsadlari:

¹ Muslimov N.A., Sharipov Sh.S., Qo'ysinov O.A. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014.

² Teshaboyev Z.A. "Mavzuning innovatsion ishlanmasi" ta'lim sifati va samaradorligining muhim omili. – Farg'ona, "Dono nashriyoti: MCHJ, 2022.

- a) darsning ta'limiy maqsadi;
- b) darsning tarbiyaviy maqsadi;
- d) darsning rivojlantiruvchi maqsadi.

IV. Darsning turi.

V. Darsda foydalaniladigan metodlar.

VI. Darsda foydalaniladigan jihozlar va qo'shimcha metodik materiallar.

VII. Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism (darsni tashkil qilish).
2. O'tgan darsni so'rash va baholash.
3. Yangi mavzuni bayon qilish.
4. Yangi o'tilgan mavzuni mustahkamlash va baholash.
5. Darsni yakunlash (xulosalash) va uyga topshiriq berish¹.

Darsga qo'yilgan maqsad 45 daqiqa davomida bajariladigan (erishiladigan), aniq hayotiy (real) va dars yakunida baholanadigan (o'lchamli) bo'lishi maqsadga muvofiq.

Darsning ta'limiy maqsadi dars jarayonida o'quvchilarda shakllantiriladigan bilim, ko'nikma va malakalar asosida belgilanadi.

Darsning tarbiyaviy maqsadi dars jarayonida o'quvchilarda qaysi axloqiy sifatlar shakllantirilishi asosida belgilanadi.


Darsning rivojlantiruvchi maqsadi dars natijasida o'quvchilarda qaysi bilim, ko'nikma va malakalar hamda axloqiy fazilatlar rivojlantirilishi asosida belgilanadi.

Dars bolalarga bilim berish va berilgan bilimni ularning ko'nikmasiga aylantirishda asosiy rol o'ynaydi. Shu sababli o'quv mashg'ulotlarida ajratilgan vaqtning asosiy qismi dars o'tish uchun sarflanadi.

Ta'lim tizimida tajribadan o'tgan **dars turlari** quyidagilardan iborat:

1. Yangi bilimlarni bayon qilish va egallash darsi.
2. O'quvchilar bilim, ko'nikma, malakalarini mustahkamlash darsi.
3. Bilim, ko'nikma va malakalarni amalda qo'llash darsi.
4. Takrorlash va bilimlarni umumlashtirish darsi.
5. O'quvchilarning o'zlashtirishini nazorat qilish va baholash.

Ta'lim jarayonida eng ko'p qo'llaniladigan dars yangi bilimlarni bayon qilish va egallash darsidir. Bu darsning tuzilishi quyidagicha:



¹ https://arm.tdpushf.uz/fayl_1718_20210831.pdf

Ta'lim tizimida o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash darslari ham ko'p qo'llaniladi. Bunday darslar o'qituvchi dasturining ma'lum bir qismini, yirik mavzularni o'tib bo'lganidan so'ng uyushtiriladi. Bu dars bilimlarni oraliq nazorat orqali baholashda ham xizmat qiladi¹.

Har bir darsning muvaffaqiyati ko'p jihatdan mashg'ulotning to'g'ri tashkil etilishiga bog'liq bo'lib, bu davrda sinfning tayyorgarligini sinchiklab kuzatish, bolalarning darsni tinglashga ruhiy jihatdan tayyor ekanligini o'rganish darkor. Shundan so'ng, mahoratli pedagog fursatni qo'ldan bermay, o'quvchilar diqqatini chalg'itmay, darsning asosiy qismini boshlab yuboradi. Chunki o'quvchilarning tezlik bilan mashg'ulotga faol kirishishlari ta'minlanmasa, dars samarali o'tishi amri mahol. Dars yangi materiallarni bayon qilishga qaratilgan bo'lsa, dars mavusi e'lon qilinadi. Rejada mo'ljallangan o'quv materiali o'tib bo'lingach, u albatta yakunlanishi, xulosa chiqarilishi kerak. Dars o'qituvchi va o'quvchining ijodiy hamkorligiga asoslanishi lozim. Shundagina o'quvchilar mustaqil fikrlay oladilar, irodalari shakllanadi va nutq madaniyati rivojlanadi.

O'quv mashg'ulotlarning sinfdagi shaklidan tashqari yana qo'shimcha qator ta'lim shakllari mavjud: amaliy-tajriba mashg'ulotlar, qo'shimcha darslar, fakultativ darslar, ekskursiya kabilardir. Bular darsda berilgan bilimlarni to'ldirish, mustahkamlash, amaliyot bilan bog'lash, ko'nikma va malakalarga aylantirish uchun xizmat qiladi.

Bundan tashqari fan to'garaklari, ishlab chiqarish amaliyoti, o'yin shaklidagi mashg'ulotlardan ham foydalaniladi. Bu turdagi mashg'ulotlar o'quvchilarning darsdan olgan bilimlarini malaka va ma'naviyat darajalariga ko'tarishda asqotadi. Uzluksiz ta'limning hamma bosqichlarida ta'limning o'ziga xos tashkiliy shakllari mavjud. Jumladan ma'ruzalar, seminar va amaliy mashg'ulot kabilar shular jumlasiga kiradi. Ma'ruza o'quv jarayonining ham usuli, ham shakli hisoblanib, u orqali o'quvchilarga fan asoslarini og'zaki, uzviy va muntazam singdirishga xizmat qiladi. Ma'ruza orqali o'quvchi shu fanning mohiyatini tushunib boradi hamda mustaqil fikrlashga va ular ustida o'ylashga yo'naltiriladi². Shu sababli ma'ruza ilmiy tafakkurni rivojlantirishining o'ziga xos maktabiga aylangan. Ma'ruzani shunday o'qish lozimki, bolalarda milliy e'tiqod va milliy mafkura asoslari shakllansin. Buning uchun o'rgatuvchi har bir ma'ruzaning mazmunini hayotdagi va fandagi yangiliklar bilan boyitishi lozim. Ma'ruza ijodiy hamkorlikda tashkil qilingandagina samara beradi. Buning uchun ma'ruza jarayonida ham ta'limiy, ham tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Buning yo'llaridan biri o'qituvchi bilan o'quvchilar o'rtasida do'stona munosabatni

¹ https://arm.tdpushf.uz/fayl_1718_20210831.pdf

² Rajapov V.T., Teshaboyev Z.A., Ahmedov M.M. O'qitish jarayonida tashkiliy va innovatsion sinf-dars shakllaridan foydalanish (uslubiy tavsiyanoma). – Farg'ona, Classic, 2021.

tiklab olishdan iborat. Buning uchun esa, o'quvchilarning o'quv jarayonida ruhiy holatini hisobga olish lozim bo'ladi.

Darsda foydalaniladigan metodlar va jihozlar. Ta'limni samarali tashkil etishda darsda ma'ruza va o'qitishning boshqa shakllaridan o'rinli foydalanishlari uchun, shubhasiz, o'qituvchining pedagogik saviyasi, pedagogik madaniyati, o'z fanini puxta bilishi va o'quvchilarning psixologik holati bilan tanish bo'lishi hamda ular bilan til topa olishligi g'oyat katta ahamiyatga ega.

Dars jarayoni faqat **pedagogik usul (metod) va uslub (metodika)**lar orqali amalga oshirilib, ular darsning ajralmas qismi hisoblanadi. O'qituvchisiz va o'quvchisiz hamda o'quv dasturi va rejasiz dars o'tib bo'lmaganidek, pedagogik usul va uslublarsiz darsning samarali tashkil etilishini amalga oshirib bo'lmaydi.

Usul deganda ta'lim-tarbiya jarayonida maqsadga yetishishda qo'llaniladigan chora va tadbirlar tushuniladi. Ta'lim-tarbiya usullarining qo'llanish tartibi **uslub** deyiladi.

Darsda *an'anaviy, zamonaviy, interfaol kabi* turli xil **metodlardan** foydalanilishi mumkin. Ulardan eng yaxshisi bu o'tilayotgan mavzuning o'quvchilar tomonidan samarali o'zlashtirilishiga xizmat qiladiganidir.

An'anaviy ta'lim metodlari ma'ruza, suhbat, hikoya, amaliy-tajriba mashg'ulotlari kabilardir.

Interfaol ta'lim metodlariga "Aqliy hujum", "Klaster", "Sinkveyn", "O'zaro bir-birini baholash", "Kichik guruhlarda ishlash", "Munozara darslari", "Ishbilarmonlik o'yinlari" kabi usullar kiradi.

Zamonaviy darslar o'qitishning ilg'or pedagogik texnologiyalari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari orqali tashkil etiladi.

Darsda foydalaniladigan jihozlarga *o'qitishning texnik vositalari, ko'rgazmali va boshqa didaktik materiallar, shuningdek internet materiallari kiradi.*


O'qitishning texnik vositalariga epideaskop, kodoskop, televizor, kompyuter va boshqalardan tortib, laboratoriya va ustaxonalarining jihozlari kiradi.

Ko'rgazmali va boshqa didaktik materiallar, o'qituvchi tomonidan har bir darsga alohida tayyorlangan bo'lib, ular dars mazmunini to'la ifodalash va o'quvchilar dars mazmuniga yaxshi tushunib yetishlari uchun xizmat qiladi. Bularga har turli ko'rgazmali qurollar, turli muammoli vaziyatlarni yaratuvchi moslamalar, o'yinlar va hokazolar kiradi.

Dars jarayoni va uni tashkil etish bosqichlari. Mavzu ishlanmasini tayyorlashda o'qituvchi darsning har bir qismini e'tiborga olishi maqsadga muvofiq¹.

Ma'lumki, **dars jarayoni**, asosan quyidagi qismlardan iborat:

¹ Teshaboyev Z.A. "Mavzuning innovatsion ishlanmasi" ta'lim sifati va samaradorligining muhim omili. – Farg'ona, "Dono nashriyoti: MCHJ, 2022.



Tashkiliy qism (darsni tashkil qilish). Dastlab dars boshida o'quvchilar bilan salomlashiladi. Dars o'tkaziladigan xonaning darsga tayyorligi: o'quv xonasi va stolining tozaligi, bo'r va namlangan lattaning borligi; o'quvchilarning formasi, kayfiyati va sog'ligi, ayrim sabablarga ko'ra darsda qatnashmayotgan o'quvchilarning ismi va shariflari yozilgan varaqchanning o'qituvchi stoliga qo'yilganligiga e'tibor beriladi. Bu ishlarga 2-3 minut sarflash tavsiya etiladi.

O'tgan darsni so'rash va baholash. Bunda uy vazifalarining to'liq bajarilganligini, ularning to'g'ri yoki noto'g'riligini tekshirish, unda yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni ko'rsatish, o'quvchilarning o'tgan dars mavzusini qanday o'zlashtirganligini aniqlash va baholash uchun 7-12 minut ajratish tavsiya etiladi. Vaqtdan unumli foydalanish maqsadida o'qituvchi zamonaviy va an'anaviy usullardan foydalanishi mumkin, xususan: a) umumiy savol-javoblar; b) 5-10 minutli mustaqil ish tashkil qilish va hokazo.

O'qituvchi darsning bu qismi yakunida uy vazifalarini tahlil qilishi, o'quvchilarning yangi mavzuni qiziqib o'rganishga tayyorlash maqsadida avvaldan tayyorlangan savollar berishi, bu bilan sinfda muammoli holat hosil qilishi maqsadga muvofiq. Yangi mavzuning bayoni so'nggida o'quvchilar muammoli savollarga javob topishlari lozim.

Yangi mavzuni bayon qilish. O'qituvchi har bir darsni darslik mundarijasidagi mavzular ketma-ketligida o'tishi lozim. Darslik mundarijasi davlat ta'lim standarti (Milliy o'quv dasturi) va o'quv dasturiga mos ravishda tuzilgan.

Har bir darsda yangi mavzu bayonini boshlashdan avval o'qituvchi doskaga mavzuning nomini va bayonining rejasini yozib qo'yishi maqsadga muvofiq.

Har bir yangi mavzu zarur ko'rgazmali qurollar yordamida bayon etilishi kerak. O'quvchilarda fanga bo'lgan muhim qiziqishni paydo qilib, uni orttirib borish uchun o'qituvchi har bir darsga jiddiy e'tibor bilan tayyorlanishi va uni qiziqarli o'tkazishga erishishi kerak. Darsning bu qismiga 17-22 minut ajratish maqsadga muvofiq.

Yangi o‘tilgan mavzuni mustahkamlash va baholash. Yangi o‘tilgan mavzuni o‘quvchilar ongiga mustahkamlash uchun o‘qituvchi maxsus tayyorlab kelgan savollarni o‘quvchilarga havola qiladi, darslikdagi har bir mavzu so‘ngiga keltirilgan misol va masalalardan tanlab yechiladi¹.

O‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlari ortib borishi uchun ular birinchi navbatda yangi mavzuni tushungan bo‘lishlari, dastlabki sodda savollarga javob bera olishlari, sinf ishi masalalarini yechishda faol ishtirok eta olishlari, o‘zlashtirgan bilimlarini amaliyotda tatbiq qila olishlari lozim.

Darsning bu qismida o‘tilganlar yuzasidan savol-javoblar tashkil etib, ba’zi savollar bilan navbatdagi darslar mavzusiga o‘quvchilarning qiziqishini, e’tiborini orttirib shunday muammoli vaziyat hosil qilish kerakki, o‘quvchilar keyingi darsgacha muammoli savollarga imkoniyat darajasida javob izlaydilar, mustaqil topa olmasalar, navbatdagi darsda topadilar. Bunday usul o‘quvchilarni mantiqiy fikrlashga, darslik va qo‘shimcha adabiyotlar bilan ishlashga undaydi.

Har bir o‘qituvchi o‘z o‘quvchilarining bunday izlanishlar va harakatlar oqibatida o‘z savol-muammolarining to‘g‘ri javobiga erishishlarida ko‘makchi bo‘lishi mumkin. Aks holda o‘quvchi bir masala yoki muammoning yechimini oxiriga yetkaza olmasa, savoliga qoniqarli javob topolmasa, fanga bo‘lgan qiziqishi ma’lum darajada pasayadi.

O‘quvchilarning dars davomidagi mehnatlari, harakatlari va izlanishlari natijalarini baholash va rag‘batlantirish hamo‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishi va e’tiborini orttirishga xizmat qiladi. Darsning bu qismiga 5-10 minut ajratish tavsiya etiladi.

Darsni yakunlash (xulosalash) va uyga topshiriq berish. Har bir dars undan xulosa chiqarish va o‘quvchilarga uyda bajarish uchun topshiriq berish bilan yakunlanadi². Dars so‘ngida uyga vazifalarni berishda o‘quvchilarga individual yondashgan ma’qul. Har bir o‘quvchining salohiyatiga qarab, sinfda ishlangan masalalarga teng kuchli topshiriqlarni berish kerak bo‘ladi. Shu bilan birga o‘quvchilarga navbatdagi darsga tayyorlash maqsadida yechimi keyingi darslarda o‘tiladigan mavzuga bog‘liq bo‘lgan, lekin biroz mantiqiy fikrlab uddalash mumkin bo‘lgan masalalarni berish ijodiy samara beradi. Agar o‘quvchi uyda savollarga mustaqil javob topa olmasa, masalalarni yecha olmasa, unda fandan zerikish paydo bo‘ladi, o‘z qobiliyatiga ishonch yo‘qola boshlaydi. Shularning oldini har bir o‘qituvchi olishi kerak.

Har bir dars so‘ngida o‘quvchilarga uyga vazifa berishda masalalarni shunday tanlash lozimki, aksariyat o‘quvchilar ularni mustaqil yecha olsinlar va ularga

¹ Teshaboyev Z.A. “Mavzuning innovatsion ishlanmasi” ta’lim sifati va samaradorligining muhim omili. – Farg‘ona, “Dono nashriyoti: MCHJ, 2022.

² https://arm.tdpushf.uz/fayl_1718_20210831.pdf

berilgan topshiriqlarni bajarishda ota-onalar ham yordam bera olsinlar. Bu o'quvchilarning o'zlariga ishonch, fanga bo'lgan qiziqishining ortib borishiga hamda maktab va oila hamkorligining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Darsni yakunlash va uy vazifasini berishda:

- a) darslikdan nimalarga e'tibor berishni, mavzuni takrorlashni;
- b) qaysi masalalarni qanday fikrlab yechish bo'yicha maslahatlar berish maqsadga muvofiq. Darsning bu qismiga 4-5 minut vaqt ajratish tavsiya etiladi. Bunda uy vazifasining me'yorini va unga o'quvchi qancha vaqt sarflashi nazarda tutilishi lozim.

O'quvchilar darslik bilan ishlashga, mustaqil mutolaa va mushohada qilishga, mantiqiy fikrlab fan tushunchalarini yuqori darajada egallashlariga erishish lozim¹.

Mavzu ishlanmasi darslik va metodik adabiyotlar hamda o'qituvchining tajribalari asosida yozilib, dars rejasi bilan bir vaqtda maktab direktorining o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari tomonidan tasdiqlanadi hamda o'qituvchi taqvim-mavzu reja va mavzu ishlanmasi bilan darsga kiradi².

O'z-o'zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar

1. Maktabda kasbga yo'llashni rejalashtirishning asosiy maqsadi nima?
2. O'quv jarayonini rejalashtirishda o'qituvchi qanday didaktik vazifalarni hal qilishi kerak?
3. Kasb tanlashga yo'llashni rejalashtiruvchi hujjatlarga qanday hujjatlar kiradi?
4. O'quv rejasi kim tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi?
5. O'quv dasturi kim tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi, unda qanday ma'lumotlar aks ettiriladi?
6. Maktab kasbga yo'naltirish xonasiga umumiy rahbarlik kim tomonidan amalga oshiriladi?
 - a) maktab direktori;
 - b) direktorning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari;
 - c) maktab direktori va uning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari;
 - d) texnologiya fani o'qituvchisi.
7. Maktab kasbga yo'naltirish ishlarini muvofiqlashtiruvchi kengashigakim raislik qiladi?
 - a) maktab direktori;
 - b) direktorning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari;

¹ Teshaboyev Z.A. "Mavzuning innovatsion ishlanmasi" ta'lim sifati va samaradorligining muhim omili. – Farg'ona, "Dono nashriyoti: MCHJ, 2022.

² Teshaboyev Z.A. "Mavzuning innovatsion ishlanmasi" ta'lim sifati va samaradorligining muhim omili. – Farg'ona, "Dono nashriyoti: MCHJ, 2022.

- c) maktab amaliyotchi psixologi;
- d) kasbga yo'naltiruvchi o'quv-metodik xona mudiri.

8. O'quv rejasi qanday hujjat?

a) ta'lim tizimidagi har bir o'quv fanining mazmuni va o'tilish tartibini, o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmini belgilab beradigan rasmiy pedagogik hujjat;

b) maktabda o'qitiladigan fanlar, ularning bo'lim(bob)lari, o'qitilish tartibi hamda har bir fanning yil davomida o'qitilishi, ularning o'quv yili va haftasida qancha miqdorda o'tilishi kerakligini belgilab beradigan rasmiy pedagogik hujjat;

c) unga kiritilgan mavzularni o'qitishning qaysi shakl va metodlar yordamida o'rgatilishi, har bir mavzu bo'yicha qaysi ishlar bajarilishi, buning uchun qanday asbob-uskunalar, jihoz va moslamalar, xomashyo, texnik-texnologik hujjatlar zarurligi, shuningdek, o'qitishning texnik vositalari, adabiyot va metodik qo'llanmalarning qaysilari zarur bo'lishi oldindan ko'rsatiladigan hujjat;

d) o'quv ustaxonasida bajariladigan ishlar ro'yxati.

9. Dars rejasi nima?

a) o'quv ustaxonasida bajariladigan ishlar rejasi;

b) darsning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari belgilanadigan hujjat;

c) o'qituvchi tomonidan namunaviy o'quv dasturi va taqvim-mavzu reja asosida tuziladigan asosiy o'quv-rejalashtirish hujjatlaridan biri;

d) har bir mavzu bo'yicha qaysi ishlar bajarilishi oldindan ko'rsatiladigan hujjat.


10. Yangi bilimlarni bayon qilish va egallash darsi tuzilishiga ko'ra necha qismdan iborat?

- a) o'n;
- b) sakkiz;
- c) olti;
- d) besh.

20-mavzu. Akademik litseylar, professional ta'lim tashkilotlari, ularning kasblar bo'yicha yo'nalishlari, bir-biridan farqi va o'xshash tomonlari

Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim hamda professional ta'lim uzluksiz ta'lim tizimidagi mustaqil ta'lim turlaridir. Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim umumta'lim o'quv dasturlarini, zarur bilim, malaka hamda ko'nikmalarni o'zlashtirishga qaratilgan.

Umumiy o'rta ta'lim bosqichlari quyidagilardan iborat:



Umumiy o'rta ta'lim tashkilotining birinchi sinfiga bolalar ular yetti yoshga to'ladigan yilda qabul qilinadi.

Professional tashxislash va kasb-hunarga yo'naltirish, shuningdek ta'lim oluvchilarni yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblarga tayyorlash tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

Umumiy o'rta ta'lim umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida uzluksiz tarzda, majburiy bo'lgan o'n bir yil davomida amalga oshiriladi.

O'rta maxsus ta'lim akademik litseylarda to'qqiz yillik tayanch o'rta ta'lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-hunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim yoki professional ta'lim yo'nalishlaridan birida – 10-11-sinflarda yoki akademik litsey yoki kasb-hunar maktabida o'qishni davom ettirish o'quvchilar tomonidan ixtiyoriy tanlanadi.

Akademik litsey davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'rta maxsus ta'lim beradi, o'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-hunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

Akademik litseylarga o'qishga qabul qilish tanlov asosida amalga oshiriladi. Ularga tanlov asosida o'qishga qabul qilish chog'ida tanlov ishtirokchilariga tanlovni o'tkazish tartibi to'g'risidagi axborot taqdim etiladi.

Akademik litseylarda o'quvchilar o'zlari tanlab olgan ta'lim yo'nalishi bo'yicha (gumanitar, texnika, agrar va boshqa sohalar) bilim saviyalarini oshirish hamda fanni chuqur o'rganishga qaratilgan maxsus kasb-hunar ko'nikmalarini o'zlarida shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu ko'nikmalarni o'qishni muayyan oliy ta'lim tashkilotlarida davom ettirish yoki kundalik faoliyatda ro'yobga chiqarishlari mumkin.

Akademik litseylarga umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini tanlab olish, o'qishga qabul qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-martdagi 212-son qarori bilan tasdiqlangan "Akademik litseylarga umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini tanlab olish, o'qishga qabul qilish, ularning o'qishini ko'chirish va o'qishdan chetlatish tartibi to'g'risida"gi nizom asosida amalga oshiriladi.

Akademik litseylarga o'quvchilarni tanlab olish O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Xalq ta'limi vazirligi bilan birgalikda belgilagan tartib asosida quyidagi bosqichlarda:

o'quvchilarning psixologik-pedagogik jihatdan rivojlanishiga tashxis qo'yish (dastlabki tanlov);

o'quvchilarni akademik litseylarga qabul qilish bo'yicha saralash imtihonlari (test sinovlari yoki ijodiy imtihonlar) orqali amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan dastlabki tanlov har yili 10-iyunga qadar umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi iqtidorli o'quvchilarni aniqlash, ularni akademik litseylarga tanlab olish maqsadida ular o'rtasida psixologik-pedagogik tashxis qo'yish usullaridan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Dastlabki tanlovdan o'tgan o'quvchilarni akademik litseylarga o'qishga qabul qilish uchun saralash imtihonlari tashkil etiladi.

Dastlabki tanlovdan o'tgan o'quvchilar, ularning ota-onasi yoki ota-onasining o'rnini bosuvchi shaxslarning saralash imtihonlariga qatnashish haqidagi arizalari Maslahat kengashi tomonidan har yili 20-iyundan 30-iyunga qadar qabul qilinadi. Bunda o'quvchilar, ularning ota-onasi yoki ota-onasining o'rnini bosuvchi shaxslar Maslahat kengashiga tegishli hujjatlarni taqdim etadi.

Saralash imtihonlari shakliga ko'ra ijodiy imtihonlar yoki test sinovlari tarzida tashkil etiladi.

Ixtisoslikning xususiyatidan kelib chiqib ayrim ta'lim yo'nalishlarida 3 ta umumta'lim fanidan ko'p bo'lmagan fanlardan ijodiy imtihonlar o'tkaziladi. Ijodiy imtihonlar og'zaki, yozma ish, insho, bayon, diktant shaklida bo'lishi mumkin. Akademik litseyning ayrim ta'lim yo'nalishlari xususiyatlaridan kelib chiqib 3 ta umumta'lim fanidan test sinovlari o'tkaziladi.

Akademik litseylarga o'qishga qabul qilingan o'quvchilar ro'yxati saralash imtihonlari natijalariga asosan O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha davlat komissiyasi tomonidan belgilangan qabul kvotasiga muvofiq shakllantiriladi.

Akademik litseyga o'qishga qabul qilingan o'quvchilarning 9-sinfni tamomlaganlik to'g'risidagi hujjatning asl nusxasini taqdim etish uchun akademik

litsey tomonidan o'quvchi tahsil olgan umumiy o'rta ta'lim maktablariga so'rov yuboriladi.

Akademik litseyga o'qishga qabul qilingan o'quvchilarni akademik litseyga o'qishga qabul qilish to'g'risida akademik litsey direktorining tegishli buyrug'i har yili 30-iyulga qadar rasmiylashtiriladi va buyruq nusxasi uch kun muddatda tegishli oliy ta'lim muassasasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasiga taqdim etiladi.

Akademik litseylar bitiruvchilarining oliy ta'lim muassasasiga o'qishga kirishi ko'rsatkichlariga muvofiq tizimida akademik litseylar mavjud bo'lgan tegishli oliy ta'lim muassasalarining rektorlari, akademik litseylar bilan ishlash bo'yicha tegishli prorektorlar hamda akademik litseylarning direktorlari, mas'ul xodimlari va professor-o'qituvchilariga nisbatan rag'batlantirish yoki intizomiy jazo choralari ish beruvchi tomonidan qo'llaniladi. Bunda:

1) akademik litsey bitiruvchilarining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish darajasi 80 foizdan ortiq bo'lganda tegishli oliy ta'lim muassasalari rektorlari, akademik litseylar bilan ishlash bo'yicha tegishli prorektorlar, akademik litseylar direktorlari, o'quvchilari yuqori natija ko'rsatgan yo'nalishda dars mashg'ulotlarini tashkil etgan barcha professor-o'qituvchilarga keyingi o'quv yilining 1-yanvaridan boshlab o'quv yili yakuniga qadar ularning ish haqiga qo'shimcha ravishda 50 foiz miqdorida ustama haq oliy ta'lim muassasalarining oshirilgan to'lov-kontrakt tushumlari hisobiga amalga oshiriladi;

2) akademik litsey bitiruvchilarining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish darajasi:

70 foizdan 80 foizgacha bo'lganda bir oylik lavozim maoshining 15 foizi miqdorida;

60 foizdan 70 foizgacha bo'lganda bir oylik lavozim maoshining 20 foizi miqdorida;

50 foizdan 60 foizgacha bo'lganda bir oylik lavozim maoshining 25 foizi miqdorida;

50 foizgacha bo'lganda bir oylik lavozim maoshining 30 foizi miqdorida bir martalik jarima qo'llaniladi.

Belgilangan intizomiy jarimalar 2018/2019 o'quv yili yakunidan boshlab akademik litsey bitiruvchilarining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishi darajasiga muvofiq tegishli oliy ta'lim muassasalari rektorlari, akademik litseylar bilan ishlash bo'yicha tegishli prorektorlar hamda akademik litseylarning direktorlari, o'quvchilari o'qishga kirmagan yo'nalishda dars mashg'ulotlarini tashkil etgan barcha professor-o'qituvchilariga (xizmat ko'rsatuvchi va texnik xodimlar bundan mustasno) nisbatan qo'llaniladi.

Kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlar professional ta'lim muassasalari toifasiga kiradi. Professional ta'lim egallanadigan kasb va mutaxassislik bo'yicha quyidagi darajalarni o'z ichiga oladi:



2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'rida"gi Qonun kuchga kirguniga qadar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (to'qqiz yillik umumiy o'rta va uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi) olgan fuqarolar ham o'rta professional va o'rta maxsus professional ta'lim olish huquqiga ega.

Kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlar ta'lim oluvchilarning o'zi tanlagan kasbga va mutaxassislikka ega bo'lishini ta'minlaydi:

Kasb-hunar maktablari	<ul style="list-style-type: none"> Xalqaro tasniflagichning 3-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida 9-sinf bitiruvchilarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan boshlang'ich professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta'lim muassasalari hisoblanadi
Kollejlari	<ul style="list-style-type: none"> Xalqaro tasniflagichning 4-darajasigacha mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlaydigan vazirliklar va idoralar tizimida faoliyat ko'rsatadigan ta'lim muassasalari hisoblanadi
Texnikumlar	<ul style="list-style-type: none"> Xalqaro tasniflagichning 5-darajasigacha mos keluvchi va oliy ta'lim tizimi bilan integratsiyalashgan ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlaydigan hamda oliy ta'lim muassasalari huzurida faoliyat yuritadigan ta'lim muassasalari hisoblanadi

Fuqarolar shartnoma asosida ikkinchi va undan keyingi professional ta'limni olish huquqiga ega.

Professional ta'lim muassasasi o'z tarkibida:

- filiallar, kafedrlar, bo'limlar, o'quv xonalari va laboratoriyalar;

- o‘quv va o‘quv-ishlab chiqarish ustaxonalari va xo‘jaliklari, texnoparklar, o‘quv maydonchalari (poligonlar), yotoqxonalar;
- umumiy ta‘lim dasturlarini, professional ta‘lim dasturlarini amalga oshiruvchi tarkibiy bo‘linmalar;
- ta‘lim jarayoni bilan bog‘liq boshqa tarkibiy bo‘linmalarga ega bo‘lishi mumkin.

Professional ta‘lim muassasalarida tabaqalashtirilgan ta‘lim dasturlari doirasida professional ta‘lim beriladi, o‘quvchilarning kasbiy moyilliklari, mahorati va ko‘nikmalarining rivojlanishi, tanlangan kasblar yoki mutaxassisliklarga ega bo‘lishi ta‘minlanadi¹.

Professional ta‘lim muassasalari hududlarning demografik, ijtimoiy-iqtisodiy va geografik sharoitlarini, mehnat bozorining tegishli soha mutaxassislariga bo‘lgan talabini, manfaatdor vazirliklar va idoralarning kadrlarga bo‘lgan ehtiyoji hamda oliy ta‘lim tizimi bilan integratsiyalashgan ta‘lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlashni hisobga olgan holda tashkil etiladi.

Kollejlar va texnikumlarda kunduzgi, sirtqi va kechki ta‘lim shakllari joriy etiladi.

Ta‘lim shakllari Vazirlik tomonidan tizimida professional ta‘lim muassasalari bo‘lgan vazirliklar, idoralar, xo‘jalik birlashmalari va yirik korxonalar bilan kelishgan holda belgilanadi.

Sirtqi va kechki ta‘lim shakllarini tashkil etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Professional ta‘lim muassasalarida qo‘shimcha kasblar va mutaxassisliklar bo‘yicha kvalifikatsiyalarni egallash, jumladan, traktorchi, kombayn operatori, “B” yoki “BC” toifadagi milliy haydovchilik guvohnomalarini va shu kabilarni olish istagidagi aholining turli qatlamlari uchun o‘qitish muddati 6 oydan oshmagan intensiv va qo‘shimcha o‘quv kurslari tashkil etilishi mumkin.

Mazkur o‘quv kurslari bitiruvchilariga belgilangan tartibda tashkil etilgan imtihonlarni muvaffaqiyatli yakunlaganidan so‘ng kelgusida kundalik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqini beradigan davlat namunasidagi sertifikat yoki guvohnoma beriladi.

Professional ta‘limning tayyorlov yo‘nalishlari, kasblar va mutaxassisliklar ro‘yxati Vazirlik tomonidan tasdiqlanadigan professional ta‘limning tayyorlov yo‘nalishlari, kasblar va mutaxassisliklar klassifikatori asosida belgilanadi.

Professional ta‘lim muassasalari kasblar va mutaxassisliklar bo‘yicha o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish ishlarini tizimli ravishda tashkil etadilar².

¹ https://anyut/?page_id=324

² https://anyut/?page_id=324

Umumta'lim maktablarida kasbga yo'naltirish bo'yicha tadbirlar Xalq ta'limi boshqaruv hududiy organlari bilan hamkorlikda tashkil etiladi.

O'quvchilar o'qitish kurslari bo'yicha guruhlariga, o'qitish yo'nalishi bo'yicha esa – bo'limlarga hamda texnikumlarda kafedralarga birlashtiriladi.

O'quvchilarni professional ta'lim muassasalarida o'qitish professional ta'lim tizimining ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasi bilan o'zaro hamkorligi asosida quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

professional ta'lim muassasalari o'quvchilarining korxonalarda tizimli asosda ishlab chiqarish amaliyotini o'tashi uchun shart-sharoitlar yaratish, ish beruvchilarni o'quv jarayoniga, kasblar va mutaxassisliklar bo'yicha davlat ta'lim standarti, malaka talablari, o'quv reja va dasturlarini ishlab chiqishga jalb etish;

professional ta'lim sohasida o'tkazilgan ilmiy izlanishlar natijalarini professional ta'lim muassasalarida tajriba-sinovdan o'tkazish ishlarini tashkil etish;

ish beruvchilar bilan birga ishlab chiqarish uchastkalari, qo'shma va unitar korxonalar tashkil etish asosida malakali kadrlarni tayyorlashning dual tizimini rivojlantirish;

tashkil etilgan ishlab chiqarish uchastkalari, qo'shma va unitar korxonalarda o'quvchilarni tovar mahsulotlar ishlab chiqargan holda kundalik faoliyatga va ishlab chiqarish jarayoniga faol jalb etish;

professional ta'lim muassasalari bitiruvchilariga bitiruv malakaviy ishlari mavzularini taklif etish jarayoniga korxona, tashkilot va boshqa ish beruvchilarni jalb qilish hamda ushbu bitiruv malakaviy ishlarida erishilgan natija va yechimlarni yoki ijrochi-bitiruvchilarning o'zlarini bunday loyihalarni joylarda amalga oshirishda ishtirokini ta'minlash;

ishlab chiqarish ta'limi ustalari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash jarayonlari bevosita ishlab chiqarishda amalga oshirilishiga erishish, ishlab chiqarishdagi malakali mutaxassislar – ishlab chiqarish vakillarini ta'lim jarayoniga jalb etish.

Professional ta'lim muassasasida ta'lim dasturlarini muvaffaqiyatli bitirgan o'quvchiga davlat namunasidagi diplom beriladi.

Ushbu diplom olingan bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llash huquqini beradi.

Oldin ta'lim olgan kasb yoki mutaxassislik doirasida qo'shimcha kvalifikatsiyalarni o'zlashtirgan shaxslarga belgilangan namunadagi guvohnoma yoki sertifikatlar beriladi.

Bitiruvchilarga belgilangan tartibda tegishli razryadlar belgilanadi.

Boshlang'ich professional ta'lim bosqichidagi ta'lim dasturlari bo'yicha kadrlar tayyorlashga ixtisoslashgan kasb-hunar maktablari Vazirlik tizimida bo'ladi¹.

Boshlang'ich professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlash umumta'lim muassasalarining 9-sinf bitiruvchilari hisobidan shakllantirilgan guruhlarda 2 yillik umumta'lim va mutaxassislik fanlarining integratsiyalashgan dasturlariga asosan kasb-hunar maktablarida amalga oshiriladi.

O'quvchilar kasblarning murakkabligidan kelib chiqqan holda bir yoki bir nechta kvalifikatsiyalarni o'zlashtirishiga mo'ljallangan 2 yillik boshlang'ich professional ta'lim dasturlari asosida ta'lim oladilar.

Boshlang'ich professional ta'lim dasturlari kunduzgi ta'lim shaklida tashkil etiladi.

Umumta'lim fanlari qoidaga ko'ra kasblarning xususiyatlaridan kelib chiqib qisqartirilgan holda malaka talablari va o'quv rejalariga kiritiladi.

O'quv rejalariga o'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi qo'shimcha fanlar ham kiritilishi mumkin.

O'quv rejasidagi o'quv yuklamasining taqsimoti tegishli kasbning xususiyatlaridan kelib chiqib belgilanadi.

Kasblarning xususiyatlari hamda ularni o'qitish uchun belgilangan soatlar hajmidan kelib chiqqan holda o'quvchilarni ikki yil davomida amalga oshirilgan ta'lim dasturida ikki yoki undan ko'p kvalifikatsiyalarga o'qitish yo'lga qo'yilishi mumkin.

O'quv yuklamalari umumta'lim, kasbiy (umumkasbiy va maxsus) fanlar va amaliyotlar bloklari bo'yicha taqsimlanadi.

O'qishning normativ muddati ikki yil bo'lgani holda o'quv jarayoni 94 hafta davom etadi.

Kasb-hunar maktabida asosiy ta'lim bosqichidan tashqari to'lov-kontrakt asosida qo'shimcha ta'lim xizmatlari ko'rsatilishi mumkin.

Bunda kasb-hunar maktabining o'quvchilarni qabul qilish imkoniyatlari, moddiy-texnik bazaning yaratilganligi, o'qituvchi va ishlab chiqarish ta'limi ustalar ta'minoti va o'qish istagidagi shaxslarning mavjudligi hisobga olinadi.

Kasb-hunar maktablarida kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yilgan kasblar doirasida to'lov-kontrakt asosida qo'shimcha kvalifikatsiyalarni o'zlashtirish istagidagi shaxslarning o'qitish muddatlari oldingi ta'lim olgan dasturlarni ko'rib chiqqan holda kasblarning o'quv rejasida mazkur kvalifikatsiyalarni o'zlashtirish uchun ajratilgan soatlardan kelib chiqib belgilanadi.

¹ https://anyut/?page_id=324

Boshlang'ich professional ta'lim dasturlarini muvaffaqiyatli tamomlagan va davlat namunasidagi diplom olgan bitiruvchilar mazkur diplom asosida oliy ta'lim muassasalarida ta'limni davom ettirish uchun hujjat topshirishlari mumkin¹.

O'rta professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlash asosan vazirliklar va idoralar tizimida faoliyat ko'rsatadigan kollejlarda amalga oshiriladi va ular tegishli ravishda vazirliklar va idoralarning idoraviy bo'ysunuvida bo'ladi.

O'rta professional ta'lim dasturlarida o'quvchilar to'lov-kontrakt yoki davlat buyurtmasi bo'yicha davlat granti asosida ta'lim olishlari mumkin.

O'rta professional ta'lim darajasida kadrlar tayyorlash Xalqaro tasniflagichning kamida 3-darajasiga mos ta'lim dasturlarini tamomlagan yoki umumiy o'rta ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar hisobidan "Hayot davomida ta'lim olish" prinsipi asosida kasblar va mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda 2 yilgacha muddatda tashkil etiladi.

O'rta professional ta'lim dasturlarining davomiyligi kasblar va mutaxassisliklarning murakkablik darajasidan kelib chiqqan holda tabaqalashtiriladi.

Professional ta'limning tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va mutaxassisliklar klassifikatorida kasblar va mutaxassisliklarning o'qitish muddatlari belgilanadi.

"Hayot davomida ta'lim olish" prinsipi asosida kasb yoki mutaxassislik doirasida qo'shimcha kvalifikatsiyalarni o'zlashtirish istagidagi shaxslarni o'qitish muddatlari oldingi ta'lim olgan dasturlarni ko'rib chiqqan holda kasblar va mutaxassisliklarning o'quv rejasida mazkur kvalifikatsiyalarni o'zlashtirish uchun ajratilgan soatlardan kelib chiqib belgilanadi².

O'quv yuklamalari kasbiy (umumkasbiy va maxsus) fanlar va amaliyotlar bloklari bo'yicha taqsimlanadi.

O'qishning normativ muddati ikki yilgacha bo'lgani holda o'quv jarayoni 22-94 hafta davom etishi zarur.

Sirtqi va kechki ta'lim shakllarining o'qitish davomiyligi kunduzgi ta'lim shaklidagi muddatlardan farqlanishi mumkin.

O'rta maxsus professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlash asosan oliy ta'lim muassasalari huzurida faoliyat ko'rsatuvchi texnikumlarda amalga oshiriladi va ular tegishli ravishda oliy ta'lim muassasalari, vazirliklar va idoralarning idoraviy bo'ysunuvida bo'ladi.

O'rta maxsus professional ta'lim darajasida kadrlar tayyorlash Xalqaro tasniflagichning kamida 3 yoki 4-darajasiga mos ta'lim dasturlarini tamomlagan yoki umumiy o'rta ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar hisobidan "Hayot davomida

¹ https://anyut/?page_id=324

² https://anyut/?page_id=324

ta'lim olish" prinsipi asosida kasblar va mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda 2 yildan kam bo'lmagan muddatda tashkil etiladi.

O'rta maxsus professional ta'lim dasturlari oliy ta'lim muassasalarining tegishli yo'nalishlari ta'lim dasturlari bilan integratsiyalanadi. Ta'lim dasturlarining davomiyligi mutaxassisliklarning murakkablik darajasidan kelib chiqqan holda tabaqalashtiriladi.

Professional ta'limning tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va mutaxassisliklar klassifikatorida mutaxassisliklarning o'qitish muddatlari belgilanadi.

"Hayot davomida ta'lim olish" prinsipi asosida mutaxassislik doirasida qo'shimcha kvalifikatsiyalarni o'zlashtirish istagidagi shaxslarning o'qitish muddatlari oldingi ta'lim olgan dasturlarni ko'rib chiqqan holda mutaxassisliklarning o'quv rejasida mazkur kvalifikatsiyalarni o'zlashtirish uchun ajratilgan soatlardan kelib chiqib belgilanadi¹.

O'rta maxsus ta'lim dasturlarini muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarning oliy ta'lim muassasalarida to'lov-kontrakt asosida o'qishini davom ettirishi tartibi, agar qonunchilik hujjatlarida boshqacha holatlar ko'zda tutilmagan bo'lsa, Vazirlik tomonidan tasdiqlanadi.

Sirtqi va kechki ta'lim shakllarining o'quv rejasi va dasturlari buyurtmachilarning takliflari asosida professional ta'lim muassasalari tomonidan ishlab chiqiladi.


Sirtqi va kechki ta'lim shakllarining o'qitish davomiyligi kunduzgi ta'lim shaklidagi muddatlardan farqlanishi mumkin.

Kasb-hunar maktablarida boshlang'ich professional ta'lim dasturlari asosida ta'lim olayotgan o'quvchilar O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida oylik stipendiya hamda uch mahal ovqat bilan ta'minlanadi.

Kasb-hunar maktablarida o'quvchilarni uch mahal ovqatlantirish uchun zarur shart-sharoitlar mavjud bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti hisobidan o'quvchilarni uch mahal ovqat bilan ta'minlash autsorsing shartlari asosida amalga oshiriladi. Professional ta'lim muassasalarida autsorsing usulida ovqatlantirishni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Kam ta'minlangan oilalardan o'quvchilar kollejlarda va texnikumlarda ta'lim olishlari, belgilangan tartibda bepul amalga oshiriladi².

¹ https://anyut/?page_id=324

² https://anyut/?page_id=324



Kasb-hunar maktabida o'quvchilar o'qitish kurslari va tili bo'yicha guruhlariga, o'qitish yo'nalishi bo'yicha esa bo'limlarga birlashtiriladi.

O'quvchilarni kasb-hunar maktabida o'qitish ta'limning fan va ishlab chiqarish bilan o'zaro hamkorligi asosida amalga oshiriladi. Kasb-hunar maktabi o'quvchilarining korxona va tashkilotlarda tizimli asosda ishlab chiqarish va malakaviy amaliyot o'tashi uchun shart-sharoitlar yaratiladi.

Kasb-hunar maktabini tamomlaganlik to‘g‘risidagi diplom egallangan bilim va kvalifikatsiyani kundalik faoliyatda amalga oshirish huquqini beradi.

Kollej o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, boshqa qonunchilik hujjatlari hamda ushbu Ustav asosida amalga oshiradi.

Tegishli vazirlik, idora va tashkilotlar kollej o‘quvchilarining kasbiy ta’lim jarayonida amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishda ko‘maklashadi, mehnat bozorida Xalqaro tasniflagichning 4-darajasiga mos keluvchi mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojni aniqlaydi, bitiruvchilarni ish bilan ta’minlash choralari ko‘radi.

Kollejlarning asosiy maqsadi:

- kadrlar tayyorlash Xalqaro tasniflagichning kamida 3-darajasiga mos ta'lim dasturlarini tamomlagan, kamida umumiy o'rta ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar hisobidan "Hayot davomida ta'lim olish" prinsipi asosida kasblar va mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda 2 yilgacha muddatda kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllarida davlat buyurtmasi hamda to'lov-kontrakt asosida kadrlar tayyorlash;
- ta'lim va kadrlar tayyorlash sifatini ta'minlash borasida sohaga doir ilmiy, metodik tadqiqotlarni olib boradi, pedagog xodimlarning ilmiy tadqiqotlar olib borishini qo'llab-quvvatlash;
- o'quvchilarni tanlagan kasb yoki mutaxassisligi bo'yicha zamonaviy talablarga javob beruvchi, puxta bilim, amaliy ko'nikma va malakaga hamda yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega bo'lgan, intellektual jihatdan yetuk kadrlar etib tayyorlash.

Kollejlarning asosiy vazifalari:

- iqtisodiyotning soha va tarmoqlarida talab yuqori bo'lgan tor doiradagi va sohaviy mutaxassisliklar bo'yicha tizimli fikrlash, ish yuritish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lgan hamda xorijiy tillarni biladigan mutaxassislar tayyorlash;
- egallagan kasbi va mutaxassisligi bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradigan, yuqori darajada sifatli bilim olishini va kasbiy tayyorgarlikni ta'minlaydigan Milliy professional va davlat ta'lim standartlari asosida ishlab chiqilgan ta'lim dasturlari bo'yicha o'qitish;
- sohadagi mutaxassislar va ishchilarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash;
- tanlab olingan kasb yoki mutaxassislik bo'yicha bir yoki bir necha ixtisoslikni egallash jarayonida o'quvchilarning kasbiy layoqat, ko'nikma va malakalarini oshirish;
- mutaxassislarni tayyorlash tizimi va mazmunini jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat va zamonaviy innovatsion texnika yutuqlaridan kelib chiqqan holda takomillashtirish;
- o'quvchilarda vatanparvarlik, milliy o'zlikni anglash, xalqning milliy, madaniy, tarixiy an'analariga hurmat, Vatan bilan g'ururlanish va iftixor tuyg'usini shakllantirish;
- o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va usullaridan foydalangan holda kamol toptirish;
- davlat ta'lim standartlari talablariga ko'ra o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish;
- o'qituvchi, ishlab chiqarish ta'limi ustalari, ta'lim oluvchilarning sog'lig'ini muhofaza qilish, sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, ularning bilim olishi, turmushi va dam olishi uchun yetarli shart-sharoitlarni yaratish;
- ta'lim jarayoni uchun zarur moddiy-texnika, o'quv-metodik bazani yaratish va o'quv jarayoniga yuqori ish tajribasiga ega bo'lgan amaliyotchi mutaxassislarni jalb etib borish.

Kollejda:

kechki va sirtqi ta'lim shaklida o'qish muddati va semestrlar davomiyligi vakolatli davlat organlari tomonidan belgilangan me'yorlar asosida shakllantiriladi;

o'quvchilar o'qitish kurslari va tili bo'yicha guruhlariga, o'qitish yo'nalishi bo'yicha esa bo'limlarga birlashtiriladi.

O'quvchilarni kollejda o'qitish ta'limning fan va ishlab chiqarish bilan o'zaro hamkorligi asosida quyidagicha amalga oshiriladi:


kollej o'quvchilarining muassasa va tashkilotlarda tizimli asosda ishlab chiqarish va malakaviy amaliyot o'tashi uchun shart-sharoitlar yaratish;

bevosita ishlab chiqarishni modernizatsiyalash jarayonlarida ishtirok etishga qodir bo'lgan kadrlarni tayyorlash maqsadida o'quv jarayoniga innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va ishlanmalarni qo'llab, kollej hamda muassasa va tashkilotlarning o'zaro yaqin hamkorligini ta'minlash.

Kollejni tamomlaganlik to'g'risidagi diplom egallangan bilimlarni kundalik faoliyatda amalga oshirish huquqini beradi.

Texnikumlar o'quvchilarini kasbiy ta'lim jarayonida amaliy ko'nikmalarini shakllantirishda, mehnat bozorida Xalqaro tasniflagichning 5-darajasiga mos keluvchi mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojni aniqlashda, bitiruvchilarni ish bilan ta'minlashda tegishli vazirlik, idora va tashkilotlar ko'maklashadi¹.

Oliy ta'lim muassasalari texnikumlarning idoraviy bo'ysunuvidan qat'i nazar, ta'lim jarayoniga o'quv-metodik ko'maklashadi.



Texnikumda:

kechki va sirtqi ta'lim shaklida o'qish muddati va semestrlar davomiyligi vakolatli davlat organlari tomonidan belgilangan me'yorlar asosida shakllantiriladi; o'quvchilar o'qitish kurslari bo'yicha guruhlariga, o'qitish yo'nalishi bo'yicha esa bo'limlarga birlashtiriladi.

Texnikumni tamomlaganlik to'g'risidagi diplom egallangan bilimlarni kundalik faoliyatda amalga oshirish huquqini beradi.

O'rta maxsus professional ta'lim dasturlarini muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilar o'z sohasiga mos bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kirish imtihonlarisiz yakka tartibdagi suhbat orqali oliy ta'lim muassasalarida 2-kursdan o'qishni davom ettirish huquqiga ega bo'ladi.

¹ https://anyut/?page_id=324

O‘z-o‘zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar

1. Professional ta’lim qanday bo‘g‘inlarni o‘z ichiga oladi?
2. Kasb-hunar maktablari qanday vazifalar bajaradi?
3. Kollejlar kasb-hunarga tayyorlashda qanday ahamiyatga ega?
4. Texnikumlar qanday vazifalarni bajaradi?
5. Texnikumlarning bitiruvchilari qanday imtiyozga ega bo‘ladi?
6. Kasb-hunar maktablari, kollejlar va texnikumlarning bir-biridan farqi nimalarda ko‘rinadi?
7. Umumiy o‘rta ta’lim nechta bosqichdan iborat?
 - a) ikkita;
 - b) uchta;
 - c) to‘rtta;
 - d) yettita.
8. O‘rta maxsus ta’lim qayerda amalga oshiriladi?
 - a) akademik litseylarda;
 - b) kasb-hunar maktablarida;
 - c) kollejlarda;
 - d) texnikumlarda.
9. Boshlang‘ich professional ta’lim qayerda amalga oshiriladi?
 - a) akademik litseylarda;
 - b) kasb-hunar maktablarida;
 - c) kollejlarda;
 - d) texnikumlarda.
10. O‘rta professional ta’lim qayerda amalga oshiriladi?
 - a) akademik litseylarda;
 - b) kasb-hunar maktablarida;
 - c) kollejlarda;
 - d) texnikumlarda.
11. O‘rta maxsus professional ta’lim qayerda amalga oshiriladi?
 - a) akademik litseylarda;
 - b) kasb-hunar maktablarida;
 - c) kollejlarda;
 - d) texnikumlarda.
12. Kimlar kirish imtihonlarisiz yakka tartibdagi suhbat orqali oliy ta’lim muassasalarida 2-kursdan o‘qishni davom ettirish huquqiga ega bo‘ladi?
 - a) o‘rta maxsus ta’lim dasturlarini muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilar;
 - b) o‘rta maxsus professional ta’lim dasturlarini muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilar;

c) o'rta professional ta'lim dasturlarini muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilar;

d) boshlang'ich professional ta'lim dasturlarini muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilar.

21-mavzu. Kasb-hunarga tayyorlash jarayonida yoshlar ongiga vatanparvarlik, insoniylik tuyg'ularini singdirish

Har bir kishi kasb-korini mukammal bilmog'i, yaxshi tarbiya olmog'i va yaxshi xulq-atvor, fazilatlarga ega bo'lmog'i lozim. Odamlarga nisbatan ularni birlashtiruvchi boshlang'ich asos insoniylikdir, shuning uchun o'zaro tinchlikda insoniyat turkumiga kirganliklari sababli o'zaro tinchlikda yashamoqlari lozim.

Abu Nasr Forobiy

Tabiiyki, inson qayerda dunyoga kelsa, ana shu yer uning uchun qadrli Vatan hisoblanadi. Kindik qoni to'kilgan joy inson uchun hech narsaga alishib bo'lmaydigan, hamma narsadan ham qimmatli dargohdir.

Yoshlarni milliy g'oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga vatanparvarlik, insoniylik tuyg'ularini singdirish, qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo'lida fidokorona mehnat qilayotgan vatandoshlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo'lish tuyg'usini shakllantirish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda yoshlarni kasb-hunarga tayyorlash muhim o'rin tutadi.

2021-2022-o'quv yilidan boshlab, umumta'lim maktablari bitiruvchilarining o'z iqtidori va qiziqishiga mos kasbni tanlab olishi, mehnat bozorida munosib joy egallashi, kelgusida egallagan kasbini ozgina qiyinchiliklari uchun tashlab ketish hollarini oldini olish va kasb-hunarning qadriga yetishni o'rgatib borish maqsadida maktab ta'limida "Kasbga yo'naltirish tizimi" va o'quvchilarni kasb-hunarga tayyorlashni tashkil etish tartibi joriy etildi.

Kasb-hunarga tayyorlashning maqsadi o'quvchilarni kasb bo'yicha ijodiy fikrlaydigan, tashkilotchilik, tadbirkorlik ko'nikmalariga ega bo'lgan shaxsni tarbiyalash hamda ularning qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqib kasb-hunar tanlashda ko'maklashishdan iborat.

O'quvchilarni tashxislash va kasb-hunarga yo'naltirish maqsadida umumta'lim muassasalarida o'quvchilarning kasbga moyilligi o'rganiladi va ularni kasbga yo'naltirishda quyidagilar amalga oshiriladi:

7-sinfdan boshlab o'quvchilar o'rtasida interaktiv so'rovnomalar o'tkazilib, kasb-hunarga bo'lgan qiziqishi aniqlanadi va ularning ma'lumotlar bazasi yaratiladi. Har oyda bir marta "Kasblar olamiga sayohat" mavzusida maxsus kurslar tashkil qilinadi;

8-sinfda ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish, tanlagan kasbi bo'yicha kasb-hunarga tayyorlash markazlarida kasb o'rganish uchun o'quvchilar va ota-onalarga tavsiyalar beriladi va yo'naltiriladi. Har chorakda kamida bir marta "Mening kelajakdagi kasbim" mavzusida seminar-treninglar tashkil qilinadi;

9-sinf o'quvchilarining kasbiy moyilligi bo'yicha o'tkazilgan psixologik tashxislar natijalari asosida kelgusida aniq ishchi kasblar bo'yicha kasb-hunar maktablarida ta'lim olishi yoki kasb-hunarga tayyorlash markazlarida kasbga tayyorgarlikni davom ettirishlari uchun o'quvchilarni o'quv yili davomida muayyan kasbga yo'naltirish ishlari olib boriladi.

O'quvchi umumta'lim muassasasida ta'lim olishni davom ettirishga rozilik bildirganda, muassasaga birlashtirilgan kasb-hunarga tayyorlash markazidagi kasb turlaridan birini tanlaydi.

O'quvchilar 10-11-sinflarda o'qishi davomida qiziqishlari, ota-onasining fikri hamda umumta'lim muassasasi psixologining xulosasiga muvofiq kasb-hunarga tayyorlash markazlarida kasblarga o'qitiladi.

Bu tizimning afzalligi shundaki, o'quvchilar tizimli ravishda kasb-hunarga yo'naltirilib, ular to'g'risidagi ma'lumotlar bilan bevosita tanishtirib boriladi natijada o'quvchilarni to'g'ri xulosa qilishiga imkon yaratiladi.

Odatda o'quvchilarga qanday mashg'ulotlar o'tilmasin u darsda bo'ladimi, darsdan tashqari mashg'ulotlarda bo'ladimi, ta'lim va tarbiyaning uzviyligi ta'minlanib boradi, ta'lim berish davomida barcha holatlarda tarbiyaning turli elementlari singdirilib boriladi. Masalan, kasb tanlashga oid mavzularni tushuntirib borilayotganda albatta iqtisodiy tarbiya, estetik tarbiya, ma'naviy tarbiya, ekologik tarbiya bilan bir vaqtda vatanparvarlik tarbiyasi ham singdirib boriladi. Kasb tanlashga tavsiyalar berilayotganda hech bir kasbni kamsitishga yo'l qo'yilmaydi. Yoshlarga har bir kasbning jamiyat rivojida o'z o'rnini borligini, har bir shaxs o'z imkoniyati va qobiliyatidan kelib chiqib o'ziga mos kasbni tanlashi mumkinligi tushuntiriladi, tanlagan shu kasbi orqali Vataniga, oilasiga va o'ziga manfaat keltirishi kerakligi o'rgatib boriladi. Masalan, o'quvchilarga kasb tanlash jarayonida vatanparvarlik tarbiyasini singdirishda faqatgina harbiylashgan kasblar orqaligina vatanparvar bo'lib qolmasligini, balki barcha kasblarda mehnat qilish orqali ham vatani sevishini, unga sodiq xizmat qilishini namoyon qilishi, vatanining imkoniyatlarini ko'z-ko'z qilish mumkinligi tushuntirib o'tilishi lozim. Masalan, shunday kasb egalari borki, ular o'z vatanining imkoniyatlarini, unda yaratilgan

shart-sharoitlarni, ob-havosidan tortib, tuprog'igacha o'z kasbi bo'yicha yuksak natijalarga erishishining asosiy sabablari ekanligini g'urur bilan tilga oladi. Shunday kasb egalaridan biri Farg'ona tumanida joylashgan Shohimardonning Yordon qishlog'ida nafas yo'llari bilan kasallangan bemorlarni davolaydigan shifo maskanini bir necha yillardan buyon boshqarib kelayotgan Rustamjon Karimovdir. Rustamjon Karimov o'zi davolayotgan bemorlarga: sizlarni davolayotgan aslida men emas, Shohimardonning havosi, uning takrorlanmas tabiati deydi. Shunday shifobahsh havo faqat Shohimardonda borligini, dunyoning boshqa hech qayerida bunday shifobahsh tabiat yo'qligini aytib, shu maskanda ishlayotganidan, shunday Vatanda yashayotganidan faxrlanib gapiradi. U shu orqali o'zining Vataniga bo'lgan muhabbatini izhor etadi.



O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf esa Vatanga bo'lgan muhabbatini o'zining "Vatanim" she'rida Rimning eng go'zal shaharlarini O'zbekistonning bedapoyasiga, Parijning eng manaman degan restoranlarini vatanimizning oddiy tandiriga alishmasligini bayon etgan. Shoir shu she'ri orqali Vatanining har bir narsasi uning uchun qanchalik muqaddas ekanligini ifodalab bergan.



Butun umrini xalqi va Vataniga bahshida etgan, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan paxtakor, O'zbekiston qahramoni Oltiariq tumanidagi "Nurli Obod" fermer xo'jaligi rahbari Lolaxon Murodova paxtakorlik kasbini ulug'lar ekan Oltiariq tuprog'iga bo'lgan mehrini hech narsaga alishtirmasligini, bunday unumdor

tuproq boshqa hech qayerda yo‘qligini, dehqonchilik kasbi orqali bir inson qanday baxtga erishishi mumkin bo‘lsa, shu baxtga erishganligini faxr bilan so‘zrar ekan, oddiy fermerning bunday ulug‘lanishi faqat bizning vatanimizdagina ekanligini doimo takrorlar edi. Fikrimizning isboti sifatida Lolaxon Murodova haqida yozilgan asarlar, yaratilgan hujjatli filmlarni misol qilib keltirish mumkin:



Yana shunday oddiy kasbi orqali el ardog‘iga sazovor bo‘lgan, oddiy kasbi orqali o‘z tug‘ilgan qishlog‘ini butun dunyoga tanitgan inson, o‘zining iborasi bilan aytganda dunyo kezmagan, balki butun dunyoni o‘z uyiga olib kelgan rishtonlik kulol-rassom Tohirjon Haydarov haqida soatlab gapirishimiz mumkin.

Rishton kulolchiligida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan va o‘ziga xos maktab yaratgan “Do‘stlik” ordeni sohibi Tohirjon Haydarov haqida shoira Zulfiya Mo‘minova shunday deydi:

Derlar nimasi bor Tohir kulolning
Har kuni kaftida bir siqim tuproq
Qo‘lida ketmoni bor Tohir kulolning
Uyida oltindan qimmat ko‘zalari-yu
Va halol noni bor Tohir kulolning

Ha, kulol-rassom Tohirjon Haydarov 35 yillik kulolchilik tajribasiga ega, kulolchilik sirlarini o‘z otasidan o‘rgangan ustazoda. Uni bugun butun dunyo taniydi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki bugun uning oddiy loydan yasagan buyumlarini dunyoning barcha mamlakatlari muzey va xonadonlarida uchratish mumkin. Tohirjon Haydarovning tayyorlagan buyumlarining son-sanog‘i yo‘q. Ayniqsa O‘rta Osiyoning 1000 yillik tarixini sopol buyumlarda tasvirlagani bugungi kunda takrorlanmas san‘at asari sifatida tillarda doston.

Tohirjon Haydarovning Respublikamiz birinchi Pirezidenti Islom Karimov va hozirgi muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bilan hamsuhbat bo'lishiga aynan uning kulolchilikda erishgan yutuqlari sabab bo'lgan. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich bilan bo'lgan suhbatda “siz o'z ijod namunalariningiz bilan boshqa mamlakatlarda ko'rgazmalar tashkil etib, yurtimizni butun dunyoga tanitmaysizmi” - degan savolga “yo'q, men dunyo kezmayman, aksincha butun dunyoni qishlog'imga olib kelaman”, - deb javob beradi kulol. Ha bugun o'z uyida tashkil qilgan uy-muzeyiga dunyoning 100 dan ortiq davlatidan kelgan turistlar mehmon bo'ldilar va Rishtonning bir necha yuz yillik kulolchilik tarixi bilan tanishdilar. Ular O'zbekiston degan yurt imkoniyatlarini ko'rib havas qildilar. Tohirjon Haydarov uy-muzeyiga tashrif buyurgan turistlarning sopol buyumlarning tayyorlash tarixi haqidagi savollariga oddiygina qilib bu Rishtoncha deb javob beradi, tuprog'ini qayerdan olasiz degan savollarga Rishtondan deb, bo'yoqlarin bir bir necha yillarda ham o'z jilosini yo'qotmas ekan ularni qayerdan olasiz degan savollariga ham Rishtondan deb javob beradi. U har safar Rishtondan deganda shunday faxrlanadiki, u yurtining tuprog'idan tortib o't-o'lanishgacha foydali mahsulot ekanligini ta'riflaydi. Tohirjon Haydarov bilan suhbatlashgan har qanday inson Rishtonga kelib yashagisi keladigan taassurotga ega bo'ladi:



Tohirjon Haydarov uy-muzeyidan tashqari o'z uyida kulolchilik bo'yicha ustaxona ham tashkil etgan. U yerda yuzlab shogirdlar kulolchilik sirlarini o'rganmoqdalar. Bundan tashqari Tohirjon Haydarov o'z uyida yoshlarga nafaqat kulolchilikdan, balki barcha fanlardan saboq berish maqsadida uy kutubxonasini ham tashkil etgan inson. U ko'plab xalqaro ko'rgazmalarda tayyorlagan buyumlari bilan ishtirok etib, o'z yurtining butun dunyoga tanilishiga munosib hissa qo'shib kelyapti. Uning Vataniga bo'lgan sadoqatini, cheksiz mehrini shu aziz Vatanning o'sib kelayotgan yoshlariga qilayotgan g'amxo'rligida ham ko'rishimiz mumkin:



Kulolchilik ilmi bilan dunyoni o‘z qishlog‘iga olib kelgan Tohirjon Haydarovning farzandi Temurbek ham ota izidan borib kulolchilik ilmini o‘rganib, o‘zi yosh bo‘lsa-da, o‘zining maktabini yaratishga ulgurdi. U ham o‘z asarlarida Vatanini madh etuvchi asarlar tayyorladi, o‘zi yosh bo‘lishiga qaramay tengdoshlaridan va hamqishloqlaridan o‘nlab shogirdlar chiqarishga ulgurdi. Ularning tayyorlagan san‘at asarlari dunyoning ko‘plab vistavkalaridan o‘rin egalladi. Ustazoda Temurbekning erishgan yutuqlari uchun Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev 2021-yil 28-iyun kuni Temurbek Haydarovni “Mard o‘g‘lon” davlat mukofoti bilan taqdirladilar:



O'g'lining yutuqlarini ko'rgan Tohirjon Haydarov shu yurtda tug'ilganiga, shunday Prezidentimiz borligiga shukronalar keltiradi va erishgan yutuqlarining barchasining sababi mehr qo'ygan kasbi orqali ekanligidanligini aytib faxrlanadi. U davlatimizning orden va medallarini olish uchun janggohlarda qon kechish shart emasligini, qanday kasb bo'lishidan qat'i nazar inson shu kasbga mehr qo'yib, chin dildan faoliyat yuritsa, albatta shu kasbdan baxt topishini aytadi.

Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, o'qituvchilar yoshlarga kasb tanlash bo'yicha tushunchalar berayotganda, ularni kasb-hunarga tayyorlayotganda, albatta ularning tanlagan kasblari orqali Vatan ravnaqi, yurt manfaati yo'lida xizmat qilishlari lozimligini tushuntirib borishlari kerak bo'ladi. Bu orqali biz o'quvchi-yoshlarning kelajakda shu yurtga munosib farzand bo'lib yetishishlariga munosib hissa qo'shgan bo'lamiz.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Kasb-hunarga tayyorlashning maqsadi nima?
2. 7-sinf o'quvchilarini kasbga yo'naltirishda qanday ishlar amalga oshiriladi?
3. 8-sinf o'quvchilarini kasbga yo'naltirishda qanday ishlar amalga oshiriladi?
4. 9-sinf o'quvchilarini kasbga yo'naltirishda qanday ishlar amalga oshiriladi?
5. O'quvchilarni 10-11-sinflarda o'qishi davomida qiziqishlari, ota-onasining fikri hamda umumta'lim muassasasi psixologining xulosasiga muvofiq kasb-hunarga tayyorlash markazlarida kasblarga o'qitish tizimining afzalligi nimada?

Ushbu QR kod orqali siz zamonamiz qahramonlari faoliyati bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'lasiz:



O'z-o'zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar

1. Kasb-hunarga tayyorlash jarayonida yoshlar ongiga vatanparvarlik, insoniylik tuyg'ularini singdirishda yoshlarni kasb-hunarga tayyorlash qanday o'rin tutadi? Javobingizni asoslab bering.
2. Kasb-hunarga tayyorlashning maqsadi nimadan iborat?
3. Kasbga yo'naltirish tizimining afzalligi nimada? Javobingizni asoslab bering.
4. "Har bir kishi kasb-korini mukammal bilmog'i, yaxshi tarbiya olmog'i va yaxshi xulq-atvor, fazilatlariga ega bo'lmog'i lozim. Odamlarga nisbatan ularni birlashtiruvchi boshlang'ich asos insoniylikdir, shuning uchun o'zaro tinchlikda

insoniyat turkumiga kirganliklari sababli o‘zaro tinchlikda yashamoqlari lozim”.
Ushbu fikrlar kimning qalamiga mansub?

- a) Alisher Navoiy;
- b) Abu Ali Ibn Sino;
- c) Abu Nasr Forobiy;
- d) Zahiriddin Muhammad Bobur.

5. Mamlakatimiz maktab ta’limida “Kasbga yo‘naltirish tizimi” qachon joriy etildi?

- a) 2019-2020-o‘quv yilidan boshlab;
- b) 2021-2022-o‘quv yilidan boshlab;
- c) 2020-2021-o‘quv yilidan boshlab;
- d) 2022-2023-o‘quv yilidan boshlab.

6. O‘quvchilar qaysi davrda qiziqishlari, ota-onasining fikri hamda umumta’lim muassasasi psixologining xulosasiga muvofiq kasb-hunarga tayyorlash markazlarida kasblarga o‘qitiladi?

- a) 7-sinfdan boshlab;
- b) 8-sinfda;
- c) 9-sinfda;
- d) 10-11-sinflarda.

7. Butun umrini xalqi va Vataniga bahshida etgan, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan paxtakor, farg‘onalik O‘zbekiston qahramoni kim?

- a) Erkin Vohidov;
- b) Lolaxon Murodova;
- c) Tohirjon Haydarov;
- d) Enaxon Siddiqova.

8. O‘zining iborasi bilan aytganda dunyo kezmagan, balki butun dunyoni o‘z uyiga olib kelgan kulol-rassom kim?

- a) Chingiz Ahmarov;
- b) Tohirjon Haydarov;
- c) Ro‘zi Choriyev;
- d) Akmal Nur.

GLOSSARIY

AGRAR (lot. agrarius) – sanoatga nisbatan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi asosiy o‘rinda turishini ifodalovchi so‘z.

AGREGAT (lot. aggrego – birlashtiraman, ulayman) – 1) texnikada mashina yoki mashinalar majmuining bir xillashtirilgan, yiriklashtirilgan uzeli.

AGRO... (yun. agros – dala) – qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, o‘zi qo‘shilgan so‘z ma‘nosi dehqonchilikka oidligini bildiradi, masalan, agrobiologiya, agrotexnika, agrokimyo, agrometeorologiya va h.k.

ANKETA (fransuzcha enquete – surishtirish) – muayyan dastur bo‘yicha tuzilgan savollarga javob olish uchun beriladigan so‘rov varaqasi.

APPARAT (lot. apparatus – asbob, uskuna) – asbob, moslama, jihozlarning umumiy nomi.

ARXITEKTOR (lot. architektor – binokor, bosh usta) – turli imorat va inshootlarni me‘morlik qonun va qoidalari asosida ijod etuvchi va loyihalar ishlovchi mutaxassis.

ASBOB (arab. – sababning ko‘pligi) – biror ish bajarishda ishlatiladigan qurol.

AXBOROT – ish, voqea-hodisalar haqida tushuncha beruvchi xabar, ma‘lumot.

AXLOQ – kishilarning bir-birlariga, oilaga, jamiyatga bo‘lgan munosabatlarida namoyon bo‘ladigan xatti-harakatlari, xulq-atvorlari, odoblari majmui.

AVTOMAT (yun. automatos – o‘zi harakatlanuvchi) – ma‘lum ishdagi barcha jarayonlarni berilgan dastur bo‘yicha kishining ishtirokisiz o‘zi bajaradigan qurilma.

AVTOMAT LINIYA – mahsulot ishlab chiqarishdagi hamma amallarni ma‘lum texnologiya jarayonlariga mos tartibda avtomatik tarzda bajaruvchi mashinalar, asosiy va yordamchi jihozlar majmui.

BAHO – ta‘lim tizimida o‘quvchilarning bilimni o‘zlashtirishi, axloqi yoki ma‘lum yutuqqa erishish darajasiga qarab qo‘yiladigan ball.

BAHOLASH – o‘rganilgan o‘quv materialini konkret maqsad uchun baholash ko‘nikmasini anglatadi.

BALL (fransuzcha balle – soqqa, shar) – raqam bilan ifodalangan baho.

BELGI – moddiy, hissiy ravishda idrok etiladigan predmet, voqea yoki harakat.

BLOK (ing. block) – 1) gardishida zanjir, arqon, tasma uchun novi bo‘lgan g‘ildirak shaklidagi oddiy mexanizm yoki detal; 2) bir necha bir xil qismlardan iborat mashina uzeli; 3) qurilishda bino hajmining bir qismi.

BILIM – o‘rganilgan ma‘lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish.

BOSHQARUV – shaxs va jamiyat munosabatlarida ijtimoiy, individual munosabatlarni o‘rnatishga qaratilgan jarayon.

DARS – sinfda aniq maqsadlarni ko‘zlab, belgilangan vaqt oralig‘ida bir xil yoshdagi o‘quvchi-yoshlar bilan o‘qituvchi rahbarligida olib boriladigan o‘quv-tarbiya jarayonining tashkil etilishi.

DASTGOH – 1) ishlanadigan buyumlarni mahkam ushlab turadigan moslamalar, ba‘zan esa mexanizatsiyalashgan asboblardan b. Kerakli yaroqlar bilan jihozlangan ish stoli. Chilangarlik, duradgorlik, tunukachilik va b. dastgohlar bo‘ladi; 2) stanokning eski nomi.

DEHQONCHILIK – 1) o‘simlik mahsulotlari ishlab chiqarish uchun madaniy o‘simliklar (qishloq xo‘jaligi ekinlari)ni yetishtirish; qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlaridan biri; 2) qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirish va tuproq unumdorligini oshirishning umumiy usullarini o‘rganadigan fan.

DIALOG (yunoncha dialogos – suhbat) – nutq turi; ikkiyoki undan ortiq shaxsning bir-biriga qaratilgan nutqi.

DIZAYN (ing. design – loyiha, chizma, rasm) – narsalar muhitini estetik va funksional sifatlarini shakllantirish maqsadiga qaratilgan loyihalash faoliyati turlarini ifodalovchi atama.

DUNYOQARASH – dunyoga va insonning undagi o‘rniga, kishilarning o‘z atrofidagi voqelikka va o‘z-o‘ziga munosabatiga bo‘lgan umumiy qarashlar tizimi, shuningdek, bu qarashlarga asoslangan odamlarning e‘tiqodlari, ideallari, bilish va faoliyat tamoyillari.

DURADGORLIK – yog‘ochsozlik hunari; kasb-hunar turi. Duradgorlik uysozlik, asbobsozlik, aravasozi, qayiqsozlik, javonsozlik, eshiksozlik, beshiksozlik, egarsozlik, elaksozlik, sandiqsozlik, panjarasozi kabi juda ko‘p tarmoqlardan iborat. Duradgorlik bilan shug‘ullanuvchilar xalq orasida usta, duradgor, durezgar, najjor, eshiksoz, aravasozi, elaksoz kabi nomlar bilan ataladi. Duradgorlik tarmoqlarining hammasi uchun umumiy bo‘lgan ish jarayoni – yog‘och qirqish, tilish, yo‘nish, randalash, parmalash va h. k.

DVIGATEL – biror turdagi energiyani (masalan, suv, shamol energiyasini) mexanik energiyaga aylantirib beradigan mashina.

EHTIYOJLAR – organizm, inson shaxsi, ijtimoiy guruh, umuman jamiyatning hayot faoliyatini saqlab turish uchun zarur bo‘lgan narsalarga talab, muhtojlik. Ehtiyoj subyekt bilan uning faoliyati o‘rtasidagi bog‘lanishlarni ifoda etadi va maqsadlar, mayllar, intilishlarda va pirovardida xatti-harakatlar, fe‘l-atvorda yuzaga chiqadi.

ELEKTR (elektro...) – elektr zaryadlarning mavjudligi, harakati va ta‘siri bilan bog‘liq hodisalar majmui.

ELEKTRONIKA – fan va texnikaning elektronlar va boshqalar zaryadlangan zarralarning elektromagnit maydon hamda turli jismlar bilan o‘zaro ta’siri qonuniyatlarini o‘rganish, bu o‘zaro ta’sirdan foydalanib energiyani o‘zgartiradigan elektron asbob va qurilmalarni yaratish usullarini ishlab chiqish bilan shug‘ullanadigan sohasi.

ELEKTROTEXNIKA (elektro... va texnika) – fan va texnikaning energiyani o‘zgartirish, materiallar ishlab chiqarish hamda ularga ishlov berish, axborotlarni uzatish va boshqalar masalalarni amalga oshirishda elektr va magnit hodisalardan foydalanish bilan shug‘ullanuvchi sohasi.

ENERGETIKA – energiyani har xil turlarini hosil qilish, ularni bir turdan ikkinchi turga o‘zgartirish, muayyan masofaga uzatish va yetkazib berish, ulardan barcha sohalarda foydalanishni hamda shular bilan bog‘liq nazariy va amaliy muammolarni hal qilishni o‘z ichiga olgan xalq xo‘jaligi, fan va texnika sohasi.

FANER (fransuzcha fournir – ustma-ust qo‘ymoq) – yupqa yog‘och shponlar (qatlamlar)ni qatlam-qatlam qilib yopishtirib tayyorlangan qurilish materiali.

FAOLIYAT – kishilarning tashqi olamga faol munosabati shakli, insonning o‘zini o‘zi maqsadga muvofiq tarzda o‘zgartirish usuli, inson borlig‘ining muhim xususiyatlaridan biri.

GABARIT (fransuzcha gabarit) – binolar, vagonlar, kemalar, ko‘priklar, mashinalar, tunellar va b.ning tashqi va ichki chegaraviy qiyofasi; eng katta tashqi va ichki o‘lchamlari (uzunligi, balandligi, eni, qulochi).

GAZLAMA – arqoq va tanda iplarining o‘rilishidan hosil bo‘ladigan, pardoqlangan va ishlatishga tayyor mato.

GIDRAVLIKA (gidro... va yun. Aulos – naycha) – suyuqliklarning muvozanat va harakat shartlari qonunlarini o‘rganish va shu qonunlardan foydalanib, gidrotexnikaning amaliy masalalarni hal qilish bilan shug‘ullanadigan fan.

GIDROTEXNIKA (gidro... va texnika) – texnikaning suv resurslari (daryo, ko‘l, dengiz, okean, yer osti va atmosfera, suvlari)dan xalq xo‘jaligi ehtiyojlari uchun foydalanish va suv keltiradigan zararlarga qarshi kurashish hamda shu maqsadlar uchun ishlatiladigan gidrotexnika inshootlarini loyihalash va qurish masalalari bilan shug‘ullanadigan sohasi.

GURUH – biror jihati (belgisi, xususiyati, maqsad-g‘oyasi, faoliyati va b.) bilan o‘zaro bog‘liq yoki yaqin narsa va jonzotlar majmui.

HARAKAT – borliqning ajralmas xususiyati bo‘lgan o‘zgaruvchanlikni ifodalovchi falsafiy kategoriya. Olamdagi har qanday jarayon harakat tufayli sodir bo‘ladi. Har qanday o‘zgarish – harakatdir.

HUNAR (arabcha هنر – san‘at; bilim, ko‘nikma, mahorat, ustalik, hasb) – 1) mayyan ko‘nikma, mahorat talab qiladigan, tirikchilikning asosiy manbai

hisoblanuvchi ish, mashg'ulot, kasb; 2) biror ishdagi mahorat, san'at; mohirlik, ustalik talab etuvchi ish, xatti-harakat.

HUNARMANDCHILIK – milliy-an'anaviy mayda tovar ishlab chiqarish, oddiy mehnat qurollari yordamida yakka tartibda va qo'l mehnatiga asoslangan sanoat turi; shunday mahsulotlar tayyorlanadigan kasblarning umumiy nomi.

IMKONIYAT – voqelikning kurtak holdagi ko'rinishi, hali yuzaga chiqmagan voqelik. Imkoniyat voqelikni keltirib chiqaruvchi, rivojlanishning obyektiv va subyektiv shart-sharoitlaridan iboratdir. Imkoniyat hali amalga oshmagan, lekin yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan, voqelikka aylana oladigan hodisadir. Imkoniyatning voqelikka aylanishi rivojlanish jarayonini ifodalaydi.

INDIVIDUALLIK (lotincha individuum – bo'linmas) – muayyan narsa va hodisa, shaxs va jonivorning o'zigagina xos, betakror, xususiy belgilar.

INDIVIDUAL (YAKKA TARTIBDA) O'QITISH – pedagogning ta'lim oluvchilar bilan yakkama-yakka shug'ullanishini ta'minlovchi o'quv jarayonini tashkil etish shakli.

INVESTITSIYA (lotincha investio – o'rash) – iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida o'z mamlakatida yoki chet ellarda turli tarmoqlarga, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarga, innovatsiya, tadbirkorlik loyihalariga uzoq muddatli kapital kiritish (qo'yish). Investitsiya kapitalni muayyan muddatga bog'lashni yoki band qilishni bildiradi.

ISH – umumiy ma'noda muayyan narsani yasash, tayyorlash yoki biror yumushni bajarish uchun sarf qilinadigan mehnat, faoliyat. Mehnat, faoliyat natijasida yaratilgan mahsulot, narsa ham ish deb ataladi.

ISH O'RNI – muayyan kasbdagi bir xodimning mehnat vazifalarini amalga oshirishi uchun moslashtirilgan va ishni bajarish uchun ishlab chiqarish vositalari, mehnat qurollari bilan jihozlangan joy.

ISHLAB CHIQARISH, moddiy ishlab chiqarish – jamiyatning yashashi va taraqqiy etishi uchun zarur bo'lgan moddiy boyliklarni yaratish jarayoni.

IQTISODIY INTEGRATSIYA – turli korxona va tarmoqlarning, shuningdek, mamlakatlarning ishlab chiqarish sohasida bir-biriga yaqinlashuvi, ular o'rtasida uzviy iqtisodiy aloqalar o'rnatilishi, mamlakatlararo yagona umumiy xo'jalikning shakllanishi jarayoni.

IQTISODIYOT – kishilar tomonidan mehnatni qo'llagan holda inson uchun zaruriy bo'lgan ne'matlar, hayot sharoitlari va vositalarini yaratish orqali tirikchilikni ta'minlash, ehtiyojlarni qondirishda foydalaniladigan xo'jalik, vositalar, obyektlar, jarayonlar majmui.

JAMIYAT – kishilarning tarixan qaror topgan hamkorlik faoliyatlari majmui.

JAMOA – kishilarning qadimiy uyushuv shakli; 2) maqsadlari jamiyat maqsadiga mos keladigan umumiy faoliyat bilan birlashgan odamlar guruhi.

KASB – kishining mehnat faoliyati, doimiy mashg'uloti turi.

KASBIY TASHXIS – shaxsning individual psixologik va fiziologik xususiyatlari, yoshi, bilim darajasi, ko‘nikma va malakalarini hisobga olgan holda yakuniy tashxis qo‘yish (tashxis materiallari maxfiy hisoblanib, u faqat o‘quvchi va uning ota-onasi bilan muhokama etiladi), o‘quvchining kasbiy moyilligini aniqlash, shaxsning yo‘nalganlik darajasini baholash.

KASB TANLASH – insonning o‘z jismoniy va psixik kuchini sarf etib, yashash va rivojlanish uchun qanday kasb sohasini tanlash bo‘yicha qabul qiladigan qaroridir.

KASBGA YO‘NALTIRISH – yoshlarni kasblar olami bilan tanishtirish. Bu odamga o‘z individual qobiliyatlari va jamiyat unga taqdim etgan imkoniyatlar asosida kasb tanlashda yordam ko‘rsatishdir.

KOMMUNIKATSIYA (lot. communicatio – umumlashtiraman, bog‘layman) – 1) kibernetikada – informatsiya(axborot)larni almashish jarayoni; 2) transport, aloqa yo‘llari va shahar xo‘jaligi yer osti tarmoqlari.

KOMPANIYA (fransuzcha compagnie) – iqtisodiy faoliyat (ishlab chiqarish, savdo, vositachilik, moliya, sug‘urta va b.) olib borish uchun uyushgan yuridik va jismoniy shaxslar, tadbirkorlar birlashmasi.

KOMPETENTLIK – aniq vaziyatda kompetensiyani namoyon qilish tushuniladi.

KOMPETENSIYA – 1) lotincha competence degan so‘zdan olingan bo‘lib, “loyiq”, “mos kelmoq” ma‘nosini beradi; 2) mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarni kundalik faoliyotga qo‘llay olish qobiliyati va layoqati.

KOMPYUTER (ing. computer – hisoblayman) – oldindan berilgan dastur bo‘yicha ishlaydigan avtomatik qurilma.

KONSTRUKSIYA (lotincha constructs – tuzilish, qurilish) – mashina, inshoot yoki uzal va detallarning tuzilish sxemasi, shuningdek, mashina, inshoot, uzallar hamda ularning detallari. Konstruksiya kerakli qism va elementlarining shakli hamda o‘zaro joylashishi, ularni birlashtirish usullari, o‘zaro ta‘siri va kandy materiallardan yasalishi hisobga olinadi.

KO‘NIKMA – 1) shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati; 2) o‘zlashtirib olingan bilimlar asosida amalga oshiriladigan va amaliy jihatdan maqsadga muvofiq harakatlarga tayyorlikda ifodalangan ongli faoliyat. Ko‘nikma mahoratning asosini tashkil etadi.

LABORATORIYA (lot. laboratorium – ishlamoq) – ilmiy tekshirishlar, tajribalar, amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish uchun kerakli apparat va asboblardan jihozlangan ilmiy muassasa yoki uning bo‘limi va ular joylashgan bino.

LAVOZIM (arabcha kerakli, zaruriy narsalar) – muassasa, idora, tashkilot va shu kabilarda biror rasmiy xizmatni bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan o‘rin, vazifa o‘rni; amal, mansab.

LOYIHA – 1) biror bino, inshootni barpo etish maqsadida yoki muayyan bir buyumni yaratishga doyr tayyorlangan hujjatlar (hisob-kitoblar, chizma, maketlar) majmui; 2) biror hujjatning oldindan tuzilgan matni; 3) reja, mo'ljal, g'oya.

MAHORAT (arab. “mohirlik”, “ustalik”, “epchillik”) – 1) biror ish, kasb uchun zarur yoki shu sohada orttirilgan ustalik, san'at, mohirlik; 2) bir ish yoki faoliyatni yuksak darajada, hech bir qiyinchiliksiz, o'ta mohirlik bilan bajarish.

MAHSULOT – iqtisodiy faoliyatning ashyolar va xizmatlarda mujassam etilgan natijasi.

MAKTAB – o'qituvchi rahbarligida yosh avlodga ma'lumot beriladigan va tarbiyaviy ishlar olib boriladigan o'quv-tarbiya muassasasi.

MALAKA – 1) muayyan kasb, ishni yaxshi o'zlashtirish natijasida orttirilgan mahorat; 2) muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli.

MASHINA (lotincha machina –qurol, qurilma) – bir turdagi harakat energiyasini ikkinchi turdagi harakat energiyasiga aylantirish, materiallar yoki axborotlarni o'zgartirish, aloqa o'rnatish, yuk va odamlarni tashish uchun mo'ljallangan mexanizm yoki mexanizmlar majmui.

MASHINASOZLIK – xalq xo'jaligining turli tarmoqlari uchun mashinalar va mashina asbob-uskunalari ishlab chiqaradigan og'ir sanoat sohalari majmui.

MASHINACHI – tikuv mashinasida kiyim-kechak tikuvchi usta, chevar.

MASHQ – biror faoliyatni puxta o'rganish, malaka hosil qilish uchun bajariladigan ish, tayyorgarlik mashg'uloti.

MAQSAD – inson amaliy faoliyatining avvaldan fikran o'ylangan natijasi. Maqsad insonlarga xos bo'lib, uni kelajakning loyihasi, deb ta'riflash mumkin. Ehtiyoj, manfaat, motiv individ yoki ijtimoiy guruh xulq-atvori, faoliyatining muhim tarkibiy qismlari bo'lsa, maqsad faoliyat yo'nalishini belgilovchi elementdir. Maqsadning shakllanishiga subyektning ehtiyoj va manfaatlari kuchli ta'sir o'tkazadi.

MASLAHAT (arabchadan umum manfaati; foyda) – 1) biror ishni qanday qilish yoki umuman nima qilish kerakligi haqida yo'l-yo'riq tarzidagi fikr, mulohaza; 2) tavsiya, taklif tarzidagi gap.

MATO – xalq badiiy hunarmandligida qadimdan qo'lda to'qib tayyorlangan to'qimachilik mahsuloti; gazlama.

MAYL – tirik organizmning biror ehtiyojini qondirishga intilishi. U qo'msash, noaniq ichki dard, sababsiz zerikish tuyg'ulari tarzida kechishi mumkin. Intilish, havas, tilak, xohish, ishtiyoq, hatto orzu ko'rinishlarida ham mujassamlashali. U bajo keltirilgan taqdirda kishiga mamnuniyat bahsh etadi.

MA'LUMOT – ta'lim-tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosilqilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui.

MEHNAT – insonning maqsadga muvofiq ijtimoiy foydali faoliyati; eng avvalo tabiat predmetlarini o‘zgartirib, ehtiyojga moslashtirishni bildiradi.

MEHNAT BIRJASI – ishsizlarni, ish joyini o‘zgartirishni istovchi shaxslarni ishga joylashtirish bilan shug‘ullanadigan maxsus davlat muassasasi. Mehnat bozorining tashkil etilgan va tartiblanib turadigan shakli.

MEHNAT BOZORI – ish kuchi oldi-sotdi qilinadigan bozor. Mehnat bozorining ishtirokchilari ishga yollovchilar, ishga yollanuvchilar va ular o‘rtasidagi turli vositachilar hisoblanadi. Turli vositachi firmalar, tashkilotlar va agentliklar mehnat bozorining infratuzilmasini tashkil etadi.

MEHNAT PREDMETI – kishi mehnati sarflanadigan obyekt.

MEHNAT QOBILIYATI – xodimning soglig‘idagi holatidan kelib chiqadigan mehnat faoliyatiga bo‘lgan qobiliyati.

MEHNAT QUOLLARI – odamlar moddiy boyliklar yaratishda, mehnat predmetlariga, ob‘ektlariga ta’sir ko‘rsatishda qo‘llaydigan asbob-uskunalar.

MEHNAT RESURSLARI – mamlakat aholisining mehnatga layoqatli yoshdagi qismi, iqtisodiy resurslarning tarkibiy unsuri.

MEHNAT TARBIYASI – tarbiyaning muhim turi, shaxsni shakllantirishning zarur shartlaridan biri bo‘lgan pedagogik jarayon.

MEHNAT TAQSIMOTI – mehnat turlarining bir-biridan ajralib mustaqil ahamiyat kasb etishi; mehnat turlarining ixtisoslashuvi.

MEHNAT VOSITALARI – ishlab chiqarishda mehnat predmetiga ta’sir ko‘rsatishda inson foydalanadigan vositalar.

METALLURGIYA (yun. metallurgeo – yerdan qazib chiqaraman) – rudalardan yoki tarkibida metall bo‘lgan moddalardan metallar ajratib olish va metall qotishmalarga tegishli xossalar “berish” haqidagi fan; sanoat tarmog‘i.

METOD (yunoncha “metodos” – yo‘l, bilish yoki tadqiqot yo‘li) – voqelikni amaliy va nazariy egallash, o‘zlashtirish, o‘rganish, bilish uchun yo‘l-yo‘riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli.

METODOLOGIYA – tadqiqotchining nazariy va amaliy faoliyatini tashkil etish, tiklash tamoyillari va usullari tizimi hamda bunday tizim haqidagi ta’limot.

MEXANIZM (yunoncha mechane – qurol, inshoot) – bir yoki bir necha jismning harakatini boshqa jismlarning ma’lum harakatiga aylantirib beradigan qurilma. Ko‘pchilik mashinalarning asosini tashkil etadi, ko‘pgina asboblari, apparatlar va texnika qurilmalarida qo‘llaniladi. Vazifasiga qarab, mexanizmlar harakatni uzatuvchi; ijrochi (ishbajaruvchi); boshqaruvchi, nazorat qiluvchi va rostlovchi; ta’minlovchi, saralovchi, tashuvchi; mahsulotlarni hisoblovchi, tortuvchi va joylashuvchi mexanizmlar bo‘ladi.

MOTIV (lotincha moveo – harakatlantiraman) – inson faoliyatida muayyan maqsadni bajarishga sabab bo‘luvchi omil, vaj. Motiv shaxsni harakatga

vafaoliyatga undovchi, ehtiyojning yuksak shakli sifatida paydo bo'luvchi ichkiturtki hisoblanadi. Ehtiyoj va instinkt, mayl va hissiyot, ideal va b. Motivlar jumlasiga kiradi.

MOTIVATSIYA – 1) xatti-harakat va faoliyat motivlarining majmuasi; 2) odamni faol faoliyatga undovchi sabablar majmui.

MOYILLIK – maylning anglashilgan darajasi. Moyillik shaxsni aniq faoliyat bilan shug'ullanishga qo'zg'atuvchi turtkidir. Moyillik negizida faoliyatga yo'naltirilgan barqaror ahtiyoj va unga taallukli ko'nikmalarni takomillashtirishga intilish yotadi.

MUHANDIS (arab) – texnikaning muayyan bir sohasiga ixtisoslashgan mutaxassis; texnika sohalaridan biri bo'yicha kasb egasi.

MULOQOT – 1) kishilarning o'zaro aloqasi, bir-birlariga ta'sir ko'rsatishlari kishilaro'rtasidagi aloqani tiklash va rivojlantirish jarayoni; 2) kishilarning bir-birlariga ta'sir ko'rsatishi asosida ular o'rtasida ro'y beradigan axborot almashinuvi.

NANOTEXNOLOGIYA – 1) nanoo'lchamli strukturalarni yaratish usullari; 2) fundamental va amaliy fan va texnologiya sohasi bo'lib, u nazariy asoslash, tadqiqot, tahlil va sintezning amaliy usullari, shuningdek, ma'lum atom tuzilishiga ega bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish va ulardan foydalanish usullari bilan shug'ullanadi.

OBJEKT (lot. objectum – narsa) – subyektga qarama-qarshi bo'lganhamda insonning amaliy va bilish faoliyati qaratilgan obyektiv reallik.

O'QITISH – 1) shaxsning rivojlanishi, uning ta'limi va tarbiyasi amalga oshishi bo'yicha o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi maqsadli faoliyati. O'qitishning asosiy tarkibiy qismlari – o'qish va o'rgatish. O'qitishning asosiy didaktik funksiyasi ularning birligida ifoda etiladi.

OZIQ-OVQAT, ozuqa, taom, yemak – organizm hayotini quvvatlash uchun iste'mol qilinadigan modda.

OZIQ-OVQAT SANOATI – xalq xo'jaligining oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaradigan sohasi. Tarmoq tarkibida go'sht-sut, yog'-moy, baliq mahsulotlari, un-yorma, makaron, meva-sabzavot konservalari, sut-yog', shakar, choy qadoqlash, qandolatchilik, non, uzum va shampän vinolari, spirt, aroq, tamaki, pivo, chanqovbosar ichimliklar, sovun va b. sanoat korxonalari bor.

PARRANDACHILIK – uy parrandalarini yetishtirish; chorvachilikning bir tarmog'i.

PAZANDACHILIK – xom o'simlik va hayvon mahsulotlaridan xilma-xil taomlar va oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlash mahorati.

PROFESSIOGRAFIYA – mehnat subyektining faoliyat tarkiblari (uning mazmuni, vositalari, sharoitlari, tashkilot) bilan o'zaro munosabati va bog'liqligini o'rganish va aniqlashga qaratilgan kompleks metod.

PROFESSIOGRAMMA – kasbning turli obyektiv xarakteristikalarining tasnifi.

PSIXODIAGNOSTIKA – shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini aniqlovchi va o‘lchashni ishlab chiquvchi psixologiya usuli.

QISHLOQ XO‘JALIGI – moddiy ishlab chiqarishning asosiy tarmoqlaridan biri. Dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari olish uchun ekinlar ekish va chorva mollarini ko‘paytirish bilan shug‘ullanadi, aholini oziq-ovqat mahsulotlari va xalq xo‘jaligining bir qancha tarmoqlarini xom ashyo bilan ta‘minlaydi.

QOBILIYAT – shaxsning ma‘lum faoliyatidagi muvaffaqiyatlarini va osonlik bilan biror faoliyatni egallay olishini ta‘minlaydigan individual psixologik xususiyat.

QURILISH – moddiy ishlab chiqarishning yirik sohalaridan biri; turli maqsadlardagi bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish; ishni yuritish uchun foydalaniladigan hudud bilan birga qurilayotgan bino (inshoot); keng ma‘noda yaratuvchilik jarayoni.

REJA – 1) biror ishni yoki muayyan dasturni tartibi bilan o‘z vaqtida bajarish uchun oldindan belgilab olingan aniq yoki taxminiy mo‘ljal; 2) muayyan narsani ko‘rib chiqish, yondashish usuli, nuqtai nazar, belgili tartib.

ROBOT (chexcha robota – erksiz mehnat, rob – qul) – insonning hayoti uchun xavfli sharoitlar (kuchli radiatsiya, yuqori temperatura va b.)da, odam borishi qiyin bo‘lgan obyektlarda (suv ostida, kosmosda) kishi funksiyasini qisman yoki to‘la bajaruvchi mashina.

SANOAT – xalq xo‘jaligining jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlari taraqqiyoti darajasiga ta‘sir ko‘rsatadigan yetakchi tarmog‘i; sanoatning o‘zi uchun hamda xalq xo‘jaligining boshqa sohalari uchun mehnat qurollari va b. mahsulotlar ishlab chiqarish, shuningdek, xom ashyo, yoqilg‘i qazib olish, energiya ishlab chiqarish, yog‘och tayyorlash, sanoatda yoki q.x.da olingan mahsulotlarga ishlov berish va ularni qayta ishlash bilan band korxonalar (fabrikalar, zavodlar, elektrostantsiyalar, shaxtalar, konlar va b.) majmui.

SERVIS (ing. service – xizmat) – jismoniy va yuridik shaxslarga, umuman keng aholiga xizmat ko‘rsatish; ishlab chiqarish texnika maqsadlaridagi mahsulotlarni, madaniy, maishiy, xo‘jalik va b. sanoat mahsulotlarini sotish hamda ularni ishlatish bilan bog‘liq bo‘lgan xizmat ko‘rsatish sohalari. Servis texnika vositalari, maishiy ro‘zg‘or apparaturasi, kommunal texnikani sozlash va ta‘mirlashga nisbatan ham qo‘llanadi.

SHAXS (arabcha – kishi, kimsa, zot) – jamiyatdagi alohida bir kishi, odam.

SINF, o‘quv sinfi – 1) o‘quv yili davomida yagona o‘quv dasturi bo‘yicha shug‘ullanuvchi o‘quvchilar jamoasi; 2) badiiy o‘quv yurtlarida o‘quvchilarning biror o‘quv predmeti bo‘yicha ixtisoslashtirilgan guruhi; 3) maktabda o‘quvchilar shug‘ullanadigan xona.

SINFDAN TASHQARI ISHLAR –maktab o‘quv-tarbiyaviy ishining tarkibiy qismi, o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini tashkil etish shakllaridan biri. Sinfdan tashqari ishlar o‘quvchilarni barkamol shaxs sifatida shakllantirish va ularni hayotga tayyorlamda keng imkoniyatlar yaratadi. Sinfdan tashqari ishlarga o‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan va ularga tarbiya hamda bilim berishga qaratilgan turli xil mashg‘ulotlar tizimi kiradi.

SISTEMA (yunoncha systema – yaxlit, qismlardan tarkib topgan, birikkan) – 1) ish-harakat, mehnat, texnik jarayonlar va shu kabilardagi qismlarning o‘zaro bog‘liqligidagi tartibot, tizim; 2) narsa, hodisa, tushuncha va b.ning tasnifi; 3) muayyan tarzda o‘zaro bog‘langan va bir qadar yaxlitlikni tashkil etadigan elementlar majmui.

SO‘ROV – sotsiologik tadqiqotlarda qo‘llaniladigan dastlabki axborot yig‘ish uslubi. So‘rov yordamida o‘rganilayotgan obyekt to‘g‘risida empirik ma’lumot to‘planadi. So‘rov jamoatchilik fikrini, ya’ni fuqarolar, ijtimoiy guruhlarining jamiyat muammolariga munosabatini o‘rganishga qaratiladi hamda ijtimoiy axborot to‘plash, aholining iste’mol talabini o‘rganish va shu kabi maqsadlarni nazarda tutadi. Ijtimoiy axborot ijtimoiy ahamiyatga molik voqealar to‘g‘risidagi bilimlardir. So‘rov jarayonida respondentlar (sotsiologik tadqiqotda axborot olish manbai sifatida ishtirok etuvchi shaxslar) so‘rovnomadagi savollarga yozma javob beradilar. So‘rov sotsiologik axborotning ishonchliligini, ya’ni tadqiqotlarda olingan ma’lumotlarning haqqoniyligini ta’minlashi zarur.

TABAQALASHTIRILGAN TA’LIM – o‘quvchilarning shaxsiy layoqatlari, qiziqishlari, qobiliyatlarini aniqlash asosida ularga turli o‘zlashtirish darajalari bo‘yicha, biroq o‘quv dasturi talablaridan kam bo‘lmagan hajmdagi materiallarni berishga yo‘naltiriladigan ta’lim.

TAFAKKUR – inson aqliy faoliyatining yuksak shakli; obyektiv voqelikning ongda aks etish jarayoni. Tafakkur atrof muhitni, ijtimoiy hodisalarni, voqelikni bilish quroli, shuningdek, inson faoliyatini amalga oshirishning asosiy sharti sanaladi. U sezgi, idrok, tasavvurlarga qaraganda voqelikni to‘la va aniq aks ettiruvchi yuksak bilish jarayonidir. Tafakkur – inson miyasining alohida funksiyasi.

TAJIRIBA – voqelikni amaliy jihatdan hissiy-empirik bilish jarayoni. Tajriba keng ma’noda – uquv, malaka va bilimning birligidan iborat.

TAQLID (arabcha – o‘xshatish, ko‘chirish, nusxa olish) – ijtimoiy, ma’naviy hayotda, turmush tarzida, kasb-hunarda, badiiy ijodda o‘zgalarga o‘xshashga intilish, ergashish.

TAQQOSLASH – narsa va hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlik va tafovutlarni aniqlashga asoslangan fikrlash operatsiyasi.

TARAQQIYOT – rivojlanishning oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga yo‘nalgan shakli, uning yuksalishi. Adabiyotlarda taraqqiyotni ko‘pincha rivojlanish bilan aynanlashtirib qo‘yishadi, aslida u rivojlanishning bir yo‘nalishidir.

TASAVVUR – narsa va hodisalar, holatlarni, voqelik obrazlarini eslash, shuningdek, ijodiy xayol surish jarayoni. Xotira shaklida ham namoyon bo‘ladi.

TASNIF (arabcha – saralash, tartibga solish), klassifikatsiya – ilm yoki inson faoliyatining biror soqasiga oid o‘zaro bir xil tushunchalar tizimi. Tasnif har bir fanga xos muhim mantiqiy amal bo‘lib, uning vositasida shu fan doirasida to‘plangan bilimlar qat’iy tartibga solinadi.

TA’MIRLASH – biror narsani asli holiga o‘xshatib yoki asliga yaqinlashtirib tiklash, bunyod etish.

TEMIRCHILIK – 1) temirni bolg‘alab turli buyumlar (ketmon, o‘roq, tesha va b.) yasash kasbi; 2) og‘ir mashinasozlikning metallni bolg‘alab, shtamplab, presslab turli buyumlar ishlab chiqariladigan tarmog‘i.

TEST – (inglizcha test – sinash, tekshirish) (psixologiyada) – tekshirishda qo‘llaniladigan qisqa standart mashqlar.

TEXNIKA (grekcha techne – san‘at, mahorat) – moddiy boylik olish hamda odamlar va jamiyatning ehtiyojlarini qondirish maqsadida insonatrofdagi tabiatga ta’sir qilishiga imkon beradigan vositalar va ko‘nikmalar majmui. Asosiy vazifasi – inson mehnatini yengillashtirish va mehnat unumdorligini oshirish. U tabiat resurslaridan samarali foydalanishga, Yer qa’rini, Dunyo okeanini, kosmik fazoni o‘zlashtirishga imkon beradi. “Texnika” atamasi biror ish (hunar) yoki san’atda qo‘llaniladigan usullarni ham bildiradi (masalan, to‘quvchilik texnikasi, etikdo‘zlik texnikasi, shaxmat o‘yini texnikasi va b.).

TEXNOLOGIK XARITA – 1) ayrim turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish bilan bog‘liq texnologik ishlar majmui; 2) ishlab chiqarish resurslariga bo‘lgan ehtiyojlar, ulardan foydalanish va boshqa ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari, shuningdek, belgilangan ishlab chiqarish dasturini bajarish bo‘yicha tashkiliy-iqtisodiy tadbirlar aks etgan normativ reja hujjati. Texnologik xarita jadval shaklida bo‘lib, unda ketma-ketlikda (odatda xronologik tartibda) barcha turdagi ishlar (qabul qilingan texnologiyaga muvofiq), asosiy agrotexnik tadbirlar, mashina, mexanizm va agregatlar tarkibi, urug‘lik materiallar sarfi normalari, bajariladigan ishlar hajmi, baholari va b. ko‘rsatiladi, shuningdek, mahsulot tannarxini hisoblashda qishloq xo‘jaligida qabul qilingan uslubiyat bo‘yicha xarajatlar turlari aks ettiriladi.

TEXNOLOGIYA (grekcha “techne” – san‘at, mahorat, “logos” – fan, ta’limot) – 1) subyekt tomonidan obyektga ko‘rsatilgan ta’sir natijasida obyektga sifat o‘zgarishiga olib keluvchi jarayon; 2) sanoat, qurilish, transport, qishloq xo‘jaligi va b. sohalarda mahsulotlar olish, ularga ishlov berish va ularni qayta ishlash usullari tartibga solingan tizim.

TEXNOPARK, texnologik park – fan, ta’lim va ishlab chiqarishni ilmiy tashkilotlar, loyiha-konstruktorlik byurolari, o’quv yurtlari, ishlab chiqarish korxonalari birlashmasi ko‘rinishida hududiy uyushtirish shakli.

TIKUV MASHINASI – kiyim-kechak tikish, buyumlarni bezash (choklar hosil qilib naqsh tushirish), ularni qavish va b. maqsadlarda ishlatiladigan mashina.

TIKUVCHILIK – kasb-hunar turi; kiyim-kechak, ko‘rpa-to‘shak va b. buyumlarni tikish kasbi.

TO‘QIMACHILIK SANOATI – turli xildagi o‘simlik tolalari, jun va sun‘iy sintetik tolalardan turli gazlamalar, ip va b. mahsulotlar ishlab chiqaruvchi yengil sanoat tarmog‘i.

TO‘QUVCHILIK – tabiiy (paxta, jun, ipak, zig‘ir, kanop va h.k.) va sun‘iy tolalardan gazlama va b. to‘qimachilik mahsulotlari olish jarayonlari majmui; hunarmandchilikning bir turi, kasb.

XALQ XO‘JALIGI – muayyan mamlakatning mehnat taqsimoti orqali o‘zaro bog‘langan ishlab chiqarish tarmoqlari majmui, butun mamlakat xo‘jaligi, iqtisodiyoti.

XO‘JALIK – kishilar tomonidan o‘z yashash sharoitlari va manbalarini yaratish, saqlash va yaxshilashda foydalaniladigan tabiiy va inson qo‘li bilan yaratilgan vositalar majmui.

XULOSA CHIQARISH – tafakkurning mantiqiy shakllaridan bo‘lib, birqancha hukmlar asosida ma’lum xulosa chiqariladi.

CHORVACHILIK – qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlaridan biri. Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish uchun chorva mollarini boqish va urchitish bilan shug‘ullanadi; aholini ish hayvonlari (ot, ho‘kiz, tuya, bug‘u), oziq-ovqat mahsulotlari (sut, qatiq, go‘sht, yog‘, tuxum va b.), yengil sanoatni xom ashyo (jun, teri, mo‘yna va h.k.), dehqonchilikni organik o‘g‘it bilan ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: O'zbekiston, 2021. – 464 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild. –T.: O'zbekiston,2019.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 104 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017.
5. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasi. “Xalq so'zi” gazetasi, 2020-yil 30-dekabr, 276-son.
6. Mirziyoyev Sh.M. O'qituvchi va murabbiylar – Yangi O'zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning o'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. “Xalq so'zi” gazetasi, 2020-yil 1-oktabr, 207-son.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: “O'zbekiston” nashriyoti, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni. – Toshkent, 2022-yil 28-yanvar, PF-60-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ishchi kasblar bo'yicha kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori. – Toshkent, 2021-yil 8-iyun, PQ-5140-son.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori. – Toshkent, 2021-yil 25-yanvar, PQ-4963-son.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Malakalarni baholash tizimini tubdan takomillashtirish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori. – Toshkent, 2020-yil 31-dekabr, PQ-4939-son.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni. – Toshkent, 2020-yil 6-noyabr, PF-6108-son.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori. – Toshkent, 2020-yil 6-noyabr, PQ-4884-son.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. – Toshkent, 2019-yil 29-aprel, PF-5712-son.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. – Toshkent, 2018-yil 5-sentabr, PF-5538-son.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. – Toshkent, 2018-yil 5-sentabr, PQ-3931-son.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limi tizimini isloh qilish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoyishi. – Toshkent, 2022-yil 3-fevral, F-22-son.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Zamonaviy maktab”larni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. – Toshkent, 2019-yil 27-noyabr, PQ-4537-son.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. – Toshkent, 2018-yil 14-avgust, PQ-3907-son.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. – Toshkent, 2019-yil 3-may, PQ-3906-son.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. – Toshkent, 2019-yil 6-sentabr, PF-5812-son.

17. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarori. – Toshkent, 2022-yil 17-yanvar, 25-son.

18. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 10-11-sinflari o‘quvchilarini kasb-hunarga tayyorlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. – Toshkent, 2021-yil 30-dekabr, 792-son.

19. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori. – Toshkent, 2020-yil 7-avgust, 466-son.

20. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Akademik litseylarga umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarini tanlab olish, o‘qishga qabul qilish, ularning o‘qishini ko‘chirish va o‘qishdan chetlatish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarori. – Toshkent, 2018-yil 23-mart, 212-son.

21. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori. – Toshkent, 2017-yil 15-mart, 140-son.

22. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2021-yil 17-dekabrdagi “Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 406-son buyrug‘i.

III. Maxsus adabiyotlar:

1. Anvarova D.M., Ergashev P.S. Kasbga yo‘naltirish va kasb tanlash asoslari.– T.: “Fan va texnologiya”, 2016.

2. Abduraxmonov F.R., Abduraxmonova Z.E. Kasb psixologiyasi. – T.: “Barkamol fayz media”, 2018.

3. Boltaboyev S.A. va boshqalar. Kasb tanlashga yo‘llash. Ma’ruzalar matni.– T.: Nizomiy nomli TDPU, 2000.

4. Bozorov U. Kasb ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishda umumpedagogik fanlarning ahamiyatini oshirish. Magistrlik dissertatsiyasi. – T.: TDPU, 2005.

5. Davlyatov K. Mehnat va kasb ta’limi tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasi.– T.: “O‘qituvchi”, 1992.

6. Geydal N.F. Kasbga yo‘naltirish xonalarini jihozlash. – T.: “O‘qituvchi”, 2001.

7. Hikmatlar guldastasi. - T., 1982.

8. Iskandarov A.S. Materiallarni kesib ishlash, kesuvchi asboblari va dastgohlar.– T.: “Fan va texnologiya”, 2004.

9. Jabborov I. O‘zbek xalqi etnografiyasi. – T.: O‘qituvchi, 1995.

10. Jalolov A. Kasb qanday tanlanadi. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2010.

11. Kim bo‘lsam ekan?– T.: “O‘qituvchi”, 1990.

12. Magzumov P.T. va boshqalar. O‘quvchilarni mehnatga va kasb tanlashga tayyorlash. – T.: “O‘qituvchi”, 1991.

13. Magzumov P.T. O‘quvchilarni ishchi kasbiga yo‘naltirish. – T.: “O‘qituvchi”, 2000.

14. Muslimov N.A., Sharipov Sh.S., Qodirov M. Texnik ijodkorlik va dizayn. – T.: TDPU, 2010.

15. Muslimov N.A., Sharipov Sh.S., Qo‘ysinov O.A. Mehnat ta’limi o‘qitish metodikasi, kasb tanlashga yo‘llash. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014.

16. Qo'ysinov O., Nosirov A. Texnologiya fani bo'yicha O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim milliy o'quv dasturlari. – T.: Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, 2021.

17. Rajapov V.T., Teshaboyev Z.A., Ahmedov M.M. O'qitish jarayonida tashkiliy va innovatsion sinf-dars shakllaridan foydalanish (uslubiy tavsiyanoma). – Farg'ona, Classic, 2021.

18. Teshaboyev Z.A. "Mavzuning innovatsion ishlanmasi" ta'lim sifati va samaradorligining muhim omili. – Farg'ona, "Dono nashriyoti: MCHJ, 2022.

19. Tolipov O.Q., Sharipov Sh.S., Xolmatov P.Q. Darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llash texnologiyasi. –T.: O'zPFITI. 2004. 32 b.

20. Usmanov S. O'quvchilarni kasb tanlashga yo'naltirish tajribasidan. – T.: "O'qituvchi", 1987.

21. Sharipov Sh., Shonazarov R. Kasb tanlashga yo'llash fanidan metodik qo'llanma. Toshkent, 2007.

22. Shermuhamedov R.S., Yaxyaev S.S., Parmonov A.E. Chilangarlikdan amaliy ishlar. – T.: "Iqtisod-moliya", 2007.

23. Shodiyev N.S. O'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash ishlarini tashkil etish. – T.: "O'qituvchi", 1990.

24. Xayrullayev M. Forobiy. - T., 1999.

25. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Bosh tahrir hay'ati a'zolari: M.Aminov va b. – T.: "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" ilmiy nashriyoti, 2002.

26. O'zbek tilining izohli lug'ati. Tahrir hay'ati a'zolari: E.Begmatov va b. – T.: "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" ilmiy nashriyoti, 2002.

27. O'zDSt 3513:2021 Xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchilar kasblari klassifikatori (XALIKK-2020) davlat standarti. – T.: "Uzstandart" agentligi, 2021.

28. Профессиональная ориентация учащихся (А.Д.Сазонов ва б.). – М., 1988.

29. Система профессиональных мер как средство повышения осознанности выбора профессионального пути. <http://elibrary.ru/tem.asp?id=38498275>.

30. Организационно-педагогические проблемы повышения профессионального мастерства учителя. <http://elibrary.ru/tem.asp?id=32530297>

Ta'limning elektron resurslari

1. <https://lex.uz>
2. <http://www.ziynet.uz>
3. <http://www.tdpu.uz>
4. www.wikipedia.org
5. www.ziyouz.com

Z.A.TESHABOYEV

O‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH

O‘QUV QO‘LLANMA

Badiiy muharrir: H.Ismoilov

Texnik muharrir: R.Ahmedov

Sahifalovchi: N.Abdullayeva

Bosichga ruxsat etildi – 2022. Nashr bosma tabog‘i – 11,87

Shartli bosma tabog‘i – 5,93. Bichim: 84x108 1/16

Adadi: 100. Bahosi kelishilgan narxda

“Poligraf Super servis” MCHJ

150100, Farg‘ona viloyati, Farg‘ona shahri, Aviasozlar ko‘chasi, 2-uy